

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

S.X.Abdullayev, X.M.Akramov, I.T.Uluhanov, A.M.Matkarimov

TEXNOLOGIYA TA'LIMI METODIKASI

DARSLIK

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5112100 – Texnologik ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun tavsiya etilgan*



«USMON NOSIR MEDIA»

NAMANGAN – 2022

UO‘K: 37.035.3

KBK: 74.00

A – 12, A – 29, U – 33, M – 39

Abdullayev Safibullo Xabibullayevich,

Akramov Xusnitdin Muxitdinovich,

Uluhanov Ibrohim To‘xtaxo‘jaevich,

Matkarimov Abduraxim Muhammadjanovich

Texnologiya ta‘limi metodikasi / Darslik / S.X.Abdullayev, X.M.Akramov, I.T.Uluhanov, A.M.Matkarimov, Namangan: “Usmon Nosir media”, 2022. – 448 b.

ANNOTATSIYA

Mazkur darslik 5112100 – Texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabalari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining “Texnologiya” fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda fanning maqsad va vazifalari, metodologik asoslari, tarixiy taraqqiyoti, didaktik asoslari, ta‘lim metodlarining tasnifi, ilmiy tadqiqot metodlari, amaliy fanlar bilan integratsiyasi, fanni o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fanidan kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va pedagogik amaliyotga qo‘yiladigan metodik talablar kabi masalalar yoritilgan.

АННОТАЦИЯ

Данный учебник предназначен для студентов по направлению 5112100 – технологического образования и преподавателей предмета «Технология» в общем среднем образовании, которая включает в себя цели и задачи дисциплины, методические основы, историческое развитие, дидактические основы, классификация методов обучения, методы исследования, интеграция с прикладными науками, использование инновационных педагогических технологий в преподавании естественных наук, курсовая работа по методике обучения, выпускная квалификационная работа и методические требования к педагогической практике.

ANNOTATION

This textbook is intended for students of 5112100 – Technological education and teachers of "Technology" in secondary education, which includes the goals and objectives of the discipline, methodological bases, historical development, didactic bases, classification of teaching methods, research methods, integration with applied sciences, use of innovative pedagogical technologies in teaching science, course work on technology teaching methods, final qualifying work and methodological requirements for pedagogical practice.

Taqrizchilar:

Namangan viloyati halq ta‘limi hodimlarini qayta tayyorlash va ularning malarasini oshirish hududiy markazi direktori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

I.A.Raximov

Namangan davlat universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.

O‘M.Asqarova

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 19.07.2022 yildagi 233-sonli buyrug‘i asosida 233-0259 raqami bilan ro‘yxatga olingan nashr ruxsatnomasi asosida chop etildi.

ISBN: 978-9943-8705-0-5

© S.X.Abdullayev, X.M.Akramov, 2022

© I.T.Uluhanov, A.M.Matkarimov, 2022

© «Usmon Nosir media», 2022

KIRISH

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan bir qancha strategik masalalarga asosan ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularni intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qancha dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda barcha fan sohlarini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab berilgan davlat ta'lim standartlari asosida tog'ri ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur o'quv qo'llanma ham barcha berilgan talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining "Texnologik ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasi Texnologiya fani o'qituvchilari uchun qo'llanma sifatida tavsiya qilinadi.

O'quv qo'llanmada davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq Texnologiya faniga qo'yilgan talablar, ushbu fanning boshqa fanlar bilan aloqalari, shuningdek Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fanining malaka talablari, o'qitish shakllari, fanning tadqiqot metodlari, didaktik tamoyillari, didaktik tizimlari, texnologiyalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan hamda fanning laboratoriyalari va ustaxonlariga qo'yiladigan talablar va boshqalar bayon qilingan.

Ilmiy didaktik ma'lumotlar, kuzatishlar shundan dalolat beradiki, mazkur qo'llanma talaba yoshlarning idroki va tasavvuriga ta'sir ko'rsatib real borliqning ayrim jihatlarini to'liq anglash, ijodiy qobiliyatlarini mukammallashtirish, bilish faoliyatlarini rivojlantirish, iroda, his tuyg'ularini takomillashtirishni yo'lga qo'yishni, yoshlarni kasbiy, ijodiy bilim, ko'nikma va malakalarini chqurroq o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shuni inobatga olib, Texnologik ta'lim

yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar hamda umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida faoliyat olib borayotgan Texnologiya fani oʻqituvchilari uchun moʻljallangan “Texnologiya fanini oʻqitish metodikasi” deb nomlangan oʻquv qoʻllanmada fanni oʻqitish sohasi, maqsadi, vazifalari, didaktik tizimlari, oʻqitish metodlari tasnifi va ularning oʻziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari toʻgʻrisida ilmiy-metodik hamda didaktik masalalar yoritilgan.

Shuningdek qoʻllanmada oʻquv muassasasida boʻlishi lozim boʻlgan oʻquv koʻrsatmali metodlar, shakllari, texnologiyalarining muhimligi, texnologiya fani oʻquv-tarbiya jarayonlarini samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, koʻrgazmali qurollar, tarqatma materiallarni tayyorlash haqida ham maʼlumotlar bayon qilingan.

I-BOB. TEXNOLOGIYA TA'LIMI METODIKASI FANINING METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Texnologiya ta'limi metodikasi fani va uning vazifasi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi faninig maqsadi talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Texnologiya" fanini Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida tashkil etish va o'qitish, pedagogika, psixologiya va maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish yo'llarini bo'lajak texnologiya ta'lim o'qituvchilarini metodikaga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Texnologiya fanini oqitish metodikasi fanida talabalar o'qitish printsiplari va mazmuni, shakl va metodlari, texnologik ta'limi yo'nalishi bo'yicha dasturlar mazmuni, texnologiya ta'limi darslari va darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, o'quv va metodik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish, darslarni rejalashtirish, me'yoriy hujjatlarni yuritish, texnologiya ta'limi o'quv xonalarining jihozlanishi, pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifalari va mazmuni, kurs ishlarini bajarish, o'quv-moddiy texnik baza tahlili, respublika ta'lim markazi, tashxis markazi faoliyati bilan tanishadilar.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi faninig vazifalari quyidagilar:

- pedagogik-psixologik bilimlarni o'quvchilarda umummehnat va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tadbiq etish;
- talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi fanining maqsad va vazifalari, o'quv rejasida tutgan o'rni bilan tanishtirish;
- pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish;
- texnologiya ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatish;
- texnologiya ta'limida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar, texnologiya ta'limida o'qitish metodlari va shakllarini o'rgatish;

- texnologiya ta'limi darslarini tashkil qilishni, rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.

**“Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da
texnologiya ta’limi faniga oid g‘oyalarning aks ettirilishi**

Kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini o'z rivojida shaxsning madaniyatini shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashish, kasbiy va ta'lim dasturlarini bilib tanlash hamda keyin o'zlashtirish, jamiyat, davlat, oila oldidagi o'z mas'uliyatini anglab yetuvchi to'laqonli shaxsni tarbiyalash uchun huquqiy, tashkiliy, ruhiy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'min etishga qaratilganidir. Bu borada umumta'lim maktablari uchun tayyorlanadigan pedagoglarni va shu jumladan texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni tubdan o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi¹.

Ushbu zaruratni keltirib chiqargan ob'ektiv omillar quyidagilardir:

- O'zbekistonning haqiqiy iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi sharoitlarini shakllantirish;
- xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni davom ettirish; bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish va uni samarasini ko'tarish, respublika iqtisodiyotini xom ashyo ishlab chiqaruvchidan so'nggi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilg'or texnologiyalarni qayta ishlovchiga ixtisoslashtirish;
- texnologiya ta'limidagi iqtisodiyot tarmoqlarini informatsion va ilmiy texnologik resurslarni yaratish va ulardan aktiv foydalanish, yangilanuvchi manbalarni qo'llash asosida qayta tashkil etish;
- texnologiya ta'limi sohasidagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sura'tlarini ishlab chiqarish sohasida chuqur o'zgartirishlarga olib kelish maqsadida tezlashtirish;
- aqliy mehnat hissasini oshirish, buning natijasida shaxsning ta'lim saviyasiga uning professional moslashuvi va safarbarligiga qo'yiladigan talablarning oshishi;

- har bir mehnatni kasb egallash ta'lim jarayoni bilan yakunlash shaxsdan fuqaroviy kamolot, ijtimoiy faollik va mas'uliyatni talab etuvchilikni keng demokratlashtirish.

Kasbiy tayorgarlikda milliy o'zlikni anglashni oshirish, vatanparvarlikni shakllantirishni, o'z vatani uchun g'ururlanish tuyg'usining, baynalminallik, o'z xalqining boshqa millat va elatlarning milliy-madaniy va tarixiy an'analariga hurmat tuyg'ularini shakllantirishni talab etuvchi respublikaning xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika sohasining tarmoqlaridan biri sifatida

“Texnologiya ta'limi metodikasi” pedagogika faninig bir tarmogi sifatida o'z ob'yektivlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning barcha jihatlarini:

- o'quv materialining mazmuni;
- o'qitish metodlari;
- o'quvchilarning bilish faoliyati;
- o'qitish natijalari;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanish va boshqalar o'rganish ob'yektivi hisoblanadi.

Bu jarayonning barcha tamoni o'rganish o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Pedagogika fanining tarmog'i sifatida texnologiya ta'limi metodikasi oldiga quyidagi asosiy tadqiqot vazifalarni qo'yadi

1. Texnologiya ta'limi vazifalarini asoslash, ularning tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatini ochib berish.

2. O'quv materialini mazmunini asoslash.

3. Ta'lim jarayonini tashkil etish.

4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar mazmuni va metodikasini asoslash.

Yuqoridagi ko'rsatilgan barcha vazifalarni hal qilishda texnologiya fanini o'qitish metodikasi quyidagi asosiy ilmiy tadqiqot metodlariga asoslanadi

1. Kuzatish.
2. Eksperiment.
3. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish.
4. Nazariy tadqiqotlar.

Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni o'sish hamda hayotga tayyorlash qonuniyatlarini o'rgatadi va o'rganadi. Tarbiya jarayonida shunchalik muhim va ko'p qirraligidan pedagogika fanidan ayrim fanlar ajralib chiqdi.

Fizika o'qitish metodikasi,

Matematika o'qitish metodikasi,

Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi kabi fanlardir.

Texnologiya metodikasi ham o'z navbatida ayrim qismlardan iboratdir.

Hozirgi davrda boshlang'ish ta'lim metodikasi 1-4 sinf, 5-9 sinflarda o'quv ustaxonasida qo'llaniladigan metodika. Qishloq xo'jalik yeridagi tajriba-amaliy hamda mayishiy xizmat ko'rsatish metodikalari mavjud.

Maktab o'quv ustaxonalarida texnologiya ta'limi metodikasi o'z oldiga o'quvchilarni texnika asoslari bilan tanishtirish, o'rgatish orqali ularda bilim va malakalarni texnologik tizim asosida oshirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi.

Bizga ma'lumki, bilim va ko'nikma bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Maktabni bitirib chiquvchi yosh avlod texnik bilimlar malaka va ko'nikmalar bilan qurollangan bo'lishi kerak. O'quvchilarda mehnat qilishga muhabbat, mehnat qilish birinchi ixtiyoriy ekanligini tarbiyalash texnologiya ta'limi darslarida amalga oshiriladi.

Kasbiy tayyorgarlikni ajralmas qismi o'quv ustaxonasida olib boriladigan texnologiya ta'lim darslaridir. Texnologiya ta'limi darslaridan o'quvchilar tikuvchilik, gazlamalarga ishlov berish hamda tikuv mashinalarida ishlov berish buyicha ma'lumotga ega bo'ladilar. Ishlov beruvchi asboblardan tanishadilar va shu asboblardan ish operatsiyalarini bajaradilar.

Texnika taraqqiyoti elektrlashtirish, mexanizatsiyalash va ish jarayonini avtomatlashtirish yuzasidan bilimga ega bo‘ladilar. Sanoatning rivojlanishi va xalq xo‘jaligining barcha sohalaridagi texnika taraqqiyoti malakali ishchi kadrlar tayyorlash hamda ularning professional mahoratlarining oshirishiga borgan sari yuqori talablar qo‘yilmoqda. O‘rganilayotgan kasblarni chuqur va puxta egallab olishlari ishlab chiqarish malakasini yanada mukammallashtirilishi va mehnat unumdorligini oshirishlari uchun ular hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini bilishlari shart. Bularni kim o‘rgatadi? Xalq maorifi ishiga doimo g‘amxo‘rlik qilib, uning taraqqiyotiga keng yo‘l ochib bermoqda. Kishilar ko‘p zamonlardan beri mehnat tarbiyasi va ta‘limini unumli mehnat bilan birlashtirish haqidagi g‘oyalarni bayon etib kelganlar.

Ingliz sotsial utopisti Toas Mar birinchi bo‘lib bu fikrni ilgari surgan edi. XV asr Italian sotsial utopisti Foma Kompanella bolalarga mehnat asosida ta‘lim berishni juda keng suratda tasvirlab bergan edi. Kompanella Quyosh shahrida (gorod Solntse) hamma bolalarga bir xilda malumot berilgan. Bolalar to‘rtta fanni o‘rganishi bilan bir qator keng tarqalgan hunar kasb va sanoat bilan tanishadilar. Mashhur frantsuz mutafakkiri Jan-Jak Russo mehnat tarbiyasi go‘yasini mufassal ishlab chiqdi.

Keyingi paytlarda pedagogik adabiyotda “Zamanoviy pedagogik texnologiya”, “Ilg‘or pedagogik texnologiya”, “Yangi pedagogik texnologiya” degan tushunchalar ko‘p ishlatilmoqda.

Har bir muallif bu tushunchaga turlicha mazmun beradi. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonga texnologik g‘oyaning kirib kelishidir. Texnologiya har bir jarayonni aniq rejalashni va shu reja asosida ishlab natijaga erishishni talab qiladi. Pedagogik texnologik ta‘lim va tarbiya jarayonini aniq rejalashtirishni, o‘tishni va kafolatlangan oxirgi natijaga erishishni talab etadi. Pedagogik texnologiya ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning rivojlanishini talab etadi, fikrlashga o‘rgatishni, mustaqil o‘qishga o‘rgatishni og‘zaki va yozma nutqtni rivojlantirishni, bilim olishda faollik ko‘rsatishni talab etadi.

Pedagogika tarixida quyidagi ta'lim texnologiyalari mavjud bo'ldi

1. Sinf dars tizimi tipida oqitish bu XIIV asrda Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarini yozib sinf dars tizimini asosladi. Ushbu asarida olim ko'rgazmali o'qitishni tashkil etdi, o'sha davrdan shu kungacha tushuntirish, izohlash asosida o'qitib kelinmoqda.

2. Pedagogik texnologiya asosida o'qitish bu izlanishni, fikrlashni, tushinishni va amalda qo'llashni talab etadi.

Pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagi talablarni bajarish kerak.

1. Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish bilan birga o'qishga o'rgatish zarur.

2. O'quvchilarning bilimlarni egallashini bevosita ta'lim jarayoniga ko'chirish.

3. Ta'lim jarayonida mazkur darsga mo'ljallangan to'liq o'zlashtirishga erishish.

4. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni to'liq faollashtirish.

5. Ta'limni shunday uyushtirish zarurki dars oxirida rejalashtirilgan maqsadga erishish ta'minlansin.

6. Ta'limda interaktiv metodlardan foydalanishni ta'minlash.

7. Ta'limni rejalashtirish va o'tkazishda moslanuvchan qayta aloqani ta'minlash.

O'rta Osiyoda mehnat tarbiyasining tarkib topishi. Buyuk mutafakkirlarning mehnat tarbiyasiga oid fikrlari

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri "Aql va boylik" ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata "Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi", degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga "Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor", - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan.

Daryo suvini bahor toshirar,

Inson qadrini mehnat oshirar.

Oltin o'tda bilinar,

Odam mehnatda.

Mehnatdan do'st ortar,

G'iybatdan dushman.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar olimlar, tabirlar va boshqalar haqida so‘zlab, ularning jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta’riflaydi.

Masalan, alloma dehqonlar haqida:

Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi). Deb dehqonlar mehnatini ulug‘lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham “juda zarur kishilardir temirchi, tikuvchi, etikdo‘z, suvchi, egarchi, toshchi, o‘qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko‘zim uzayib ketdi. Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko‘p ajoyib narsalarni ishlaydilar”, - deb o‘zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo‘lish shartlari xususida o‘z tavsiyalarini bayon qiladi.

Dehqonlarga nisbatan:

*(O‘zing bular bilan aralashgin, qo‘shilgin,
Tilda yaxshi so‘zla, yuzingni ochiq tut).*

Hunarmandlarga nisbatan:

*(Bular ham senga kerakli kishilardir,
Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir).*

Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug‘lab:

(Aralashgin, qo‘shilgin, yedir ham ichir,

To‘g‘rilik ichra tirikchilik kechir.

Nima so‘rsa bergil, kerak bo‘lsa ol

Chindan ko‘rdim ushbu odamlar

Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar).

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asrning yirik mutafakkiri **Alisher Navoiy**ning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari "Hayratul abror", "Farhod va Shirin", "Mahbub-ul qulub" asarlari ham mavjud.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U "Hayratul abror"ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyjanobroq ekanligini "Hotam Toyi" hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga "Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko'rgil", - deydi. Shunda chol kulib: "Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin", - deb javob qiladi.

Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini "Mehmonnoma" deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Navoiy "Mahbub-ul qulub" asarida esa turli ijtimoiy guruhlarining hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi.

Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, "Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakat, elga ham qut yetkur, ham barakot",-deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland b'lajagini uqtiradi⁴.

Pedagog shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, - deb ta'kidlagan ekan, yoshlar ma'naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She'rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, "O'qi", "Kitob", "Qalam" kabi she'rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo'lmasligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

U yoshlarga kelajakda o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanining tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari

Mehnat ta'limi fanining fan sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablariga kirib kelishi sobiq ittifoq yillariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda mehnat ta'limi fani ishlab chiqarish mehnati bilan uyg'unlashtirildi. Bir guruh o'qituvchilar va metodistlar maktabda o'qitiladigan fanlarni hayot bilan bog'lash uchun maktabda mehnat ta'limi fanining mustaqil fan sifatida kiritilishi zarurligi taklifini beradi. Ikkinchi guruh pedagoglar birinchi guruh fikrlarini inkor qilib, maktab o'quv rejasidan o'rin olgan boshqa fanlarni o'qitish orqali ham mehnatga o'rgatish mumkinligini

ma'qullaydi. 1920-yildan boshlab mehnat ta'limi maktab o'quv rejasida fan sifatida emas, balki kompleks tizim, keyinchalik loyiha tizimi asosida o'qitila boshlandi. 1932-yilda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va rejimi to'g'risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini predmetli o'qitish ishlab chiqiladi.

O'quv rejasiga boshqa o'quv fanlari bilan bir qatorda mehnat ta'limi ham mustaqil predmet bo'lib kirdi. Bu davrda mehnat ta'limi o'qituvchisi mutaxassislari ta'minlanmaganligi, moddiy baza yaratilmaganligi sababli 1937-yilda maktablarda mustaqil o'quv fani sifatidagi mehnat ta'limi tugatildi. 1952-yilda mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori qaratildi va maktabda politexnik ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirish zarurligi ko'rsatildi. 1954-yilda mehnat ta'limini o'rta maktab o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi. Shu yillardan boshlab mehnat ta'limi fanida o'quvchilarni kasbiy tayyorlash yo'lga qo'yildi va 200 turdagi kasblarga tayyorlandi. Ma'lumki, bu davrda ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. 1984-yilda mehnat ta'limiga ajratilgan umumiy soat ikki barobarga oshdi, o'quvchilar unumli mehnatga va shu bilan birgalikda ishlab chiqarish mehnatiga o'rgatildi. Bunda 8-9-sinflarda profilli o'qitish boshlandi va "Ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo'llash" fani kiritildi⁵.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, 1997-yilda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi qonun" asosida mehnat ta'limi fan dasturi mazmuni ham barcha umumta'lim fanlari kabi milliy lashtirildi. Dastur mazmuniga o'zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari, o'zbek milliy taomlarini tayyorlash texnologiyasi, milliy kiyimlar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi mavzulari kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli Qarori bilan tasdiqlangan mehnat ta'limi fanining davlat ta'limi standartiga asosan 5 ta yo'nalishlar bo'yicha milliy dastur asoslangan ta'lim-tarbiya ishlari olib borildi.

2010-yilda davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturlari mehnat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'zaro integratsiyalashtirilib, 5 ta yo'nalish 3 taga keltirildi,

ya'ni: "Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi" va "Pazandachilik asoslari" yo'nalishlari mazmunan umumlashtirilib, "Servis xizmati" yo'nalishi; "Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi" va "Metalga ishlov berish texnologiyasi" yo'nalishlari umumlashtirilib, "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi mazmuni ishlab chiqildi. "Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishi zamonaviy talablar darajasida modernizatsiya qilinib, uning mazmuni hamda ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo'llashga oid bilimlar bilan to'ldirildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida mehnat ta'limi o'quv faniga 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7-sinflarda 2 soatdan va 8-9-sinflarda 1 soatdan vaqt yuklamasi ajratilgan. Hammasi bo'lib bir yilga 407 soat o'quv yuklamasi bajarilishi belgilangan. 8-9 sinflarda "Xalq hunarmandchiligi", "Ishlab chiqarish asoslari" bo'limlarida o'quvchilarga xalq hunarmandchiligini zamonaviy dizayn ko'rinishida mahsulot tayyorlash va ularni bozor munosabatlariga o'rgatish kiritildi .

Mehnat ta'limi fanining tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinganda turli siyosiy davrlarda fanning mazmuni o'zgarib borganligini kuzatish mumkin. Jahondagi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi o'rganilganda mehnat ta'limiga katta e'tibor qaratilganligi va o'quvchilar maktab yoshidan mustaqil ijodiy ishlarni bajarishga o'rgatilayotganligini ko'rish mumkin. Shu kungacha mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarga oddiy mehnat usullari o'rgatib kelinganligi va oddiy qo'l asboblaridan foydalanib mahsulot tayyorlanishi sababli fanning nomi ham "Mehnat ta'limi" deb yuritilishi mos bo'lgan. Har qanday mahsulot tayyorlash zamonaviy jihozlardan foydalanish bilan birga ma'lum bir ketma-ketlikdagi texnologik jarayonlardan o'tadi, shuning uchun mehnat ta'limi fanini hozirgi zamon talabiga yetkazish, nufuzini ko'tarish maqsadiga, avvalo, fanning nomini o'zgartirish, qolaversa, mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish orqali erishiladi.

Fanning rivojlanish istiqbollari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi hamda 2017 yil 6

apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari o‘qitish tizimini yangi bosqichga ko‘tarishga imkon yaratadi.

Umumta’lim tizimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning ijtimoiy soha rivojiga doir tegishli yo‘nalishida ta’lim bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarni kasb-hunarni to‘g‘ri tanlashga yo‘naltirish maqsadida “Mehnat ta’limi” fani ham “Texnologiya” fani deb o‘zgartirildi va bugungi kun talabidan kelib chiqib, ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarga asoslangan holda qayta ishlandi. “Mehnat ta’limi” fanining “Texnologiya” fani deb o‘zgartirilishi ushbu fan sohasini yanada boyitish, uni texnologiyalashtirish, ya’ni fanga innovatsion texnologiyalarni olib kirish, innovatsion faoliyatni yaratish, mahsuldorlikni oshirish kabi jadal suratlarni ro‘yobga chiqarish, shu bilan birga fanni takomillashgangan qirralarini ochish kabi bir qancha vazifalardan iboratdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnologiya ta’limini o‘qitish metodikasi fanining ob’yekti va vazifalari haqida tushuncha bering?
2. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fani pedagogika fanining tarmog‘i sifatida o‘z oldiga qaysi ilmiy tadqiqot metodlarini qo‘yadi?
3. Pedagogika fanida qanday fanlar turkumlari ajralib chiqqan?
4. Pedagogik texnologiya asosida o‘qitish deganda nimani tushunasiz?
5. O‘rata Osiyo buyuk mutafakkir olimlarining mehnat tarbiyasiga oid qarashlaridan misollar keltiring.
6. Texnologiya ta’limi taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari haqida nimalarni bilasiz?

1.2. Maktab o‘quv rejasida “Texnologiya” fanining qo‘yilishi, uning tarixiy taraqqiyoti.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda o'quvchilarni o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Itimoiy ishlab chiqarishni eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzimni xususiyatlari.
2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurt oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari.
3. O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlar va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim mazmuni, o'quv rejasi, dasturi va darsliklarida ifodalangan.

O'quv reja. O'qitiladigan fan, uning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda O'quv rejasi tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdagi o'quv yurtlari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir o'quv yurti o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, mamlakatdagi tayanch oliy o'quv yurtlari uchun o'ziga xos o'quv rejasiga ega bo'lishga ruxsat etilgan. O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv yurtlarining o'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda o'quv yurti o'quvchisi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan.

O'quv rejasi - barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv

fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasida o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlari ko'rsatilgan bo'ladi. O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi.

1. O'quv rejasi o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad - ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishga o'rgatish.

2. Maktablarning birligi o'z qoidalariga asoslanadi. (ya'ni: boshlang'ich maktab -1-4 sinflar, to'liqsiz maktab-5-9 sinflar, umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-11 sinflarining o'zaro bog'liqligi). To'liqsiz va o'rta maktablarda o'quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.

O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfda o'qitilishi, ajratilgan soati, o'quvchilarning yosh va bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og'ir-yengilligi, didaktik-ahamiyati ham e'tiborga olinadi.

O'quv rejasiga kiritilgan fanlar, birinchi navbatda, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir. Unda ta'limning ilmiyligi g'oyaviylik hamda O'zbekistonning kelajagiga munosib barkamol insonning tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san'at va jismoniy tarbiya, sog'lom avlodning ma'naviy qiyofasi asosiy o'rinni egallaydi. **Tabiiy fanlar** - tabiiy geografiya, biologiya, fizika, astronomiya, ximiya, matemateka va informatika markaziy o'rinni egallaydi.

Ijtimoiy fanlar - tarix, til haqidagi ilmiy bilimlar - ona tili, ingliz tili, rus tili va boshqa chet el tillari, badiiy va san'at asoslari- adabiyot, tasviriy san'at, musiqa va ashula; jismoniy tarbiya asoslari bilan bir qatorda hamma sinflarda texnologiya ta'limini o'qitish uchun soatlar ajratiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlarining tayanch o'quv rejasi umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Texnologiya fanining o‘quv rejadagi o‘rni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘rganish bosqichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ta’lim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajalari	Daraja nomlanishi
Umumiy o‘rta ta’lim	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Texnologiya fanini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining texnologiya o‘quv fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1 +	Texnologiya fanini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Texnologiya fanini o‘rganishning tayanch darajasi
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining texnologiya o‘quv fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A2 +	Texnologiya fanini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi

O‘zbekiston Respublikasi va Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quv dasturlari yangidan ishlab chiqildi hamda belgilangan

tartibda tasdiqlanib, umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga joriy etildi.

O'quvchilarda texnik-texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Texnologiya sohasi texnologiya fani va chizmachilik fanlarini o'z ichiga oladi. Bunda: texnologiya fani - 4,72 % (407 soat), chizmachilik - 0,79 % (68 soat).

Umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quv rejasi

Umumiy o'rta ta'lim maktabining tayanch o'quv REJASI

T/r	O'quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
	Davlat ixtiyoridagi soatlar	22	24	26	26	30,5	32,5	33,5	34	36	264,5
1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	9	7	5	5	5	67
2.	O'zbek tili/rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	16
3.	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	23
4.	Tarix					2	2	3	3	4	14
5.	Davlat va huquq asoslari								1	1	2
6.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1	2
7.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	45
8.	Informatika va axborot texnologiyalari					0,5	0,5	0,5	1	2	4,5
9.	Fizika						2	2	2	2	8
10.	Kimyo							2	2	2	6

11.	Biologiya					1	2	2	2	2	9
12.	Tabiiyot va geografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	13
13.	Odobnoma	1	1	1	1						4
	Vatan tuyg‘usi					1	1				2
	Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari							1	1	1	3
14.	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1			7
15.	Tasviriy san‘at	1	1	1	1	1	1	1			7
16.	Chizmachilik								1	1	2
17.	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12
18.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	0,5						0,5	0,5	1	2,5
	Umumiy soatlar	22,5	24	26	26	30,5	32,5	34	34,5	37	267
	Amaliy mehnat mashg‘uloti (kun hisobida)					6	6	10	16		

Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasida tahlillar asosida texnologiya fani jadvalda sinflar kesimida haftalik umumiy soatlar bilan belgilab berilgan bo‘lib, bu davlat ta’lim standartlariga asosan o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinib tuzib chiqilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standartining tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim sohalarini me’yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta’minotini belgilashga asos bo‘ladigan davlat hujjatidir.

Tayanch o‘quv rejasi o‘quv predmeti bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmunini o‘quvchiga etkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining miqdorini ifodalaydi.

U har bir sinfda muayyan o‘quv predmeti bo‘yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta’lim mazmunini aniqlashga asos bo‘ladi.

Amaliy fanlar blok-moduli tavsifi va predmetlar integratsiyasi

Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya - alohida elementlarni yig'ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr berganlar. Hozirgi kunda "Integratsiya" tushunchasining aniq ta'rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi maktabda tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. O'quvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko'nikmalari shakllandi. Shu bilan bir qatorda, o'quv fanlariga oid bilim va qiziqishlarini rivojlantirishning muhim shartidir.

O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatildi.

Predmetlararo aloqadorlik prinsipiga amal qilish ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, bunday aloqadorlik o'rganilayotgan ob'yektni har tomonlama chuqur o'rganishni ta'minlaydi. U

pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi.

Uzviylik - o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammaallashib borishini ko‘zda tutadi.

Predmetlararo aloqadorlik - o‘zining mohiyatiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, o‘rganilayotgan ob‘yektning turli jihatlari va xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

O‘zaro aloqadorlik - mohiyatiga ko‘ra ikki o‘quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni, ya’ni birinchi o‘quv predmeti bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarini ikkinchisida qo‘llashni va aksincha qo‘llanishini ifodalaydi.

Integrativ aloqadorlik - nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo‘lib, avval zikr etilganlaridan o‘quv dasturiga va maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi, albatta, uni ta’minlashni talab etadi. Natijada ob‘yekt haqida tizimli mukammal bilim, ish-harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi.

Predmetlararo aloqadorlik o‘rnatish uchun o‘quv material mazmuni mantiqan, psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etiladi. Pedagogik amaliyotda o‘quv materialini mavzular bo‘yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi.

O‘quv materialini mavzular bo‘yicha tahlil etish yo‘li bilan turli o‘quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o‘quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm va xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o‘rnatiladi.

Aniqlangan predmetlararo aloqadorliklar sxematik jadval, verbal shakllarda qayd etiladi. Predmetlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog‘liq.

Modulli o‘qitish, uning texnikasi, samaradorligi

“Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma‘nosi - faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u, modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.

Modul fanining fundamental tushunchalarini - ma‘lum xodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma‘lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini o‘z ichiga oladi. Modul bu o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo‘lib, o‘quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o‘rganishga qaratilgandir.

Modulli o‘qitish, texnologik ta‘limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi .

Modul - faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta‘minlaydi;

- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
 - malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
 - o‘quvchilar tayyorgarligi darajasiga;
 - kutiladigan natijalar bahosiga;
 - didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga; - modullar natijasi va tahliliga .
- Hozirgi vaqtda maxsus fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning ta‘lim faoliyatining sub‘yekti sifatida mustaqil, rejali bilim o‘zlashtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadigan, har bir o‘quvchining bilish imkoniyatlarini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiradigan modulli ta‘lim metodlarining ahamiyati katta. “Tikuvchilik ishlab chiqarish texnologiyasi” fani “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi”

yoʻnalishidagi maxsus fanlardan biri boʻlib, uni oʻrganish natijasida tikuvchilik buyumlarini tayyorlash jarayoni bosqichlari, bichish va tikish usullari haqidagi bilimlar oʻzlashtiriladi. Tikuvchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayonlari bir qancha bosqichdan iborat va ular muayyan ketma-ketlikda, bir-biri bilan uzviy ravishda bogʻliq boʻlib, har bir amaliy mashgʻulot buyumning biror uzelliga ishlov berish jarayonini qamrab oladi. Oʻquvchi har bir boʻlakni tayyorlash usulini amaliy mustaqil bajarsagina texnologik jihatdan toʻgʻri tikish yoʻllarini yaxshi oʻzlashtiradi.

Texnologiya taʼlimida amaliy mashgʻulotlarni modullarga boʻlib oʻrganish natijasida, oʻquvchining modulda belgilangan tartibda vazifani bajarish, oʻz-ozini tekshirish va baholash, erishgan natijadan qoniqamaganda, oʻqituvchining koʻrsatmalari bilan xatolarini anglagan holda modulni qayta oʻrganish inkoniyati mavjud boʻladi .

Mashgʻulotlarda modulli taʼlim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun oʻqituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan boʻlishi shart:

1. Oʻrganiladigan mavzuning taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida oʻquvchilarga qoʻyiladigan oʻquv maqsadlarini belgilash;

2. Oʻrganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash; Oʻquvchilarning har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yoʻllarini nazarda tutgan holda oʻquv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt meʼyorlarini belgilash;

3. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, oʻquv topshiriqlarni yaxlit tarzda oʻzida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;

4. Maʼruza matni va modul dasturini mashgʻulotdan bir hafta avval oʻquvchilarga tarqatish;

Oʻquvchilarning egallagan bilim, koʻnikma va malakalarini oʻz-oʻzini, oʻzaro va oʻqituvchi tomonidan nazorat qilinishi taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi o'qitish jarayonida yangi mavzuni o'rganishda xususiy metodik darajada qo'llaniladi va lokal darajada qo'llaniladigan aqliy hujum, insert, klaster, bumerang, atamalar zanjiri, blits, o'yin, mashqlar bilan uyg'unlashtiriladi .

**Modulli ta'limning amaliy mashg'ulotlarda qo'llashning afzalliklari
quyidagilar:**

1. Ta'lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar(bloklar)dan iborat bo'lishi va ularni o'zlashtirish ta'lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim. Didaktik maqsad o'quvchi uchun belgilanadi va u faqat o'quv materialini hajmini o'zlashtirishga oid ko'rsamalarni emas, balki o'zlashtirish darajasini ham o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchi modulni qanday o'rganish kerakligi, zaruriy o'quv materiallarini qanday topishi kerakligi haqida o'qituvchidan yozma tavsiyalar oladi.
2. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o'tadi. Faqat modulgina ta'limni sub'yekt-sub'yekt asosida o'tishiga yordam beradi.
3. Har bir o'quvchi o'z faoliyati davomida vaqtining ko'p qismini mustaqil ishlashga, maqsad asosida o'qishga, ishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag'ishlaydi. Shunday qilib har bir o'quvchi o'z bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni anglaydi.
4. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o'quvchi bilan yaxshi munosabatda bo'lib boshqaradi.
5. Chop etilgan modullarning mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilarning har biriga individual maslahat bera olish va o'quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi. Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi - idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash - modul qurilishida eng muhim asosdir.

Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya:

A1 texnologiya faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qo‘llay olish; tayyorlanadigan buyum ko‘rinishini sodda bayon qilish; mavzu bo‘yicha savollar berish hamda savollarga javob berish; muloqotda muomala odobiga rioya qilish, suhbatdoshining fikrini tinglay olish, o‘z fikrini tushuntira bilish.

A1+ maktabda, ko‘chada, uydagi turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish; olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish; yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1 texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish, o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma‘lumotlarni o‘rganib borish.

A1+ texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1 texnologiya fanini o‘rganish; amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qilish, kattalarni gapiga quloq tutish, “Mohir qo‘llar” to‘garagida fanlarni o‘qib-o‘rganish, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo‘lish; to‘g‘ri so‘z bo‘lish, o‘rtoqlarining xatosini tushuntirish, kattalarga, kichiklarga, o‘rtoqlariga yordam berish, o‘qib-o‘rganish orqali bilimini oshirib borish.

A1+ texnologiya faniga oid turli yo‘nalishdagi kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish; o‘zini xato va kamchiligini to‘g‘ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish, o‘zini nazorat qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1 o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam berish, maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish va muomala madaniyatiga amal qilish; (kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lish, oiladagi o'z o'rnini hamda vazifalarini anglay olish; maktab binosi, sinfdagi jihozlar.

A1+ mebellarni asrab-avaylash farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga amal qilish; o'zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash; maktabda, oilada, turar joyida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1 orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, do'stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish, orasta kiyinish, yurish-turishda kattalardan o'rnak olish, o'z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash; ozodalikka rioya qilish, milliy bayramlarini bilish, o'quvchining odob-axloq qoidalari tushunchaga ega bo'lish, o'zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish.

A1+ san'at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, san'at asarlarini tahlil qilish, maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, ziyorat qilish odobiga amal qilish, milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an'analar, bayramlar, sayillar) bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1 oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini bilish, maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish; kundalik rejalarini tuza olish; kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish, mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish; isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish.

A1+ dars jarayonida zarur bo'ladigan o'quv qurollari, xom ashyolardan tejamkorlikka rioya qilgan holda foydalanish, bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish; texnika turlari va ularni qachon paydo bo'lganligini bilish.

Kommunikativ kompetensiya:

A2 texnologiya faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish, o'z do'stlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha olish; mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

A2+ texnologiya faniga oid suhbat jarayonida suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontirish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish va zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A2 mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish; media vositalardan texnologiya fanini o'rganishga oid zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

A2+ kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish, texnologik xarita va sxemalarga oid manbalarni qidirib topish, o'rganish, tahlil qilish, tadbiq qilish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2 texnologiya fanini yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq o'rganish, yo'nalishlarni bugungi kun talabi bo'yicha o'z ixtirolarini olib kirish, har bir buyumni tayyorlashda dizayner-modelerlik kasbi bo'yicha yondasha olish, shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish; guruhlarda ishlashda mas'uliyatni o'ziga olish, lider bo'la olish, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish; konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana olish; jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish.

A2+ shaxs sifatida o'z qiziqishlariga qarab, qobiliyatlarini namoyon qila olish, ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2 sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish; jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, o'z munosabatini bildirish; kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash.

A2+ Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2 xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarida ularning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rganish, avaylab asrash, an'ana va marosimlarini hurmat qilish.

A2+ xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarida ularning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rganish, avaylab asrash, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2 inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

A2+ mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan o'rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini bilish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o'qiy olish va foydalana olish.

Ushbu ishlab chiqilgan kompetensiyalarni texnologiya fani o'qituvchisi dars jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda dars maqsadlariga muvofiq holda shakllantirsa, o'quvchilar mavzu

mohiyatini yanada chuqurroq anglaydilar. O'quvchilarda mavzuga oid bilimlari mustahkamlanib, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari hosil bo'ladi albatta.

Hozirda texnologiya fani dasturga asosan chuqurlashtirilgan kompetensiyalar asosida olib borilyapti. Kompetensiyalarni shakllantirishdan maqsad o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo'llay olishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy hayotga kirisha olishi ko'zda tutilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. O'quv reja deganda nimani tushunasiz?
2. Texnologiya ta'limi mazmunini ayting.
3. Maktab o'quv rejasida texnologiya fanining qo'yilishini tushuntiring.
4. Texnologiya faniga oid qanaqa umumiy kompetensiyalar shakllantirilgan?

1.3. Texnologiya faninig amaliy fanlar blok modulidagi fanlar va o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim bilan integratsiyalash.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.

Maqsadi: o'quvchilarda texnik-texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Vazifalari:

- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'yekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

- texnik ob'yekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

- texnologik jarayonlarni boshqara olish hamda maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish;

- texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;
- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qilish;
- buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholash;
- ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya fani mazmunining rivojlanish tarixi va bosqichlari

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalaridan Milod davrigacha bo'lgan taraqqiyot nishonasi sifatida keramika, kulolchilik ustaxonasi, charxi qoldiqlarining topilishi, buyumlarni ko'plab ishlab chiqarishga talab katta bo'lgan. Bu davrga oid topilmalar: sopol plitalardan qilingan mexroblar, terakotadan yasalgan haykalcha, turli shakldagi sopol idish, ko'za, turtburchakli, teshikli sugd chaka va boshqalar bu davrdagi taraqqiyotning turli darajada rivojlanayotganligini bildiradi. Shahar va yirik manzillar qalin devor bilan o'ralib, harbiy istehkomlar darajasida ta'mirlangan, sopol quvur bilan jihozlangan ochiq va yopiq sug'orish tizimi barpo qilingan, bularning barchasini malakali hunarmandlar bajarganlar.

O'rta Osiyo mazkur davrdagi ma'naviy taraqqiyotni shartli ravishda quyidagi davrlarga mansub deyish mumkin:

Idishlar xilma-xilligi, qadah, kosa, riton, suvdon, ayol ziynati, libosi yuqori did bilan tayyorlanishi mahalliy sug'dlarning turli din va madaniyati rivojlanganligini ko'rsatdi. Xalq hunarmandchiligi sanoat ishlab chiqarish darajasida taraqqiy etdi. Kul, koranda, muzdur, xalfa va shogirdlar mehnatidan arzimas xaq evaziga foydalanilar edi.

Qimmatbaho metallar (oltin, dur, xaqiq, zabarjad va boshq.) xalq hunarmandchiligida yuksak did bilan foydalanish keng avj oldi. Eftalit-turk koroplastikasi sopol buyum tayyorlashda cheti to'lqinsimon kosa, likopcha, ilmoqsimon dastali krujka, shaffof-slyuda lok surtilgan, dastali, chumokli tor og'izli ko'za, turli maqsadda ishlatiladigan turli o'lchamdagi qozon, shamot

aralashtirib tayyorlangan xumcha, temirchilik o'chog'i, maxsus sopol vannacha, quyish qolibi, g'isht terish xumdoni va shu kabi buyumlar yuksak did bilan, haqiqiy san'at asari darajasida tayyorganligi, hunarmandchilikning turli yo'nalishlariga ixtisoslashtirilganligini bildiradi.

Hunarmandchilik xalq, elat va qabilaning yashashi, turmushi bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, milodiy VI-XI asrlargacha yirik davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Juda ko'p yillik va kishilik harbiy yurishi, mudofaa va hujum qurollarining taraqqiyoti bilan yo'g'rib ketadi. Ana shunday urushlar davrida madaniy taraqqiyot, urush bo'lgan davlatlarda bir tomondan inqirozi yuz bersa, ikkinchi tomondan bir davlatdan ikkinchi davlatga (urush bo'lmagan bo'lsa ham) majburiy, ma'lum tarixiy davrda, mintaqadagi umumiy taraqqiyot inikosi yuzaga keladi.

Juda ko'p tarixiy davrlarni boshdan kechirgan hozirgi yangi davr taraqqiyotiga nazar tashlasak, turli sohalarning rivojlanishi, jadal suratlarning keskin tus olishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish sohalariga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib boryapti. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizida yoshlarni har tomonlama bilimli qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirib borish, urf-odatlar zamirida yotgan mehnatsevarlikka o'rgatish, xalq hunarmandchilik sohalarining turli yo'nalishlariga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularni amalga oshirishda esa texnologiya ta'limining hissasi katta hisoblanadi.

Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida mehnat tarbiyasi bevosita texnologiya ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o'quvchilarning bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning o'quv rejasida ko'zda tutilgan, mehnat amaliyotini o'tashlarini to'g'ri tashkil etish, ularni bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim bosqichlari bo'yicha ta'lim mazmuni, o'quv dasturi (sinflar bo'yicha o'quv soatlari, mavzular taqsimoti), mazmuni bilan tanishish

Ta'lim mazmuni inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni - belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmiga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar Davlat ta'lim standarti, umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi, umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi, umumiy o'rta ta'limning malaka talablari asosida tashkil qilinadi.

5-9 sinflarda umumiy tayyorgarligi

5-7-sinflarda yo'nalishlar bo'yicha umumiy mehnat tayyorgarligi. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi bo'limi: o'quvchilar yog'ochning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarni egallash, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida bilim va amaliy ko'nikmalarni turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Polimer materiallariga ishlov berish texnologiyasi: Polimer materiallar to'g'risida mavlumot. Polimerlar. shtamplar. Presslash. Polimer materiallardan buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Sovundon yasash. Polimer materiallardan uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash. Gultuvak yasash texnologiya haqida turli ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Metallga ishlov berish texnologiyasi bo'limi: O'quvchilar metallarning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlar, rejalash, ishlov berish, pardoqlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l hamda elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashina elementlari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida bilim va amaliy ko'nikmalarga; ro'zg'orbob hamda xaridorgir, dizayn talablari darajasidagi buyumlarni tayyorlash malakalarini egallaydilar; metallarga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Elektrotexnika ishlari bo'limi: o'quvchilar elektr montaj ishlarini tashkil qilish; elektr o'tkazish simlarining turlari va ularni montaj qilish, izolyatsiyalash ishlari; elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini o'rganish; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari ham da ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash; elektrotexnik hamda elektron uskunalarni ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyoriash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Ro'zg'orshunoslik asoslari: o'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari;

Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Servis xizmati yo'nalishi

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: Xalq hunarmandchilik. To'qish san'ati haqida ma'lumot. Qizlar uchun balero to'qish texnologiyasi bilan tanishish,

baleroni orqa qismini to‘qish qizlar uchun balero to‘qish. Baleroni yeng chiqarib, yoqa to‘qish. Qizlar uchun balero to‘qishni tugatish. Oxirgi ishlov berish. Qizlar uchun yubka to‘qish texnologiyasi bilan tanishish, yubkani bo‘ksa qismini to‘qish. Qizlar uchun yubka to‘qish. Yubkani etak qismini to‘qish. Yubka ga oxirgi ishlov berish Xalq hunarmandchiligi, kashtachilik san’ati haqida ma’lumot. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar, naqsh elementlari. Kashtachilik ranglari va rang tanlash. Kashtachilikda ishlatiladigan chok namunalarini tikish. Milliy buyumlardan qiyiqcha bichish, nusxa tushirish va tikish. Qalamdon (penal)ni bichish, naqsh tushirish, iroqi choki yordamida bezatish, bo‘laklarni birlashtirish, oxirgi ishlov berish. Tutgich qo‘lqop tikish va applekatsiya usulida bezsh haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo‘limi: o‘quvchilar gazlama turlari, xususiyatlari, ularga ishlov berish, bichish-tikish asoslarini o‘rganadilar; kiyimlar turlari, ahamiyati, tikuv, yigiruv asbob-uskunalar va mashinalari, ularning turlari, tuzilishi va ishlashi bilan tanishadilar; gazlamaga ishlov berish texnologiyasi xalq hunarmandchiligi tarmoqlari; kashtachilik, do‘ppido‘zlik, zardo‘zlik, quroqchilik, popopchilik, milliy o‘yinchoqlar tayyorlash va boshqa yo‘nalishlarning asoslarini egallaydilar; gazlamaga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari; gazlamaga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Pazandachilik asoslari bo‘limi: o‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, oshpazlik va qandolatchilik asoslari; oziq-ovqat mahsulotlarining hamda taomlarning inson hayotidagi o‘rni, xususiyatlari, to‘yimlilik, turlari, ovqatlanish me‘yori va tartibi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tashish hamda ulaga dastlabki va asosiy ishlov berish yo‘llarini o‘rganadilar; oshxonalarining jihozlanishi; oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizlik texnika qoidalarini; uy-ro‘zg‘or yuritish va jihozlardan unumli foydalanish, buyumlarni ta‘mirlash bo‘limi: turli chokidan so‘kilgan buyumlarni ta‘mirlash. Kiyimlarni saqlash va tuzatish usullari. Iste‘moldan chiqqan buyum o‘lchamiga qarab, bolalar kiyimining andazasini tayyorlash va tikish.

Ro'zg'orshunoslik asoslari bo'limi: Buyumlarni ta'mirlash bo'limi: turli chokidan so'kilgan buyumlarni ta'mirlash. Kiyimlarni saqlash va tuzatish usullari. Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andazasini tayyorlash va tikish.

8-11 sinflarda umumiy tayyorgarlik

Texnologiya va dizayn yo'nalishi: Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi
O'quvchilar yog'ochga va metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligida foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar;

Elektronika asoslari bo'limi: Avtomatika haqida umumiy tushuncha va atamalar. Avtomatik qurilmalar. (avtomatik nazorat, avtomatik boshqarish, avtomatik rostdash). Avtomatik qurilmalarning asosiy elementlari. (datchik, kuchaytirgich, rele) Sodda avtomatik qurilmalar tayyorlash. (bimetall datchik) Xabarchi qurilma va uning turlari. Birlamli signal turlari va kuchaytirgichlar. O'zgaruvchi va o'zgarmas tok signalini kuchaytiruvchi qurilmalar tranzistorlar haqida umumiy tushuncha, tranzistorlarning ishlash prinsipi, tranzistorni turlari, tuzilishi, ulanish sxemasi, shartli belgisi. Raqamli hisoblash qurilmalari va uning vazifasi. Raqamli hisoblash qurilmalarida qo'llaniladigan sxemalar. (trigger, registr) Sanoat robotlar haqida tushuncha. Sanoat robotlari va manipulyatorlarni boshqarish uchun elektr yuritmalari Harakatlanuvchi sodda qurilmalar (robotlar) tayyorlash.

Kasb tanlashga yo'naltirish bo'limi: O'quvchilar kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi; qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar; kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar; O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning yo'nalishlari, ularning bir-biridan farqini bilish.

Servis xizmati yo‘nalishi: Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: Xalq hunarmandchilik. To‘qish san’ati haqida ma’lumot. Qizlar uchun balero to‘qish texnologiyasi bilan tanishish, baleroni orqa qismini to‘qish qizlar uchun balero to‘qish. Baleroni yeng chiqarib, yoqa to‘qish. Qizlar uchun Balero to‘qishni tugatish. Oxirgi ishlov berish. Qizlar uchun yubka to‘qish texnologiyasi bilan tanishish.-Yubkani bo‘ksa qismini to‘qish. Qizlar uchun Yubka to‘qish. Yubkani etak qismini to‘qish. Yubka ga oxirgi ishlov berish Xalq hunarmandchilik. kashtachilik san’ati haqida ma’lumot. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar, naqsh elementlari. Kashtachilik ranglari va rang tanlash. Kashtachilikda ishlatiladigan chok namunalarini tikish Milliy buyumlardan qiyiqcha bichish, nusxa tushirish va tikish. Qalamdon (penal)ni bichish, naqsh tushirish, iroqi choki yordamida bezatish, bo‘laklarni birlashtirish, oxirgi ishlov berish. Tutgich qo‘lqop tikish va applekatsiya usulida bezsh haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Ro‘zg‘orshunoslik asoslari bo‘limi: Maishiy kimyoviy vositalardan foydalanib, oshxona, hammom, hojatxonalarni tozalash qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari. Kiyimlarni dazmollash (shim, palto) qoidalari. Landshaft texnologiyasi. Mening orzuimdagi bog‘mavzusida landshaft yaratish vitaminlarga boy sabzavotlardan to‘yimli salatlar tayyorlash texnologiyasi. (karam, sabzi, turp, lavlagi, baqlajon) ugra kesish texnologiyasi. Ugradan taom tayyorlash. Lag‘mon cho‘zish texnologiyasi. Qovurma lag‘mon tayyorlash. Zebra pirogini tayyorlash texnologiyasi. Burmali yostiq tikish texnologiyasi

Kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘limi: O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi; kasb tanlashga doir reja tuzish; kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari; kasb tanlashda shaxsning qiziqish va moyilliklari, qobiliyatlarini e‘tiborga olish; kasb tanlashda onglilik va mustaqillik; o‘z-o‘zini tarbiyalash, kasb tanlashning mohiyati; kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish; o‘z xohlagan kasbiga yaroqli ekanligini aniqlash, o‘z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari; kasb egallash va ishga

joylashishga doir shaxsiy reja ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

10-11 sinf kasbiy tayyorgarlik mazmuni

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 868-sonli qarori 24 oktabr kuni qabul qilindi. Qaror umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim olish bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart sharoitlar yaratish, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari uchun kasbiy ta'limni tashkil etish to'g'risidagi nizom, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini jihozlash uchun talab etiladigan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati, ular bilan ta'minlash dasturi, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv xonasini jihozlash uchun talab etiladigan asbob-uskunalar ro'yxati, o'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi tasdiqlangan. O'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi kengash 2018–2020 yillarda o'quv-ishlab chiqarish majmualarini zarur jihozlar bilan ta'minlash dasturida nazarda tutilgan paramentlarni amalga oshirish yuzasidan doimiy monitoring yuritilishini va zarurat bo'lganda majmualarni jihozlashning har yili tasdiqlanadigan manzilli dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borilishi ta'minlaydi. Bitiruvchilarga umumiy o'rta ta'lim muassasasini tugatganlik to'g'risidagi shahodatnoma bilan bilan birga majmuada o'rnatilgan kasblar bo'yicha diplom beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bilan integratsiyalash

Integratsiyaning mohiyatini aniqlash jarayonida uning filosofik, pedagogik - psixologik va metodik asoslarini aniqlab olish lozim. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta'lim jarayonining barcha majmuini o'z ichiga oladi. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlarini (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ta'limning globallasuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir.

Ta'limning uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Ta'limning uzviyligi va izchillik tamoyiliga ko'ra ishlab chiqariga asoslangan texnologik munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

Texnologiya ta'limi o'quv jarayonida amaliy mashg'ulotlarda o'zaro bog'liqlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablarining moddiy texnik bazalari ishlab chiqarish jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri tufayli ta'limning uzviyligiga asosan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi integratsiyalashuvi bilan tashkil qilish amaliy bilim salohiyatini jadallashtiradi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini oiliy ta'lim bilan integratsiyalash.

Integratsiyalash jarayoni

Zamon talablari asosida barpo etilgan oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda yoshlarning ilmiy, ijodiy-intelluktual

saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli va ahamiyatini mavzusidagi ilmiy anjuman olimlar, professor-o'qituvchilar va ishlab chiqarish korxonalarini vakillari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib olishda ulkan amaliy ahamiyatga egadir. Respublikamiz hukumati kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bilan ta'lim sifatini tayyorlanayotgan mutaxassis salohiyatini oshirish maqsadida oliy va o'rta mahsus ta'lim tizimidagi barcha turdagi o'quv jarayonlarini ishlab chiqarish bilan integratsiyasini tashkil etish hamda oliy ta'lim mutaxassislari bilan aloqani kuchaytirish, o'z sohasi bo'yicha malakali hisoblangan professor-o'qituvchilarni o'rindoshlik asosida ishga taklif qilish va doimiy ravishda ularning darslarini ochiq darslar sifatida namoyish qilish, oliy o'quv yurtlarida mavjud bo'lgan kafedralarning filiallarini tashkil qilish va ularning faolyatini doimiy nazoratga olish kabi ko'plab muammolarni hal qilishga katta e'tibor qaratmoqda.

Oliy ta'lim muassasasi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari universitetda mavjud bo'lgan kafedralarning filiallarini tashkil etish, mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan filiallarda asosiy fanlarga old bo'lgan laboratoriya va amaliyot darslarining bir qismini kafedralarda mavjud bo'lgan laboratoriyalarda amalga oshirish lozim. Bunday amalda sinalgan usullar tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning zamonaviy asbob-uskunalardan hamda reaktivlardan foydalanish ko'nikmalari hosil qilishida katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil etilgan oliy o'quv yurtlari kafedralari filiallarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Filiallardan ijobiy foydalanishning qulay tomoni shundan iboratki, chet ellardan keltirilgan zamonaviy asbob-uskunalarini o'quv jarayoniga ta'lim standartlariga mos, o'quv dasturlariga to'g'ri keladigan laboratoriya va amaliy ishlar, bundan tashqari iqtidorli talabalar bilan o'tkaziladigan qo'shimcha to'garak o'quv dasturlariga mos amaliy ishlarga taalluqli o'quv-uslubiy, uslubiy qo'llanmalar hamda dars ishlanmalari bilan ta'minlashda katta uslubiy yordam ko'rsatish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bizning nazarimizda sifatli dars jarayonlarini tashkil qilish avvalo

o'quv yurtining rahbariga, so'ngra esa mazkur fan o'qituvchisining ishbilarmonligiga ko'p jihatdan bog'liq. Nazariy yoki amaliy laboratoriya darsiga o'rindoshlik asosida taklif etilayotgan oliy o'quv yurti professori yoki dotsenti va ishlab chiqarish korxonasi yoki xo'jalik mutaxassis xodimini yil davomida haftasiga 2-4 soat miqdorida dars o'tish uchun qatnashi qiyinchiligini hisobga olib, o'quv semestrining ma lum oylariga 50-100 soatdan qilib dars jadvaliga kiritishning ahamiyati g'oyat katta.

Bundan tashqari shu darslarning asosiy qismi ochiq ma'ruza yoki seminar treninglar ko'rinishida tashkil qilinsa ham o'qituvchilar ham o'quvchi-talabalar uchun foydadan holi bo'lmas edi. Chunki o'quv jarayonini tahlil qilishda ko'pincha sistemasizlik, darslarga tasodifan qatnashish, aniq bir maqsadning yo'qligi, dars jarayonini analiz qiluvchining darsni chuqur analiz qilishga uslubiy jihatdan tayyor emasligi, aniq kuzatish dasturining yo'qligi, darsda asosiy tomonlarni ajratib ko'rsata olmaslik, darsni ijobiy yoki salbiy tomonlarini to'g'ri baholab, xulosalar chiqara olmaslik, taklif etilgan mutaxassis kasbdoshiga malakali tavsiyalar va uslubiy yordam bera olmaslik kabi kamchiliklar kuzatiladi. Ayniqsa, ochiq darslar va seminar treninglarga kirishdan oidin aniq maqsadni reja asosida belgilab olish zarur.

Talaba o'zlashtirilayotgan har qanday fandagi nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanishi barchamizga ma'lum. Uzoq yillik kuzatish va tajribalaridan ayon bo'lgan bu haqiqat keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida erishilgan salmoqli natijalarda ham yana bir bor o'z aksini topdi. Ayni paytda barcha ta'lim turlarida darsdan tashqari mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligini bu o'quvchi-talabalar bilimida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'layotganligiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o'qituvchi-professorlari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar mutaxassislari hamkorlikda amaliy va laboratoriya ishlarini amalga oshirish uchun yaratgan har qanday sifatli uslubiy va o'quv-uslubiy qo'llanmalari, ochiq ma'ruza darslarining yangi informatsion texnologiyalar asosida tayyorlangan prezentatsiyali dars

ishlanmalari ham zamonga mos malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda juda muhim vositalar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnologiya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Texnologiya fanining rivojlanish bosqishlari haqida ma'lumot bering.
3. Umumta'lim maktablarining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bilan integratsiyasi qanday?
4. Integratsiyalash jarayoni nima?

1.4. 1-9 sinflarda texnologiya fani mazmuni va 10-11 sinflarda kasbiy tayyorgarlik

Maktab islohotida texnologiya fanining vazifalari

- Turli ishlab qarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki ma'lumotlarni o'rgatish, o'lchash;
- tekshirish asboblariidan, ma'lumot manbalaridan
- foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarni belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o'rgatish;
- xalq xo'jaligining turli sohaslarida ishlatiladigan texnika va texnologiyalar to'g'risida bilimlar berish, inson faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish;
- mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena qoidalarini asoslarini;
- o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqob atbardosh iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan

mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish vositalarini o'rgatish, ish boshqaruvchi (menedjerlik) unsurlari, homiylik ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirib borish va rivojlantirish;

- o'quvchilarning bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- xalq hunarmandchiligi kasblarini o'rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy me'rosini o'rgatish, ulardan o'z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi, yangi texnika va jihozlarning qo'llanilishi sohalarini zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o'rganishlarini ta'minlash;
- yuqori sinflarda turli mutaxassisliklarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalardan foydalanishni o'rgatish;
- o'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan sifatlarni, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Texnologiya fanining mazmuni yo'nalishlar bo'yicha unga qo'yiladigan talablar

Amaldagi davlat ta'lim standartisharhiga ko'ra o'quvchilar 5-9 sinflarda texnologiya fanida mavjud beshta yo'nalishlaridan faqat bittasi bo'yicha tahsil olishi belgilab berilgan bo'lib, unda xalq xo'jaligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi tuzilmasi va talablariga muvofiq tayyorlash bilan bog'liq imkoniyatlar hamda qiziqishlari cheklab qo'yilgan edi. Shu bilan birga kasb tanlashga yo'llash ishlari faqatgina 8-9 sinflarda qisman o'rganilishi o'quvchilarda quyi sinflardan kasb-hunarlar to'g'risidagi tushunchalarni tizimli shakllantirish imkonini bermasligi, ta'lim mazmunini mujassamlashtirish tamoyilini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik

qilar edi. “Gazlamalarga ishlov berish” yo‘nalishi zamonaviy talablar darajasida qayta ishlanib, uning mazmunga yangi “Ro‘zg‘orshunoslik” va “Elektronika asoslari” bo‘limlari qo‘shildi.

8-9 sinflarda “Texnologiya va dizayn” va “Servis xizmati yo‘nalishlar” mazmuniga “Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” bo‘limlari mahalliy sharoitlar hamda milliy xususiyatlarni e‘tiborga olgan holda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida yangi kirildi.

“Gazlamalarga ishlov berish” yo‘nalishi zamonaviy talablar darajasida modernizatsiya qilinib, ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo‘llashga oid bilimlar bilan to‘ldirildi. Shunga ko‘ra, ishchi guruh tomonidan Davlat ta‘lim standarti sharhlarida o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos kelmaydigan, fanlararo bog‘lanishni ta‘minlamaydigan ko‘pgina mavzular chiqarilib, texnologiya fani yo‘nalishlari o‘zaro integrasiyalashtirilib, 5 ta yo‘nalish 3 taga keltirildi, ya’ni:

5-7 sinflarda “Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi” va “Metalga ishlov berish texnologiyasi” yo‘nalishlari umumlashtirilib, yangi “Uy-ro‘zg‘or buyumlarni ta‘mirlash” va “Elektrotexnika ishlari” bo‘limlari bilan yagona “Texnologiya va dizayn”; “Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi” va “Pazandachilik asoslari” yo‘nalishlari mazmunan umumlashtirilib yangi “Buyumlarni ta‘mirlash texnologiyasi” bo‘limi bilan yagona “Servis xizmati” yo‘nalishlar mazmuni ishlab chiqildi.

4.2. Dastur mazmuni

O‘quv dasturlari DTSga asoslanib tuziladigan davlat hujjati bo‘lib, unda ma‘lum bir o‘quv fani bo‘yicha o‘qitiladigan bilim hajmi va ta‘lim mazmuni ifodalanadi. O‘quv dasturi odatda 3 qismdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim uqtirish xatidir. Bu qismda fanni o‘qitishning maqsad va vazifalari, yo‘nalishlari, dasturdan foydalanish tartibiga oid metodik maslahatlar beriladi. Ikkinchi bo‘limda o‘quv fanining asosiy mazmuni o‘rganiladigan nazariy va amaliy materiallar ular o‘rtasidagi aloqadorlik, mavzular bo‘yicha o‘rganiladigan bilimlar ko‘lami va o‘quvchida hosil qilinadigan ko‘nikma va malakalar majmuyi ko‘rsatiladi.

Dasturdagi mavzular ta'lim standarti bo'yicha o'quvchilar bilimining zaruriy va yetarli bilim darajasini o'z ichiga olmog'i lozim. Uchinchi bo'limda o'quvchilar qo'shimcha ravishda o'rganishlari lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati ifodalanadi¹. O'quv dasturi quyidagilar asosida tuziladi:

1. **Dasturning ilmiyligi prinsipi.** Dasturga ob'yektiv reallikni (voqelikni) aniq, to'g'ri va haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi.
2. **Dasturning qat'iyliigi.** O'quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajasini aks ettirishi lozim. Hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat'iy boyishiga erishish shu fan bo'yicha qat'iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega.
3. **Nazariyaning amaliyot bilan birligi.** Ilmiy bilimlarni puxta egallash va o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qulay olish uchun o'quvchilarga 39 beriladigan nazariy tushunchalar ijtimoiy qurilish amaliyotiga bog'lab, konkret hayotiy misollar bilan: mashqlar, tajribalar ko'rsatib, xulosalar chiqarish kabilar bilan bog'lanishi lozim. Bu o'quvchining ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.
4. **Dasturning izchilligi.** O'quv dasturidagi materiallar izchil, ya'ni o'rganilayotgan mavzu o'quvchilarning oldingi o'zlashtirgan ilmiy bilimlari, ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanishi, uni to'ldirishi va keyingi o'quv jarayoni uchun zamin hozirlashi lozim. O'quv materiallari osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon yo'naltiriladi.
5. **Dasturda o'quvchilarning yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish.**

Dasturga kalta hajmli bilimlar kiritib, bolalar uchun qiyin materialni berish. Bolalarning tushunishi qiyin bolgan, ularning tushunchalariga mos bo'lmagan bilimlarni berish ularning ongli va mustahkam o'zlashtirishlarida qiyinchilik tug'diradi. O'quvchilarning charchashi va o'zlashtirish darajasi pasayishiga olib keladi.

1-4 sinf o'quvchilarini tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida texnologiya fani boshlangʻich taʼlim yoʻnalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda **“Texnologiya va dizayn”**, **“Servis xizmati”** yoʻnalishlari asosida oʻqitiladi.

Texnologiya fani quyidagi boʻlimlar asosida oʻqitiladi.

1-4-sinflar uchun

1. Qogʻoz va karton bilan ishlash.
2. Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
4. Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish.

Texnologiya fanini oʻqitishda boshlangʻich sinflarda **“Iqtisod alifbosi”**, yuqori sinflarda **“Sogʻlom avlod asoslari”**, **“Hayot xavfsizligi asoslari”** hamda **“Iqtisod saboqlari”** oʻquv kurslari singdirilib oʻqitiladi.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, oʻquvchilarga texnologiya fanini yoʻnalishlari boʻyicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

Boshlangʻich maktablarda Texnologiya taʼlimi va tarbiyasining asosiy vazifalari oʻquvchilarni mehnatga tayyorlash, oʻqitish va umumtaʼlim maktablarining boshlangʻich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish, davlat taʼlim standartlari talabi boʻyicha tarbiyalash hamda oʻquvchilarni kasb-hunar egasi boʻlib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan tashkil topgan.

Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning eʼtiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini toʻgʻri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarini meʼyori va sifatiga, ish koʻrsatkichini taʼminlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak.

Texnologiya taʼlimining asosiy vazifalari tarbiyaning maqsad va vazifalari tomonidan belgilanib, u mehnatga axloqiy va psixologik tayyorlash, oʻquvchilarni boshlangʻich texnikaga oid bilim bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayyorlash,

mehnat malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, o'quvchilarni mehnat ta'limi jarayonida har tomonlama o'stirish kabilardan tarkib topadi. Bu vazifalarni keyingi mavzularda alohida o'rganamiz.

Mehnatga munosabat shu mehnatning muhimligi va zarurligini tushunish, bunday mehnatda jonbozlik ko'rsatish, ishga shaxsan mas'uliyatni his qilgan holda yondashish ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi.

Mehnatga axloqiy tayyorlash - bolalarga jamoada ishlashni, do'stona o'zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish va mehnatda hatti-harakat normalarini o'rgatishdan iborat.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun mehnat ta'limi va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat - bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatleri rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir. Bolalarning mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir. Shuningdek, bolalar jamiyatda kishi mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi. Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, mehnat faoliyati, mehnat ta'limi uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri,

muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quyi sinf o'quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi ma'lumot haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi. Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun bolalarning xotiralarini o'stirish vazifasi ham albatta amalga oshiriladi.

Mehnat inson hayotini farovon qiluvchi davlatdir.

Abu Rayxon Beruniy

Mehnat qilmoq insonga xosdur. Agar sen inson bo'lsang,
o'z xulqingni mehnat tumori bilan beza.

Alisher Navoiy

Sen avvalo mehnatni qadrla va o'zgalar qilgan mehnatni ham qadriga yet,
shunda sen o'zingni haqiqiy mehnatsevar deb bilursan.

Imom al-Buxoriy

4.3. (5-9) sinflarda umumiy tayyorgarlik

5-9 sinflarlarda quyidagi yo'nalishlar asosida mashg'ulot jarayonlari olib boriladi.

(5-7) sinflarda

Texnologiya va dizayn yo'nalishi

1. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi.
2. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi.
3. Metallga ishlov berish texnologiyasi.
4. Elektrotexnika ishlari.
5. Ro'zg'orshunoslik asoslari.

Servis xizmati yo'nalishi

1. Pazandachilik asoslari.
2. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi.

3. Ro‘zg‘orshunoslik asoslari.

(8-9) sinflarda

Texnologiya va dizayn yo‘nalishi

1. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi.
2. Elektronika asoslari.
3. Kasb tanlashga yo‘naltirish.

Servis xizmati yo‘nalishi

1. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi.
2. Ro‘zg‘orshunoslik asoslari.
3. Kasb tanlashga yo‘naltirish.

Malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan 5-9 sinflarda “Texnologiya” o‘quv fanidan o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ikki guruhga bo‘lib o‘qitishga ruxsat etiladi.

Texnologiya ta‘limi fanining mazmuni shartli ravishda uchga, ya‘ni texnologiya ta‘limi tayyorgarligi, kasblar bo‘yicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo‘linadi. Bu qismlar har bir dars va mashg‘ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo‘lib, ularning o‘qituvchilar va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi texnologiya ta‘limi mashg‘ulotlarining aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta‘minlaydi. Texnologiya ta‘limining yo‘nalishlari maktab atrofidagi karxona, tashkilot va kasb-hunar kolledjlarida keng tarqalgan sohalar, kasblarga muvofiq tanlab olinadi. Shunga ko‘ra har bir maktabda texnologiya ta‘limining quyidagi yo‘nalishlari asos qilib olinishi mumkin:

- yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi -
metalga ishlov berish texnologiyasi
- polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi
- elektrotexnika ishlari
- gazlamaga ishlov berish texnologiyasi
- ro‘zg‘orshunoslik asoslari

- pazandachilik asoslari
- xalq hunarmandchiligi texnologiyasi.

5-7 sinflarda ushbu yoʻnalishlardan ayrimlari tanlanadi va 8-9 sinflarda shu tanlangan yoʻnalishlarga muvofiq holda ishlab chiqarish asoslari va kasbga yoʻnaltirish kursi oʻqitiladi. Ushbu yoʻnalishlarning har biri yuzasidan quyidagi bulimlar boʻyicha oʻzaro uygʻunlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish koʻnikmalari shakllantiriladi.

Texnologiya taʼlimi darslarida oʻquvchilarda kasblar turlariga oid bilim, koʻnikma va malakalar maktab joylashgan hududdagi imkoniyat va ehtiylarni hisobga olgan holda tanlanadigan kasblar asosida shakllantiriladi. Oʻquvchilarning texnologiya taʼlimini amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy va uslubiy vazifalarni hal qilish lozim.

Tashkiliy vazifalar. Texnologiya taʼlimi boʻyicha nazariy mashʼulotlar uchun oʻquv xonasi va amaliy mashʼulotlar uchun ustaxona tashkil qilish va ularda xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish. Oʻquvchilarni mashgʼulotlar uchun zarur xom ashyo, material, asbob-uskinalar bilan taʼminlash hamda moslamalar, mexanizmlar, stanoklar bilan amaliy ishlash jarayonini tashkil qilish. Sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavsizligi boʻyicha meʼyoriy hujjatlarda belgilangan talablarning toʻliq bajarilishini taʼminlash va muntazam nazorat qilib borish. Oʻquvchilarning turli kasblar buyicha mehnat jarayonlari va kasb egalari bilan yaqindan tanishlarini amalga oshirish ushin korxonalar, jamoa xoʻjaliklari, tashkilotlar, muassasalar bilan doimiy aloqa oʻrnatish.

Rasmiy hujjatlar: meʼyoriy rejalashtiruvchi hujjatlar, uustoxanada xavfsizlik texnikasi, sanitaraya-gigiyena va birinshi tibbiy yerdam koʻrsatish qoidalariga doir hujjatlarni yaratish. **Uslubiy vazifalar.** Mashgʼulotlarning yarim va bir yillik ish rejalarini tuzish. Bunda mahaliy shart-sharoitlar, ehtiyojlar va imkoniatlarni hisobga olgan holda, kasblar tasnifi asosida, oʻquvchilarni yakindan tanishtirish mumkin boʻlgan kasblar turlarini tanlash. Ogʻil va qiz bolalarning oʻzlariga mos mehnat mashgʼulotlarini va kasb tanlashlarni amalga oshirib borish. Mashgʼulotlarda

zamanoviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangi didaktik vositalardan keng foydalanish, mehnat ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlash. O'quvchilarda turli kasblarga tegishli dastlabki mehnat ko'nikma va malakalarini, mehnatsevarlikni shakllantirish.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlarini, shaxsiy psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olish. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini reyting tizimi asosida nazorat qilib borish. Maktabda texnologiya ta'limi va tarbiyasi, kasbga yo'naltirish jarayonini tashkil qilish hamda uni amalga oshirishda pedagogika, didaktika, psixologiya, fiziologiya, xususiy metodika va maxsus fanlarning ilmiy xulosalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar mavzui amaliyot bilan, o'quv mavzusini tarbiyaviy muammolarni hal qilish bilan uyg'unlashtirilgan holda bo'lishini ta'minlash. Mazkur o'quv dasturi asosida olib borilgan o'quv tarbiya ishlari natijalarini, o'quvchilarning o'zlashtirishlarini aniqlash va nazorat qilish Davlat ta'lim standarti asosida amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflarida o'quvchilar soni shahar maktablarida 25 va undan ortiq bo'lsa, qishloq maktablarida 20 va undan ortiq bo'lsa, texnologiya ta'limi darslari shu holda olib boriladi. Xalq hunarmandchiligining ayrim nodir kasblarini o'rgatish uchun usta-shogird eski ota o'gil, ona-qiz shakllaridan foydalaniladi. Bunday mashg'ulotlarni tegishli xalq ustalari bilan maktab o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida tashkil qilinadi. Dasturdagi texnologiya yunalishlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish ketma-ketligi mahalliy sharoit va imkoniyatlar hisobiga olingan holda o'qituvchi tomonidan hal qilinadi.

(10-11) sinf kasbiy tayyorgarlik mazmuni

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga

ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 868-sonli qarori 24 oktabr kuni qabul qilindi.

Qaror umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim olish bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart sharoitlar yaratish, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari uchun kasbiy ta'limni tashkil etish to'g'risidagi nizom, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini jihozlash uchun talab etiladigan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati, ular bilan ta'minlash dasturi, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv xonasini jihozlash uchun talab etiladigan asbob-uskunalar ro'yxati, o'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi tasdiqlangan².

O'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi kengash 2018-2020 yillarda o'quv-ishlab chiqarish majmualarini zarur jihozlar bilan ta'minlash dasturida nazarda tutilgan paramentlarni amalga oshirish yuzasidan doimiy monitoring yuritilishini va zarurat bo'lganda majmualarni jihozlashning har yili tasdiqlanadigan manzilli dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borilishi ta'minlaydi.

Bitiruvchilarga umumiy o'rta ta'lim muassasasini tugatganlik to'g'risidagi shahodatnoma bilan bilan birga majmuada o'rnatilgan kasblar bo'yicha diplom beriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnologiya ta'limi yo'nalishlar bo'yicha qanaqa talablarni qo'yadi?
2. 1-4 sinflarning tayyorgarlik darjasini ayting.
3. 5-9 sinflarni umumiy tayyorgarlik bilan birga qanday vazifalar amalga oshiriladi?
4. 10-11 sinflar kasbiy tayyorgarligini o'tashi to'g'risida ma'lumot bering.

1.5. Texnologiya fanidan ilmiy nazariy tadqiqotlar.

Texnologiya ta'limi tizimida avlodlarimiz hayotiy tajribalaridan foydalanish, urf-odatlar, milliy aqidalar, moddiy va ma'naviy meroslarini o'rganish va bu sohani butunlay tubdan qayta qurishni taqozo etadi. Bu tizimda avlodlarimiz xalq hunarmandchiligi meroslarini o'rganish, amalda qo'llash va o'rgatish, texnologiya ta'limi sohasi tarixiy, etnik, milliy, mahalliy jihatlardan isloh qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Bu esa ta'lim tizimida o'quvchilarning mehnat tayyorgarligini oshirishda va kasb tanlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli texnologiya ta'limi samaradorligini oshirishda, yosh avlod barkamol xislatlarini o'zida mujassamlashgan inson bo'lib etishishida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijodiy, ma'naviy merosi, xalq og'zaki va yozma ijodiyoti namunalarining o'rni; tasviriy, amaliy san'at va xalq hunarmandlari merosini ta'limiy, tarbiyaviy mohiyat talqini;

Sharq allomalarining shaxs kamoloti, ta'lim, tarbiya to'g'risidagi g'oyalarining O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida qo'llanilishi:

Davlatimizning ta'lim-tarbiya, ma'naviy va milliy qadriyatlarni, tariximizni tiklash va o'rganish to'g'risidagi qaror va qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi konsepsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, texnologiya ta'limi, tarbiyasi, tayyorgarligi to'g'risida Sharq allomalarining salohiyatlarini asoslashni bu hozirgi muammolarning yechimi hisoblanadi.

Sharq mamlakatlarida turli davrlarda yashagan buyuk mutafakkirlar, allomalar Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida ham halol mehnatsevarlik, kasb- hunar tarbiyasi ulug'langan. Masalan, Alisher Navoiyning barcha asarlarida, jumladan "Xamsa" dostonlaridan biri hisoblangan "Farhod va Shirin" dostonidagi vayronaliklarida yuz guhardur, Agar qilsam madad voqi' hunardur" deb aytgan so'zlari xalq orasida maqollarga aylanib ketgan.

Hozirgi davrda ta'lim va tarbiya tarixini O'zbekistonlik olimlardan M. Abdurasulov, X. Aliqulov, I. Mo'minov, N. Nuriddinovlar, texnologiya ta'limining turli sohalarini esa N.Sh. SHodiyev, O'.K. Tolipov, N. Sayidahmedov, R.X. Jurayev, B.I. Muranov, O. Abduquddusov, Q. Mustafaev, Sh. SHaripov, K.Davlatov, I.Karimov, J.Ramizov, D.Razzoqov, A.R. Xodjabaev, U.Nishonaliyev va boshqalar bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Masalan: O'.Q.Tolipov o'zining tadqiqotlarida o'quvchi talaba yoshlarda umummehnat umumkasbiy fazilatlarini shakllantirish muammolarini, SH. SHaripov o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlik, kreativlikning pedagogik mexanizmini, O.Abduquddusov o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitishda DTSlar, na'munaviy va ishchi o'quv rejaları ishlab chiqishda va amaliyotga joriy etishda ilmiy ishlar olib bordilar, B.I. Muranov - qishloq o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotlariga talabalarni kasbiy tayyorlash, N. Sayidahmedov talabalarni o'quvchilarning unumli mehnatiga rahbarlikka tayyorlash va pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga, jumladan, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar.

MDH va xorijiy mamlakatlar olimlaridan V.I. Baydenko, A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnaya, O.N.Yarigin, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiy, S.R.Berger, V.Grabe, J.Harmer, L.Harver va boshqalar tomonidan mehnat ta'limining mazmun mohiyati hamda o'qituvchilarning unumli mehnat mahsuldorligiga bo'lgan bilim, ko'nikmalarining shakllanishiga doir bir qancha ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Texnologiya fan sifatida tadqiq qilingan ilmiy ishlar

Respublikamizda mashinasozlik sohasining tez rivojlanishi yuqori malakali ishchi va texnik xodimlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi, buning asosiy negizi esa o'z navbatida umumta'lim maktablarida texnologiya fanlaridan dars beradigan texnologiya fani o'qituvchisi kasbini egallagan mutaxassislarga bo'lgan talabni oshiradi. Texnologiya fani yo'nalishi bo'lajak o'qituvchisi tabiiy, texnik va texnologik bilimlarga ega bo'lishi zarur. U faqat bilimlarni o'quvchilarga yetkazish

bilan bir qatorda ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, loyihalash, konstruksiyalash hamda kasbiy pedagogik madaniyatga ega bo'lishi kerak.

Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'sib kelayotgan yosh avlodni konstruktorlik-texnologik tayyorgarligini oshirish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun har xil axborotlar va faoliyat turlarini o'quv grafik faoliyat mazmuni orqali integratsiyalashgan holatda yetkazish asosiy sharti hisoblanadi. Chizmachilik faniga nafaqat axborotlarni yetkazish, balki konstruksiyalarni chuqurroq anglab uning yangi variantini tavsiya qilish orqali o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish mumkin.

II-BOB. TEXNOLOGIYA TA'LIMI METODIKASI FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

2.1. Texnologiya ta'limining didaktik tamoyillari.

Onglilik va faollik. Texnologiya ta'limi o'qutuvchisi qilayotgan ishini mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu tamoyil o'quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanadigan bo'ladi. O'qitishdagi onglilik tamoyili o'quvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi. O'quvchilardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi. O'quvchilarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga jamoa bo'lib javob topish qoidasi.

O'quv fanini hech qachon dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi. Hech qachon o'qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi. Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi.

Texnologiya ta'limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili-o'quvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi o'quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. O'quvchi o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Texnologiya ta'limida tizimlilik va izchillik

O'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. O'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. O'quv materialini to'g'ri taqsimlash ya'ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o'tishni talab qiladi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilning ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi.

1. O'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi to'liq o'zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo'laklariga ajratib o'qitish.
2. Mazmunini to'liq ochib berishga ko'zingiz yetmagan biron bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmaslik.
3. Mantiqlikni hech qachon buzmaslik, buzilgan taqdirda o'zlashtirilmasslikning oldini olish uchun uni darrov bartaraf etishlik.
4. O'quv fani - katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatib berishlik.
5. Nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi to'g'ri ketayotganini doimo tekshirib borishlik: o'rganilayotgan ob'yekti, predmeti, nazariy

asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uning qoilanishi chegaralarini doimo eslatib, ulaming bajarilishini tekshirish.

6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go'yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish zarurligi.

7. Boshlang'ich, umumta'lim va oliy ta'lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi muvofiqlikni saqlash.

8. O'qitishning ilg'or usullaridan doimo foydalanish.

9. O'qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o'tilgan bilimlarni doimo qaytarib turish.

10. O'tgan bilimlarni qaytarish usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bir bilimni tushuntirayotganda ham undan foydalanish.

11. O'tgan bilimlar bilan tez kirishib ketuvchi yangi gaplardan boshqa yangi fikrlarni bildirmaslik.

12. O'quvchilar til savodxonligini faqat til o'qituvchilari kuzatib boribgina qolmay, barcha o'qituvchilar ham bu ishni bajarishlari lozimligi.

13. Sabr va chidam bilan hamda uzluksiz ravishda bolalarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o'rgatish.

14. Bolalarga o'qishning istiqbolini doimo eslatib turish.

15. Har bir bo'lim oxirida, albatta, umumlashtiruvchi mashg'ulotlarni amalga oshirish.

16. Bolalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib borish.

17. Charchab qolgan bolalar faoliyatini hech qachon sun'iy ravishda faollashtirishga harakat qilmaslik, faollashtirishda bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqish.

18. Bolalardan egallagan bilimiga ko'nikma va malaka hosil qilish.

19. Esda saqlash lozimki, majmuaga tushgan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, majmua orqali uni darrov esga tushirish oson.

20. Ya.A.Komenskiyning - hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak degan nasihatini unutmaslik qoidasi.

Izchillik tamoyili - elementar didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan no'malumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarning hammalariga tushunarli bo'lsin. Bunda ham o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

Nazariya bilan amaliyot birligi. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozim. O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikma va malakalarini hosil qiladilar.

Nazariya bilan amaliyot birligini bog'lashning har xil shakllari mavjuddir:

- har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi;
- amaliyot - haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo'llanish ko'lamini;
- to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi;
- ta'lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog'liqligi bilan belgilanadi;
- bilim berishning samaradorligi. uning politexnik ta'lim bilan bog'liqligi bilan belgilanadi;
- berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog'lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bularning amaliyotda qo'llanishi quyidagi qoidalar orqali kechadi:

1. Bilim va tarbiya berishda, bola ulaming, o'z hayotiga naqadar zarur ekanini bilib

borishi.

2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish.
3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur bo'lgani uchun kashf qilinganligini ta'kidlash.
4. O'quvchilarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish.
5. O'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab ko'rishlarini talab qilish.
6. Maktabning ishlab chiqarish bilan bog'liqligini amalda ko'rsatish.
7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yo'li orqali bilimni amaliyot bilan bog'lash.
8. Dars berishda, o'quvchilarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish.
9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayoni asosida amalga oshirilishi.
10. Aqdiy mehnatni jismoniy mehnat bilan olib borish.

Ta'lim va tarbiya birligi birinchi-maktabda o'quvchi yolg'iz bilim, ko'nikma va malakalarini egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi. Aqliy va jismoniy mehnat jarayonida xarakter xususiyatlari va hatti harakat ko'nikma va odatlarni tarbiyalaydi. O'tilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash ham uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda ahamiyatga ega.

Ko'rsatmalilik tamoyili- O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkun. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. O'qitish protsessida o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar hosil qilish uchun mehnat priyom va operatsiyalarini ko'rsatish keng qo'llaniladi.

Ko'rsatmalilik o'quvchilarni qiziqishini orttiradi va qiziqtiradi, o'tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi. (plakat, obrazets diafilm).

Mustahkam va puxta o'zlashtirish

Bu tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan empirik bilimlar birlashib mustahkamlangan. Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib, keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o'zgarishlar kiritdi. Bilimni mustahkam egallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etadi.

1. Bugungi kungi ta'limda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan. Shuning uchun o'quvchilar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e'tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e'tibor berib, uning hisobiga fikr yuritishiga ko'proq kuch sarflashiga yordam berish.

2. O'quvchilar tushunib yetadigan yoki noto'g'ri tushunib qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e'tibor berish lozim. Bola faqat yaxshi tushunib yetib, uning to'g'riligiga ishonch hosil qilgan narsasini xotirasida saqlash.

3. Bola xotirasini kam e'tiborli axborotlarni eslab qolishdan holi qilish maqsadida, ularni turli lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishga o'rgatish.

4. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo'lishi uchun, ravon, iloji bo'lsa she'r vazniga solib turib esda saqlashga bolalarni o'rgatish.

5. Estdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga yoshlarni o'rgatish.

6. Yod olishni uyga vazifa qilib bermay, uni shu narsaga qiziqtirib qo'yish va vaqti-vaqti bilan bu qiziqishni yangilab turish.

7. Takrorlash mashqlarini bola yangi bilimni egallagan paytdan boshlash. Chunki bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq.

8. Bola diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillar faoliyatiga yo'l qo'ymaslik, dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib borish, bilim olish sur'atini pasaytirmaslik.

9. Beriladigan bilimga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantirmasdan turib, yangi bilim berishni boshlamaslik. Zo'rlab berilgan bilim bola xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmaslik.

10. Bilimni egallash sur'ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlash va bartaraf etish. Odatda, bilim olish sur'atining pasayishi charchagandan keyin paydo bo'ladi.

11. O'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda darsni qaytarish eslab qolishning muhim omili ekanini unutmaslik va o'zini-o'zi tarbiyalashga katta e'tibor qaratish.

12. Qaytarish darslarini shunday tashkil qilish kerakki, u faqat bilimni xotirada tiklashga xizmat qilmay, fikr yuritishga ham foydasi bo'lsin. Shuning uchun qaytarish darslarini asosiy dars tizimida o'tmay, uning hajmini ko'paytirish, yoki kamaytirish.

13. Berilgan bilim xotirada mustahkam saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko'rgazmali qurollardan foydalanib turib berish.

14. Yangi beriladigan bilim xotirada mustahkam qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog'lab berish.

15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o'rganish.

16. Oson va bir turdagi topshiriq berishdan tiyilish, ular bolalarga qiziq bo'lmay ulami toliqtiradi.

17. Mashqlar o'tkazishdan oldin, ulaming bajarilish tartibi va natijasi to'g'risida ma'lumot berish.

18. Mashq davrida o'quvchilarni charchab qolishdan saqlash.

19. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to'g'ri foydalanish.

20. O'quvchilarni o'z mehnatini nazorat qilish va baholashga o'rgatish

Politexnik printsipli. Texnologiya ta'limi bosqichlari orasidagi izchillik politexnik printsipli uchun katta ahamiyatga ega. Ustaxonalardagi mashg'ulotlarda o'smirlar quyi sinflarda o'zlashtirgan qator politexnik

malakalarni qo'llashi va takomillashtirishi juda muhim. Qag'ozni rejalashda chizgich, go'niya va qalamdan foydalanish malakasini egallash va metallni rejalashda qo'llash kerak. Bu jihatdan o'quvchilarning andaza rejalash malakalari juda foydali bo'ladi. O'quvchilar qog'ozni, gazlamani va listli qaychi bilan qirqish orasida ko'pgina umumiylikni topadi. Modellashtirish jarayonida o'quvchilar yana shu ish bo'yicha quyi sinflarda olgan bilimlarini qo'llashi va hokazolar uchun cheklanmagan imkoniyatlar vujudga keladi.

Unumli mehnat asosida o'qitish. ayrim pedagogika nazariyotchilari o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borib bo'lmaydi degan fikrni ilgari surgan edilar. Texnologiya ta'limi darslarida bajariladigan ishlar mashq asosida olib borilsa yetarli bo'ladi degan noto'g'ri fikrni ilgari surgan edilar. Lekin hayot shuni ko'rsatdiki bu fikr noto'g'ri ekanligini ya'ni o'quvchi o'z mehnatining yakunini ko'rgandagina unda mehnatga qiziqish hamda mehnat kishisiga hurmat ortishi isbotlangan. Shuning uchun ham texnologiya ta'lim darslari unumli mehnat asosida olib borilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Didaktik tamoyillar deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnat ta'limining onglilik va faollik tamoyiliga izoh bering.
3. Nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyili deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'limni unumli mehnat asosida tashkil qilish mazmunini tushuntiring.

2.2. Mehnat jarayonining tahlili va didaktik tushunchalar.

Mehnat jarayonining tahlili. 5 -SINF. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochning turmushda va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tuzilishi, turlari, ishlatilish sohalari; yog'ochlarning tashqi ko'rinishi va o'ziga xos belgilari; yog'ochning yaroqlilik va yaroqsizlik belgilari;

duradgorlikda ishlatiladigan yog'ochlar; duradgorlik dastgohi, qo'l asboblarning tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalari; o'lchash va rejalash asboblari; arralar va randa turlari; iskanalar, bolta va teshalar; bolg'alar va ularning turlari; egov va jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari; yog'ochga ishlov berish stanoklari; mashinalarning asosiy qismlari; stanokda parmalash; duradgorlik buyumlari detallarini tayyorlash; duradgorlik birikmalari to'g'risida ma'lumotlar; yelimlash, mixlar, burama mixlar va boshqa vositalar bilan biriktirish; buyumlar yuzasiga qoplamalar yopishtirish; duradgorlik buyumlarining sirtini pardoqlash va detallarni konstruksiyalash; yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlashda foydalanish; yog'ochga ishlov berishda qo'llaniladigan xalq hunarmandchiligi elementlari; yog'ochga ishlov berishga oid kasb-hunarlar haqidagi bilimlarni bilish.

**“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi
ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:**

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: mahalliy hududda o'sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan yog'och turlarini farqlay olish; yog'ochlarning sifatini va ularning nuqsonlarini; asbob-uskuna va moslamalarni ishga tayyorlash, foydalanish va ta'mirlay olish; yog'ochga ishlov berish stanoklarining tuzilishi, qismlaridagi kuch-harakatning uzatilish yoyi, stanokni ishga ayyorlay olish; tayyorlanmaning eskizi va texnologik xaritasini tuza olish, tanlash, rejalash va tayyorlash; yog'ochga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligiga oid ish usullarini bajara olish.

**“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi
malakalarga ega bo‘lishlari kerak:**

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: mahalliy hududda o'sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan yog'och turlarini farqlash; yog'ochlarning sifatini va ularning nuqsonlarini aniqlash; asbob-uskuna va moslamalarni ishga tayyorlash, foydalanish va ta'mirlash; tayyorlanmaning eskizi va texnologik xaritasini tuzish, tanlash, rejalash va tayyorlash; yog'ochga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligiga oid ish usullarini bajarish.

6-SINF. “Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar

Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi: yog‘ochning fizikaviy xossalari; yog‘och turlarining xususiyatlari; duradgorlikda ishlatiladigan yelimlar va bo‘yoqlar turlari, xususiyatlari, ishlatilish sohalari; yog‘ochlarni rejalash, o‘yish, parmalash asboblarning turlari, ularni ishlatish va saqlash qoidalari; qo‘l randa va parmalash qurilmalarining tuzilishi; stanoklarning asosiy qismlari va vazifalari; yog‘ochga ishlov beradigan tokarlik stanogi, unda bajariladigan operatsiyalar; stanoklar tuzilishidagi umumiylik; ulardagi harakat uzatish mexanizmlari, kinematikasi; yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi asosida uy-ro‘zg‘or buyumlarini tayyorlash; yelimlarni ishga tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalari; yog‘ochga ishlov berishni o‘rgatishda fanlararo aloqalar; yog‘ochga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo‘yicha ish usullarini bilish.

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi: yog‘och-taxta materiallarining turlarini va xususiyatlarini aniqlash; yog‘och asosli yarim tayyor mahsulotlar namunalari bilan tanishish va ishlatilish sohasini aniqlash; yelimlar va bo‘yoqlarni ishlatish; yog‘ochga ishlov berish asboblardan foydalanish usullarini qo‘llash; asboblarni sozlash va ta‘mirlash; yog‘ochga ishlov beruvchi tokarlik va parmalash stanoklarining tuzilishini, ularni ishga tayyorlash hamda xavfsiz ishlatish qoidalariga amal qilish; silindr shaklidagi detallar eskizini tuzish; yog‘ochdan tayyorlanadigan buyumni tanlash, rejalash, o‘lchash; yog‘och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlay olish.

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi: yog‘och-taxta materiallarining turlarini va xususiyatlarini aniqlash; yog‘och asosli yarim tayyor mahsulotlarni ishlatilish sohasini aniqlash; yelimlar va bo‘yoqlarni ishlatish; yog‘ochga ishlov

berish asboblardan foydalanish usullarini qo'llash; asboblarni soziash va ta'mirlash; yog'ochga ishlov beruvchi tokarlik va parmalash stanoklarini ishga tayyorlash hamda xavfsiz ishlatish; silindr shaklidagi detallar eskizini tuzish; yog'ochdan tayyorlanadigan buyumni tanlash, rejalash, o'lchash; yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash.

7-SINF. “Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochning kimyoviy va texnologik xossalari; yog'ochning haroratga, namlikka, mikroorganizmlarga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini ta'minlashga xizmat qiluvchi materiallar; yog'ochni quritish va saqlash qoidalari; yog'ochdan tayyorlangan buyumlarga parдоз berishda ishlatiladigan materiallar; og'ochga ishlov berishda qo'l asboblardan foydalanish texnologiyasi; tokarlik, parmalash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ular bilan ishlash qoidalarini, tokarlik stanogida detallarga ishlov berish texnologiyasi; yog'ochga ishlov berish texnologiyasi; uy-ro'zg'or, turmushda va maktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari; eskizlar asosida buyumlar tayyorlash; shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar; chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalari; buyumlarning tashqi shaklini dizayn talablari asosida o'rganish va baholash; buyum shaklining xarakteristikasi; simmetriya va assimetriya; yog'och va metallga ishlov berishni uyg'unlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini bilish.

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochlar va ularga ishlov berish materillarini turlarga ajratish va xususiyatlarini aniqlash; yog'ochga qo'lda ishlov berish asboblarni ishga tayyorlash hamda ish joyini tashkil qilish; yog'ochga

ishlov berishda tokarlik va parmalash stanoklarida operatsiyalarini bajarish; konussimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash; tayyorlanadigan detallar texnologik xaritalari; yog'och va metallga ishlov berishni uyg'unlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlay olish.

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochga qo'lda ishlov berish asboblarini ishga tayyorlash hamda ish joyini tashkil qilish; yog'ochga ishlov berishda tokarlik va parmalash stanoklarida operatsiyalarni bajarish; konussimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash; tayyorlanadigan detallar, texnologik xaritalar; yog'och va metallga ishlov berishni uyg'unlashtiruvchi xalq hunarmandchilik turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash.

7.2. Bilim, ko‘nikma, malaka, kasb, ixtisoslik

Pedagogik nuqtai nazardan olib qaydigan bo'lsak, **bilim bu** - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko‘nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Texnologiya darslarida o'quvchilarni tarbiyalash va ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Quyi sinf o'quvchilariga texnologiya ta'limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko'nikmalari faqat texnologiya ta'liminigina natijasi bo'lib qolmay, balki o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

Bundan tashqari ko'nikma - kishining bilim va elementar tajriba asosida egallagan, ma'lum harakatni ongli bajarishga bo'lgan qobiliyatidir. Masalan: Gazlamani yoki metall materiallarini to'g'ri kesa bilish ko'nikmasi, qaychini to'g'ri ushlay bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo'nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash,

qomatni muvofiq keluvchi tarzda tutish degan ma'noni anglatadi. Bu o'rinda ustalik bilan harakat qilib, ma'lum ish shartlariga, masalan, ishning surati va aniqligiga rioya qilish kerak. Aks holda ish unumsiz bo'lishi mumkin. O'quvchilarning bilimlari ish jarayonida bajarilayotgan harakatlarning nazariy asosi hisoblanadi. Harakatning ayrim bosqichlari va ularning izchilligni ana shu bilimlar orqali anglanadi, tushuniladi. Elementar tajriba o'quvchilarga faoliyatning ma'lum turi bo'yicha tasavvur beradi. Bunday tasavvurlarni yaratishda o'quvchilarning shaxsiy tajribalari ham, o'zgaralar tajribasining (so'z, grafik tasvir orqali berilgan natural ko'rsatish va shu kabilarning) ular tomonidan idrok etilishi ahamiyatlidir. Biroq shaxsiy tajriba yetakchi rol o'ynaydi. O'zgaralar tajribasini idrok etish faqat shaxsiy tajriba mavjud bo'lgandagina ijobiy natija ko'rsatadi. O'rganuvchilarda o'zgaralar tajribasini o'rganish uchun zamindir deb ta'kidlagan.

Berilayotganni o'zlashtirish - bu o'zgaralar tajribasining natijalarini o'z tajribasining ko'rsatkichlari bilan qiyoslashdir. O'zgaralar tajribasi bo'lajak ish uchun o'ziga xos namuna, yo'l yo'riqdir. O'zi uchun yangi bo'lgan harakatni bajarishda o'rganuvchi dastlab ko'p ortiqcha harakatlar qiladi, ularni moslashtira olmaydi, harakatlarni no'noqlik bilan qiladi, tez charchaydi. Mazkur harakat ko'p karra takrorlanganda o'rganuvchi mehnat mahoratini va chaqqonlikni egallaydi. Mehnat harakatlarining mukammallashuvi sintetik bosqichda maxsus mashqlar ta'sirida yuzaga keladi. O'rganuvchining ongi ayrim harakatlarni yaxlit harakatga birlashtirish jarayoniga yo'llangan bo'ladi.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli. Bu tez va aniq bajarishni mashq qilish tufayli tarkib topgan elementar avtomatlashgan ko'nikmadir. Malakaning yana bir mohiyati ma'lum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko'nikmadan sakrab o'tish degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun mazkur ko'nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to'g'ri tuzilgan bo'lsa, u to'g'ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takomillashuv darajasi o'qitishning turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o'zgaruvchandir.

Texnologiya darsi amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar bajarayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo'ladi. Shu bilan birga barcha ko'nikmalar malakaga aylanavermaydi. Faqat faoliyatning u yoki bu turini, uning ayrim harakatlarini bajarishning texnik tomonigina avtomatlashadi. Faoliyatning o'zi ongli, ya'ni murakkab ko'nikma bosqichida davom etaveradi, bu ko'nikma tarkibiga ko'pgina elementar malakalar (o'lchay bilish, asboblarni ishlata bilish va boshqalar) kiradi. Vaqtning cheklanganligi tufayli boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'limi darslaridagi ish ko'nikma bilan yakunlanadi. Malaka o'quvchilarni bilim bilan qurollantirish jarayoni uzviy bog'liq holda shakllantiriladi va asosan ana shu bilimga tayanadi. Bilimga tayanmay, faqat boshqalarning harakatlariga mexanik taqlid qilish asosida egallangan malaka texnikaga oid malaka bo'lolmaydi. Bu tor ma'nodagi malakadir. Mehnat malakalari va ko'nikmalarini faqat fikrlash bilan shakllantirib bo'lolmaydi, buning uchun ma'lum darajada davomli mashq qilish zarur, eng asosiysi o'quvchilarning amaliy mehnat faoliyatida qatnashishlaridir.

Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasb-inson puxta egallab olgan, doimiy ishlab chiqarish faoliyatining turi, masalan (chilangar, duradgor).

Ixtisoslik - insonning mehnat taqsimoti natajasida kasb ichida alohidalangan doimiy ishlab chiqarish faoliyati (asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar, universal chilangar).

Malaka - kasb yoki ixtisoslikni mukammal egallanish darajasidir. Ishchi razryadi, klassik yoki unvoni ishchining malaka ko'rsatkichi hisoblanadi.

Mehnat jarayoni, texnologik jarayon

Texnologik jarayon deganda ishlab chiqarish mahsuli holatini o'zgartirish (shtampovka quyish, kesish, yig'ish va x.k) bilan bevosita bog'liq ishlab chiqarish jarayonining bir qismi tushuniladi. Texnologik operatsiya - bir yoki bir necha

tomonidan bir ish o'rnida bajariladigan texnologik jarayonning tugal qismini bildiradi. Masalan: (qirqish, charxlash, arralash).

Texnologik jarayonning navbatdagi elementi o'tishdir, o'tish texnologik operatsiyaning bir ish o'rnida bir asbob bilan bajariladigan qismidir. Texnologik jarayon elementlaridan ma'lumki, texnologik jarayoni bajarishga qaratilgan mehnat faoliyati etarlicha to'la aks ettirilgan. Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida mehnat jarayonini yana ham batafsilroq tahlil qilmoq kerak.

Mehnat jarayoniga: mehnat operatsiyasi mehnat uslubi (priyomi), mehnat harakatlari kiradi.

Mehnat operatsiyasi-mehnat jarayonining bir qismi bo'lib, bu ishchining muayyan texnologik operatsiyalarni bajarishga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyati yig'indisidan iborat.

Mehnat uslubi - mehnat operatsiyasi ichida alohida o'tishlarni (perexod) bajarishga qaratilgan mehnat bo'laklari yig'indisidan iborat.

Masalan: masalan egovni qo'lga olish, gavdani ish vaziyatiga keltirish, egovlash vaqtida harakatlar.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlashda mehnat protsesslarining mayda bo'laklarga ajratib o'rnatish juda zarurdir. Mehnat harakatlari-o'quvchini nerv-muskul faoliyatining biror-bir ish amaliyotini bajarish uchun sarflanishidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnat jarayonidagi yuzaga keladigan hodisalar haqida so'zlab bering.
2. Bilim, ko'nikma, malaka deganda nimani tushunasiz?
3. Kasb nima? Kasblar tasnifi haqida ma'lumot bering?
4. Ixtisolik deganda nimani tushunasiz?

2.3. Texnologiya ta'limini tashkil etishning didaktik tizimlari.

Respublikamizda ta'lim soxasidagi qabul qilingan me'yoriy hujjatlar talablarida "ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonini

amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va printsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish o'quv dasturlari darsliklarini yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish" vazifasini hal qilish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Aynan ta'lim jarayonida jamiyat kelajagi yosh avlodni shaxsiy, insoniy, ma'naviy sifatlari shakllanadi. Ta'lim jarayonini qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi pedagogikaning sohasi - didaktikadir. Didaktika atamasi grek tilidan olingan bo'lib, "didaktikos", "didasko", "o'rgatuvchi", "o'rganuvchi" ma'nolarni anglatadi.

Ta'lim tizimi deb, amaliy ko'nikma va mehnat malakalarini to'g'ri tarkib topishini, kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlaydigan o'quv materialining maqsadga muvofiq tuzilmasiga, uni tashkil etish va Ta'limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha maqsadga muvofiq tuzilmasiga, uni tashkil etish va izchilligiga aytiladi.

Kasb-hunar ta'limi o'zaro bog'langan ikki qismdan iborat:

- a) nazariy bilim;
- b) ishlab chiqarish ta'limi.

Ta'limning bu 2 xil turi ham ta'lim mazmunini ajratish, uning qismlarini guruppalash, ularni o'rganish izchilligini belgilash zarurligi bilan bog'liqdir. Bunday ajratish prinsiplari va guruppalash tartibi o'qitishning odatda ishlab chiqarish ta'limi tizimining qaysi biridan qo'llanishiga bog'liq bo'ladi. Predmet tizimi, operatsiya, operatsiya predmet tizimi, motorlik mashq tizimi, operatsion- kompleks boshqa tizimlar kasb-hunar ta'limida 6 ta tizim ma'lum.

Didaktika ta'lim nazariyasi atamasi sifatida dastlab XVII asr boshlarida paydo bo'ldi. Didaktika atamasini pedagogikada birinchilardan bo'lib, nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635) "o'qitish san'ati" ma'nosida qo'llagan. U o'zining ma'ruza kursini "didaktika", "o'qitish san'ati" (1613y.)deb nomlagan.

XVII asr o'rtalarida E. Bodino "Didaktika" nomli kitobini nashr qildirgan. Ingliz olimi Frensis Bekon (1561-1626) "Yangi organon" (1620) asarida fanlarni

toifalash xususida fikr yuritib “didaktika” atamasini “badiiy asarni o‘qish san’ati” ma’nosida ishlatgan.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) “didaktikani” ilmiy bilimlar tizimi sifatida ifodalab o‘zining “Buyuk didaktika” asarida didaktika atamasini keng “Hammani hamma narsaga o‘rgatuvchi universal san’at” ma’nosida ishlatgan. Takidlash lozimki, Komenskiy bu asarida faqat ta’lim nazariyasi bilan cheklanib qolmadi. Uning mazmunini axloqiy tarbiya metodlari, intizom masalalari, ta’limni tashkil etish kabi masalalar bilan boyitdi. Boshqacha aytganda Ya.A.Komenskiy “didaktika” orqali keng ma’noda “pedagogikani” tasvirlagan. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak “didaktika” bu ta’lim nazariyasi deyiladi.

Ta’lim nazariyasi ta’limni ijtimoiy tajribani o‘tkazish vositasi sifatida qaraydi. Ta’lim natijasida tajribani bir qismi ma’lumot mazmuniga kiritiladi va ta’limni mazmunini tashkil yetadi. Ta’lim yordamida kelajak avlodni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’lim nazariyasini predmetini ifodalaymiz. Ta’lim nazariyasining predmeti bu - o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati o‘rtasidagi aloqadorlikdir.

Ta’lim nazariyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonining mohiyatini qonuniyat va prinsiplarini tadqiq qilish;
- ta’lim mazmunining pedagogik asoslarini aniqlash;
- o‘quvchilarni o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish qonuniyatlarini tadqiq qilish;
- yangi ta’lim texnologiyalarini, yangi ta’lim tizimlarini, ta’limni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar ta’lim nazariyasining predmetini aniqlashda ta’kidlab o‘tildi. Ta’lim nazariyasi o‘z vazifalarini bajarishda falsafa, psixologiya, kibernetika fanlarini yutuqlaridan ham foydalanadi. Didaktika fan sifatida o‘z predmetiga ega. Didaktikani predmeti – ta’lim qonuniyatlari va printsiplari, uning maqsadi, ta’lim mazmunnining imiy asoslari, metodlari, vositalari, shakllari, natijasi.

Ta’lim nazariyasi mustaqil fan sifatida o‘z ob’yekti va predmetiga yega bo‘lganidek o‘z kategoriyalar tizimiga (ta’lim, ma’lumot, o‘qitish, o‘qish, bilim,

malaka, ko‘nikma, hamda ta‘lim maqsadi, prinsipi, mazmuni, metodi, shakli, natijasi) ega. So‘nggi paytlarda **didaktik tizim** va ta‘lim texnologiyasi kategoriyalari ham qo‘llanilmoqda.

Ta‘lim - o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga ma‘lum bir maqsadga erishish uchun, ushbu maqsad talab etgan mazmunni u yoki bu metodlar yordamida aniq shakllarda yetkazib beriladigan va natijaga ega bo‘lgan jarayondir.

O‘qitish – ta‘lim maqsadini amalga oshiruvchi o‘qituvchini o‘rgatuvchilik faoliyatidir.

O‘qish - o‘quvchini o‘rganuvchilik faoliyatidir.

Ma‘lumot – ta‘lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalar tizimidir.

Bilim - tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar vositasida moddiylashtirilgan ko‘rinishidir.

Ko‘nikma - ilgari olingan tajriba asosida harakatni bajara olish qobiliyatidir.

Malaka - yuksak darajada o‘zlashtirishni xarakterlovchi harakatdir.

Maqsad - kutilgan, lekin erishilmagan natija.

Ta‘lim prinsipi – ta‘lim jarayonida amal qilinishi zarur bo‘lgan talab va qoidalar yig‘indisi.

Ta‘lim mazmuni - o‘qituvchi tomonidan berilishi, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar tizimi va axloqiy g‘oyalar to‘plamidir.

Ta‘lim metodi – ta‘lim maqsadiga erishish yo‘li va usuli.

Ta‘lim shakli - o‘quvchilar miqdori bilan, joy va vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘limni tashqi ko‘rinishidir. Ta‘lim jarayoni mohiyatini tushunish uchun ta‘lim nazariyasining asosiy tushunchalarini: ta‘lim, jarayoni, o‘qish, o‘qitish farqlash zarur. Ta‘lim nazariyasida ushbu tushunchalarga berilgan yagona ta‘riflar mavjud emas.

“Ta‘lim - bu maqsadga yo‘naltirilgan, boshqariladigan jarayon” bunda “o‘qituvchi bilimlarni kuzatadi, topshiriqlar beradi, bilimlarni ongli o‘zlashtirish, mustahkamlash va qo‘llash metod va usullarini o‘rgatadi, bilim, ko‘nikma, malaka

sifatini tekshiradi, u hamisha o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qayg'uradi". (B.P. Yesipov).

Buyum tizimi. Operatsiya tizimi. Operatsiya buyum tizimi

Dastlab **buyum** (predmet) tizimi paydo bo'lgan. Bu tizimga o'quvchi o'zi o'zlashtirayotgan kasb uchun tegishli bo'lgan buyumlarni tayyorlagan. Bunda buyumlar murakkabligi ortib borgan. O'quvchi ayrim mehnat usullarini bajarish qoidalari bilan maxsus tanishmagan, faqat o'qituvchining ishi va boshqa harakatlarini harakatlarini takrorlashga takrorlashga intilgan intilgan.

Mazkur tizimning asosiy kamchiligi ana shundan iborat. Buyum (predmet) tizimi hunarmandchilik ishlab chiqarish usulini aks ettirgan va XIX asrning 2-yarmigacha keng qo'llanilgan.

Operatsiya tizimi bo'yicha o'qitishda o'quvchilar o'zlari egallaydigan kasbning mazmunini tashkil qiluvchi mehnat operatsiyalarini o'rganishgan. Shunday qilib, operatsiya tizimi o'quvchilarni buyum tayyorlashga bog'lab qo'ymay, kasb doirasidagi umumiy bilim, amaliy ko'nikma va malaka bilan qurollantirgan qurollantirgan. Ta'limning buyum tizimiga nisbatan operatsiya tizimining afzalligi ana shudir. Operatsiya tizimining kamchiligi shundan iboratki, operatsiyalar umuman o'quv buyumlari tayyorlash jarayonida o'zlashtiriladi, ya'ni o'quvchilar mehnati unumli mehnat xarakterida bo'lmaydi.

Operatsiya - predmet tizimi XIX asrning 90-yillarida S.A.Vladimirskiy tomonidan taklif etilgan. Bu tizim o'quvchilar tomonidan mehnat operatsiyalarini o'ylab, tanlangan buyumlarni tayyorlash jarayonida o'rganishni ko'zda tutadi. Buyumlar tanlashda katta e'tibor beriladi, birinchi buyumni tayyorlashda eng yengil 3-4 operatsiyalar operatsiyalar, boshqalarni tayyorlashda esa murakkabroq operatsiyalar o'zlashtiriladi Operatsiya - predmet tizimning yutug'i o'quvchi o'z mehnati natijasini ko'radi, operatsiyalarni o'zi tanlaydi. Kamchiligi: mashg'ulotning birinchi darsidanoq o'z ichiga bir necha operatsiyalar olgan buyumlar tayyorlash o'quvchilarda bu operatsiyalarning mazmuni haqida to'g'ri tasavvur bo'lmasligiga olib kelardi. Shuning uchun ham tizim keng tarqalmoqda.

Operatsion kompleks tizim

Operatsion kompleks tizim. Operatsiya-buyum motor-mashq tizimlarining kamchiliklari va yutuqlari o'rganilib, operatsiya-kompleks tizimi yuzaga keldi. Bu tizimga asosan o'quvchi avval 2-3 ta ketma-ket operatsiyalarni o'zlashtiradi, so'ng shu operatsiyani ichiga olgan kompleks ishlarni bajaradi. Mehnat operatsiyalarini o'zlashtirish va ularni kompleks ishlarda qo'llash ta'limning 1-bosqichidagi asosiy vazifadir. Ikkinchi bosqichda o'quvchilar ishlab chiqarishdagi umumli mehnatga qo'shiladilar.

Motorli-mashq tizimi (SIT tizimi) - ushbu tizimning kamchiligi motor-mashq tizimi bo'yicha o'qitish o'quvchilar ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirishni nazarda tutmasdi. Ko'nikmalarni shakllantirish maxsus apparatlar va haqiqiy mehnat jarayonini eslatadigan mashqlarni qo'llash bilan amalga oshirilardi Motor-mashq tizimining yutug'i shundaki, unda mehnat o'quv va malakalarini shakllantirishning didaktik jihatdan asoslangan, psixofiziologik qonuniyatlarga mos keladigan ketma-ketligi.

Motorli-mashq tizimda o'quvchilarga kasb ta'limi berish besh davrga bo'linadi:

1. Asosiy mehnat faoliyati va harakatlarini o'zlashtirish bo'yicha mashq mashg'ulotlari.
2. Mehnat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar.
3. Mehnat operatsiyalarini bajarishga doir o'rganish mashqlari.
4. O'quvchilarni maxsus tanlangan buyumlar ustida ilgari o'zlashtirilgan mehnat operatsiyalarini operatsiyalar kompleksiga birlashtirishga o'rganish.
5. Mustaqil davr bunda o'quvchilar ayni kasbga doir harakterli bo'lgan buyumlarni tayyorlaydi.

Konstruksion texnologik tizim

Keyingi yillarda o'quv ustaxonalarida konstruksion texnologik tizim bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu tizimniig yetakchi g'oyasi o'quvchilarni

ijodiy faoliyatini oshirishdan iboratdir. O'quvchi biror buyumni tayyorlashdan tayyorlashdan avval uning loyihasi va ishlov berish jarayonini amalga oshirishi kerak bo'lgan sharoitga olib kiriladi. O'quvchi biror kiyimni tikish uchun avval o'lchov olishi, asos chizmasini chizishi, andoza tayyorlashi, modellashtirish, andozani gazlamaga joylashtirib, buyumni bichishi va tikish kabi murakkab jarayonni bajaradi

1. O'quvchilarni har xil savol va masalalarni mustaqil hal qilish Ijodiy ishlash jarayoni g'oyani paydo bo'lishi, ijodiy masalani vujudga kelishi, masalan yechish, yechimni amalda qo'llash bosqichlariga bo'lish mumkin. O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini amalga oshirishda pedagogik rahbarlik katta ahamiyatga ega.

2. O'quvchilarni ijodiy g'oyaga keltirish yoki ular oldida to'g'ridan-to'g'ri ijodiy xarakterdagi savol va masalalarni qo'yishi - o'quvchilarga texnik ijodkorlik uchun topshiriqlardagi imkoniyatlari va ulardan foydalanishni anglatish lozim.

3. O'quvchilarni fan va ishlab chiqarish asoslariga oid bilimlarini faollashtirish va qo'llashga undash - o'quvchilarga fan va ishlab chiqarish sohasidagi turli usul va uslublardan foydalanib, bilim, amaliy ko'rsatma va malakalarini shakllantirish.

4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish - o'qituvchining maqtashi, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish, devoriy matbuotda o'quvchilarning yutuqlarini ommalashtirish va hokazolar bilan ijodiy faoliyatni rag'batlantirish mumkin.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirishni eng sodda topshiriqlardan boshlash va o'quvchilarning mustaqilligini orttirish, ular buyumlarni konstruksiyalay oladigan, texnologiyani ishlab chiqa oladigan, o'z mehnatlarini uyushtiradigan bo'lish uchun mazkur topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borish kerak.

O'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan mehnat topshiriqlari mazmuni bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

- 1) Konstruksiyalash yoki loyihalash;
- 2) Texnologik jarayonlarni tuzish;

3) Mehnatni to'g'ri tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:



Nazorat uchun savollar:

1. Didaktika so'ziga ta'rif bering.
2. Ta'lim tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. Didaktikani ilmiy bilimlar sifatida ifodalab bergan olim kim?
4. Operatsion tizim, operatsion kompleks tizim nima?
5. Motorli mashq tizimi, konstruksion texnologik tizim deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi nimalardan iborat?

2.4. Texnologiya fanida o'qitish shakllari.

Texnologiya fanida o'qitish shakllari. Dars (amaliy mashg'ulot) o'quv ustaxonalarida reja asosida ma'lum o'quvchilar soni bilan olib boriladigan mashg'ulotning asosiy shaklidir. O'quv ustaxonalarida o'quvchilar soni 15-20 tadan ortsa o'qituvchi tomonidan boshqarish qiyin bo'lganligi sababli asosan sinf ikki guruhga bo'linadi. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflarida o'quvchilar soni shahar maktablarida 25 va undan ortiq, qishloq maktablarida 20 va undan ortiq bo'lsa, mehnat ta'limi darslari shu sinflarda o'quvchilarni ikki guruhga ajratgan holda olib boriladi.

Dars - o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli. Ta'limning turli shakllaridan samarali foydalanish muhim didaktik vazifa sanaladi. Ta'lim amaliyotida ta'limning jamoaviy (ommaviy), guruhli va individual shakllaridan foydalaniladi.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi.

- 1) aralash darslar;
- 2) yangi ma'lumotlarni berish darslari;
- 3) bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- 4) o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- 5) malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- 6) bilimlarni tekshirish va tahlil qilish darslari;
- 7) bitta asosiy didaktik maqsadga ega darslar.


Noan'anaviy darslar. Yordamchi turlari

To'garak, amaliy mashg'ulot, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari.

Zamonaviy darsning yordamchi turlari

Darsga tayyorlanishning texnologik mohiyati. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi.

Darsga tayyorgarlik. Aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etishning kompleks choralarini ishlab chiqishdi.



O'quv ishlab chiqarish brigadalarida o'qitish shakli. O'quv tsexlari. Usta hunarmandlarga biriktirib qo'yish

O'quv ishlab chiqarish brigadalarida o'qitish. Birinchi marta Stavrapol o'lkasida tashkil etilgan maktab o'quv ishlab chiqarish brigadalari hozirga kunda hamma erga keng tarqalgan. Bu birigadalarni maktab va xo'jaliklar bilan kelishilgan holda tuziladi. Bu brigadalarga asosan 5-9 sinf o'quvchilari kiradi. Jamoa xo'jaliklari amaliy ishlarini olib borish uchun tegishli yer, bino, inventar ajratib beradi. Brigadaning o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik ho'jalik agronomi bilan birgalikda maktabning o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

O'quv ttsexlari. Bu ham o'qitishning bir shakli bo'lib bunda o'quvchi uchun maxsus o'quv uchastkalarida yoki ttsexda stanoklar ajratilgan bo'lib o'quvchilar shu korxonada uchun kerakli biror detal yoki uzal tayyorlaydilar. Bu davrda maktab o'qituvchilarining vazifasi o'quvchilarning ishlarini kuzatib turish, berilgan topshiriqlarni bajarishga erishishi va brakning oldini olishdir.

Usta hunarmandlarga biriktirib qo'yish

O'quvchi asbob uskunani boshqarish va sozlashni ishchining rahbarligida bojaradi. Ishlari asosan kuzatib turish va vaqti-vaqti bilan asbob uskunalarini

tartibga solib turish bilan bog'liq bo'lgan ximiklar, to'qimachilar, navbatchi elektor mantyorlar, avtomatik liniyalar operatorlari va shunga o'xshash kasb egalarini shu shaklda muvaffaqiyatli tayyorlamoqda. Bu kasbdagi malakali ishchini o'quvchiga yo'l yo'riq ko'rsatish uchun yetarli darajada e'tibor qilmasligiga imkoni bor. Shuning uchun o'quvchiga ta'lim berish ishchining mehnat unumdorligini pasaytirmaydi aksincha ular dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qilishda o'z ustilarida anchagina yordam ko'rsata boshlaydilar.

Ekskursiya, kichik guruhlariga bo'lib o'qitish, yakka tartibda, jamoaviy, aralash o'qitish shakllari

Ekskursiyalar o'quvchilarning bilishga qiziqishni avj oldirishda, ular ongiga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o'tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo'ladi.

Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o'tkazishdan oldin o'quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo'yish, ekskursiyadan so'ng savol-javoblar o'tkazish lozim. Masalan, to'qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o'quvchilarga qatorlar bo'yicha topshiriqlar berish mumkin. Qatorlardan biri ekskursiyadan so'ng albomni jihozlaydi, yigiruv tsexining eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchisi to'qishning texnologik jarayonini yozadi, uchinchisi bu ishni bo'yash tsexi bo'yicha bajaradi va hokazo. Biroq hamma o'quvchilarning barcha tsexlarda bo'lishlari shart.

Kichik guruhlarda o'qitish. O'qitishning bunday shakli o'quvchilar 4 ta kichik guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan ishi to'g'risida, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan

umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu usulda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar alohida-alohida yoki 4-5 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z xissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi.

Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash bosqichlar quyidagicha:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.


2. Kichik guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 3-5 kishidan bo'lanishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. O'qituvchitomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va o'qituvchi tomonidan yo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajirilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.



Yakka o'qitish shakli

Buning mazmuni shundaki har bir o'quvchi yoki ko'pchilik o'quvchi uchun ma'lum vaqt ichida bajariladigan individual vazifalar beriladi. Misol uchun: individual mustaqil ishlar berish mumkin.

O'qitishning aralash shakli

Ayrim o'qituvchilar praktikasida o'quvchilarni ishlarini tashkil qilishning aralash shaklsini ham uchratish mumkin. Masalan: Bitta zvenodan tashqari qolgan o'quvchilar frontal ishlashi. O'qitishni u yoki bu shaklsini qo'llash, o'qitish mazmunidan, o'quvchilarni bilim va malaka me'yoridan hamda o'qitish metodlarini qaysi biridan foydalanishimizga bo'liq. O'qitishni birinchi etaplarida o'qitishning frontal tashkil qilish, undan keyin zveno shakllari, o'quvchilar ma'lum tayyorgarlik olganlaridan so'ng yakka-yakka o'qitish shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'qitishni frontal tashkil qilish, bunda sinfdagi barcha o'quvchilarni bojarayotgan buyumlari bir xildadir. Lekin ma'lumki o'quvchining ish tempi har-xildir. Shuning uchun darsni frontal tashkil qilinadi. Mehnat vazifasiga kiruvchi har turli operatsiyalarni o'quvchilar bajarayotganini ko'ramiz. Muhimi shundaki o'qituvchi

o'tayotgan darsni butun sinf uchun tushuntiradi. Bu esa o'qitishni birinchi etaplarida, bilim va malakalar hosil qilishda juda yaxshi natijalar beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'qitish shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'limning asosiy shakli dars haqida tushuncha bering.
3. Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlardagi o'qitish shakllari qanday va afzalliklari tomonlarini ayting.
4. Texnologiya fanlarida ekskursiya darslari asosan qayerlarda o'tkaziladi. Nima uchun?
5. Yakka holda o'qitish bilan jamoaviy o'qitishning qanday farqli jihatlari bor?

2.5. Texnologiya fani o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi.

Ta'lim vositalaridan foydalanishda ko'rgazmalilik didaktik tamoyili muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim prinsiplaridan biri - ko'rsatmalilik tamoyilidan foydalanadilar. Didaktikada ko'rsatmalilik tamoyili konkret bilan abstraktning birligi to'g'risidagi qoida asosida ko'rib chiqiladi. Narsa yoki hodisaning aslini yoki tasvirini idrok etish inson uchun atrofdagi borliqni, biror haqiqatni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi hamda o'rganilayotgan narsalar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida aniq tasavvurlar va abstrakt tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ko'rsatmali qo'llanmalar - o'quvchilarni o'rganiladigan ob'yektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida yaqqol (asosan ko'rish) tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar.



O'zlashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o'quvchilarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushuncha, hayot va ish tajribasiga, darsning konkret vazifalariga qarab ko'rsatmali qo'llanmalar o'qitishda har xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Ta'lim oluvchilar tabiiy ob'yektlar bilan mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar. Ko'rgazmalilik - tabiiy ob'yektlarni tanlab olish yoki tabiiy ob'yektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo'llanmalarni loyihalashga qo'yshiladigan asosiy talablardan biri. Shu maqsadda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun kerak bo'lgan ayrim tipik belgilarni anik ifodalashga yordam beradigan ob'yektlar ajratib olinadi.

Modellar tabiiy ob'yektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi. Haqiqiy ob'yekt (mikro va makro ob'yektlar) xususiyatlarini ko'rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, o'lchamni kattalashtirish kattalashtirish yoki kengaytirish kengaytirish orqali ob'yekt qurilmasi qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir.

Modellar o'z hajmiga ega yoki tekis modellarga bo'linadi. Ularning oralig'ida relief jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin. Hajmga ega bo'lgan modellar sirasiga quyidagilar kiradi:

- mulyaj;
- maketlar.

Mulyaj (maket)lar moddiy ob'yektlarga aynan o'xshatish yaratilgan qo'llanmalardir.

Kompozitsion - rasm va fotosuratlar;

Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar).

Belgili - ramziy formula, formula, harf va so'zlar so'zlar bilan ifodalanuvchi.

So'nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo'llanilmoqda, ya'ni, stendlar, xavfsizlikka oid texnikalar.

O'qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko'p qo'llanilayotgan vositalar - bu plakatlardir. Ekran va ekran - tovushlik o'qitish vositalari.

Real ta'lim vositalari, texnik vositalar va chop etilgan o'quv materiallari. Real ta'lim vositalariga o'qitishda qo'llaniladigan barcha real yordamchi vositalar: mashinalar, traktorlar, jihozlar, dastgohlar, tayyor mahsulotlar va hokazolar kiradi. **Texnik vositalariga**, proyektor, kino apparat, o'quv televideniyesi, videomagnitafon, kompyuter, videofilmlar, multimedia va hokazolar kiradi. Bundan tashqari sinf doskasi, doska - stend, doska - bloknot, kodoskoplar ham texnik vositalarga kiradi. **Chop etilgan o'quv materiallarlarga** chop etilgan o'tkazilgan barcha o'quv va ko'rgazmali materiallar kiradi.

Zamonaviy ta'lim vositalari turlari va tavsifi



Real ta'lim vositalariga o'qitishda qo'llaniladigan barcha real yordamchi vositalar: mashinalar, traktorlar, jihozlar, dastgohlar, tayyor mahsulotlar va hokazolar kiradi.

Texnik vositalariga, proyektor, kino apparat, o'quv televideniyesi, videomagnitafon, kompyuter, videofilmlar, multimedia va hokazolar kiradi. Bundan tashqari sinf doskasi, doska-stend, doska-bloknot, kodoskoplar ham texnik vositalarga kiradi.


Chop etilgan o'quv materiallarga quyidagilar kiradi:

- chop etilgan o'tkazilgan barcha o'quv materiallar;
- chop etilgan o'tkazilgan barcha ko'rgazmali materiallar kiradi.



Ta'lim vositalarining rivojlanish istiqbollari

TA'LIM VOSITALARINI TANLASH



Elektron axborot resurularidan foydalanish

Elektron ta'lim resurslari zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topadi. Elektron ta'lim resurslari an'anaviy majmualaridan farqliroq, o'qitishning kompyuter va an'naviy texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo'ladi. Elektron ta'lim resurslari asosida o'quv jarayonini tashkil etishda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi talabalarga o'qisha qiziqishni yanada orttiradi, ta'limning interaktiv xususiyati asosida talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'quv materiallarini o'zlashtirilishining samaradorligini oshiradi⁵. Shu bilan bir qatorda elektron ta'lim resurslari real hayotlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini beradi, o'quv materiallarining ozlashtirilishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki talabalar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko'ra ham samarali bo'lishini bildiradi.

Elektron ta'lim resurslari hamda masofaviy ta'lim o'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlashi, talabalarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni topish, o'rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma'lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishi, talabalarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, axborot hamda ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirishi uchun sharoit yaratishi kabi didaktik vazifalarni ham amalga oshiradi.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishda o'quvchilar faol ishtirok etadi, topshiriq ustida ishlaydilar, o'zgalarning fikr - mulohazalarini muhokama qiladilar, tinglaydilar, savollar beradilar, bir-biridan yordam so'raydilar, yordam berishni o'rganadilar. Elektron ta'lim resurslari ining samaradorligi, avvalo, undan foydalanishga puxta tayyorgarlik ko'rishga bog'liq. O'qituvchi uchun darsga tayyorlanish eng mas'uliyatli va eng muhim ish hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslaridan mazuga tayyorlanish o'qituvchidan dastlab quyidagilarni inobatga olishni talab etadi:

- Elektron ta'lim resurslaridan mavzuga oid materiallarni aniqlash;
- dars shaklini aniqlash;
- mavzu manbalari bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid materiallarni elektron ta'lim resurslaridan sinchiklab o'qish, talabalarga tushunish qiyinlik qiladigan mavzularni izohlash metodini belgilash;
- dars rejasini tuzish;
- darsni o'tkazish metodini tanlash;
- darsning maqsad va vazifasiga mos didaktik materiallardan foydalanish;
- dars mavzusining oldingi va keying dasr bilan bog'liq tomonlarini ochish;
- mavzuni bayon qilish usulini aniqlash;
- uy vazifasini tekshirish metodlarini belgilash;
- beriladigan savollarni tuzatish va javobini ham tayyorlab qo'yish;
- mavzuga doir qiziqarli topshiriqlar tayyorlab qo'yish;

- uyga beriladigan vazifalarni belgilash.

Tajribalardan ma'lumki, o'quv jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga muvofiq ish olib borilsa, ular bilimlarini yaxshi o'zlashtiradilar. Bilimlarni o'zlashtirishning muhim sharti uni tushinishdir. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'ziga xos afzalliklarga ega. U talabalarni mantiqiy fikrlashga, fanga ilmiy va ijodiy yondashishga o'rgatadi, o'quvchilar uchun o'quv mavzularini oson o'zlashtirishiga, ilmiy dunyoqarshining shakllanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bilimlarni mustahkam egallashga yordam beradi, his tuyg'ularga ta'sir etib, mashqatli aqliy faoliyat natijasida fanga va kasbga nisbatan muhabat uyg'otadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'limning didaktik tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
2. Ko'rsatmalilik tamoyilini izohlab bering.
3. Zamonaviy ta'lim vositalari qaysilar.
4. O'qitishning texnik vositalari deganda nimani tushunasiz?
5. Elektron axborot resurslarining ta'lim jarayonidagi afzalliklari nimadan iborat.

2.6. Texnologiya fanida o‘qitish metodlari.

An’anaviy (og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, muammoli).

Ta’lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim b‘lgan vazifalarii amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi.

Metod – (grekcha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, ahloq usuli ma’nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo‘li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko‘rinishi.

Ta’lim metodi - o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muntazam qo‘llaydigan, o‘quvchilarga o‘z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Metodika - biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, usullari, yo‘llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma‘lum o‘quv fanini o‘qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar¹.

Usul - biror narsa, hodisa, jarayonni o‘rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub - biror narsa, hodisa, jarayonni o‘rganish yoki amalga oshirish uchun qo‘llash lozim bo‘lgan usullar majmuasi.

Texnologiya ta’limida o‘qitish metodlari quyidagicha:

An’anaviy metodlar

Ta’limning **og‘zaki metodlari** qatoriga hikoya, suhbat, ma’ruza kabilar kiradi.

Hikoya. Mazkur metod o‘quv materialini ta’lim oluvchilarga savollar bermasdan, uzluksiz hikoya qilib berishni ko‘zda tutadi.

Ma’ruza. Og‘zaki ta’lim metodlaridan biri sifatida ma’ruza hikoyadan ko‘ra kattaroq hajmli, mantiqan murakkab tuzilish, obraz, isbot va umumlashmalarga ega

o'quv materialini bayon qilishni ko'zda tutadi. Hikoyadan farqli ravishda ma'ruza, odatda mashg'ulotning barcha vaqtini qamrab oladi.

Suhbat. Suhbat metodi o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan so'zlashuvi, fikr almashinuvini ifodalaydi. Suhbat ta'lim oluvchilarni dalillar tizimi, yangi tushuncha yoki qonuniyatni o'zlashtirishga turtki beruvchi, puxta o'ylangan savollar ketma-ketligi asosida tashkil etiladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari

Ta'limning ko'rgazmali metodlari o'zida muhim didaktik talabni aks ettiruvchi usullar majmuasini ifodalaydi. Hozirgi davrda zamonaviy didaktika ko'rgazmali vositalarni qo'llashning eng yuqori ta'limiy, tarbiyaviy hamda shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi variantlarini qo'llashni talab qilmoqda. U pedagoglarni ko'rgazmali vositalarni qo'llash barobarida ta'lim oluvchilarning asbtrakt tafakkurini ham rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ko'rgazmali ta'lim metodining xususiyati uning hamma vaqt ma'lum darajadagi og'zaki metodlar bilan omuxta shaklda berilishidir.

Ta'limning amaliy metodlari

Amaliy ta'lim metodlari ta'lim oluvchilar faoliyatining juda keng jabhalarini qamrab oladi. Amaliy ta'lim metodlaridan foydalanishda quyidagi usullar keng qo'llaniladi: masalaning qo'yilishi, uning bajarilishini rejalashtirish, tezkor rag'batlantirish, yo'llanma berish va nazorat qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablarini aniqlash, ta'lim maqsadiga to'la erishishni ta'minlash uchun tegishli tuzatishlar kiritib borish.

Amaliy ta'lim metodlari og'zaki hamda ko'rgazmali metodlar bilan birgalikda qo'llaniladi, chunki har qanday mashg'ulotlar avvalida albatta yo'riqnoma berilishi shart. Og'zaki tushuntirish va namunalarni namoyish qilish, shuningdek bajarilgan ish tahlili butun mashg'ulot davomida ham davom ettiriladi.

Muammoli metod

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni

rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi².

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- o'quv materialini muammolashtirish;
- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
- ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
- o'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'yekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki "fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq" bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab

qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi: o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;
- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

Professor N.Azizxo'jaeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan, ya'ni muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir². Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat xususiyati quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-talabalar uchun noma'lum yangilik mavjudligi;

- muammolarni o‘zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o‘zlari o‘rganishga harakat qilishlari;
- nima noma’lum ekanligini bilib, ma’nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o‘quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o‘quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma’nosiga jiddiy ravishda e’tibor berishga qaratadi.

Noan’anaviy o‘qitish metodlari. (Grafik organayzerlar)

Noan’anaviy ta’lim texnologiyaning muhim belgisi - maqsad hosil qilish jarayonidir. An’anaviy pedagogikada “pedagogik maqsad” masalasiga nazariyachilar ham, amaliyotchilar ham kam e’tibor beradi, maqsad - metodik adabiyotlarda ham noaniq ifodalanib, unga erishish darajasi ham sub’yektiv baholanadi. Noan’anaviy ta’lim texnologiyasida - pedagogik maqsadni aniqlash asosiy muammo bo‘lib, maqsadni diagnostik ifodalash, bilim o‘zlashtirish sifatini ob’yektiv baholash nazarda tutiladi³. Nihoyat, ta’lim-tarbiya jarayonlari tuzilishi va mazmuni jihatidan yaxlitligi – ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim prinsipi hisoblanadi. Yaxlitlik prinsipi, shuningdek, ta’limning har turi bo‘yicha bo‘lajak pedagogik tizimning loyihasini ishlab chiqayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari (chorak, semestr, o‘quv yili davomida ham, shuningdek butun ta’lim davomida ham) o‘zaro ta’sirda bo‘lishiga erishish zarur.

Demak, noan’anaviy ta’lim texnologiya - muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni markazida ta’lim oluvchi shaxsi bo‘lib, o‘qitishning zamonaviy shakli, faol o‘qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta’lim - tarbiya ishidan ko‘zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirishdir.

Organayzer -inglizcha “tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi” ma’nosini

bildiradi.

Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun insert, toifali, konseptual, BBB, “Klaster” sxemasi, T-jadvallar, Venn diagrammasi, Swot-tahlil jadvali, “Kuchlar tahlili” grafigi, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Baliq skeleti”, “Kaskad”, “Piramida”, “Nilufar guli” kabi organayzerlardan foydalaniladi.

Grafik organayzerlar - o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor, to‘ldirilgan holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma‘lumotlarni, eshitgan ma‘ruzalarni tizimlashtirishni ta‘minlaydi; olingan ma‘lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avvalo o‘zlashtirgan ma‘lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Noan‘anaviy o‘qitish metodlarining afzalliklari:


1. O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib kelishi.
2. O‘z vaqtida aloqalarning ta‘minlanishi.
3. Tushunchalarni amaliyotda qo‘llash uchun sharoitlar yaratilishi.
4. O‘qitish usullarining turli xil ko‘rinishlari taklif etilishi.
5. Motivatsiyani yuqori darajada bo‘lishi.
6. O‘tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
7. Muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi.
8. O‘z-o‘zini baholashning o‘sishi.
9. O‘quvchilarning predmetning mazmuniga, o‘qitish jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabati.
10. Mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchining shakllanishiga yordam berishi.

11. Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi.
12. Muammolar yechish ko‘nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

1. Ko‘p vaqt talab etilishi.
2. O‘quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
3. Juda murakkab mazmundagi material o‘rganilayotganda ham o‘qituvchi rolining past bo‘lishi.
4. “Kuchsiz” o‘quvchilar bo‘lganligi sababali “kuchli” o‘quvchilarning ham past baho olishi.

Grafik organayzerlarning bir qancha turi mavjud bo‘lib, ularni texnologiya ta’lim jarayonlarida qo‘llash samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Shulardan biri **“Qanday, qanaqa” grafik organayzeridir.**



“Qanday” metodi ta’lim oluvchirda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi.

Metodni qo‘llashda o‘quvchi (ta’lim oluvchi)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, m‘lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Metodni qo‘llash:

- 1) o‘qituvchi tanlangan mavzu, masalani e‘lon qiladi;
- 2) o‘quvchi (ta’lim oluvchi)larni mavzu va metod bilan ishlash qoidalari bilan tanishtiradi;
- 3) ular guruhlarga biriktiriladilar;

- 4) guruhlarga topshiriq beriladi;
- 5) guruhlar topshiriqni bajaradilar;
- 6) guruhlar tomonidan taqdim etilgan echimlar bilan jamoa tanishtiriladi;
- 7) jamoa tomonidan guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

Muammoning yechimi “Buni qanday qilish kerak?”, “Qanday?” savollariga javob topish asosida hal qilinadi. Muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to‘g‘risida o‘ylanib qolmaslik lozim. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega.

Metodni qo‘llashda muammoni yechish imkoniyatlarigina izlanmay, ularni qo‘llash yo‘llari ham tadqiq qilinadi. Metodni qo‘llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

- 1) o‘ylangan barcha g‘oyalar tahlil qilinmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezda qayd etilishi kerak;
- 2) shakllanayotgan diagramma tugallangan bo‘lmay, unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin bo‘lsin;
- 3) agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatib, u muammoning asosiy echimi bo‘lishi mumkin;
- 4) yangi g‘oyalar grafik, klaster yoki tasvir ko‘rinishida bo‘lishidan qat‘iy nazar yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngda qayd qilib boriladi va buni ta‘lim oluvchirning o‘zlari hal etadilar;
- 5) agar ta‘lim oluvchir savollarni to‘g‘ri qo‘ysalar va masalaning rivojlanish yo‘nalishini ob‘yektiv belgilay olsalar, u holda yechim to‘g‘ri topiladi.

INSERT JADVALI. Insert so‘zi inglizcha joylashtirmoq, belgi qo‘ymoq ma’nosini beradi.

- mustaqil o‘qish, ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;

- oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

O‘qish vaqtida olingan ma’lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo‘yilgan mos ravishda jadval ustunlariga “joylashtiriladi”:

V - “...” haqida olingan bilim (ma’lumot)ga mos keladi;

-- “...” haqidagi bilimga qarama-qarshi;

+ – yangi ma’lumot sanaladi; ? - tushunarsiz qo‘shimcha ma’lumot.

INSERT JADVALI V + – ?

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Insert-avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so‘ng, matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta’lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli asbob.

Insert - o‘zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnologiya fanida qaysi o‘qitish metodlaridan foydalaniladi?
2. An’anaviy o‘qitish metodlarini sanab bering.
3. Noan’anaviy o‘qitish metodlarining afzalligi nimada?
4. Qanday grafik organayzerlar bor?

2.7. Texnologiya fanida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari haqida tushuncha. Hozirgi kunda ta’lim jarayonlarida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib

chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi .

Innovatsiya - (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi¹. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir¹. **Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalaridir.

Ularning asosiy turlari: Faoliyat yo'nalishiga ko'ra, kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra, o'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra, kelib chiqish manbaiga ko'ra tashkil etiladi.

Ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar

- Radikal innovatsiyalar,
- modifikatsiyalangan innovatsiyalar

- Kombinatsiyalangan innovatsiyalar
- Tarmoq (lokal) innovatsiyalari
- Tizim innovatsiyalari
- Modul innovatsiyalari

Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi:

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan’anaviy yondoshuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Texnologiya ta’limi o‘qituvchisi ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat’iy rioya etishi kerak:

- har bir o‘quvchisini alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi;
- o‘quvchini hurmat qilishi;
- o‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan hurmat hissini uyg‘otishi;
- o‘quvchining ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi;
- o‘quvchining mehnat munosabatlariga bo‘lgan xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir o‘quvchiga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lishi;
- o‘quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;

- texnologiya fani asoslarini yetarlicha o‘zlashtira olishi uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;

- o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotlarda, mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;

- o‘quvchilarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish;

- ta’lim jarayonida hech bir o‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaligi;

- alohida o‘quvchining kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmasligi;

- bordiyu, o‘quvchi tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlab aniqlangan sabablar asosida o‘quvchining sha’ni, g‘ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;

- ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi uchun “muvaffaqiyat” muhitini yarata olish;

- har bir o‘quvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

- o‘quvchining hunarlarni o‘rganish borasidagi qobiliyatini o‘stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;

- o‘quvchining shaxsini emas, balki uning aniq hatti-harakatlarini baholashi;

- pedagog sifatida har bir o‘quvchining hurmati va ishonchini qozona olishi

zarur.

O‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagog tomonidan mehnat ta’limi jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada

o‘stirishga xizmat qiladi. Xususan: mehnat darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagoglar o‘quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratishlari zarur.

Texnologiya ta‘limi jarayonida pedagoglar tomonidan:


- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.
- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- amaliy topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- o‘quvchini juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta‘minlash;
- mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e‘tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga o‘quvchilar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Texnologiya fani darslarida interaktiv usullarni loyihalash, o‘qitish texnologiyasi, modulli ta‘lim, keys ta‘limi texnologiyalarini qo‘llash “5” daqiqa usuli

O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lib shunday joylashtirish kerakki, bir-birini nima yozganligini ko‘rmasin. Guruhlar 5 daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. Guruhlar yozishni bir vaqtda boshlab va bir vaqtda tugatishi shart.

Masalan: Servis xizmati bo‘limidan 5 daqiqa mobaynida gazlamalarning xususiyatlarini izohlab bering.

Bu usulda eng ko'p formula yozgan va uni izohlab bergan guruh g'olib hisoblanadi.



“Zanjir mashqi”

O'quvchilarning darsda o'rganilgan mavzuni qismlarga bo'lib, navbatma-navbat bayon etishlari orqali yaxlit bir ko'rinishda umumlashtirish usuli. Masalan:

- 1-guruh: Gazlama
- 2-guruh: Gazlamaning turlarini o'rganish
- 3-guruh: Gazlamalarning olinishi
- 4-guruh: Gazlamalarning xossalari
- 5-guruh: Gazlamalarning ishlatilishi.

Bu mashqni shu tarzida davom ettirish mumkin. “**Fikriv hujum**” (“Mozgovaya ataka”) metodi. Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash enertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabgi bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni engishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. “Fikriv hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot(bahs)ning ishtirokchilari tomonidan o'rta

tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini taminlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

“Yalpi fikriy hujum” metodi. Mazkur metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha (20-60) nafar ta’lim oluvchilardan iborat guruh (sinf)larda qo‘llash munikin. Ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun inikoniyat yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar ta’lim oluvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi.

Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh azolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar azolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yarmida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e‘lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh azolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi. Mazkur metod E.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.YA.Bush tomonidan qayta ishlangan. “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta’lim oluvchining shaxsiy inikoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hamda ta’lim oluvchilarda ma’lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’lim oluvchilarni o‘zida biriktirgan hamda son jihatidan teng bo‘lgan kichik guruhlarini shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, yani, ularni to'g'rilik darajasi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Keys-stadi (muayyan vaziyatlar) individumlar, sheriklar, guruhlarda, korxonalarda, hattoki butun bir mamlakat miqyosida o'zining ta'lim xususiyatiga ko'ra yuzaga keluvchi muammolarni ifodalashi mumkin. Keyslar ta'limning turli sohalarida: biznes, boshqaruv, tibbiyot, arxitektura, qurilish hamda nostandart muammolar majmuasi yechimini qabul qilish malakasini talab etadigan barcha fanlarda qo'llanilishi mumkin.

“Keys-stadi” yordamida o'qitishda muammolar aniqlanadi, yechimlar topiladi, tavsiyalar ishlab chiqiadi.

Keysni o'rganish maqsad va vazifalarini ishlab chiqish - mazkur bosqichda o'qituvchi o'qitiladigan fan bo'yicha talaba o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va malakalarga o'z e'tiborini qaratadi. Oldin o'rganilgan material bilan qo'yilgan maqsadning so'zsiz muvofiqligi ko'zda tutilgan bo'lishi zarur. Keys-stadilarni tuzish vaqo'llashning asosiy tamoyillari yetarli darajada umumiydir. Keysning maqsad va vazifalariga muvofiq materiallar tanlash - keysning materiali muammoni ochib berishi lozim va mazkur muammo keys oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos bo'lishi kerak.

Keyslar haqiqiy vaziyatlarning aniq tafsilotini namoyish etishlari yoki muallifning ijod natijalardan biroz qo'shilgan bo'lishi mumkin. Keyslar uchun


malumotlar va materiallar sifatida yuqorida ko'rsatilganidek, gazeta maqolalari, tashkilotlarning hujjatlari, u yoki bu sohadagi tashkilotning faoliyati bo'yicha xususiy kuzatuvlar, mutaxassislarning fikri, iste'molchilarning fikri, statistika qo'mitasi ma'lumotlari, diagramma, fotohujjatlar, multimedia materiallari, slaydlar va h.k. xizmat qilishi mumkin.

“Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib (“modul”, lot. modulus), uning bitta ma‘nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma‘noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi⁵. **Modul**-bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo‘limi, muayyan katta mavzusi, o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhidir.

Modulli o‘qitish - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta‘limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul-faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta‘minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o‘qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.



Modulli o'qitishning blok sxemasi

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi: ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi. Ko'pchilik hollarda quyidagi uch turdagi makromodullar tuzilishi mumkin:

- a) gumanitar fanlarni o'z ichiga oladigan;
- b) iqtisodiy fanlarni o'z ichiga oladigan;

v) umumta'lim, umumtexnik umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni fanlarni o'z ichiga oladigan.

“Muammoli vaziyat” metodi orqali umumkasbiy fanlarning nazariy va amaliy asoslarini o'qitishda muammoli vaziyatlarni yaratish natijasida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni faol o'zlashtirishga erishiladi.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda muammoli vaziyat pedagogik turkum fanlari hamda umumkasbiy fanlarning integratsiyasi, ya'ni didaktik sintezi va fanlararo aloqadorlik darajasi faoliyatida pedagogik hamda texnik-texnologik muammoli vaziyat (topshiriq)lar yechimini topish orqali amalga oshirishi lozim.

Muammoli vaziyat - bu bilim olish maqsadida maxsus yaratilgan aqliy faoliyat holatidir. Bunday vaziyat zaminida ilgari o'zlashtirilgan bilimlarning xotirada qolganligini tekshirish va yangi masalani yechish uchun aqliy yoki amaliy ishlash usuli yotadi.

Texnologik ta'limda muammoli vaziyat asosida o'qitish talabalarni har tomonlama rivojlantiradi, jumladan, ijodiy idrok etish qobiliyatini o'stiradi. Muammoli ta'limning texnologik ta'limi darslaridagi ajralib turadigan xususiyati shundan iboratki, unda bilimlar talabalarga tayyor holda bayon etilmaydi, balki talabalarga berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishlari uchun bir yoki bir necha muammo qo'yiladi. Mustaqil izlanishlar jarayonida ilmiy-texnik bilimlarning talabalar tomonidan egallanishi yetarli darajada puxta va ongli bo'lib, ularda zamonaviy dunyoqarashni tarkib toptirish uchun baza yaratadi.

Muammo - o'zida undagi hal qilishi uchun mavjud bo'lgan vositalar (bilish, uddalsh, izlanish faoliyatining tajribasi) asosida qabul qilingan muammoli vaziyatni ifodalaydi. Shuning uchun ham, har qanday muammoda muammoli vaziyat mavjud bo'ladi, ammo har qanday muammoli vaziyat muammo hisoblanmaydi.

Bilish vazifasi o'zida mavjud sharoit yoki parametrlarda hal qilinadigan muammolarni ifodalaydi. Bunday vazifaning mazmuni, ya'ni paydo bo'lishining

asosida ma'lum bilan noma'lum o'rtasidagi ziddiyat yotsagina, bu muammo sanaladi.

Muammoli vaziyatlar talabalarning bolg'usi kasbiy-pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan hayotiy, amaliy dalillar, jarayonlar asosida yaratiladi. Talabalar tomonidan muammolarning yechimini topishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Muammoli vaziyat tavsifini keltirish.
2. Guruhni kichik guruhlarga bo'lish.
3. Guruh talabalari tomonidan muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlash.
4. Muammoli vaziyatni keltirib chiqaruvchi sabab va oqibatlar to'g'risida fikr-mulohazalarni ilgari surish.
5. Muammoli vaziyatning maqbul yechimini ishlab chiqish.
6. Muammoli vaziyatning yechimini to'g'ri va aniq topilganligini isbotlash.

Yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so'raladi.

1-muammoli masala

1-misol. O'quv ustaxonalarida reja asosida ma'lum o'quvchilar soni bilan olib boriladigan mashg'ulotning asosiy shaklsi.

2-misol. O'quv ustaxonalarida o'quvchilar soni 15-20 tadan ortsa o'qituvchi tomonidan boshqarish qiyin bo'lganligi sababli asosan sinf ikki guruhga bo'linadi.

3-misol. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflarida o'quvchilar soni shahar maktablarida 25 va undan ortiq, qishloq maktablarida 20 va undan ortiq bo'lsa, texnologiya ta'limi darslari shu sinflarda o'quvchilarni ikki guruhga ajratgan holda olib boriladi. Sizning-cha, mazkur misollarda bayon etilganlar texnologiya ta'limida o'qitishning qaysi shakliga tegishli? O'z fikringizni asoslang.

2-muammoli savol

Siz texnologiya ta'limi jarayonida o'quv ustaxonalarida darslarni tashkil etishning qanday shakllaridan foydalana olasiz?

3-muammoli vaziyat

Ximiklar, to'qimachilar, navbatchi elektr montyorlar, avtomatik liniyalar operatorlari va shunga o'xshash kasb egalarini tayyorlashda qanday o'qitishning shaklidan foydalanishadi? Nima uchun ularni bu usul bilan o'qitishini izohlab bering.

“Aqliy hujum” o'quvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta'lim usulidir. Mazkur usul yordamida muammoli savol yoki topshiriq vositasida barcha o'quvchilarning fikrlari jamlanib, yakuniy xulosaga kelinadi. Bunda aytarli to'g'ri bo'lmagan fikrlar ham inobatga olinadi.

O'rtaga tashlangan muammoli savol yuzasidan bildirilgan fikrlar doskaga yoki maxsus qog'oz (flipchart)ga yozib boriladi. Bunday yondashuv aytilgan fikrlarni jamlash, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish imkonini beradi.

“Aqliy hujum” metodini o'tkazish yo'llari

1. O'qituvchi o'quvchi oldiga savol, topshiriq yoki muammoni qo'yadi (savol va topshiriqlar o'tilgan yoki yangi o'zlashtirilayotgan mavzu bo'yicha, shuningdek, hayotiy voqea - hodisalar yuzasidan bo'linishi mumkin) va o'quvchilardan o'z fikr - mulohazalarni bildirishlari so'raladi.

2. Barcha fikrlar doska yoki flipchartga yozib boriladi.

3. So'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan birga asosiy g'oyalarni uyg'unlashtiradi, ayrim o'rinlarga tuzatishlar kiritadi, keyingi jarayonlarda foydalanish uchun eng muhimlari ajratib olinadi.

“Aqliy hujum” metodini o'tkazish qoidalari

1. “Aqliy hujumni” metodini o'tkazish uchun ajratilgan vaqt (reglament)ga qat'iy rioya qilish zarur.

2. Belgilangan vaqt orasida fikr aytish istagini bildirgan har bir o'quvchiga imkoniyat yaratish zarur.

3. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar muhokama

qilinmasligi, baholanmasligi kerak.

4. Zarur bo‘lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrlarga tuzatish kiritish mumkinki, bu narsa o‘quvchilar o‘z fikrlarni aniq, lo‘nda, qisqa bayon etishlarga olib kelsin.



“Klaster” metodi. klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib u talim oluvchilarga ixtiyoriy muammo(mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarini bermalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini yaratuvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “klaster” metodi aniq obektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metodmuayyan mavzuning ta‘lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini taminlashga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Interfaol ta'lim texnologiyalarining dars jarayonidagi afzalliklarini ayting.
3. Modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash usuli qanday?
4. Keys-stadi texnologiyasini texnologiya ta'limidagi samaradorlik jihatlarini ayting.
5. Dars jarayonida muammoli vaziyatni qanday yaratish mumkin?

2.8. Texnologiya darslarida amaliy darslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Amaliy mashg'ulot - aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytiladi.

Amaliy mashg'ulot mehnat ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv poligonlarida ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Texnologiya ta'limi tizimining xususiyati shuki, nazariya va amaliyot bir biridan alohida, ya'ni nazariy ta'lim o'quv auditoriyada, amaliy mashg'ulotlar ustaxona va laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Nazariy darsda kerakli maxsus bilimlar amaliy darsga nisbatan ilgariroq berilishi ta'minlanishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim beruvchi ish o'rnida faqat ish topshiriqlariga tegishli qo'shimcha bilimlarni

Darsni rejalashtirish - kutilayotgan o'quv natijalariga erishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlash.

Barcha imkoniyatlarni inobatga olgan holda, bir marta tuzilgan rejada o'zgarishlar bo'lmasligiga harakat qilish kerak. Ta'lim beruvchi uchun rejalashtirish o'quv jarayonini boshqarishda xatolarga yo'l qo'ymaslik deganidir.

Ta'lim oluvchi uchun rejalashtirish, u bo'lajak o'quv jarayoni to'g'risida va ta'limdan nimalarni kutishi mumkinligi haqidagi aniq tasavvurga ega bo'lishi deganidir.

Texnologiya fani o'qituvchisining amaliy darsga tayyorgarligi

O'qituvchi navbatdagi mavzu bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarish protsessida o'quvchilar mehnatini rejalashtirish va uyushtirish shuningdek mehnat jarayonini borishini kuzatish, unga tuzatishlar kiritish hamda ro'y beradigan xatolarni bartaraf qilishga jalb etiladi.

O'quvchilarni aqliy faoliyatida amaliy darslarda ishtirok etish alohida ahamiyatga loyiqdir. O'quvchilar ustaxonalarida amaliy darslarda hal qilinadigan texnik masalalarni ikki tipga: konstruktorlik va texnologik masalalarga ajratish mumkin. Konstruktorlik masalalarini turlarini ko'rib chiqamiz.

Texnologiya ta'limi, o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi o'quv rejasini, texnologiya ta'limi va fanining o'quv dasturini va taqvimiy mavzuli rejani o'rganishdan boshlanadi. texnologiya ta'limi va o'qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o'quvchilarida umumiy mehnat bilimlari va amaliy ko'nikmalarini qaysi mehnat turlari bo'yicha va qanday hajmda shakllantirish lozimligini aniq tasavvur qiladi. Buning uchun qanday asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari kerakligi, o'quvchilar texnologiya dasturi talablarini to'liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga binoan ularni tayyorlash uchun qanday materiallar talab qilinishini bilib oladi.

Texnologiya o'qituvchisi olingan ma'lumotlar asosida va texnologiya ta'limi dasturidan foydalangan holda ancha batafsil rejalashtiruvchi hujjatlarni, ya'ni taqvimiy mavzuli rejani va o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatini tuzib chiqadi. Shunday tarzda belgilab chiqilgan dastur o'qituvchi uchun fan yuzasidan ishlarning taqvimiy mavzuli rejasi sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilar foydalanishi uchun rejalashtirilgan buyumlarga texnologiya ta'limi o'qituvchisi texnikaviy hujjatlar ishlab chiqadi, zarur ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi, asbob-uskunalarining, o'quvchilar ish joyi va ish qurollarining

texnikaviy holatini, shuningdek, o'quv ustaxonalari binosining va ulardagi jihozlarning xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq kelishini tekshirib chiqadi.

Darsga tayyorlanish vaqtida o'qituvchi o'tgan mashg'ulotning mazmuni va natijalarini tahlil qilishi, ularning izchil aloqasini belgilab chiqishi, kelgusi darsning ta'lim va tarbiya maqsadini to'g'ri belgilashi, darsning tuzilishini va uning har bir elementiga ajratiladigan vaqtni aniqlashi, mavzuga oid savollar tuzishi va kirish yo'riqnomasi mazmunini ishlab chiqishi, asosiy mehnat usullarini tanlashi va o'ylab chiqishi kerak.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, o'quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o'quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat'iy saqlanishiga, ishlarga baho qo'yish va ularni tahlil qilishga alohida e'tibor berishi kerak.

Zamonaviy darsning tarkibiy tuzilishi o'qituvchilarning boshqaruvchilik roli va o'quvchilarning anglash faoliyatlarini tashkil etishning o'ziga xosligini aks ettira turib, juda ham turli-tuman shakldaligi bilan farq qiladi. Darsning muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi hamda o'quvchilarning darsga tayyorlanishlariga bog'liqdir.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanish jarayonida quyidagilarni hisobga olishi zarur:

Darsning maqsadi:

a) darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarda yangi atamalarga oid tushunchalarni shakllantirish;

b) darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

d) darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tasavvuri, xotirasi, kuzatuvchanligi, tafakkuri, nutqi, o'quv jarayonida ko'nikma, o'quv malakalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish;

e) dars materialining murakkablik darajasini aniqlash: dars materialining amaliyot bilan va oldingi o'tilgan materiallari bilan bevosita bog'lanishini

aniqlash, o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun vazifa berish dars jihozini tayyorlash, qo'shimcha beriladigan topshiriqlar hajmini aniqlash;

f) darsning didaktik vazifasini, ya'ni maqsadga olib keluvchi masalalarning ketma-ketligini aniqlash;

g) o'qitish usullarining optimal variantlarni tanlash;

h) darsning tuzilishini aniqlash: darsni samarali boshlash va vaqtni to'g'ri taqsimlash, darsning rejasi va yaxlitligini, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro uzviyligini ta'minlashdan iborat.

Joriy, oraliq va yakuniy yo'riqnomalarni o'tkazish tartibi

Yo'llanma - mehnat faoliyati usullarini tushuntirish va ko'rsatish hamda mehnat faoliyatlarini to'g'ri va xavfsiz bajarish bo'yicha tasavvur hosil qilishga va o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga qaratiladi. Yo'llanma darsning qismi (elementi)dir. Yo'llanma (instruktaj)ga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi: Yo'llanma jarayonida ta'limning har xil metodlaridan foydalanish.

Yo'llanma mazmunini o'qituvchi asoslashi. Agar o'qituvchining o'quvchilar oldiga qo'ygan topshirig'i ularga tushunarli bo'lmasa, o'quvchilar uni bajarish shartini ko'pincha buzadilar, chunki ular bu nimaga olib borishini bilmaydilar. Shuning uchun o'qituvchining har bir talabi asoslanishi kerak. Yo'llanmaning to'laligi va yo'llanmani elementlarga ajratish. Mehnat topshirig'ining qiyinligi va u qaysi sinfda bajarilayotganiga qarab yo'llanma butun yoki ishning borishiga qarab qismlarga ajratib berilishi mumkin. Yo'llanmada shunday ko'rsatmalar bo'lishi kerakki, o'quvchi ular yordamida o'z faoliyatlarini nazorat qila olishi kerak. Kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalar bir-biridan farq qiladi.

Yangi operatsiyani o'rganish bo'yicha kirish yo'llanmasi operatsiya xarakteristikasini; mehnat usullarini me'yoriy va sekinlashtirilgan sur'atlarda bajarish qoidalarini namoyish qilishni; o'z-o'zini nazorat qilish belgilarini; aniq mehnat vazifasini o'z ichiga oladi.

Joriy yo'llanma: o'quvchilar ishini to'xtatish - xatoga yo'l qo'ygan o'quvchining ishiga e'tibor berish, undan noto'g'ri ishlanganligining sababini

tushuntirib berishini talab qilish, shu asnoda hamma o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish, o'qituvchining xulosasi: o'qituvchining to'g'ri usullarni ko'rsatishi, xatoga yo'l qo'ygan o'quvchining usullarini xotirada tiklashi, guruhga ishni davom ettirishga ruxsat berishdan iboratdir.

Yakuniy yo'llanma sifatli bajarilgan va noto'g'ri qilingan buyumlarni namoyish qilishni, o'quvchilar ishining umumiy xarakteristikasini, o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolar tahlilini, o'quvchilar ishini baholashni o'z ichiga oladi. Kirish instruktajlari ishlab chiqarish ta'limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bo'limini o'rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, brak va xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishiga erishishdir.

Dars jarayonida o'qituvchining vazifasi

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Bu umumiy qoida texnologiya ta'limi o'qituvchisiga ham taalluqlidir. Texnologiya ta'limida vaqtning asosiy qismini o'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari egallashi o'qituvchining rolini yanada oshiradi. Chunki, hamma narsa o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'ylansa va yaxshi rejalashtirilsagina o'quvchilar mustaqil ishlay olishlari mumkin.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak ashg'ulotlarini tashkil qilish;
- o'quvchilarning bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;

- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'lash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Texnologiya fani o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari. Texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilish bilan birga, mustahkam mehnat va kasb ko'nikmalari va malakalarini egallagan bo'lishi, ularni o'quvchilarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi kerak. Shu munosabat bilan o'z sohasida yaxshi malaka orttirgan va ishining ustasi bo'lgan kishigina o'quvchilarga o'z ishini egallashda yordam bera oladigan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'zining metodika, pedagogika fani, texnika va ishlab chiqarish sohalaridagi eng yangi yutuqlardan xabardor bo'libgina qolmasdan, balki ilg'or mehnat usullarini ham bilishi zarur. Shu maqsadda mehnat ta'limi o'qituvchisi mehnat t'limi va tarbiya masalalari, kasbga yo'llash yuzasidan chiqarilgan psixologik, pedagogik va metodik adabiyot yangiliklarini, o'z ixtisosligi bo'yicha hozirgi zamon texnikaviy adabiyotini, ishlab chiqarish ilg'orlari, ixtirochilarning tajribasini o'rganadi, mehnat mashg'ulotlarining metodik jihatdan to'g'ri tuzilishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Xavfsizlik texnikasi qoidalari

Texnologiya ta'limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur.

O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70-90 m² ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun kollejning asosiy binosidan bir oz naribroqda quriladi.

O'quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblari va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va

sun'iy shamollatiladigan bo'lishi me'yorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rni bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14-16⁰ S, yoz davrida esa 20⁰ S dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan shipi oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob'yektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng to'g'ri mehnat usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalarni joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yubormasligi kerak. Tikuv mashinalar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan me'yorlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarning oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyenik talablariga rioya qilgan holda shart-sharot yaratilgan bo'lishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnologik ta'limda amaliy mashg'ulotlar qanday tarzda tshkil qilinadi?
2. Joriy, oraliq va jakuniy yo'riqnomalarning o'tkazilish tartibini tushuntiring.
3. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining darsga tayyorgarlik bosqichlarini ayting.

4. O'quv ustaxonasida qanday xavfsizlik-texnikasi qoidalariga amal qilish zarur.

III.BOB. TEXNOLOGIYA O'QUV PREDMETINING MAZMUNI

3.1. Texnologiya o'quv predmeti maqsadi va vazifalari.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'yekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

texnik ob'yekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish;

texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya o‘quv predmetining estetik madaniyat va ijodiy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi

O‘rganilayotgan borliq haqidagi umummadaniy bilimlar: Insoniyat tomonidan tegishli ob‘yektga nisbatan ishlab chiqilgan qoidalar, qonunlar, nazariyalar, tushunchalar, qarama-qarshiliklar, madaniy ahamiyatga ega faktlar, g‘oyalar, gipotezalar, muammolar, texnologiyalar, alternativ yondoshuvlar va boshqa bilimlar.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san‘at asarlarini tushunish, tavsirlana olish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Kompetensiya - nafaqat olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasi, balki olingan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasidir.

Kompetensiya – ma‘lum bir faoliyatni muvafaqqiyatli omilkorlik, mohirlik bilan eplay olishlik, qila olishlik qobiliyatlari bo‘lib, u egallangan nazariy va amaliy bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar asosida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya shaxsning murakab ta‘limiy strukturasi bo‘lib, u o‘zida shaxsning sensor, subsensor va ekstrasensor, sensomotor, ideo dinamik (ideomotor, ideosensor, ideoemotiv, ideokognitiv) intellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini

o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsadga uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta'minlaydi. Shunday qilib kompetensiya shaxsning yuksak sifatli xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta'limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko'proq e'tibor berilishi lozim. O'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning xarakterli xususiyati ular psixikasining zaif tomonlariga sustlik bilan moslashish emas, balki o'quvchilar maksimal darajada faollashishi uchun ularni aqliy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish tamoyili bo'lmog'i kerak. Tarbiyachi va o'qituvchilar ayrim bolalar qobiliyati o'rtacha ekanligi yoki qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo'lgan tasavvurni sezdirmasliklari lozim. Bunday o'quvchilar o'zlari tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayoniga asta-sekinlik bilan moslashib boradilar.

Ta'limda darsni to'g'ri va samarali tashkil etilishi albatta, o'quvchilar bilim olishiga ta'sir etadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim masalalardan yana biri o'qituvchining darsning texnologik jihatdan to'g'ri loyihalashga borib taqaladi. Interfaol metodlarni qaysi bosqichda qanday qo'llash darsni loyihalash vaqtidan boshlanadi. Loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshadi **Estetik anglash** bevosita estetik madaniyat bilan hamohanglikda rivojlanadi va tarkib topadi. Bu iborani asosiy tushunchalardan biri ekanligiga sababi shundaki, odatda falsafiy fanlarga doir ilmiy adabiyotlarda "anglash" o'rniga "ong" tushunchasi qo'llanilib kelinadi. Estetik anglash, aytib o'tganimizdek, estetik jarayonni tashkil etishi barobarida estetik munosabatni yuzaga keltiradi, ongning ana shu faoliyati ichki nafosatni shakllantiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, estetik anglash faqat estetik qadriyatlar yoxud ob'yektlarni idrok etishda emas, balki yangi estetik qadriyatlar yaratishda ham faol ishtirok qiladi, ya'ni u estetik faoliyat jarayonida o'zining doimiy ulushiga ega: san'at asarining dunyoga kelishida, turmush sharoitini, ishlab chiqarishning go'zllashuvida va shunga o'xshash holatlarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Estetik anglash inson ruhiyatida o'ziga

xos, chuqur ijobiy ruhiy o'zgarishlarni vujudga keltiradigan estetik holat. U estetik faoliyatning boshlanishidan avval insonni unga tayyorlovchi hodisa sifatida muhim: usiz estetik faoliyatning ro'y berishi mumkin emas.

Estetik anglashning murakkab hodisa ekani estetik ihtiyoj, turli hislar va ma'naviy andozalarning har bir shaxs uchun alohida ruhiy evrilish tarzida namoyon bo'lishi bilan bog'liq: bu evrilish kuchli va asosan hishayajon, ehtirosli kechinmalar asosida vujudga keladi. Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi, dastlab bu munosabat onglanmagan, intuitiv, biologik - genetik tarzda, keyinroq esa anglab yetilgan, yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro'y beradi.

Texnologiya fani o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantiruvchi fan hisoblanadi. Chunki texnologiya fanining 50 % amaliy mashg'ulot darslaridan iborat bo'lib, bunda o'quvchilar estetik did, estetik dunyoqarash, estetik munosabat hamda estetik madaniyat kabi kompetensiyalarga yetarlicha ega bo'ladilar. mashg'ulotlar davomida olib boriladigan texnologik jarayonlarni qanday estetik did bilan tayyorlash o'quvchilarning estetik, umummadaniy kompetensiyalarining qay darajada mukammal egallaganliklaridan dalolat beradi. Bajariladigan buyumlarni estetik did bilan ko'rkam, chiroyli qilib tayyorlash o'quvchilarning kasbiy omilkorlik darajalarining ham oshishiga olib keladi.



**Texnologiya o‘quv predmetini faoliyatning amaliy asoslarini
rivojlantirish kompetensiyasi. Texnologiya o‘quv predmetining jismoniy
rivojlanish va o‘z-o‘zini asrash kompetensiyasi**

Umumiy o‘rta ta’limning Texnologiya fani o‘quv dasturida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiruvchi bir qancha fanga oid rivojlantiruvchi tayanch va umumiy kompetensiyalar kiritilgan bo‘lib, texnologiya ta’limining asosan amaliy mashg‘ulot jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida milliy va umummadaniy kompetensiyalar, Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi, va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi kompetensiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarning savodxonlik darajalarini oshirib borish lozim.

Amaliy faoliyatda milliy va umummadaniy kompetensiyalarning o‘rni shundaki, avvalambor milliylik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, ajdodlarimiz tomonidan urf bo‘lib kelayotgan qadriyatlardan chetga chiqmaslik, an‘analarga mos holda kiyinish bu uchun esa texnologiya ta’limining amaliy mashg‘ulot jarayonlarida o‘quvchilarning ongiga milliy va umummadaniy kompetensiyalarni singdirish bilan birga faoliyat olib boriladi. Masalan: Servis xizmati yo‘nalishini misol qilib oladigan bo‘lsak, o‘sib kelayongan navqiron qizlarimizni milliylik ruhida tarbiyalash, ularni orastalikka, ozodalikka chorlash hamda axloqiy-ma‘naviy jihatdan har tomonlama o‘rnak bo‘adigan qilib tayyorlash ularni kelajakda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi, va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi kompetensiyalar amaliy faoliyatda tejamkorlikka o‘rgatish bilan birga ularni kundalik hayotga tayyor tayyorlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi texnologiya o‘quv predmetining asosiy maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Kompetansiya so‘ziga izoh bering.

3. Milliy va umummadaniy kompetensiyaning texnologiya ta'limidagi ahamiyati nimada?
4. O'quvchining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Estetik ong deganda nimani tushunasiz?

3.2. "Texnologiya va dizayn yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

O'quvchilar yog'ochning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarni egallash, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida bilim va amaliy ko'nikmalarni; dizayn talablari darajasidagi ro'zg'orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlash malakalarini egallaydilar; xalq hunarmandchiligining etnik, tarixiy, mahalliy, geografik xususiyatlari, tadbirkorlik, ijodkorlik asoslari; yog'ochga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Yog'ochga ishlov berish asboblari arralarni bir qancha turlari kiradi. Shulardan bittasi disk arra hisoblanadi.

Disk arraning asosiy qismlari, stanina, plita, arra diski, yo'naltiruvchi chizg'ich va to'pon to'plagichdan iborat Stanina arraning qo'zg'almas qismi bo'lib, uning ustiga plita o'rnatiladi. Plita dastgohning ish stoli hisoblanadi. Arralanadigan taxta material shu phta bo'ylab suriladi Plitadan arra diski chiqib tunshi uchun unda tirqish ochilgan bo'ladi Staninaga val o'rnatilib, uning bir uchiga shkiv, ikkinchi uchiga arra diski mahkamlanadi. Arra diski arralanadigan taxta materialning qalinligiga va arralash usuliga qarab har xil diametrli, to'g'ri va qiyshiq tishli bo'ladi. Disk arralar yordamida tilish va qirqish bilan bir qatorda zakrov, chok, ariqcha ochish ishlari ham bajariladi. Bu maqsadda vintlar yordamida plitani ko'tarish yoki tushirish yo'li bilan arra diskining tirqishdan

chiqib turuvchi qismini yo'naltiruvchi chizg'ich bilan arra diski orasidagi masofa zarur o'lchamga sozlanadi.


Yog'och, faner va plita materiallarni arralash uchun qattiq qotishmadan yasalgan plastinalari bo'lgan yog'och kesuvchi diskli arralardan foydalaniladi. Ular bichimi dumaloq arrali dastgohlar va avtomatik liniyalarga o'rnatiladi. Yog'ochdan turli buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish uchun yog'och materiallarni o'lchash va rejalash kerak bo'ladi. Buning uchun maxsus asboblardan foydalaniladi. O'lchash deb yog'och materialning o'lchamlarini va shaklini aniqlashga aytiladi. Bu asboblarga **chizg'ichlar, metr, ruletka, go'niyalar, xatkash, transporter va o'lchov andozalari** kiradi. Chizg'ichlar yog'och, metall, plastmassa yoki boshqa materiallardan bir necha santimetrdan bir metrgacha uzunlikda millimetrlarga bo'lingan holdata yyorlanadi. Ular millimetrgacha aniqlikda o'lchash, kerakli to'g'ri chiziqlar chizish va yog'och qirralarining to'g'ri chiziq shaklida ekanligini tekshirish uchun ishlatiladi.




a) chizg'ich



b) ruletmetr



v) go'niya



xatkash



shtangensirkul

1-rasm

Uzunligi bir metr chiziqlarni metr deb ataladi. Ular ham shunday maqsadlarda ishlatiladi. Buklama metr uni olib yurish va saqlash qulay bo'lishi uchun buklanadigan qilib yasaladi.

Ruletlar bir necha metr uzunlikdagi metal va boshqa materialdan foydalanilgan santimetr va millimetrlarga bo'lingan tasmadan iborat. Ular bir necha metrgacha bo'lgan uzunliklarni aniqishlash uchun ishlatiladi.

Go'niyalar yog'och yoki boshqa materialdan foydalaniladi. Ular to'g'ri burchaklarni o'lchash, belgilash, chizib va tekshirib ko'rish uchun ishlatiladi (1-rasm). Shu bilan birga boshqa burchaklar uchun moslashtirilgan go'niyalar ham ishlatiladi.

Xatkash yordamida bir vaqtda bir necha parallel chiziqlar chizish mumkin. Pargar (tsirkul) turli aylanalar, aylana yoylari chizish hamda uzunliklarni o'lchash uchun ishlatiladi. U metall, yog'och yoki plastmassadan tayyorlangan, umumiy o'qqa o'rnatiladigan ikkita oyoqdan iborat. Chizuvchi pargar oyoqlaridan birinchi uchiga igna ikkinchisining uchiga qalam o'rnatiladi. O'lchagich pargarning ikkala oyog'i uchiga igna o'rnatiladi.

Metalga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar)

Metallar har xil xossalarga ega bo'lib, ularning ayrimlari yumshoq va qayishqoq, ayrimlari esa qattiq, bukiluvchan yoki mo'rt bo'ladi. Metallardan buyumlarni yasashda ularga mos ashyolarni tanlash uchun metallarning xossalarini bilish zarur.

Po'lat va cho'yan - temir va uglerodning qotishmasidir. Lekin po'latning tarkibidagi uglerod cho'yandagidan kam, 2,14 foizgacha bo'ladi. Cho'yandagi uglerod 2- 4 foizni tashkil etadi. Cho'yan tarkibida kremniy, marganest, fosfor va oltingugurt ham bo'ladi. Cho'yan mo'rt, qattiq qotishmadir.

Metallar issiqlik va elektr tokini o'zidan yaxshi o'tkazadi. Metallarning ana shu xossasini fizika fanidan batafsil bilib olasiz.

Metallarga ishlov berishda ularning qattqlik, elastiklik, plastiklik va mo'rtlik kabi mexanik xossalarni bilib olishimiz muhim ahamiyatga ega.

Metallning qattqligi uning boshqa jismlar, ya'ni o'zidan qattiqroq jismlarni botishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyati bilan belgilanadi. Agar po'lat plastinka ustiga qo'yilgan kernerga bolg'a bilan urilsa, plastinkada kichkinagina chuqurcha hosil bo'ladi. Bordi-yu, bu ish mis plastinka bilan qilinsa, chuqurcha kattaroq bo'ladi. Bundan po'lat misga nisbatan qattqligini anglash mumkin.

Metallning elastikligi deganda metallning kuch ta'siridan keyin yana o'z holatiga qaytishiga aytiladi. Po'latdan va misdan tayyorlangan prujinalarni bir paytda tortib va qo'yib yuborib ko'ring. Bunda po'lat prujina yana o'z holatiga kelishini, mis prujina esa cho'zilganicha qolishini ko'rasiz. Demak, po'lat misga nisbatan bukiluvchan ekan.


Metallning plastikligi deganda esa agar metall tashqi kuch ta'sirida o'z shaklini o'zgartirsa, lekin sinmasa, uni plastik metall deyiladi. Metallning mana shu xossasidan uni tekislashda, bukishda, yoyishda va shtampovkalashda keng foydalaniladi.

Metallning mo'rtligi - metallning ortib boradigan kuchlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir. Masalan, cho'yan plitaga bolg'a bilan urilsa, u sinadi. Cho'yan mo'rt metalldir.

Cho'yan mo'rt, qattiq qotishma bo'lganligi uchun undan kuchli zarb tushmaydigan buyumlar tayyorlashda foydalaniladi. Masalan, cho'yandan isitish radiatorlari, stanok staninalari, korpusli detallar va boshqa shu kabi buyumlar tayyorlanadi. Cho'yanni marten pechlarida, konvertorlarda va elektr pechlarda po'lat lomlari bilan aralashtirib po'lat hosil qilinadi.


Po'lat ham cho'yan singari kremniy, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlarning aralashmasiga ega. Ammo bular cho'yandagidan kamroq bo'ladi. Po'lat faqat qattiq bo'lishi bilan birga bukiluvchan hamdir. Shuning uchun unga mexanik ishlov berish qulay. Po'latning yumshoq va qattiq xillari mavjud. Sizlar tunukani, ya'ni yumshoq yupqa po'lat listni bilasiz. Qattiqroq po'latdan simlar, mixlar, burama mixlar, parchinmixlar va boshqa buyumlar tayyorlanadi. Juda

qattiq po‘latdan metall konstruksiyalar, asbobsozlik po‘latidan kesuvchi asboblar tayyorlashda foydalaniladi. Asbobsozlik po‘latining tarkibida uglerod va boshqa aralashmalar ko‘pligi sababli u konstruktion po‘latga nisbatan qattiqroq va mustahkamroqdir.




2-rasm. Shkalali o‘lchov asboblari: chizg‘ich, shtangensirkul, mrometr

Shkalasiz asboblarga (3-rasm) go‘niya, malqa, kronsirkul, nutromer va boshqalar kiradi. Go‘niya, malqa (3-rasm, a, b) to‘g‘ri-burchakni o‘lchashda eng ko‘p ishlatiladigan asboblar turiga kiradi. Detalni tayyorlash jarayonida uning o‘lchamlarini tekshirish uchun kronsirkul va nutromer ishlatiladi. (2-rasm, d, e). Shablonlar (3-rasm, f, g) detallarning murakkab profilini tekshirish uchun ishlatiladi.



3-rasm

Tekislash - qiyshaygan, notekis metall zagotovkalarining sirtini plita, bolg‘a yoki to‘qmoq yordamida tekislash yoki zagotovka sirtiga boshqacha geometrik shakl berishdan iborat chilangarlik operastiyasidir. Yupqa listli metall zagotovkalar qaychi bilan qirqilib, zubilo bilan kesilgandan keyin rejalashdan oldin tekislanadi.



4-rasm. Aylana chizish; b) chizg‘ich; e) go‘niya yordamida chiziqlar chizish; d) kerner bilan belgilash.



5-rasm.

Yupqa listli metall (po‘lat, mis, alyuminiy) qalinligi 0,5 mm gacha bo‘lsa, yog‘och taxtacha - tekislagich bilan to‘g‘rilanadi. Buning uchun zagotovka tekis va qattiq yuzaga qo‘yilib, taxtacha zagotovka ustida u yoq, bu yoqqa yuritiladi (5-rasm, a). Qalinligi 0,5 mm dan ortiq metall listlari to‘qmoq bilan tekislanadi (5-rasm, b).

Metallarni rejalashda andoza-detalning tekis namunasi yordamida bajarish mumkin. Bunda andozani zagotovkaning ustiga qo‘yib bosib turiladi (buning

uchun maxsus qisqichlardan ham foydalanish mumkin) va andozaning atrofini chizg'ich bilan aylantirib chizib chiqiladi.

Rejalash juda mas'uliyatli operatsiya. Yasaladigan buyumning sifati rejalashning qanchalik aniq bajarilishiga bog'liqdir.

Tekislash va rejalashda xavfsiz ishlash uchun:

- zagotovka ushlanadigan qo'l jarohatlanmasligi uchun unga yenglik kiyib olish;
- soz holatdagi bolg'a va to'qmoqdan foydalanish;
- chizg'ichni ehtiyotlik bilan ishlatish, ko'z va qo'lingizni jarohatlashdan saqlash;
- chizg'ichni xalatning cho'ntagiga solmaslik, u bilan o'ynashmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik lozim.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash

- o'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash;
- oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari;
- pol qoplamalari hamda mebellarning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari;
- yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni;
- sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari;
- xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash;
- taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash;
- shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari;
- uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari;
- ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari;

- uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari;
- suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish;
- qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Elektrotexnika ishlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilish;
- elektr o'tkazish simlarining turlari; elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlari;
- elektr asboblari;
- elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini o'rganish;
- bitta xonani yoritish zanjiri sxemasini tuzish;
- maishiy elektr asboblarni elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'ligiga ta'siri;
- elektr energiyasini tejamli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnini tashkil qilish;
- kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari;
- kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari;
- elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash;
- elektrotexnik hamda elektron uskunalarni ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Yog'ochga ishlov berishda qaysi asbob-uskunalardan foydalaniladi?
3. Xatkashni vazifasi nimadan iborat?

4. Metallni tekislash ishlari nima? tekislashda qaysi asbob-uskunalardan foydalaniladi?
5. Listli metallni tekislash usullarini tushuntiring.
6. Elektrotexnika ishlarida ish o‘rnini tashkil qilish ishlarini tushuntiring.
7. Listli metallni rejalashda xavfsiz ishlash uchun nimalar qilish kerak?

3.3. “Servis xizmati” yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

Pazandachilik asoslari bo‘limida Respublikada etishtirilayotgan oziq ovqat mahsulotlarining turlari, navlari, sifatiga bo‘lgan talablari, turli oziq-ovqat mahsulotlariga birlamchi ishlov berish jarayoni, oziq-ovqat mahsulotlarining hamda taomlarning inson hayotidagi o‘rni, xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va to‘yimlilikini, ovqatlanish me‘yori va tartibi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoiti va muddatlari bilan tanishadilar. Bunda:

- o‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, oshpazlik va qandolatchilik asoslari;
- oziq-ovqat mahsulotlarining hamda taomlarning inson hayotidagi o‘rni, xususiyatlari, to‘yimlilikini, turlari, ovqatlanish me‘yori va tartibi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tashish hamda ularga dastlabki va asosiy ishlov berish yo‘llarini o‘rganadilar;
- oshxonalarining jihozlanishi;
- oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizlik texnika qoidalarini;
- uy-ro‘zg‘or yuritish va jihozlardan umumli foydalanish, oila jamg‘armasi va uni sarflash madaniyatini, oziq-ovqat va yengil sanoat sohalaridagi keng tarqalgan kasblar, ularning tasniflari haqidagi tushunchalarga hamda pazandachilikka oid kasb-hunar turlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

Oziq-ovqat mahsulotlari

Xamir mahsulotining ozuqaviy ahamiyati tarkibidagi uglevod (kraxmal) miqdori bilan, o'simlik oqsillari, yog'lar, V va RR turkumidagi darmondorilar bilan belgilanadi. Sariyog' bilan tayyorlanadigan xamir mahsulotlarida A darmondorisi bo'ladi. Xamir mahsuloti taomlari yuqori darajada to'yimli, tashqi ko'rinishi chiroyli xushxo'r mazali va hidli bo'lib, boshqa mahsulotlarning ham hazm bo'lishini osonlashtiradi.

Xamir va hamir mahsulotlari hamir qoruvchi va ko'pirtiruvchi, mashinalar bilan jixozlangan maxsus qandolatchilik tsexlarida tayyorlanadi. Xamir qorish va undan mahsulot tayyorlash uchun turli idish va asboblardan foydalaniladi. Jumladan: qozonlar, kastyulkalar, mexanik tovalar, yog'och va qandolatchilik patnislari, har xil teshikli elaklar, juvalar, hamir kesuvchi shakldor pichoqlar, xamir yoyuvchi moslamalar, ezuvchi yog'och yoki metall xovonchalar, chilcho'plar, qandolatchilik qopchiqlari va ularning har xil shakl beruvchi metall jihozli uchlari, har xil kurakchalar ishlatiladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida quyidagi hamir turlari tayyorlanadi:

hamirturush solingan va hamirturush solinmagan; hamirturushsiz yog', tuxum, sut, shirinlik solingan hamir, biskvit, qaynoq suvga qorilgan hamir, shakarli (pesochniy), qatlama, oddiy (chuchvaralar, ugra uchun), suyuq hamir (klyar uchun).

Xamirning sifati ularning g'ovaklik darajasi bilan aniqlanadi. G'ovak hamirdan tayyorlangan mahsulot iste'molda oson hazm bo'ladi. Xamir mahsuloti tarkibidagi ko'p miqdordagi kraxmalning hazm bo'lishi qiyin. U fermentlar ta'siri ostida tarkibiy qismlarga ajralib, glyukozaga aylanishi lozim. Bu fermentlar asosan so'lakda va oshqozon osti bezida bo'ladi. So'lak ta'sirida buktirish uchun hamir mahsulotlari yumshoq bo'lishi kerak. Xamir g'ovakli bo'lishi uchun turli yumshatuvchi moddalar ishlatiladi. Jumladan hamirturush, osh sodasi, ammoniy tuzi va hokazo.

Xamirturush ko'zga ko'rinmas mayda mavjudod (hamirturush qo'ziqorini) hisoblanadi. Ularni hayoti uchun suyuqlikda erigan holdagi shakar, oqsil, mineral

mahsulotlar va qulay muhit bo'lishi lozim. Ularni yashashi va ko'payishi natijasida tayyorlangan hamir ichida ma'lum darajada kraxmalni parchalanishi natijasida spirt, karbonat angidrid gazi hosil bo'lib, xamirda g'ovaklik holati yuzaga kelib, hamir hajmi oshadi.

Osh sodasi (natriy karbonat) un ko'rinishidagi oq mahsulot hamir qorilganda qo'shib tayyorlanadi. Xamir tarkibidagi kislotalar bilan birikishi natijasida yoki hamirga issiqlik ta'sir etishi natijasida natriy karbonat o'zidan karbonat angidrid chiqarib, mahsulot g'ovakligi hosil qiladi.

Ammoniy karbonat - oq un ko'rinishidagi mahsulot. Bu mahsulot hamirga qo'shib tayyorlanadi. Xamirga issiqlik ta'siri natijasida ammoniy karbonat parchalanib karbonat angidrid, ammiak va ma'lum darajada suv hosil qilishi natijasida tayyor mahsulot g'ovakligi hosil bo'ladi

Xamirturushli hamirning asosiy mahsuloti, un, suv, tuz va hamirturushdan iborat. Sut, tuxum, shakar, yog', nordonroq qaymoq qo'shib tayyorlanadigan hamir ham bor. Xamir tayyorlash jarayoni mahsulotlarni tayyorlash, hamir qorish, hamirni achitish va achish jarayonida ezib havosini chiqarib turishdan iborat. Uni ishlatishdan avval mashinada yoki qo'lda elak yordamida elanib, qotib qolgan un qoldiqlari, tashqi mahsulotlardan tozalanadi. Bunda un tarkibi kislorod bilan boyiydi, hamir qorish osonlashadi, uning sifati yaxshilanadi, hamir yaxshi oshadi.

Yarim tayyor go'shtli mahsulotlar

Go'shtli yarim fabrikatlar - bu har xil go'sht turlaridan oshpazlikda ishlatishga tayyorlab qo'yilgan masalliqdir. Bularga aholining talabi katta.

Go'sht turiga qarab mol, qo'y, cho'chqa go'shtli yarimfabrikatlar, shuningdek parranda go'shtli yarimfabrikatlar bo'ladi.

Go'shtdan tayyorlanadigan yarim tayyor mahsulotlar tayyorlanish usuliga qarab sof, urvoqqa belangan va qiymalangan turlarga bo'linadi. Yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash jarayonida kesish, to'qmoqchada urish, paychoqlarini bir oz kesish, urvoqda belash, ichiga ziravorlar tiqib pishirishga tayyorlash, marinadlash kabi ishlov berish jarayonlaridan o'tkaziladi.

Kesish go'sht to'qimasi holatiga qarab to'g'ri burchak yoki 40-45° burchak ostida kesiladi. Bunda porsiyalangan bo'laklar yaxshi ko'rinishga ega bo'ladi va deformatsiyalanishi kam bo'ladi.

To'qmoqchada urish. Bo'laklarga bo'lingan go'sht oldindan suvga bo'ktirib qo'yilgan to'qmoqcha bilan uriladi. Bunda go'shtdagi birlashtiruvchi to'qima g'ovakligi oshadi, go'sht yuzasi tekislanadi, usti dazmollanganday tekislashib, bo'lakka tegishlicha shakl beriladi. Unda bir xil issiqlik ta'sir etish imkoniyati yaratiladi.

Paylarni bir oz kesish. Paylari bir necha erdan kesiladi. Bundan maqsad porsiyalangan go'shtga issiq ishlov berganda u o'z shaklini saqlab qolishini ta'minlashdir.

Go'shtdagi sharbatning oqishini va namlikning bug'lanishini kamaytirish maqsadida uni urvoqqa belanadi. Urvoqqa belangan mahsulot issiq ishlovda chiroyli va mahsulot mazasini yaxshilovchi qobiq hosil qiladi. Go'shtni urvoqqa belashdan avval lezonga botiriladi. Bunda urvoq yarim tayyor mahsulotga yaxshi yopishadi.

Shpiglash. Go'shtning ichiga ziravorlar tiqib pishirishga tayyorlash shpiglash deyiladi. Shpiglash natijasida go'shtning sharbatdorligi, ta'mi va xushbo'yli oshadi.

Marinadlash. Go'shtlar porsiyalangan yoki mayda kesilgan holda marinadlanadi. Natijada go'shtning birlashtiruvchi to'qimalari yumshaydi, uning ta'mi va xushbo'yli oshadi.

Yarim tayyor mahsulot tayyorlashga tozalangan go'sht bo'lagi ishlatiladi. Yarim tayyor mahsulotlar yirik bo'lak, porsiyaga bo'lingan bo'lak, mayda kesilgan bo'laklarga ajratiladi.

Yarim tayyor mahsulot tayyorlashda pushtimag'iz uch qismga yo'g'on (bosh), o'rta va ingichka (dum) qismlariga bo'linadi. Har bir pushtimag'izning har bir qismidan o'ziga xos yarim tayyor mahsulot tayyorlanadi.

Sut mahsulotlari

Sut. organizmga zarur barcha oziq moddalarni o'zida erigan holatda saqlaydi, shuning uchun u yaxshi singiydi. 95-98%). Oziqlik xususiyatiga ko'ra sut va sut mahsulotlarining bolalar va bemorlar ovqatidagi ahamiyati g'oyat katta. Har bir kishi-ning ovqat ratsionida kuniga kamida 0,5 l sut yoki sut mahsulotlari bo'lishi kerak. Sut, ayniqsa, bolalar uchun biologik jihatdan juda qimmatli mahsulotdir. Sut tarkibida to'la qimmatli oqsillar, yog'lar, fosfatidlar, yog'da eriydigan vitaminlar, mineral tuzlar bor. Sutda hammasi bo'lib 100 ga yaqin biologik jihatdan muhim moddalar topilgan. Sutning kimyoviy tarkibi quyidagicha: oqsillar 3,5%, yog'lar 3,4%, sut qandi 4,6%, mineral tuzlar (kul moddasi) 0,75%, suv 87,8%. Sutning kimyoviy tarkibi hayvonlarning zotiga, yil fasli, oziqalarning tabiati, va sutni qayta ishlash texnologiyasiga qarab o'zgarib turadi.

Sut oqsillari kazein, albumin va globulindan iboratdir. Bular to'la qimmatli oqsillar bo'lib hisoblanadi va organizm uchun zarur aminokislotalarning hammasini o'zida mujassamlashtirib turadi. Kazein sutda kalsiy bilan bog'langan kazeinogen ko'rinishida bo'ladi. Sut achib qolganida kalsiy kazeindan ajralib chiqadi, kazein ivib cho'kma bo'lib tushadi. Sut yog'i sutda kattaligi 0,1-10 mkm keladigan mayda-mayda yog' sharchalari ko'rinishida bo'ladi. Sut saqlab qo'yilganida yog' sharchalari solishtirma og'irligi kichik bo'lganligi uchun yuqoriga ko'tarilib chiqadi va qaymoq bog'laydi. Sut yog'i past (28-36 °C atrofida) suyuqlanadigan va yuqori darajada dispers bo'lganligi tufayli 94-96 % o'zlashtiriladi. Odatda, sutda kuz, qish va bahorda yozdagidan ko'ra yog' ko'proq bo'ladi. Laktatsiya davrining oxiriga kelganda ham sutda yog' ko'payib qoladi. Hayvon yaxshi parvarish qilib rutiladigan bo'lsa sutdagi yog' miqdori 6-7% ga borishi murnkin.

Sutdagi uglevodlar sut qandilaktoza ko'rinishida bo'ladi, laktoza tatib ko'rilganida o'simlik qandiga nisbatan shirasi kamroq bo'ladi, lekin oziqlik qiymati jihatidan undan qo'shmaydi. Sutni ivitib-achitib tayyorlanadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda sut qandi (laktoza) katta ahamiyatga egadir. Sut kislotasi bakteriyalari ta'sirida sut qandi sut kislotaga aylanadi, bunda kazein ivib

qoladi. Smetana, qatiq, tvorog, kefir tayyorlashda ana shunday hodisa kuzatiladi. Sut tarkibida fosfor, kalsiy, kaliy, natriy, temir, oltingugurt bor. Bular sutda oson singiydigan shaklda bo'ladi, bu narsa asosiy ovqati sut bo'lgan go'daklar uchun ayniqsa muhimdir. Mikroelementlardan sutda rux, mis, yod, ftor, marganes bor.

Baliq mahsulotlari

Baliq go'shti o'zining qimmatini jihatidan faqat sut va tuxumdan orqada qolishi mumkin, lekin qo'y, mol va parranda go'shtidan ancha ustun turadi. Shu sababli dunyo xalqlarining o'rtacha iste'mol qiladigan baliq'i 16,6 kg odam /yil. Bu ko'rsatgich O'zbekiston uchun 12 kg odam /yil qilib belgilangan.

Har bir inson organizmi sog'lom rivojlanishi uchun yil davomida 12 - 16 kg baliq iste'mol qilishi kerak. Dunyo bo'yicha bu ko'rsatgich o'rtacha 22 kg, Yaponiyada - 76 kg, Koreyada 68 kg, O'zbekistonda 2-4 kg ni tashkil etadi. Baliq go'shtining mazasi va kimyoviy tarkibi baliq turi, tayyorlanish uslubi va ovlash muddatiga bog'liq bo'ladi. Yangi baliq go'shtida 15-22 % oqsil, 0,2 dan 30,8 % gacha yog' va oz miqdorda uglevodlar bor. Baliq go'shtida ixtulin va silin oqsillari mavjud. Oqsilga boyligi jihatdan tunes va keta (23 %) boshqa turlardan yetakchilik qilib, inson organizmida 97% gacha o'zlashtiriladi. Energetik qiymatiga ko'ra semga va skumbriya rekordmen turlar hisoblanadi. Baliq go'shti - qimmatli oqsilga boy parhezboq mahsulot. Baliq mahsulotlarida fosfor, kalsiy, magniy, rux va yod ko'p miqdorda uchraydi.

Yuqori ozuqaviy qiymati va oson hazm bo'lish xususiyati tufayli gipertoniya, ateroskleroz, jigar va me'da kasalliklaridan aziyat chekuvchi bemorlarga baliq go'shti tavsiya etiladi. Ixtulin oqsili trombositopeniyada, silin oqsili esa bepushtlikning oldini olishda qo'llaniladi.

Baliqlar jigari va uvildiriqlaridan A, D vitaminlariga boy baliq yog'i ishlab chiqariladi. Baliq yog'i murakkab efir glitserin bilan moy kislotasi aralashmasidan iborat. Uning tarkibida to'yinmagan moy kislotalarini katta miqdorda (84 % gacha) bo'lishi xarakterlidir. To'yingan moy kislotalari esa 16% ni taskil etadi. Baliq uvildirig'i tarkibidagi leytsitin qondagi xolesterin moddasini chiqarilib yuborilishda katta ahamiyatga ega. Baliq yog'ining yosh bolalarni o'sish va

rivojlanishdagi ahamiyati barchamizga ma'lum. Oziq-ovqat sanoati, tibbiyot va texnik maqsadlarda qo'llaniluvchi bu yog' treska, okun, skumbriya, akula jigarida eng ko'p hisoblanadi. Ayrim baliqlar terilaridan (akula va losossimonlar) sanoatda mahsulotlar tayyorlanadi. Ular terisidan yelimlar olishda ham foydalaniladi.

Asbob-uskunalar va moslamalar

Ovqatlanish asboblari. Ro'zg'ordagi ashyolarning ko'pini ovqatlanish asboblari tashkil qiladi. Bu asosan, kosa, lagan, likopcha, chinni choynak grafini, piyola, ryumka, qoshiq, vilka kabi ovqatlanish asboblari iboratdir¹.

Ovqatlanish asboblari yetarli bo'lmasa, lazvatli qilib tayyorlangan taomingizni bemalol eya olmaysiz, albatta. Mavjud idish-tovoqlar chiroyli nafis, guldor bo'lishi va bir xil materialdan tayyorlangan serviz bo'lsa yana ham yaxshi. Chunki chiroyli idish taomga ajoyib tus berib, uni bevatib turishi bilan birga ishtaha qo'zgatishga ham yordam beradi. Siz bir xil taomni turli rangdagi va kattalikdagi idishlarga solib dasturxonga torting, ovqatning shakli, albatta, buzilib ko'rinadi, chiroyli idishdagi taomdan bahraman bo'layotgan mehmoningiz "mehnat hurmat ko'rsatibdi" deb xursand bo'lsa, oldida qo'pol idish turgan mehmoningiz meni "mensimabdi" deb ko'ngliga keltirilishi mumkin. Bir xil idish-tovoqning faqat mehmon kutishdagina emas, oilada bolalarga bir xil munosabatda ekaningizni anglatishda ham zo'r ahamiyati bor.

Ikkinchidan **ovqatlanish asboblari** va idish tovoqlarning chiroyli bo'lishi ro'zg'orning ziynati hamdir. Lekin ziynat deb bularni keragidan tashqari ko'paytirib yuborish, ishlatilmay chang bostirib quyish aqliga muvofiq emasdir. Ro'zgorda kerak bo'lmaydigan ortiqcha narsalarni saqlash bir tomondan uyni tor qilib tursa, ikkinchi tomondan xonadonning didi pastligini bildiradi.

Quyida ro'zg'or uchun kerak bo'ladigan asosiy bufet ashyolari va ovqatlanish asboblarning qo'yxati keltirilgan. 2-3 kishilik oilalar uchun:

1 ta samovar, 1 ta elektr choynak, 2 ta katta chinni choynak, 2 ta kichik chinni choynak, 3 ta har xil kattalikdagi tunuka yoki mis barkash, 6 ta katta piyola, 1 ta

kichik piyola, 1 ta olti kishilik choy servizi, 2 ta katta vava, 2 ta kichik vava, 2 ta non lagancha, 6 ta qonfet vavasi, 1 ta oqqand ombiri, 1 ta katta limon vilkasi, 6 ta sovuq ichimliklar uchun stakan, ushbu ashyolar asosan non-choy uchun ishlatiladi.

Issiq ovqatlar uchun: 1 ta katta chinni lagan, 1 ta katta sopol lagan, 2 ta kichikroq chinni lagan, 1 ta katta lagmon kosa, har biri 6 donadan, katta likop, chuqur likop, chinni kosa, norin kosa, vakuska likopchasi, taqsimchab morojenoe vavachasi, ovqat pichog'i, vilka, temir qoshiq, yog'och qoshiq, disert qoshiqchasi, fujer, shampanskoe bakali, katta ryumka, o'rtacha ryumka, kichik likyor ryumka va bittadan katta grafin, kichik grafin, suv grafini, sut grafini, non vavasi, ikkita salatnitsa hamda qalampir, tuz va sirka soladigan zirovordon bo'lgani ma'qul. O'zbekiston aholisi mehmondo'stlikni yaxshi ko'radi, buning uchun mexmonlarga atab yuqorida ko'rsatilgan idish va asboblarning ba'zilarini ikki marta oshirishi mumkin.

Foydali maslahatlar

Oshxona pichoqlari, vilka va koshiqlar bilan birga saqlansa tez o'tmaslanib qoladi.

Yangi sotib olingan alyumin idishlarni yog' solib qizdirib, tuz bilan ishqalab artasiz, taomlarni qoraytirmaydigan bo'ladi. Chinni, fayans va shishadan yasalgan idishlarni yuvgandan keyin yaxshilab quritish kerak. Agar bunday idishlarni sochiq bilan artadigan bo'lsangiz sochiqning tuklari yopishib uni yana iflos qilib quyadi.

Shuni esda tutish kerakki, tova yuvilmagan idish taomning sifatini buzadi va sog'likka ham varar etkazishi mumkin.

Alyumin idishga yopishib qolgan qora dog'larni sirkaga botirilgan paxta bilan artib, keyin yuvib tashlasangiz, top-toza bo'ladi.

Taom tayyorlash texnologiyasi

Mahsulotlarni tayyorlash. Ovqat pishirish avvalo mahsulotlarni tayyorlashdan boshlanadi. Mahsulot to'g'ri tayyorlansa ovqat lazvatli bo'ladi, yaxshi va tez pishadi, tarkibidagi foydali moddlar yo'qolib ketmaydi.

Mahsulot tayyorlash quyidagialardan iborat: sortlarga ajratish, yuvish, archish, chopish (qiymalash), to'g'rash va hoqazo. To'g'rash usulining o'zi har xildir, ya'ni somon va kubik shaklida to'g'rash, parrak-parrak qilib to'g'rash, tilish, lo'nda -lo'nda qilib kesish, qirqish, shaklli qilib to'g'rash va hoqazo².

Sortlarga ajratish. Sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar va boshqa masalliqlar sortlarga ajratilganda ularning orasidagi vaxa bo'lganlari, chirigan, qurt egan, ezilib ketgan va umuman eyish uchun yaroqsiz bo'lib qolganlari ajratib tashlanadi. Don mahsulotlaridagi tosh va cho'plarni terish, go'shtdagi parda, bez va qon qoldiqlarini olib tashlash ham sortlarga ajratishga kiradi.

Magazin va do'konlarda sotiladigan har qanday mahsulotlar sortlarga ajratib sotiladigan bo'lganliga uchun bunday mahsulotlarni tovalab o'tirmasdan, yuviladiganini yuvish, archiladiganini archish uchun ajratish kifoya qiladi.

Yuvish. Masalliqqa qarab taom retseptlarida (sovuq suv bilan, iliq suv bilan, issiq suv bilan, qaynoq suv bilan deb) aniq ko'rsatilgan. Ishqalab yuvish, chayish, ivitish kabi usullarni ham teplili retseptlarda uchratasiz.

Archish. Asosan sabzavot, meva va ba'zi poliz ekinlariga xos tayyorlash usulidir. Archishda mahsulotning po'sti va po'stiga yopishgan xaslar tovalanadi. Ba'zi sabzavot va mevalarning po'stida foydali moddalar juda ko'p bo'ladi, shuning uchun ularni archimay, tozalab yuvib ishlatsa ham bo'laveradi. Masallig'ni archiganda etini qalin qilib kesib tashlamaslikka e'tibor berish lozim.

Archishni engillishtirish qilib, ya'ni to'g'ri bajarish uchun masalliqlarni quyidagicha qilib, ya'ni sabzi, turp, bodiring va shu kabi masalliqlarni o'zunasiga - uchidan bandi tomoniga qarab archiladi. Olma, sholg'om kabi dumadoq yoki yalpoq mahsulotlar halqa qilib bandi tomonidan uchiga qarab archiladi. Ba'zi mahsulotlar, masalan, shaftoli va po'sti bilan pishirilgan kartoshka pichoqsiz archiladi. Ba'zi bir mahsulotlarning faqat bandi bilan uchi kesiladi xolos, masalan, ko'k piyoz, rediska va shu kabilar.

Chopish (qiymalash) - Bu usul bilan asosan go'sht tayyorlanadi.

Buning uchun maxsus chopqi yoki oshpichoq va qiyma-taxta bo'lishi kerak.

Go'shtni chopganda u juda mayda qismlarga bo'linib, mushak va yog'

hujayralari birikmasidan iborat massa - qiyma hosil bo‘ladi.

Qiymalanayotgan go‘sh t qismlari bir-biriga yaxshi ilashishi uchun suv yoki namakob bilan oz-oz ho‘llab turiladi.

Go‘sh t myasorubkada qiymalansa ancha osonlashadi va qiyma poqiva chiqadi. Ba‘zi taom uchun, sabzavotlar ham qiymalanadi, cho‘nonchi: sho‘rvaga karam, somsaga piyoz va hoqazo, ammo, bu mahsulotlarni muyasorubkadan o‘tkazib bo‘lmaydi, ovqatni bemava qilib quyadi.

Qirqish. Buning uchun maxsus qirg‘ichlar ishlatiladi. Qirg‘ich bilan oshqovoq, turp va boshqalar qirib tayyorlanadi.

Qaysi masalliqni qanday taom uchun qanday qilib qirish kerakligi tegishli retseplarda aytilgan.

To‘g‘rash. Masalliqlar yuvib, archib tayyorlanganidan keyin ular ma‘lum usulda, ya‘ni katta-kichikligi va shakli bir xil qilib to‘g‘raladi. To‘g‘rashdagi ma‘lum usullar (palov uchun sabvani somon shaklida qilib to‘g‘rash, maslavaga kartoshkani to‘rtburchak (kubik) qilib to‘g‘rash va hokazolar) xalqning uzoq davrlardan beri o‘tkazgan tajribalari asosida kelib chiqqan. Kitobdagi retseptlarda to‘g‘rash usullarining maqsadga eng muvofiqlari tanlab beriladi. Shu ko‘rsatilgan usullardan chetlashish - o‘z bilganicha to‘g‘rash, taomni bemaza bo‘lishida olib kelishi mumkin. Masalan, go‘sh t bir necha xil taomlar uchun lo‘nda - lo‘nda qilib to‘g‘raladi. Agar shu lo‘nda bo‘lakchalardan birini katta, birini kichik qilib to‘grab qo‘ygan bo‘lsangiz, u albatta, bo‘zilgan hisoblanadi, chunki mayda bo‘lakchalar pishib etilganda katta bo‘lakchalar pishmay qoladi.

Agar siz masalliq larni bir shaklda baravar qilib to‘g‘rasangiz ovqatning ko‘rinishi chiroyli bo‘lishi bilan birga masalliq bir tekisda pishadi va nafis tamlari yo‘qolmaydi.

To‘g‘rash usulidagi muhim printsiplardan biri - qo‘shimcha masalliq larni asosiy masalliq larga shakli moslashdir.

Masalan, “no‘xat sho‘rvaga” qo‘shimcha masalliq bo‘lib kirgan sabzi kichik to‘rtburchak (kubik) - “no‘xatcha” shaklida “vermishel sho‘rvaga” solinadigan

sabzi esa somon shaklida to‘g‘ralsa ovqatning ko‘rinishi chiroyli bovlishi bilan birga, masalliqning barchasi bir tekis pishadi.

Pazanda o‘z san‘atini dastavval masalliqning tayyorlashda ko‘rsatish lozim. Endi masalliq tayyorlashning ba‘zi usullari bilan tanishib o‘tamiz.

Somon shaklida to‘g‘rash. Sabzavotlar, xususan sabzi shu usulda tayyorlanadi. Buning uchun sabzi ozuqasiga yupqa parrak qilib kesiladi, so‘ngra somonga o‘xshatib to‘g‘raladi.

Somonga o‘xshatib to‘g‘ralgan sabzining uzunligi 4-5 sm, ko‘ndalang kirqma 3x3 mm bo‘ladi.

Kubik shaklida to‘g‘rash. Bu usul “shodi begi”, “no‘xatcha” to‘g‘rash deb ham yuritiladi.

Sabzi, kartoshka, sholg‘om, go‘sht va boshqa masalliqning kubik shaklida to‘g‘raganda avvalo uzunasiga, qalinligi 1sm chamasi taxtasimon parrak qilib kesiladi, so‘ngra bu parraklar ko‘ndalang kesmasi 1x1 sm bo‘lgan tayoqchalar shaklida qirqiladi, keyin ular 1 sm qattaliqda to‘g‘raladi. Bu mayda kubik qilib to‘g‘rashdir. Mahsulot o‘rta kubik qilib to‘g‘raganda 2 sm katta kubik qilib to‘g‘raganda esa 3 yoki 4 sm bo‘lishi kerak.

Parrak-parrak qilib to‘g‘rash. Asosan piyoz parrak-parrak qilib to‘g‘raladi. Qovuriladigan kartoshka, ba‘zi salatlar uchun bodiring va shunga o‘xshash boshqa mahsulotlar ham shu usulda tayyorlanadi. Bunda archib tayyorlangan sabzavot uchi yoki band tomonidan ko‘ndalang bir xil qalinlikda bir tekis qilib parrakchalar shaklida kesiladi.

Pishirilgan hasip yoki qazi ham iste‘mol qilinishi oldidan ana shunday qilib kesib qo‘yiladi.

Tilish. Ba‘zi taomlar uchun pomidor va murabbolar uchun olma, behi va hoqavalar tilib solinadi.

Lo‘nda-lo‘nda qilib kesish. Asosan go‘sht, dumba yog‘ pomidor, ba‘zida kartoshka lo‘nda-lo‘nda qilib to‘g‘raladi. Bunda mahsulot bir xil shaklda qilib to‘g‘ralinishi shart emas, ammo og‘irligi, hajmi bir xil bo‘lishi shart. Mahsulotni to‘g‘ri kelgan eridan ushlab bir chekkadan “lo‘nda” qilib to‘g‘ralaveradi.

Qirqish, Ko‘k piyoz va oshko‘klar qirqib tayyorlanadi. Buning uchun masalliqni sabzi taxtaga qo‘yib, chap qo‘l bilan ushlab bandi tomonidan pichoqda mayda qilib to‘g‘raladi.

Qirqish mayda tanali mahsulotlar (ko‘k piyoz, kashnich)ni parrak-parrak qilib kesishga o‘xshaydi. Qirqish, chopishga ham o‘xshaydi, lekin qirqilgan masalliq chopilganga qaraganda yirikroq bo‘lib, qiyma kabi bir-biriga yopishib ketmagan bo‘lishi kerak.

Jem tayyorlash texnologiyasi

Jem oziq-ovqat mahsulotlaridan ro‘zg‘or uchun ko‘p tayyorlanadigan taom hisoblanadi. Jemni tayyorlashda mevalar bir-biri bilan qarishib, jelesimon ko‘rinishga kirishi uchun uni albatta uzoq qaynatish talab qilinadi. Jem non va pechenyelarga surtib yeyishga, piroglar tayyorlashga juda qulay.



Jemni qaysi mevalardan tayyorlash mumkin

Pishiriladigan jem quyuq chiqishi uchun, uni pektin moddasini o‘ziga saqlovchi mevalardan tayyorlash kerak bo‘ladi. Uncha yaxshi pishmagan ba‘zi mevalarda pektin miqdori ko‘proq bo‘ladi.

Quyidagilar o‘zida ko‘p pektin moddasini saqlaydi:

- olma;
- qora va qizil qorag‘at;
- behi;
- krijovnik;
- olxo‘ri;

- sitrus mevalar po'sti

Olcha, maymunjon, nok va qulupnayda pektin juda oz miqdorda bo'ladi. Agar siz shu mevalardan jem tayyorlashga qaror qilgan bo'lsangiz, unda unga pektin kukunidan yoki uni o'zida saqlovchi mevalardan solishingiz kerak bo'ladi.

To'g'ri qaynatish

Jem tayyorlashda ishlatiladigan mevalarni yaxshilab yuvish, to'g'rash, so'ng ularning qurishi, ya'ni ortiqcha suvidan xalos etish uchun chetga bir oz muddatga qoldirish kerak. So'ng ularni ko'p miqdordagi suvda yumshagunicha qaynatiladi va undan keyingina shakar solinadi. So'ng olovni balandlatib, muntazam kovlab turib, quyulgunicha qaynatiladi. Xuddi murabbo kabi jem tayyorlashda ham bir necha qoidalarga amal qilish kerak bo'ladi:

- xuddi murabboga o'xshab, jemni ham sirlangan, qalin idishlarda yoki qozonda qaynatish kerak;
- shakar va meva 1:1 - teng miqdorda solinishi, agar meva juda shirin bo'lsa, unda shakar ozroq kamaytirilishi kerak;
- yirikroq shakardan solsangiz, u sust erishi sabab ham pishiriladigan jemingiz mazaliroq chiqadi;
- agar jemga ozroq limon kislotasi solinsa, unda u mevalardagi pektin moddasini tortib olinishiga yordam beradi;
- sersuv mevalarni suv solmasdan tayyorlash mumkin, lekin tayyorlanish jarayonida tagi olmasigi uchun uni muntazam kovlab turish talab qilinadi;
- agarda jemga pektin kukuni solmoqchi bo'lsangiz, unda uni jemning tayyor bo'lishiga 5 daqiqa qolganida solib, aralastiring. Pektinni shakar yoki shakarli qiyom bilan aralastiring, so'ng jemga solib, bitta qaynatib oling. So'ng olovni o'chiring;
- jemni muzdek likopchaga tomizib ko'ring, tomchi oqib ketmasa, demak jem tayyor bo'lgan hisoblanadi.



Pirog tayyorlash texnologiyasi

Pirog tayyorlash. Tuxum oqi qattiq holga kelguncha ko‘pirtiriladi. Shakar 0.5 choy qoshiqdan sekin-asta qo‘shib aralashtiriladi. Tuxum sarig‘i solib arlashtiriladi. Eritib, sovutilgan (lekin qotib qolmagan) margarin solib aralashtiriladi. Hohlaganlar oshxona sodasi solishi mumkin. Unni yuzasiga yoyib solib, o‘rta qismida unni chetdan oz-ozdan olib, aralashtiriladi. Hohishga kshra yong‘oq, bodom, mayiz va hokazolar solib, aralashtiriladi va qolipga o‘simlikyog‘idan biroz surib, aralashma qo‘yiladi. 190⁰C da 45-50 daqiqa davomida pishiriladi.

Qatlama hamir tayyorlash texnologiyasi



Qatlamali xamir bir necha qavatlardan iborat bo‘lib, ko‘pgina shirali va shirasiz pishiriqlarda ishlatiladi. Hamirni tayyorlash jarayonida uni bir necha marta buklab, tarkibidagi yog‘i erib qavatlarni qo‘shilib ketishini oldini olish uchun sovutgichda bir necha bor muzlatib olinadi. Tayyorlanishi oddiy bo‘lsa ham biroz vaqt talab qiladi. Shunga qaramasdan bu xamir pishiriqlarga juda yengil va o‘zgacha ta‘m beradi.

Qatlama xamirni bir necha usulda tayyog‘lash mumkin. Lekin barcha usullari uchun umumiy bo‘lgan asosiy qoidalar mavjud. Xamir yaxshi chiqishi uchun bu qoidalarga rioya qilish zarur:

Pishirishdan avval mahsulotlar xolodilikda sovutiladi (lekin muzlatilmaydi). Tayyor mahsulotlar namlangan gaz patnisiga terib chiqiladi (yog‘ surtish mumkin emas). Tuxum mahsulotlarning sirtigagina surtiladi, chetlariga oqib tushgan tuxum suyuqligi mahsulotning kutarilishini qiyinlashtiradi. Sovitilgan mahsulotlar qizib turgan duxovkada (harorat 250S dan past bo‘lmasligi kerak) pishirilishi lozim.

Agar qatlama xamirdan tayyorlanadigan mahsulot ichiga pishgandan keyin biron narsa solinadigan bo‘lsa, kichik piroglar duxovkadan 10- 15 minutdan so‘ng, katta piroglar esa 15-20 minutdan sung olinib, ichiga go‘sh, murabbo, olma, krem va boshqalar solinadi.

Qatlama xamir tayyorlash

Un miqdorini ikkiga bo‘lib, bir qismiga sariyog‘ aralashtiriladi va 2 sm qalinlikda turtburchak qilib, bir oz vaqt sovuq joyga olib qo‘yiladi. Qolgan qismiga

7 g stakan suv, ozgina tuz va limon sharbati solib xamir qoriladi. Xamir ustiga sochiq yopib, 30 minut tindiriladi, sung yana juvalanadi. Juvalangan xamir jildi yog‘li xamir jildidan ikki baravar katta bo‘lishi lozim. yog‘li xamirni ikkinchi xamir ustiga quyib, cheti konvert kabi berkitiladi va eni 20 sm, qalinligi 1 sm qilib jo‘valanadi, so‘ng to‘rt buklab, yarim soat davomida xolodilnikda saqlanadi. Sovigan xamirni yana bir bor juvalab, qayta sovuq joyga qo‘yiladi. Bu jarayon 3 marta takrorlangach, turli mahsulotlar pishirishga kirishiladi. Tez tayyorlanadigan qatlama xamir. Yaxshi sovitilgan margarin yoki capiyog‘i qirg‘ichdan o‘tkazib un (2 stakan) bilan yaxshilab q‘orishtiriladi. hosil bo‘lgan qorishma o‘rniga quyuladi, ichiga 74 choyqoshiq tuz va 1 oshqoshiq sirka qo‘shilgan suv oz-ozdan quyiladi. Barcha masalliqni aralashtirib, xamir qoriladi. Qorilgan xamir xolodilnikda bir oz (1 soat) sovitilgan, pishirishga kirishiladi.

Kerakli masalliqlar:

Bu jarayonni blenderda qilsa ham bo‘ladi.

Unga qorishtirilgan sariyog‘ni kichik shar shakliga keltirib olib pishiriq qog‘ozi yoki 700 gr un, 1 st suv, 0.5 choy qoshiq tuz, 1 chimdim limon kislotasi, 300 gr sariyog‘ (yoki margarin)

Tayyorlanishi:

1. Sovutgichdan endigina olingan sariyog‘ 5-6 osh qoshiq un bilan qorishtiriladi.
2. Qo‘shimcha selofanga o‘rab muzlatgichga qo‘yiladi.
3. Un, suv va tuzni aralashirib hamir qoriladi.
4. Xamirni rasmdagidek to‘rt tarafini yoyib olib, o‘rtasiga muzlatgichdan olingan sariyog‘ qo‘yiladi.
5. Keyin bir tarafini so‘ngra ikkinchi uchunchi va to‘rtinchi taraflari yaxshilab yopiladi.

6. Xamir juvada ozroq ochib olinadi. Muhimi sariyog‘ni erishini oldini olish uchun bundan keyingi qadamlarni tezlik bilan bajarish kerak bo‘ladi.

7. Yoyilgan hamirni bir tarafi markazga qaratib buklanadi.

8. So‘ngra ikkinchi tarafi ham markazga olib kelinadi.

9. Xamir ikkiga buklab, selofanga o‘rab 1 soatga sovutgichga qo‘yiladi. Ishingiz tezlashishini istasangiz hamirni muzxonaga ham qo‘yishingiz mumkin.

10. Sovutgichdan olingan hamirni yoyib 4 ga buklash jarayonini (10-13 qadamlar) yana 3 marta takrorlanadi. Har buklag‘andan keyin hamirni 1 soatga sovutgichga qo‘yiladi.

11. Xamirni oxirigi qavatlash bosqichida 4 ga emas 3 ga buklanadi. Buning uchun sovutgichdan olingan hamirni rasmdagidek o‘zingizga qaratib olib eniga biroz kengaytirib olasiz.

12. Keyin hamirni yoni bilan o‘zingizga qaratib olib bo‘yiga juvada yoyib olinadi. O‘lchamlari taxminan 25 sm X 50 sm.

13. Xamir ikki tarafi ustma ust yopib buklab olinadi.



Qo‘shimcha qilinadigan ish tayyor bo‘lgan hamirni biroz sovutgichda ushlab keyin ishlatish yoki yaxshilab yopiladigan idishga solib muzxonada kerak bo‘lgunga qadar saqlash mumkin.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi (asbob-uskunalar va moslamalar, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi)

Jun tolali gazlamalar. Jun tolasini qo‘y, tuya, echki, qoramol va quyonlarning terilari ustidagi tukli qoplamasidan olinadi. Jonivorlarning terisiga ishlov berish vaqtida yig‘ilgan jun zavodda olingan jun deb ataladi. Eski jun laxtaklarini qayta ishlash yo‘li bilan olingan tola esa tiklangan jun deb ataladi. Jun tolalari paxta tolasiga nisbatan uzun, mustahkamligi past, lekin qayishqoqligi yuqori bo‘ladi. Jun tolasini o‘ziga namlikni yaxshi singdiradi va uzoq vaqtda o‘z tarkibida tutib turadi. Bug‘, harorat va bosim ta‘sirida jun tolasidagi oqsil moddalari va tolaning o‘zi ham o‘z shaklini o‘zgartirishi mumkin. Bu xususiyatga tikuvchilik texnologiyasida gazlama va buyumlarga namlab, isitib ishlov berish usuliga asoslangan.

Ipak tolali gazlamalar. Tabiiy ipak tolasini asosan tut ipak qurtidan olingan pillalarni qayta ishlab olinadi. Ipak qurti o‘zining rivojlanish jarayonida to‘rtta bosqichdan o‘tadi: pilla qurtining kapalagi tuxum soladi, bu tuxumdan pilla qurti paydo bo‘ladi va ularning ichki a‘zolaridan ipak ishlab chiqaradi. Qurt yig‘ilgan ipak moddasini tashqariga og‘zidagi bezlar orqali siqib chiqarib, o‘z atrofini to‘la o‘rab turuvchi pillani hosil qiladi va uning ichida g‘umbakka aylanadi. G‘umbakdan kapalak paydo bo‘ladi. U pilladan tashqariga chiqib tuxum soladi. Shunday qilib, pilla qurtining rivojlanish jarayoni takrorlanadi. Pillakashlik fabrikalarida pilla o‘rash uskunalarida chuvalanadi. Chuvalash paytida bir necha pilla ipakning uchi birlashtiriladi. Natijada, xom ipak hosil bo‘ladi. Xom ipak iplari oqsil serisin bilan bir-biriga birikkan bir necha pilla ipidan iborat.

Gazlamalarga ishlov berishda ishlatiladigan asbob-uskunalar

Furnituralar kiyimga bezak sifatida hamda kiyimning taqilmalarida ishlatiladi. Ularga tugmalar, ilgaklar, halqalar, pistonlar, turli molniya tasmalarkiradi. Tugmalar faqat taqish uchungina emas, balki kiyimni bezash uchun ham ishlatiladi. Tugmalar tayyorlanadigan xomashyolar turli-tuman bo‘ladi. Bular plastmassalar, yog‘och, shisha, metall, suyak va hokazolar. Tugmalarga qo‘yiladigan asosiy talablar: pishqlik, suv ta‘siriga chidamlilik, sovunli eritmada qaynatilganda aynimaslik. Tugmalar 1,5 m balandlikdan tashlab yuborilganda shikastlanmasligi lozim. Tugmalar sovunli eritmada qaynatilganda tashqi ko‘rinishi, shakli, rangi o‘zgarmasligi, darz ketmasligi kerak. Rangi yorug‘lik va ob-havo ta‘siriga chidamli bo‘lishi kerak.



Tugmalar ishlatilishiga ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi

Ishlatilishiga ko‘ra: tugmalar palto, kostum, ko‘ylak, shim, ich kiyim, forma va bolalar kiyimlari uchun mo‘ljallangan xillarga bo‘linadi.

Materialga qarab: tugmalarning metall, shisha, shox yoki suyak, sadaf, yog‘och, press kukundan qilingan va boshqa xillari bo‘ladi.

Tashqi ko‘rinishiga: ya‘ni shakliga ko‘ra dumaloq, sharsimon, oval, yarimsharsimon tugmalar; sirtining harakatiga ko‘ra silliq va relyefli; rangiga ko‘ra qora, oq, guldor, yoqut, kahrabo va boshqa rangli tugmalar bo‘ladi.

Buyumlarni ta‘mirlash.

Chokidan so‘kilgan turli buyumlarni tikish. Kiyimlarni tuzatishda ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil qilish kerak. Bajariladigan ishga qarab ish o‘rni tayyorlanadi. Bajariladigan ishlar qo‘lda tikish, tugma qadash, petlya tikish, yamoq solish, kiyimning so‘kilgan choklarini tikish, ilgak chatishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bu ishlar uchun stol va stul, tikuv mashinasi, dazmol, ish qutichasi va kerakli asboblarni tayyorlanadi. Ish joyiga yorug‘lik yaxshi tushib turishi kerak⁴.

Ayrim hollarda kiyimning choki so‘kilib ketadi. Keskin qilingan harakat, juda katta qadam tashlash, kiyim tikilgan iplarning sifatsizligi choklarning so‘kilishiga sabab bo‘ladi. Kiyimning so‘kilgan joyini tikish qo‘lda yoki mashinada bajariladi. Buning uchun gazlama rangidagi g‘altak ipi va igna kerak bo‘ladi. Igna gazlama qalinligiga mos bo‘lishi lozim.

Amaliy ish: Chokidan so‘kilgan turli buyumlarni tikish. Asbob va moslamalar: ish qutichasi, g‘altak ip, igna.

Ish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. So‘kilgan joyidagi iplari olib tashlanib dazmollanadi.
2. Gazlamaning so‘kilgan joyiga to‘g‘nag‘ich qadaladi va qo‘lda ko‘klanadi.
3. Gazlamaning so‘kilgan joyini qo‘lda qaytma chok bilan mashina chokining qatorida tikib chiqiladi.
4. Ko‘klov choklari olib tashlanadi va chok dazmollanadi.
5. Bajarilgan ishning sifati tekshirib chiqiladi, ya‘ni tikilgan qo‘l qavig‘i maydaligi, mashina chokining qatoriga to‘g‘ri kelishi, tekis tikilganligi tekshiriladi.

Amaliy ish: Yamoq solish. Asbob va moslamalar: ish qutichasi, g‘altak ip, igna. Ish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Gazlamani yirtilgan joyidan o'ngini ichkariga qilib, qirqimlarini bir-biriga to'g'rilab ikkiga buklanadi. Yirtilgan joyga to'g'nag'ich qadaladi va qo'lda ko'klanadi.

2. Yirtilgan qirqimni mayda yo'rma qaviqda qo'lda tikib chiqiladi.

3. Ko'klov choklari olib tashlanadi va chok dazmollanadi.

4. Bajirilgan ishning sifati tekshirib chiqiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pazandachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar nimalar va ular to'g'risida izoh bering.
2. Oziq - ovqat mahsulotlari turlarini aytib bering.
3. Go'sht mahsulotlari nimalardan olinadi va uning ahamiyati nimada?
4. Xamir mahsulotlaridan qanday milliy taomlar tayyorlanadi.
5. Sut mahsulotlarining odam organizmi uchun foydali jhatlarini tushuntiring.
6. Qatlama tayyorlash texnologiyasini tushuntiring.
7. Tayyor bo'lgan hamir qanday saqlanadi?
8. Gazlamaning qanday turlari bor va ular nimalardan olinadi?
9. Gazlamaga ishlov berishda qanaqa asbob-uskuna va moslamalardan foydalaniladi?
10. Furnitura nima?

IV-BOB. TEXNOLOGIYA FANI DARSLARINI REJALASHTIRISH

4.1. Texnologiya faniga oid rejalashtiruvchi hujjatlar.

“Texnologiya ta’limini” rejalashtirish o‘quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo‘lib, u didaktika tamoyillariga va o‘quvchilarning mehnat tayyorgarligi dasturi talablariga to‘la-to‘kis javob bera oladigan bolishi kerak. texnologiya ta’limi boshqa umumiy ta’lim fanlaridan farq qilib, ta’limni tashkil etishda o‘ziga xos xususiyatga egadir. Shuning uchun u rejalashtirishga yanada ham ko‘proq e’tibor berishni talab qiladiki, busiz ta’lim-tarbiya ishida yaxshi natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Texnologiya ta’limini **rejalashtirishning yana bir jihati** har bir o‘quvchining ta’lim rejasi va dasturini bajarishni: texnologiya bo‘yicha o‘quv materialining mazmuniga to‘liq javob beradigan ta’lim ishlab chiqarish ob’yektlarini to‘g‘ri tanlashni, texnologiya ta’limi bilan boshqa umumiy ta’lim fanlari o‘rtasidagi, birinchi navbatda fizika, ximiya, matematika, chizmachilik, biologiya va boshqa fanlar o‘rtasidagi aloqani: o‘quv-moddiy bazasidan (ustaxonalar, o‘quv xonalar, o‘quv-tajriba maydonchalari, o‘quv ttsexlari, uchastkalari, qurilish maydonchalari, asbob-uskunalar, materiallar) unumli foydalanishni: mehnat va kasb ta’limining bazasini rejali ravishda material-texnika (asbob-uskunalar, materiallar, ko‘rsatma va o‘quv qo‘llanmalari, texnologik xujjatlari) bilan ta’minlash uchun shart-sharoitlarni, o‘quvchilarning rejalashtirilgan mehnat ob’yektlarini belgilangan muddatlarda bajarishlari va o‘z vaqtida buyurtmachilarga topshirishlarini: o‘rinlar etishmaganda hamda zarur asbob-uskunalar kam bo‘lib qolganda, o‘quvchilarni ish joylariga oraliq grafik asosida qo‘yib chiqishni: ilmiy-texnikaviy bilimlarning, mehnat ko‘nikmalari va malakalarning yuqori darajada bo‘lishini: texnologiya ta’limiga oid mashg‘ulotlarni, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish talablariga muvofiq ravishda unumli yo‘lga qo‘yishni ta’minlashi kerak.

Texnologiya ta'limini rejalashtirishning maqsadi o'quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo'lib, u didaktika printsiplariga to'la to'kis mos keladigan bo'lishi kerak.

Texnologiya ta'limini rejalashtirish har bir o'qituvchining ta'lim rejasi va dasturini bajarishini, mehnat ta'limi bo'yicha o'quv materiallarining mazmuniga to'liq javob beradigan ta'lim-ishlab chiqarish ob'yektlarining belgilangan muddatda bajarishlari va o'z vaqtida buyurtmachilarga tapshirishlarini; o'quvchilarini ish o'rinlariga o'zgaruvchan grafik asosida qo'yib chiqishni; ilmiy texnik bilimlarning mehnat ko'nikmalari va malakalarining yuqori darajada bo'lishi.

Taqvimiy mavzuli reja. Dars rejasi va uning ishlanmasi

Taqvim-mavzuiy rejada amaliy-laboratoriya ishlarining ro'yxati albatta berilishi lozim, zarur asbob - uskunalar, materiallar, hujjatlar ana shu ro'yxatga muvofiq ravishda tayyorlanadi. Bunday reja o'rgatilayotgan jarayonlarni o'zlashtirishning samarali bo'lishini ta'minlaydigan maxsus moslamalarni ko'rsatmasdan o'tib bo'lmaydi (ular oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim).

Ayrim metodistlar kalendar - mavzu rejasini soddalashtirilgan sxemasini yoqlab chiqmoqdalar. Ular bu ishni endi boshlayotgan mehnat o'qituvchilari, ustalari, muxim, lekin ko'p vaqt talab qiladigan tayyorgarlik ishining uddasidan chiqmaydilar deb tushuntirmoqchi bo'ladilar.

Lekin shu rejalashtirishni har qanday soddalashtirish yoqi etarli darajada aniq rejalashtirmaslik, ma'lumki ta'lim jarayonini tashkil etishning buzilishiga, ta'lim ishida sifatni pasayishiga va nuqsonlar sodir bo'lishiga olib keladi.

Taqvim-mavzuiy rejani tuzish vaqtida texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatiga qanday mehnat ob'yektlari kiritilishi lozimligini oldindan bilnshi kerak. Demak kalendar mavzu rejasi o'qituvchi tomonidan o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati belgilangan bir vaqtda tuzib chiqilishi lozim. Chunki bu rejalashtirilayotgan har ikkala hujjat bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Texnologiya ta'limi bo'yicha operator dasturi asosida o'qituvchining mashg'ulotga

tayyorlanishida, ayniqsa dars rejasini tuzib chiqishda mehnat ob'yektlarini tanlashda va mashfulotlarni zarur narsalar bilan boyitishda uning ishini ancha osonlashtiradi. Texnologiya ta'limi bo'yicha kalendar-mavzu rejasi dastur asosida yarim yilga mo'ljallab tuzib chiqiladi. Reja texnologiya o'qituvchilarining metod birlashmasidan ko'rib chiqilishi, unga tuzatishlar kiritilib, mulohazalar hisobga olinishi kerak. Shundan keyin maktab o'quv ishlab chiqarish kombinati va hunar - texnika bilim yurti direktorlarining tasdig'iga taqdim etiladi. Ishlab chiqarish ta'limi dars planining tipik sxemasini o'rganishda kirishishdan oldin bu planning ishlab chiqarish ta'limi programmasi va plani asosida, maxsus texnologik va boshqa fanlarga doir darslarning planlari ayrim darslar kalendar planlari asosida tuzilishini aytib o'tish zarur. So'ngra dars planini tuzishdan ko'zda tutilgan maqsad bu reja tuzishda qo'yilgan talablar o'ylab chiqiladi. Shundan keyin ishlab chiqarish ta'limi darsini mumkin qadar sxemasini, ya'ni har bir elementi ayrim band tarzida yozilgan mufassal rejasini ko'zdan kechirishga o'tish maqsadga muvofiqdir. Dars rejasini sxemasini ko'rib chiqishda o'z ixtisosiga doir programma temalaridan birining mufassal dars rejasini keltirsa juda yaxshi bo'ladi. Bundan tashqari, shuni ham aytib o'tish zarurki ishlab chiqarish ta'limining keltirilgan dars plani sxemasi programmaning temasiga darsdan kutilgan maqsadga qarab, boshqacharoq tuzilishi ham mumkin. Masalan dars rejasida "o'tilganlarni so'rash", band yoki "o'rganish mashqlari" bo'lmasligi ham mumkin, chunki ularni eng murakkab operatsiyani o'rganish vaqtida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Tuzilgan dars rejasiga darsni muvaffaqiyatli o'tkazishni ta'minlovchi asbob- moslamalar, materiallar ro'yxati, shuningdek darsning mufassal konspekti ilova qilinadi.

Dars ishlanmasining tuzilishi

Dars rejasi va ishlanmasi o'qituvchi uchun tuzish majburiy bo'lgan hujjat. Dars ishlanmasi - o'qituvchi ijodkorligini aniqlovchi omil. Dars rejasi - darsni pedagogik, didaktik va metodik jihatdan rejalashtiruvchi, loyihalashtiruvchi hujjat. U shunchaki rahbariyatga ko'rsatish uchun tuzilmaydi. Uni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'qituvchining bir soatlik darsdagi

faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini boyitish, ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Dars ishlanmasini tuzish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Dars vazifasini aniqlash yo'llari.
2. Reja konspektning bo'limlari.
3. Dars qismlari.
4. O'quv materiallarining mazmuni bo'limi.
5. Me'yor yoki mashg'ulotlarning qaytarish soni va vaqti.
6. Tashkiliy uslubiy ko'rsatmalar.

Texnologiya fanida rejalashtiruvchi hujjatlar

Texnologiya ta'limini rejalashtirish vaqtida quyidagi hujjatlar tuzib chiqiladi:

1. Texnologiya bo'yicha yarim yilga, istiqbolga mo'ljallangan kalendar-mavzu rejasi.

2. Har bir mehnat turi bo'yicha yarim yilga yoki bir yilga mo'ljallab tuzilgan o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati.

3. Tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlarning yig'ma mavzu rejasi: unda fanlararo bog'lanishlar aks etishi lozim (yarim yilga mo'ljallab tuziladi).

4. Ana shu mavzu yuzasidan batafsil konspektga ega bo'lgan dars rejasi. Ayrim maktab o'quv - ishlab chiqarish kombinatlari, hunar-texnika bilim yurtlarining ilg'or ish tajribasi shuni tasdiqlaydiki, texnologiya ta'limi bo'yicha rejalashtiruvchi hujjatlar o'quv jarayonini hamma tamoyillarini hisobga olgan holda tuzib chiqilishi kerak.

Rejalashtirishda ana shu tamoyillaridan birortasiga e'tibor bermaslik, texnologiya o'qituvchisining ishida jiddiy nuqsonlarga sabab bo'lishi mumkin. Ma'lumki texnologiya ta'limi dasturida mavzular ma'ruzalariga va darslarga bo'linmaydi, ularda soatlar miqdori ajralib ko'rsatilmaydi. Bu ish texnologiya ta'limi o'qituvchisi yoshi ustaj yuklanadi, u har bir mashg'ulot uchun o'quv materialining hajmini shunday taqsimlab chiqadiki, bu material mazmun jihatdan ham, matn jihatdan ham mantiqan tugallagan bo'lishi kerak. Shu bilan birga

o'qituvchi ajratilgan mavzuchalardan har biriga kiradigan o'quv materialining xususiyati va mazmuniga mos keladigan nom berish kerak.

O'quv ustaxonalarida yasaladigan buyumlar ro'yxati

O'quv ustaxonalarida bajariladigan buyumlar ro'yxati yarim yilga yoki bir yilga mo'ljallab tuziladi. Uni ishlab chiqishda usta mehnat ta'limi o'qituvchilari va ustaxonaning mudiri qatnashadi. O'quv ustaxonasida bajariladigan buyumlar ro'yxati kalendar tematik rejaga qo'shimcha ravishda yoziladi. Bu quyidagi prinsiplarga asosan ishlab chiqilgan:

1. O'qitish unumi mehnat asosida olib boriladi.
2. Buyumlar oddiydan murakkabga qarab joylashtirilgan.
3. Hamma buyumlar operasiyalar bo'yicha normallashtirilgan. Bu esa o'quvchilarni mehnat prosesini rejalashtirishga o'rgatadi.

Bu sxema tabiiy-matematik fanlar orasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadi. Bu birlashgan tematik planda ilmiylik va nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi asosida faqat ishlab chiqarish ta'limi maxsus texnologik fanning ayrim temalari orasidagina emas, balki boshqa umumiy ta'lim fanlari (fizika, matematika, ximiya) orasida xam umumiy texnika fanlari (metallar texnologiyasi, chizmachilik, texnik mexanika, elektrotexnika) orasida ham xuddi yuqoridagiday bog'lanish amalga oshiriladi.

Bu planda nomi aytilgan hamma fanlar xuddi tabiiy-matematik sikl fanlarining o'zginasidir. Shundan keyin konkret misollar bilan (o'qituvchi ixtisosi profilini ham hisobga olib) bu nomi aytilgan fanlar temalari orasidagi ob'yektiv mavjud bog'lanishlarni (sxemadagi misollar kabi) aniqlash zarur. Shundan keyin birlashgan tematik misolning asosiy mazmuni, uni ishlab chiqarish bosqichlari bilan tanishiladi. Bu ishlab chiqarishning mohiyati shundan iboratki, o'qish yili boshlanishidan oldin bilim yurti metodik komissiyasining majlisi chaqiriladi (bu komissiyaga birlashgan tematik planda ko'rsatilgan fanlarning ishlab chiqarish ta'limi masterlari o'qituvchilari kiradi). Komissiyaning har bir a'zosi o'z fanini puxta analiz qilib, boshqa fanlar bilan bog'lanishni amalga oshirish imkonini

beradigan konkret misollar vositasida bayon qilib beradi. Bu xildagi takliflar har tomonlama muhokama qilinadi, umumlashtiriladi.

Fanlararo bog‘lanishni amalga oshirishga yordam beradi deb topilgan programma material birlashgan tematik plan jadvaliga yoziladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, tabiiy-matematik fanlarning birlashgan tematik planini ishlab chiqishning ahamiyati ayniqsa so‘ngi yillarda, ya‘ni mamlakatimizda yangi tip professional texnika bilim yurtlari-ixtisos berish bilan birga umumiy o‘rta ma‘lumot ham beradigan bilim yurtlari tashkil etilishidan keyin yana oshdi.

Fanlarning o‘zaro bog‘lanish jadvali

Har bir mavzu mazmunini yoritishda uning mohiyatini o‘quvchilar tomonidan chuqur, ilmiy asoslangan holda tasavvur etishlari, vaqtdan unumli foydalanish, nazariy bilimlarini amalda, hayotga va ishlab chiqarishga qo‘llash imkoniyatlarini keng yoritish, ularning politexnik tushunchalarini kengaytirish maqsadida o‘qituvchi tomonidan tuziladi hamda u kalendar mavzuli rejada o‘z ifodasini topadi.

Tabiiy ilmiy turkumdagi fanlarning o‘zaro bog‘liqlik rejasi. Bu hujjatda mexnat ta‘limi, fizika, matematika, kimyo, chizmachilik va boshqa fanlarning o‘zaro bog‘lanishi ochib beriladi. Mavzu o‘rganishga kirishilganda o‘quv materialining fizika, matematika, kimyo, chizmachilik va hakoza fanlardan o‘quvchilar olgan bilimni etkazishga xarakat qilmaydi. O‘qituvchi suhbat o‘tkazish yo‘li bilan o‘quvchilarning bu sohadagi bilimlarini qanday o‘rganganliklarini aniqlaydi va ana shu fanlardan olgan bilimlar asosida ularga ishov berilayotgan metallarning tuzilishi va kirish jarayonini tushuntirib boriladi.

Tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlar				
Mehnat ta'limi	Fizika	Matematika	Kimyo	CHizmachilik
Kesish jarayoni va kesuvchi asbob, uning geometriyasi: qirqindi hosil bo'lish jarayoni to'g'risidagi umumiy tushuncha, kesish chukur-ligi, surish va kesish tezligi, asboblarning chidamliligi. Kesuvchi asboblarning turlari, parmalar, kesgichlar, frezalar, dastarralar va h.k	Qattiq jismlarning xossalari (qirqish qattiqroq jismlarning uncha qattiq bo'lmagan jismlarga botishi, pona. Kuch, massa va tezlanishi, ishqalanish ish va issiqlik)	To'g'ri chiziq va tekisliklarning fazodagi paralelligi, ko'p yoqli burchaklaming xossalari	Eritmalar emulsiyalar, mineral moylar va hayfon yog'lari, surib sovitish moddalari	Qirqimlarda kesimlar

Texnologiya va tasviriy-san'at

Texnologiya darsining tasviriy-san'at darsi bilan bog'liqligi nihoyat kattadir, chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval uning rasmi yoki eskizi chiziladi va o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar ham ana shu rasmlarni daftariga ko'chirib chizib oladilar. O'quvchilar ana shu rasmlar orqali o'ha detal yoki buyum to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Ko'rinib turibdiki, bu yerda o'quvchilarda har xil rasmlar chizish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan ma'lumki, rasm chizish oson ish emas. Ko'pgina o'quvchilar rasm chizishga oid yetarli ma'lumot va malakaga ega bo'lmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli o'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilarga buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yaqqol tasvirini chizishdagi ish ketma-ketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar hakida ham tushuncha berib borishga to'g'ri keladi.

Texnologiya va matematika

Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarga to'g'ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar, to'g'ri burchakli uchburchak va to'g'ri to'rtburchak kabi shakllarni hosil qilishga oid tushunchalar zarur bo'ladi. Bulardan tashqari, o'quvchilar texnologiya darslarida simmetriya o'qi, shakllarni simmetrik chizish,

aylana, urinmalar o'tkazish chizg'ich, go'niya, transportir, burchak o'lchagich, sirkul kabi turli asboblarda yordamida detal yoki buyumlarning burchaklarini, yoy markazlarini, to'g'i va egri chiziqli boshqa o'lchamlarini aniqlashlariga to'g'i keladi. Bunday paytlarda geometriyaga oid bo'lgan ilmlar zarur bo'ladi. Binobarin, maktab geometriya kursida chizish va o'chash qurollaridan foydalanish, yuzalarni almashtirish kabi ishlarni bajarishda katta imkoniyatlar bor. Vazifa shulardan texnologiya darslarida o'rinli foydalanishdan iborat. Shuningdek, berilgan buyumlarning uzunligi, eni, balandliga, yuzasi, hajmi kabi turli o'lchamlarni aniqlash, qancha material vaqt sarf bo'lishini hisoblash kabi ishlarni bajarishda esa arifmetikaga oid bilimlar zarurdir.

Texnologiya va jismoniy tarbiya

Ma'lumki, texnologiya ta'limi darslarining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlardan iborat. Shu sababli o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda charchab qolmasliklari ko'p jihatdan ularning jismoniy chiniqishlariga bog'liqdir. Bundan texnologiya va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarur degan oqilona xulosa kelib chiqadi. Binobarin, yoshlarni jismoniy tarbiyalash bilan ularni mehnatga tayyorlashning o'zaro kompleks bog'langan masalasi hal etiladi, ya'ni unda shaxsning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan professional jismoniy xususiyatlari, harakat malakalari, axlokiy-irodaviy va sotsial sifatlari shakllanadi. Xususan arralash, randalash ishlarini, bolg'alash ishlarini boks, chamalash ishlarini mo'ljalga olish kabi mashg'ulotlarga muvofiqlashtirish mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, agar jismoniy tarbiya mashqlari 4-sinflardagi mehnat ta'limi darslariga umumiy tarzda bog'lansa, keyinchalik esa yuqori sinflarda bu bog'lanishlar o'rganiladigan muayyan ixtisosliklar: masalan, duradgor, tokar, elektr payvandchi, suvoqchi, g'isht teruvchi, sletsar santexnik kabi kasblarga bevosita moslashtirish kiyin emas.

Texnologiya va adabiyot

Texnologiya ta'limi darslarida adabiyot fanining bog'lanishi sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Chunki adabiy asarlarda mehnat tarbiyasi va mehnatsevarlik g'oyalari ufurib turadi. Texnologiya ta'limi darslarida bulardan

omilkorlik bilan foydalanish, zarur parchalarni o‘qib berish kerak. Shuningdek, mashhur shoirlar o‘tmishda ustalar tomonidan yasalgan ajoyib moslamalardan foydalanganliklarini ham eslatib o‘tish mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga kitob qo‘yib o‘qish uchun mo‘ljallangan lavh haqida ma‘lumot berish bilan bevosita Nizomiy, Al-Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi allomalarimizning ijodiy faoliyatlariga to‘xtalib, ular mana shu moslamadan, ya‘ni lavhdan foydalanib kitob mutoala qilganliklarini aytib o‘tish o‘rinlidir. Shoir Hisrav esa, mashhur shoir bo‘lish bilan birga mohir duradgor usta bo‘lganligini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bulardan tashqari, nazariy va amaliy darslarda o‘lchov olishlarini xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lash ham mumkin. Bu o‘rinda quyidagi xalq maqollarini keltirish o‘rinlidir: “Etti o‘lchab bir kes”, “Rejasiz ish-qolipsiz g‘isht”, “Sanamay sakkiz dema” va boshqalar. Texnologiya ta‘limi muallimlari o‘z darslarida mehnat, mehnatkash insonlar to‘g‘risidagi badiiy asarlar o‘quvchilarga tavsiya qilishlari natijalarni tekshirib borishlari orqali ulardan mehnatga muhabbat, hurmat tuyg‘ularini o‘stirish, mehnatga ongli munosabatda bovlash, ijodkorlikka intilish kabi xislatlar tarkib topishiga yordam berishlari darkor.

Texnologiya va ona tili

Hayotda nutq va tilning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Hammamizga ma‘lumki, sobiq Sovet Ittifoqi davrida o‘zbek tiliga, atamalarga, tilning lug‘at, boyligiga e‘tibor susaydi. 1989-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida” Qonunning qabul qilinishi mehnat ta‘limini o‘qitish ishlariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mavzularni bayon qilishda ona tiliga mos holda ayrim atamalarning o‘zbekcha shaklini ko‘rsatish lozim. Jumladan, verstakni-dastgoh, remontni-ta‘mir, sletsarni-chilangar, lineykani-jazbar, xolodilnikni-sovutgich kabi o‘nlab atamalarni misol qilib keltirish mumkin. Shular qatorida ayrim so‘z va atamalar borki, ularni o‘zbekchallashtirish mumkin emas, chunki ular ifodalangan narsa va bular ilgari bizda ishlatilmagan, shuning uchun o‘sha so‘zlarni o‘zgarishsiz qo‘llash lozim bo‘ladi. Bunday so‘zlarga sirkul, tiski, otvyortka, rezba, rezina, montaj, plastmassa, agregat, seyalka, borona, voltmetr, ampermetr,

radio, lampa, diod, zubilo, shtangensirkul, transportir, stanok kabi atamalarni misol kilib ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, ona tili darslarida ayrim mavzularni o'rgatish jarayonda kasb-hunarga oid misollarni qo'llash orqali ham fanlarni bir-biriga bog'lash mumkin. Jumladan, "Kasb-hunar so'zlari" mavzusi o'rganilayotganda duradgorlik, tikuvchilik, to'quvchilik, pazandachilik va boshqa kasblarga doir atama va so'zlardan keng foydalanish, ularni o'quvchilarning o'zlariga topshirish, uydan yozib kelish uchun vazifa qilib berish mumkin. Bunday ishlar orqali o'quvchilar har xil kasb-hunarlar bilan tanishadilar, ulardan shu kasb-hunarga ma'lum darajada qiziqish va ishtiyoq uyg'onadi.

Texnologiya va tarix

Ko'hna va navqiron ovkamiz ko'p ming yillik tarixga, madaniy merosga ega. O'lkamizda xalq hunarmandchiligi, naqqoshlik, me'morchilik kabi o'nlab noyob kasblar ravnaq topgan. Qo'li gul ustalar tomonidan ajoyib buyumlar yasalgan, muhtasham binolar qurilgan. Ularning ishlarini fidoiy shogirdlar davom ettirib kelganlar, shuning uchun biz moziyga, o'tmishimizga nazar tashlamasdan turib, hozirgi hayotimizni, kelajakdagi turmushini gullatib yashnata olmaymiz. Zero birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ham "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" deb bejiz aytmagan. Barkamol avlodni tarbiyalashda tarix fani maktabdagi mehnat ta'limi darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni hunarga, xususan xalq hunarmandchiligiga qiziqtirishda tarixdagi qurilish, binolarning ustalari, mohir qo'llar, zargarlar, duradgorlar, temirchilarning qilgan ishlari bilan tanishtirish mumkin.

Hozirgi kunda xalq amaliy san'atiga, hunarmandchiligiga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Masalan, hozir ko'pchilik maktablarda xontaxta, eshik, rom, darvoza, so'ri, sandal, beshik, sandiq, milliy kursi kabi buyumlarni tayyorlash ishlari o'quvchiga dars mobaynida o'rgatib borilmoqda. Bularning hammasi tariximizga, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishidir. Bulardan tashqari, mehnat darslarida maktabdagi yoki tumanlardagi o'lkashunoslik muzeylariga ayrim buyumlarning namunalarni yasab berish orqali ham

o'quvchilarga tarixiy ma'lumotlar hamda tushunchalar berish, ulardan o'tish ajdodlarimizning san'at va ustachiligidan zavqlanish, faxrlanish hissini tarbiyalash mumkin.

Texnologiya va ekologiya

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish asboblari va xom - ashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish kun tartibidagi asosiy talablardan bo'lib qoldi. Amaliy mashg'ulotlarda xom - ashyolardan va asbob-uskunalaridan tejamsiz, pala-partish foydalanish pirovard oqibatda ekologiya muammosiga kelib taqaladi. Shuning uchun o'quvchilarga yog'och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun bu xom ashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligini aytib o'tish lozim.

Ularga bu narsalarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yo'llar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik ta'sir ko'rsatkichi yoki bog'liqligini gapirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlar mehnat talimidagi fanlararo uzviy bog'lanishlar ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Bilamizki, bitta darsni birdaniga hamma fanlar bilan bog'lab o'tib bo'maydi, balki o'rganiladigan mavzuga mos keluvchi tushuncha va ma'lumotlarni tanlab olib, zarur paytda ulardan foydalaniladi. Shuningdek, mehnat darslarida boshqa fanlar, jumladan chet tili, iqtisod kabi fanlardagi tushunchalardan ham keng foydalanish mumkin.

Hozirgi kundalik turmushning barcha javoblarida, fizika, texnika va boshqa tabiiy fanlarning integratsiyasi jarayonlari keng qo'llanilib kelinmoqda. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassis o'quvchilar, maktabda umumta'lim predmetlari bo'yicha keng integrativ bilimlar bilan qurollangan bo'lishlari lozim.

Bunda o'qituvchi maqsadga yo'naltirilgan, uslubiy va ilmiy asoslangan va o'quv materiallarining mazmuni, mohiyati bo'yicha maqsadga muvofiq integrativ materiallarni tanlashning prinsiplarini bilishi zarur.

Fanlararo bog‘liqlik jadvali 7-sinf

Texnologiya	Fizika	Kimyo
Yog‘ochning kimyoviy va texnologik xossalari.	Elastiklik kuchi (deformatsiya)	Modda va uning xossalari. Organik moddalar.
Yog‘ochga ishlov berishda qo‘l asboblardan foydalanish texnologiyasi.	Ishqalanish kuchi. Bosim	Modda va uning xossalari.
Kauchuk to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar. Polimerlar va metallarning birikmalardan hosil bo‘lgan konstruksiyalar.	Deformatsiya. Temperatura	Kislotalar
Ta‘mirlashda qo‘llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari. Shahar va qishloqlarda suv, gaz, elektr energiya va issiqlik ta‘minoti tizimi, undan foydalanish.	Tok kuchi. Kuchlanish	Moddalarning toifalanishi, bo‘linishi
Go‘sh t mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati, ularning sifatiga bo‘lgan talablar	Temperatura	Moddalarni toifalanishi
Kimyoviy tolalarni olinishi. Kimyoviy tolalarning xossalari	Temperatura. Deformatsiya	Ishqorlar. Kislotalar

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnat va kasb ta‘limida rejalashtiruvchi hujjatlar nechta?
2. Kalendar mavzuli reja qachon va nimaga asosan tuziladi?

3. O'quv usta xonasida yasaladigan buyumlar ro'yxati qachon va nimaga asoslanib tuziladi?
4. Texnologiya fani qaysi fanlar bilan uzviy aloqador?

4.2. Texnologiya fani o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi.

Texnologiya fani o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi boshlanishi oldindan va yillar davomida amalga oshiriladi.

O'qituvchi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- o'quv yili boshlanishiga qadar o'quv dasturini o'rganish, mavzu bo'yicha qo'yilgai Davlat ta'lim standart talablarini o'rganib chiqish, o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash kabi vazifalarini belgilab olish;

- fanga oid ilmiy, metodik va ilmiy-ommabop adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;

- fanga oid yangi nashr qilingan ko'rgazma materiallarni, o'quv tajriba jihozlarni o'rganish;

- ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, tahlil qilish va o'z ustida ishlash orqali bilimni kengaytirish;

- o'z fani sohasida ma'lumotlarni to'plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlashdan iboratdir.

O'qituvchining umumiy tayyorgarligi uning fan bo'yicha tuzgan taqvimiy mavzuli rejasida aks etadi. Taqvim-mavzuli reja fan o'qituvchisi tomonidan tuzilib, metod birlashma yig'ilishida muhokama qilinadi, ma'qullangandan so'ng ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

O'qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi. O'qituvchining har bir darsga sifatli tayyorlanishi darsni tashkil etish, o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Darsga

tayyorlanish algoritmi, barcha omillar, holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo'lishi zarur.

Shuning uchun har bir darsga tayyorlanishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilishi lozim: Darsda o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun avvalo, uning idrokini, xotirasini kuchaytirish asosida o'quv materialining xotirada saqlanishini ta'minlash zarur. Darsning maqsadiga erishish uchun o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, bunda o'quvchilarning bilim saviyasini hisobga olish va darsni jihozlashga jiddiy e'tibor berish, o'quv materiallar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ta'limning metod va usullarini o'rinli qo'llash ham muhimdir.

Dars o'qituvchiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Shunga ko'ra, atroflicha tayyorlanish tajribali o'qituvchi uchun ham yosh o'qituvchi uchun ham zarur. O'qituvchi o'z vazifasini sifatli bajara olishi uchun o'quvchilar shaxsini har tomonlama o'rganishi shart. O'quvchi shaxsini o'rganish oddiygina tadbir emas, balki ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishishning eng muhim yo'lidir. Shuning uchun birinchi navbatda sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim:

- o'quvchilarning bilimi va o'zlashtirish saviyasi;
- o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabati;
- sinfning ishlash tezligi;
- bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;
- har xil turdagi o'quv jarayoniga munosabati;
- o'quvchilarning intizomi.

Ikkinchi navbatda esa har bir o'quvchining individual xususiyatlarini e'tiborga olish zarur:

- nerv tizimi turlarining shakllanganlik darajasi;
- o'zaro fikr almashuvi;
- hissiyotga beriluvchanlik;
- materialni o'quvchilar tomonidan qabul qilishini boshqarish;
- yomon kayfiyatni tarqatish yo'llarini bilish;

- o‘zining bilim va qobiliyatiga ishonish;
- har xil ta’lim vositalaridan foydalanishni bilish. O‘qituvchi oldida turgan vazifalardan biri o‘quvchilarga beriladigan ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko‘tarish talab qilinadi.

Bularning barchasi dars ishlanmasida yoki darsning texnologik xaritasida o‘z ifodasini topadi. Dars ishlanmasi (darsning texnologik xaritasi) o‘qituvchi uchun tuzilish majburiy bo‘lgan hujjatdir. Uni tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad- o‘qituvchining va o‘quvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini yoritib borish, ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Darsga tayyorlanish vaqtida o‘qituvchi o‘tgan mashg‘ulotning mazmuni va natijalarini tahlil qilishi, ularning izchil aloqasini belgilab chiqishi, kelgusi darsning ta’lim va tarbiya maqsadini to‘g‘ri belgilashi, darsning tuzilishini va uning har bir elementiga ajratiladigan vaqtni aniqlashi, mavzuga oid savollar tuzishi va kirish yo‘riqnomasi mazmunini ishlab chiqishi, asosiy mehnat usullarini tanlashi va o‘ylab chiqishi kerak.

Darsga tayyorgarlik ko‘rishda, uni tashkil etishni aniq rejalashtirib olishda kerak bo‘lgan talablar: taqvimiy mavzuli reja asosida dars o‘tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo‘lishi, dars o‘z vaqtida boshlanib, o‘z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o‘quvchilar ongli intizomi ta’minlanmog‘i lozim. Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o‘quv texnik, kompyuter, statsionar va dinamik ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Texnologiya fani o‘qituvchisi mashg‘ulotga tayyorlanish jarayonida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, o‘quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o‘quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat’iy saqlanishiga, ishlarga baho qo‘yish va ularni tahlil qilishga alohida e‘tibor berishi kerak.

Kasbkorlik sifatleri

O'qituvchining **kasbiy-axloqiy fazilatlaridan** biri talabchan va adolatli bo'lishdir. O'qituvchining talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlikdir. O'quvchilar loqaydlikni yoqtir-maydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi. O'qituvchi avvalo o'ziga nisbatan talabchan bo'lmog'i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo'yayotgan talablari o'rinli, samarali bo'ladi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i zarur. Kuch adolat va haqiqatdadir. Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to'g'rilik, kuchqudrat mujassamdir.

Adolatlilik umuminsoniy va milliy axloqimizning muhim xislatlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotida adolat, adolatli bo'lish fazilati yuksak qadrlanadi. Adolat kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda odillik bilan ish tutishni taqozo qiladi. Adolatlilik kishida o'tkir akd, sof mulohaza, olijanoblik va mardlik mavjudligini bildiradi. Adolatli bo'lish o'z so'zida turish, qat'iylilik demakdir.

Bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik - o'qituvchining muhim axloqiy fazilati, ma'naviy boyligi hisoblanadi. Bu fazilatlar insoniy munosabatlarni go'zallashtiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari cheklangan bo'ladi va to'la qondirilishi mumkin. Lekin ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy boylıklar singari cheksizdir. Kishi insoniyat yaratgan ma'naviy boylıklarni qanchalik ko'p o'zlashtirsa, uning shaxsi shunchalik barkamol bo'ladi. O'qituvchining ma'naviy boyligi, bilimdonligi xalq manfaatiga, yoshlarning baxti, istiqboli, kelajagiga qaratilishi, xizmat qilishi zarur. Mashhur mutafakkir aytganidek, agar kishi faqat o'zi uchungina ishlasa, uning mashhur olim, ulug' donishmand, ajoyib shoir bo'lishi mumkin, lekin u hech qachon haqiqiy, barkamol inson bo'la olmaydi. Buyuk kishi bo'lish uchun avvalo jamiyat taraqqiyoti yo'lida, insoniyatning buyuk

orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish yo'lida xizmat qilmoq va buning uchun zarur bo'lsa, o'z hayotini ham qurbon qilishga tayyor turmoq kerak.

O'qituvchining ma'naviy qiyofasida halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, kamtarlik muhim fazilatlardan hisoblanadi. Bu fazilatlar kishiga ichki go'zallik, ma'naviy poklik bag'ishlaydi, kishining qadr-qimmatini oshiradi.

Halollik - o'qituvchining ichki va tashqi dunyosining birligini, so'zi bilan hatti harakati to'g'ri kelishini, o'quvchilarga, hamkasblariga, ota-onalarga ochiq ko'ngil va samimiy munosabatini ifodalovchi axloqiy fazilatdir. U inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqadi. O'qituvchining halolligi o'z vazifasini vijdonan va ongli ravishda bajarishida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining muomala odobi O'zbekiston maktablarida ta'lim-tarbiya ishlari, pedagogik faoliyatning samaradorligi, ta'sirchanligi o'qituvchilar, ota-onalar jamoasi, oilada shakllangan axloqiy munosabatlarga, muomala odobiga bog'liq. O'qituvchi ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar muallimning har bir harakati, barcha ishlarini inson sifatida kuzatib boradi, his etadi, axloqiy jihatdan baholaydi, qabul qiladi yoki rad etadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya ishlarining natijasi, o'qituvchi faoliyatining ta'sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobiga, pedagogik jarayon ishtirokchilarining axloqiy-ruhiy holati, kayfiyatiga bog'liqsir. Muomala odobi o'z tabiati, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo'ladi.

Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma'naviy, umuminsoniy va milliy, axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o'rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o'ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega. Bu xususiyat va mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim bo'lgan axloqiy

qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi o'rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bog'lanishlarga asoslanadi.

Asbob-uskunalarini ishga sozlash. Xom-ashyo va namunani tayyorlash.

O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni yaxshi tashkil etish, ularni o'tkazishning to'g'ri metodikasini qo'llash, o'quvchilar tomonidan texnikaviy bilimlar, mehnat malakalari va ko'nikmalari muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun o'quv ustaxonalarning jihozlanishi texnikaning hozirgi darajasiga, yuksak mehnat madaniyatiga muvofiq kelishi va ularda texnologiya ta'limi dasturining barcha mavzularini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim. Texnologiya ta'limining asosiy darslari nazariy va amaliy mashg'ulotlardan iborat. O'quvchilar texnologiya ta'limining nazariy asoslarini o'zlashtirishlari uchun taxminan 20 % o'quv vaqtini sarflashga rejalangani. Uyda va mehnat kutubxonasida mustaqil ravishda har bir mavzuning nazariy asoslarini o'zlashtirishlari lozim. Bu holatni ilmiy jihatdan aniqlashda texnologiya ta'limi o'qituvchisi uchun maktab kutubxonasi va tegishli zamonaviy texnik-texnologik, umumiy ta'lim fanlariga, fan-texnikaga oid jurnallar va boshqa manbalar ro'yxati, internet va qo'lda tayyorlangan modellar, moslamalar, didaktik materiallar, axborotnomalar, o'quvchilarga mo'ljallangan kichik to'plamlar qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi ustaxonalarda mavjud bo'lgan stanoklar, asbob-uskunalar, dastgohlar, moslamalarni ta'mirlab, amaliy va laboratoriya darslariga tayyorlab qo'yishi, amaliy ish ob'yektlari uchun xom ashyolar to'plashi, eskizlar, chizmalar, texnologik xaritalar ishlab chiqishi lozim. O'quvchilar tayyorlagan buyumlarni, ishlarni yakunlagan holatini nazorat etishga qaratilgan savollar, testlar, namunalarni ishlab chiqish darsga tayyorgarlikni tashkil etadi. So'nggi yillarda texnologiya ta'limi jihozlari ro'yxati ta'limning yangi vositalari hisobiga sezilarli kengaydi va hozirgi kunda 400 nomdan iborat. Bular 220 tacha har xil turdagi asboblari, moslamalar, stanoklar, 16 xil priborlar, 30 xildan ortiq modellar va ularning qismlari, 14 xil to'plamdagi jadvallar va plakatlar, 120 dan ortiq ekran

vositalari va qo'llanmalaridan iborat. Buning hammasi mehnat ta'limining politexnik yo'nalishini kuchaytirish, o'quvchilarga texnika, texnologiya, iqtisodiyot va hozirgi zamon ishlab chiqarishining tashkiliy asoslarini chuqurroq va to'liqroq ochib berish, ularda har turli materiallarga mexanik ishlov berishning dastlabki ko'nikmalarini ertaroq shakllantirish zaruratidan kelib chiqqan.

Pedagogik nuqtai nazardan o'quv-moddiy ta'minot o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va sifatini oshirishga, ta'limning politexnik va kasbga yo'naltiruvchi jihatlarini to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga zamin yaratishi kerak.

O'quvchilarga ta'lim vositalari orqali beriladigan axborot ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi, o'quvchilarning tayyorgariik darajasini oshirishga imkon berishi lozim. Iqtisodiy jihatdan o'quv-moddiy baza maqsadlarini mehnat o'quv-tarbiya jarayoni sifatiga zarar yetmaydigan holda amalga oshirish imkonini beradigan o'quv jihozlaridan to'liq foydalanishga qaratilgan bo'lishi zarur. o'quv ko'rgazmalari va o'quv jihozlari tarkibida, odatda kamyob va qimmatbaho materiallar bo'lmasligi, ularni tayyorlash asossiz ravishda ortiqcha xarajatlar talab qilmasligi va ommaviy ravishda maktablar sotib olish imkoniga ega bo'lishi kerak. Iqtisod nuqtayi nazardan o'quv jihozlari ustida o'qituvchilar va o'quv ustalari ishlashlari lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida o'quvchilarning mehnat va kasb-hunarga yo'naltirish sifatini yaxshilash hamda takomillashtirish uchun o'quv ustaxonalari va laboratoriyalarida har bir kiritilgan kasb va ixtisosliklarning asbob-uskunalarini, moslamalarini ishga sozlash, ta'mirlash hamda qayta tayyorlashni tashkil etish va ularning metodikasini hal qilish ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchilarga xuddi ana shular orqali texnik-texnologik operatsiyalarni bajarish asosiy faoliyatlariga yo'naltirilgan. Shuningdek, texnologiya ta'limining har bir yo'nalishi bo'yicha asbob-uskunalarini ishga sozlash uchun o'quvchilar eng avvalo qo'llaydigan asbob-uskunalarining tuzilishini mukammal o'rganishlari zarur.

Asbob-uskunalarini ishlatish va ularni qo'llashga sozlashni asbob-uskunalar va moslamalar yuzasidan bajariladi;

1) turlari, tuzilishlari, xususiyatlarini o'rganib mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ishga sozlash;

2) qo'llanishlari, qo'llanish usullari va texnologiyasini o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ishga sozlash;

3) tayyorlash texnologiyasi standartlari, sifat belgilarini o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va stanok mashinada qo'llash;

4) tayyorlashda qo'llaniladigan usullar, operatsiyalar, asbob-uskunalar, moslamalar, stanoklarni o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etib moslashtirish; ishchi-mutaxassislarni qayta tayyorlasli, malaka oshirish;

5) tayyorlashda ishlatiladigan materiallarning texnologiyasi va sifatlarini yaxshilash.

Texnologiya ta'limining nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarni qo'llaniladigan xom ashyolar va namunalar bilan tanishtirish hamda foydalaniladigan metodikasini yoritish o'ziga xos o'rin egallagan. Texnologiya ta'limi yo'nalishlari bo'yicha joriy etilayotgan tashkiliy, metodik va boshqa masalalar qatorida moddiy-texnik baza, ayniqsa xom ashyo hamda namunalar bilan ta'minlash eng murakkab va dolzarb muammodir.

O'quvchilar buni inobatga olishlari bilan birga mavjud imkoniyatlardan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Yog'ochga ishlov berishda amaliy tashkilot hamda yog'ochsozlik korxonalaridan olingan mahsulot (eshik, rom, imoratsozlik detallari va boshqa buyurtmalardan ortib qolgan bo'laklar, qirindilar, bahor va kuz davrlarida daraxtlarni kaltalash holatida paydo bo'lgan sarjinchalar va ko'zsiz dumaloq bo'laklar) yog'ochsozlik mehnati uchun xom ashyo tarzida qo'llanishi eng ommaviy tajriba hisoblanadi, ulardan mehnat ta'limi jarayonida turli buyumlar (bolg'a va iskanalar uchun dastalar, sabzavot to'g'raydigan taxtalar, yog'och g'o'lasining arralangan namunalari, yelimplangan yog'och vaza va hokazo)

tayyorlanib ijtimoiy foydali mehnat mahsulotlariga aylanadi. Texnologiya ta'limida o'quvchilarni xom ashyolar bilan tanishtirish, shuningdek, ularni nazariy hamda tarixiy ma'lumotlar bilan ham tanishtirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan namunalari (detallar, mexanizmlar, stanoklar, texnik-texnologik jarayonlar xaritalari, qog'oz-kartonlardan tayyorlangan maketlar) keng qo'llanilmoqda.

Metallarga ishlov berishda otaliq tashkilot hamda metallsozlik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish jarayonida tayyorlanadigan mahsulotlardan ortib qolgan chiqindilar: tunuka quymasi va boshqa qoldiqlar, metallsozlik ishlaridan paydo bo'lgan parchinlar, brak holiga kelgan turli shakldagi detallar mehnat ta'limida metallga ishlov berish uchun xom ashyo sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga metallarni qirqish jarayonida shu tariqa yig'ilgan metall chiqindilari ham xom ashyo bo'la oladi.

Ulardan texnologiya ta'limi darslarida metallardan tayyorlangan o'yinchoqlarning bukilgan qismlarini sozlashda, turli asboblar, maketlar, modellarni yasashda foydalanish mumkin. Ular turli shakldagi detallarni shtangensirkul bilan o'lchash, nazorat ishlarini bajarish uchun mehnat ob'yekti vazifasini bajaradi. Metallardan tanlab olingan shvellersimon detallardan parmash operatsiyalarini bajarishga foydalaniladi. Shundan o'quvchilar lishunadilarki, tashlandiq detallardan (qaysi shaklda bo'lmasin) ham o'quv ishlarini bajarishda foydalanish mumkin. Bu birinchidan, o'quvchilarni izlanish, ijod qilishga undaydi, chunki ma'lum bo'lmoqdaki, detallar qaysi holatda bo'lmasin, ulardan har xil texnologik operatsiyalarni bajarishda foydalanish uchun imkoniyat topiladi, ikkinchidan, o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishga yordam beradi.

Texnologiya ta'limida xom ashyo va namunalari qaysi holatda, shaklda va qanday materialdan bo'lmasin, ular o'quvchilar uchun u yoki bu texnologik operatsiyalarni o'zlashtirishlarida o'quv

Ob'yekti bo'la oladi. Turli o'lcham va shakldagi tunuka bo'laklari kavsharlash operatsiyalarining turli xillarini o'zlashtirishga olib keladi. Mazkur tunuka

parchalari xom ashyo sifatida qo'llaniladi. Xom ashyo materiallaridan o'quvchilar chilangarlik ustaxonasida knopkalar ishlab chiqaradigan asbob tayyorlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday moslamani 8-10 mm li simdan tayyorlash mumkin. Shunday qilib, xom ashyo turlari va namunalari o'quvchilar uchun texnika-texnologiya, materialshunoslik, qirqish nazariyasi, ustaxonada o'zlashtirilgan chilangarlik, tokarlik, frezerlash, parmalash va boshqa o'quv mashg'ulotlari bo'yicha shakllangan bilim, ko'nikmalarni malaka darajasiga ko'tarish uchun zamin yaratiladi. Shu tarzda gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik, qishloq xo'jaligi hamda milliy hunarmandchilik yo'nalishlarida ham mavjud xom ashyo va namunalardan foydalanish holatlarini yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar

Texnologiya ta'limi jarayonida avvalo natural ob'yektlar, asbob-moslama, tayyor detallar va buyumlar, uskunaning yig'ma sxemalari, uzellari va yaxlit uskuna va hokazolar, ya'ni o'quvchilar qaysi uskunada va nima yordamida ishlashlari kerak bo'lsa, shularning barchasi ko'rgazmali qurollar elektron-didaktik vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari texnologiya ta'limi jarayonida plakatlar, sxemalar, diagrammalar, modellar, maketlar va boshqa tasviriy ko'rgazmali qurollardan ta'lim vositasi sifatida foydalaniladi.

Ta'lim vositalari sifatida ko'rgazmali qurollardan foydalanish qoidalari va metodik usullari asosan quyidagilardan iborat:

- ko'rgazmali qurollarini namoyish qilish usullarni ko'rsatish, ishni bajarishning texnika talablarini, texnologiyasini taqlil qilish bilan qo'shib olib borilishi kerak;
- ish va asboblarning, moslamalar va hokazolarning namunalari namoyish qilish uchun ularni maxsus tematik taxtalarga komplektlash maqsadga muvofiqdir, bu esa qiyoslash va umumlashtirish uchun sharoit yaratadi;
- mayda namunalar tarqatiladigan material sifatida foydalaniladi;

- detalni ishlash, yig'ish, montaj qilishni tushuntirish paytida texnologik o'tishlar izchilligida ishlov berilgan (to'plangan, montaj qilingan) namunalardan keng foydalanish lozim;

- naturada yoki bevosita kuzatish imkoni bo'lmagan ob'yektlar yoki hodisalarni (elektr tokining yo'li, molekulalarning o'zaro ta'siri, kimyoviy apparatlar, dvigatellardagi jarayonlar va hokazolarni) namoyish qilish zarurati tug'ilganida sxematik ko'rgazmali qurollardan foydalanish;

- uskunalar, priborlar, agregatlar, dvigatellar va hokazolardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilayotganida ularni mumkin qadar ko'zga yaqqol tashlanishi uchun to'siklarni qopqoqni olib tashlab, o'quvchilar ko'proq ko'ra olishlari uchun sharoit yaratish kerak;

- ko'rgazmali qurollar o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini hamisha ta'minlash lozim (namoyish qilinadigan joyni to'g'ri tanlash; yaxshi yoritilgan bo'lishi, o'quvchilarning to'g'ri joylashtirilishi va namoyish qilishining oqilona usullari va hokazo).

Ta'lim beruvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni. Ta'lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar. Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar. Quyida biz elektron-didaktik vositalarning uchinchi guruhiga kiruvchi elektron-didaktik vositalar va ulardan texnologiya ta'limi darslarida foydalanish metodikasi bilan tanishib chiqamiz.

Elektron-didaktik vositalar va ulardan foydalanish metodikasi haqida gapirar ekanmiz: ta'limning ko'rgazmali qurollari va texnika vositalaridan foydalanishning aqamiyatini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Texnologiya ta'limi jarayonida avvalo natural ob'yektlar, asbob- moslama, tayyor detallar va buyumlar, uskunaning yig'ma sxemalari, uzellari va yaxlit uskuna va hokazolar, ya'ni o'quvchilar qaysi uskunada va nima yordamida ishlashlari kerak bo'lsa, shularning barchasi ko'rgazmali qurollar, elektron-didaktik vositalar hisoblanadi. Bundan

tashqari texnologiya ta'limi jarayonida plakatlar, sxemalar, diagrammalar, modellar, maketlar va boshqa tasviriy ko'rgazmali qurollardan ta'lim vositasi sifatida foydalaniladi.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari

O'qituvchi xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namayon bo'ladi. O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalarga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzida bir qadar oydinlashiriladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik milliy g'urur, baynalminalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr qimmat, mas'uliyat vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi bolalarga yaxshilik qilish o'qituvchilik burchi o'qituvchi sha'ni, qadr qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday axloqiy va insoniy xususiyatlarini tog'ri amalga oshira olgan o'qituvchigina o'zining haqiqiy biologik ekanligini his etadi. O'qituvchining bilimdon bo'lishi, insoniyat ma'naviy boyliklarini ko'paytirishga va uni yoshlarga astoydil o'rgatish, o'z ishida qanoat hosil qilish, o'z kasbini bolalarni dildan sevisish, berilib ishlash. Bularning barchasi o'qituvchi shaxsining shakllanishiga bebaho axloqiy ta'sir etadi. O'qituvchining bilimdonligi ham uning insoniy yoki axloqiy xususiyati hisoblanadi. Bilimdonlik bu insoniy munosabatlarni go'zallashtiradi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z ustida tinimsiz izlanish olib borishi ya'ni o'qituvchi o'z ustida ishlashdan to'xtagan kuni u o'lik hisoblanadi.

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'qituvchilariga,

tarbiyachilar, sinf va maktab rahbarlariga birdek taalluqlidir. Barcha pedagogik xodimlarning har bir soʻzi va amaliy hatti-harakatlari oʻquvchilarga, tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilishi lozim. Bu ish oʻz navbatida muallim va oʻquvchilardan axloq nazariyasi, axloqiy tasavvur va tushunchalar, oʻqituvchi odobiga doir bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni; muhokama, mulohaza qilib, uning mohiyatini tushunish, magʻzini chaqishni talab etadi.

Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini oʻquvchilarga tushuntirish masʼuliyatli ish boʻlib, buning uchun muallim oʻquvchilarning yoshi, saviyasiga mos ular tushunadigan misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak. Pedagogik faoliyat oʻqituvchidan axloqiy maʼrifatli, yaxshi xulq egasi boʻlishni; axloqiy tajribaga ega boʻlishni, oʻz-oʻzini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishni talab etadi, shu bilan birga muallim oʻquvchilarga muntazam ravishda axloqan saboq berib, ularni axloqiy bilimli qilishi; bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalda bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba orttirishlariga koʻmaklashishi, oʻquvchilarni ham oʻz-oʻzini tarbiyalab borishlariga erishishi zarur.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnologiya fani oʻqituvchisining oldiga qoʻyadigan maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Oʻqituvchining kasbiy sifatlarini aytib bering.
3. “Servis xizmati” hamda “Texnologiya va dizayn” yoʻnalishlarida asboblarni ishga sozlash ishlari qanday tashkil qilinadi?
4. Texnologiya taʼlimi amaliy mashgʻulot jarayonlarida qanday vositalardan foydalanish qulay?
5. Oʻqituvchining shaxsiy sifatlarini ayting.

4.3. Texnologiya darslarida baholash mezonlari.

Texnologiya fanida baholash turlari. Texnologiya fani darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholash mezonlari.

Baholash turlari. Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- Boshlang'ich baholash
- Joriy, ya'ni shakllantiruvchi baholash
- Yakuniy, ya'ni umumlashtiruvchi baholash

Boshlang'ich baholash-ta'lim jarayoni boshida ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkaziladi. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni samarasini tezkor (operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash – ta'lim oluvchining ta'lim jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi.

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

Ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu baholashga tayyorgarlik ko'rishga olib keladi. Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'lim oluvchini o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi. Baholash o'tkazish sharoitida o'quvchi o'zini erkin tutishi va noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak.

Baholovchi va ta'lim oluvchi baholash nima berishi, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir.

Qo'yilgan baho o'quv natijasini tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir¹. Ta'lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim.

Rejalashtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Baholash va uning ahamiyati. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishda iborat jarayondar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o'quvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;

- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini.

Qachon baholash kerak?

- Ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- Ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- Ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- Ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
- Muntazam o'tkazib borish;
- Pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- Umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganda kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa - effektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning bilimini baholaganda uning og'zaki javobini, uy vazifasini qay daraja bajarilganligini, yangi materialni o'rganishdagi faolligini, mustaqil va yozma-amaliy ishlarning qay tariqa bajarishini nazarda tutish lozim. O'quvchilarning yozma ishlarini baholashda texnologik termin va nomlarning to'g'ri yozilishini (texnologik savodxonligini), ishlarning sistemali va bartartib bajarilganligini ham nazarda tutish lozim.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda, javobning ijodiy va salbiy tomonlarini o'quvchilarga aniq ko'rsatib berish shart. O'quvchilarning bilimi besh baho sistema bilan baholanadi.

O'quv materialini butun tavsilotlari bilan bilish va tushunish, - materialni izchil, mantiqan bog'lagan holda xatosiz bayon etish, hisob-kitob va grafika ishlarini namunali bajarish, mehnat topshiriqlarini bajarish vaqtida olingan ilmiy-texnikaviy bilimlarni mustaqil, dadil va to'g'ri tadbiq etish, mehnat usullarini to'g'ri bajarish, texnikaviy jarayonlar doirasida sifat ko'rsatkichlariga rioya qilish, ishni vaqt normasi doirasida bajarish **"5"** baho bali bilan baholanadi².

“4” ball butun o‘quv materiallarini bilish va tushuntirish, uni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri bayon etishi, hisob-kitob va grafika ishlarini to‘g‘ri va puxta bajarishi, olingan bilimlardan o‘quv mehnat topshiriqlarini bajarishga nisbatan erkin foydalana bilish, barcha ish uslublarini sifat ko‘rsatkichlarini belgilangan doirada to‘g‘ri bajarish, bunda mehnatni tashkil etishda kamchilikka yo‘l qo‘ymasdan, belgilangan vaqt normasiga muvofiq o‘z vaqtida bajarganligi uchun qo‘yiladi.

“3” ball programmadagi asosiy materialni (bayon qilish) bundan keyingi o‘quv mehnat vazifalarini bajarishga imkon beradigan, hajmda bilishi va tushuntirishi, o‘quv materialini bir muncha xato va kamchiliklar bilan o‘qituvchining ozgina yordami orqali sodda qilib bayon etishi, olingan ilmiy-texnikaviy bilimlardan, amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida sust foydalanishi

mehnat usullarini yetarli darajada egallamaganligi (natijada buyum sifati pasayib ketadi), mehnatni tashkil etishda oz kamchilik bo‘lgan holda belgilangan vaqt normasini 75 % bajargani uchun qo‘yilmadi.

“2” ball programma materialining ko‘p qismini yaxshi tushunmaslik, uni qo‘pol xatolar bilan bayon qilish, hisob-kitob va grafika ishlarini yetarli darajada qunt bilan bajarmaslik, olingan bilimlarni ancha xatolarga yo‘l qo‘yib tadbiiq qilish, mehnat operasiiyalarini ko‘p xatolar bilan boshqarish, mehnatga belgilangai sifat ko‘rsatkichlarining ta‘minlay olmasligi uchun qo‘yiladi.

“1”ball o‘quv jarayonini umuman bilmasligi, berilgan topshiriqdan bo‘yin toblash, asboblardan foydalana bilmaslik va uni ishdan chiqarish xavfsizlik qoidalarini qo‘pol ravishda buzish.

Shuni eslatib o‘tish lozim, ball baholar ishi tipovoy normalari bo‘lsa ham, ular aslida umumiy o‘rni normalar bo‘lib, ularni albatta individuallashtirish kerak. Usta va mehnat o‘qituvchisi ball qo‘yish normalariga ijodiy yondoshishi bu masalaga bir xil qaramasligi lozim. Baholarning tarbiyaviy rolini oshirish masalasi diqqatga sazovordir. Shu munosabat bilan o‘qituvchini qo‘ygan baholarini izohlab berishi muhimdir. Bu hol o‘quvchilarga o‘z bilimlaridagi kamchiliklarni, amaliy ishlardagi nuqsonlarini bilib olishlariga yordam beradi. O‘qituvchi baholarni

izohlar ekan, sinf, guruhini diqqat e'tiborini berilgan javob yoki bajarilgan topshrigini ijobiy va salbiy tomonlariga qaratilishi, buni barcha o'quvchilar keyingi o'quv mehnat faoliyatlarida hisobga olishlari zarur. Baholarni muntazam izohlab berish ularning ta'limiy rolini oshiradi. Chorak bahosi, o'rtacha arifmetik hisob bilan emas, balki barcha baholarning salmog'ini inobatga olib chiqariladi. Bundan o'quvchining og'zaki yoki yozma individual bahosi ahamiyatga ega.

O'qituvchi bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda o'quvchi javobini tahlil qilib boradi va javoblar yuzasidan o'z mulohazasini aytadi. O'quvchi javob berayotganida qanday xato va kamchiliklarni yo'l qo'rganini ko'pincha uning o'zi sezmaydi. Bunday holda o'qituvchi o'quvchining javobini qisqacha tahlil qilib berishi talab etiladi. Shunda o'qituvchi qo'rgan bahoning tog'riligiga o'quvchida shubha qolmaydi.

O'quvchi o'z bilimida qanday yutuq yoki kamchilik borligini, nima uchun uning bali oshirilgani yoki pasaytirilganini anglagandagina qo'yilgan baho rag'batlantiruvchi rol o'ynashi mumkin. O'quvchi o'z xatosini to'la tushungandagina uni to'g'irlashga ongli ravishda intiladi. O'qituvchi o'quvchi bilimini ball bilan baholar ekan, erishgan yutug'i uchun rag'batlantiradi, kamchiliklarini qayd qilib qo'yadi, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarini qanday bartaraf etish yo'llarini, dars tayyorlash vaqtida asosiy e'tiborni nimalarga qaratishi kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash o'quvchining bundan keyingi faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Bilimlarni tekshirish va baholash o'quvchilarni tizimli mehnat qilishga, mustaqil ishlashga, bilimlarni egallashdagi mas'uliyatni sezishga o'rgatadi. Bilimlarni mustahkam, sifatli o'zlashtirish uchun kurash, harakat qilish, bolalarni o'z-o'zini boshqarishga, intizom, qat'iylik, ishni oxirigacha yetkazishga, o'quv topshiriqlirini tizimli va sifatli bajarishga undaydi. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash ota-ona uchun ham ahamiyatlidir. Chunki ota-ona qo'yiladigan baholar orqali o'z bolalarining o'qishi haqida asosli ma'lumot olib turadilar.

Baholashni ob'yektiv va differentsialligi.

Bahoning ob'yektivligi. Ayrim o'quvchilar mehnati natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumlar miqdori va hokazolar)ga asoslanadi. Bahoning yagona talablar asosida qo'yilishi ham uning ob'yektivligidir. Ana shu talablar quyidagilardan iborat:

1. Ishlash aniqligi. Aniqlik – har qanday mahsulotni, shu jumladan, tikuvchilik sanoati mahsulotlarini tayyorlashga qo'yiladigan talabdir.

2. Vaqt me'yori. Me'yorlash xususida mehnat topshirig'ini bajarishni vaqt bo'yicha chegaralash o'quvchilar mehnat operatsiyalarini bajarish usullarini egallab olganlaridan keyin amalga oshirilishi kerak. Bunda o'quvchilar bir yo'la ham ishning sifatli bajarilishini kuzatishni, ham uni ma'lum muddatda bajarishga intilishni uddalay olmasligi va ta'limning birinchi bosqichida vaqt me'yori kiritilsa, miqdor ko'rsatkichlari sifat hisobiga ortishidan kelib chiqadi.

3. O'quvchilarning bilimlari. O'quvchilarning amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil qilinadi. Shu sababli ularning faoliyatini baholashda o'quvchilar dastur materialini qanday hamda va qanchalik chuqur o'zlashtirganini hisobga olish kerak.

4. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish. O'quvchilar asbobni ushlab, ish holatida turish, asbobning ishlov berilayotgan sirtga nisbatan qanday holatga tutish haqidagi ko'rsatmalarni qat'iy bajarishlari kerak. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish ko'nikmalari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

5. Ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish. Ishlab chiqarishda ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish mehnat unumdorligini oshiradi. O'quvchilar mehnat madaniyatining saviyasi ko'proq o'z ish o'rnini to'g'ri tashkil qila olishiga bog'liqdir.

6. Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalar buzilsa, jarohatlanish xavfi tug'iladi. Jihozlar va asboblarni ishlatishdagi mehnat usullari va hokazolarni bajarishdagi xavfsizlik qoidalarini buzgan o'quvchilarning bahosini pasaytirish kerak.

Baholashda hisobga olinadigan omillar.

Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o‘zaro taqqoslanishi, ya’ni o‘lchanishi lozim bo‘ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o‘quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko‘rsatkichdir. Bu ko‘rsatkichlar sonlar (“besh”, “to‘rt”, “uch” va hokazo) so‘zlar (“a‘lo”, “yaxshi”, “qoniqarli” va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, baholash mezonlari ta’lim oluvchining qaysi o‘zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo‘yiladigan baho ko‘rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash shakllari. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o‘tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Meyorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash baholanuvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko‘nikmalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o‘rganish maqsadlari bo‘yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalarini aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o‘lchanadi.

Meyorga asoslangan baholash - nisbiy baholash shakli bo‘lib, u baholashdan so‘ng baholanuvchilarning ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchashdan iborat.

Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo‘lib birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchanadi. Meyorlangan (normaga asoslangan) baholashda baho bir necha ko‘rsatkichlarga va ta’lim olish shart-sharoitiga ko‘ra

o'zgarishi mumkin bo'ladi. Masalan, baho o'qituvchi tomonidan xayrixohlik paydo bo'lishi, o'qituvchining o'ta qat'iyligi sababli ham o'zgarishi mumkin.

Baholash tamoyillari. Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi.

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik
- Haqiqiylik
- Haqqoniylik
- Ishonchlilik
- Qulaylik

1. **O'quv maqsadlariga asoslanganlik.** Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2. **Haqiqiylik.** O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi ozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. **Haqqoniylik (ob'yektivlik).** Bir-biridan mustaqil ta'lim beruvchilar bir xil ta'lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur topshiriq va test haqiqiy hisoblanadi. Bu haqqoniylik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun taalluqlidir.

4. **Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobaynida har xil usulardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligini qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

5. **Qulaylik.** Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mosbo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim o'uvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Baholash tizimlari. Oxirgi paytlarda Respublikamiz ta'lim muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda.

1. Baholashning besh ballik tizimi.
2. Baholashning reyting tizimi.

Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

➤ Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'lim oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. Ta'lim beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi.

➤ Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir o'quuvchi uning bilimlari, ko'nikma va malaka baholanayotganini tushunishi kerak.

➤ Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik. Ta'lim o'uvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Reyting tizimi asosida baholash. STEAM bo'yicha o'quvchilarni baholash.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim , o'rta maxsus, kasb hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchi-talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchi talabalarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

O'quvchi bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari va shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Reyting (inglizcha baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash. Reyting tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli sifatida e'tirof etilib, uning yordamida o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha ta'lim standartida belgilangan barcha talablar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlari sifati baholanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida reyting tizimini joriy etish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishdan iborat:

- o'quvchilar bilim sifatini baholash, ularning bilim darajalari bo'yicha reytinglari aniqlanadi.
- o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish va rag'batlantirish .
- umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida to'liq bajarilishini ta'minlash.
- ta'lim jarayonida imkon qadar har bir o'quvchining iqtidori va qobiliyatidan qat'iy nazar bilim olishga bo'lgan ishiyoqini jonlashtirish, qiziqishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari bilim sifatini nazorat qilishning reyting tizimining vazifalari:

- o'quvchilarning har bir o'quv fani bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish darajalarini aniqlash.
- o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarning har kungi darsga tayyorgarlik ko'rgan holda kelishini ta'minlash.
- o'quvchilar bilim, ko'nikmava malakalarning shakllanish sur'atini muntazam ravishda tahlil qilib borish.

- o‘quvchilar bilim, ko‘nikmava malakalarida bo‘shliqlarining yuzaga kelishini oldini olish , ularni aniqlash va bosqichma bosqich bartaraf etishni amalga oshirish.

Ushbu reyting tizimi ko‘pgina davlatlar tomonidan qo‘llanilgan. “5” baholik tizimdan bolalarning huquq va erkinliklarini to‘liq ta‘minlashi, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini samarali rag‘batlantirish hamda ta‘limning keyingi bosqichiga tortishga oid amaliy ishlarni bajarilishi bilan tubdan farq qiladi.

Reyting tizimining maqsadi Davlat ta‘lim standartida belgilangan talablarni bajarilishida o‘quvchilarning bilimlari, ko‘nikma va malakalarini xolisona baholash, ularni bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish va reytingini aniqlashdan iborat.

Reyting tizimida o‘quvchilarning har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir nazorat turi qanday shaklda o‘tkazilishidan qat‘i nazar, besh “5” ballik (“5” , “4” , “3” , “2” , “1”) usulda butun sonlar yordamida baholanadi.

“1” ball – 5 ta imkoniyatdan 1 tasidan foydalandi; “2” ball – 5 ta imkoniyatdan 2 tasidan foydalandi. “3” ball – 5 ta imkoniyatdan 3 tasidan foydalandi. “4” ball – 5 ta imkoniyatdan 4 tasidan foydalandi. “5” ball – 5 ta imkoniyatdan 5 tasidan foydalandi.

Nazorat uchun savollar:

1. Baholash turlari necha turga ajratiladi, qaysilar?
2. Umumlashtiruvchi baholashni o‘tkazishda nimalarga e‘tibor qaratiladi?
3. Baholashning o‘quv jarayoniga qanday ahamiyatli jihatlari bor?
4. Baholashning ob‘yektivligi deganda nimani tushunasiz?
5. Baholashda hisobga olinadigan asosiy omillar qaysilar?
6. Baholash shakllarini afzalligi nimada?
7. Baholash tamoyillari qaysilar?
8. Reyting tizimi asosida baholash qanday amalga oshiriladi?

V-BOB. TEXNOLOGIYA FANINI BO‘LIMLAR BO‘YICHA DARSLARNI TASHKIL ETISH VA O‘QITISH METODIKASI

5.1. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo‘limini o‘qitish metodikasi.

“**Texnologiya va dizayn**” yo‘nalishida xalq hunarmandchiligi texnologiyasida oquvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar. hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlarini, uyushmalari va uning istiqbollarini, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalarini, xalq hunarmandchiligini tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bilish.

“**Servis xizmati**” yo‘nalishida hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlarini, uyushmalari va uning istiqbollarini, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalarini, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bilish.

Respublikamiz kashtachilik, zardo‘zlik, kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi xalq amaliy san’at bilan butun dunyoga mashhurdir. Yog‘ochga, misga, qog‘ozga, matoga, ganchga chizib, o‘yib, tirnab, zarb bilan ishlangan naqshu nigoralari, ularning go‘zalligi, nafisligi va tasirchanligi kishini o‘ziga maftun etadi.

Xalq amaliy bezak san’ati an‘analari avloddan avlodga o‘tib kelishi bilan birga taraqqiyotning yangi sifatiga ega bo‘lmoqda, bu jarayon, ayniqsa, hozirgi qayta qurulish davrida yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda.

Binobarin bezak san’atlarini o‘rgatish mashg‘ulotlarida xalq, ustalari yaratgan asarlarining beqiyos ma’naviy qiymatlarini namoyish etish orqali yosh avlodda estetik didni shakllantirish, ularga zarur bilimlar va axloqiy tarbiya, berish, mehnat, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, kasb tanlashga ruhiy va amaliy tayyorlash

vazifalari e'tiborda turadi. O'zbek amaliy bezak san'ati turlarining ko'pligidan kelib chiqqan o'ziga xos ta'lim va tarbiya imkoniyatlari yaxshi natijalar beradi. Birinchidan, yakka kishi hech qachon amaliy bezak san'atining hamma turlarini to'liq o'zlashtira olmaydi. Lekin umumiy darajada tanishish shaxsning yuqori madaniy darajaga erishuvda zarur shartdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu san'atlarni o'rgatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish yoki biror turini amaliy jihatdan to'liq eqallash. Ikkinchidan, har bir murabbiy usta o'zi chuqur egallagan san'at turini shogirtlariga chuqur o'rgatish bilan cheklanishi mumkin. Uchinchidan har turli mahalliy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ushbu san'atlarning u yoki bu turi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishda tanlash uchun keng imkoniyatlari mavjud.

Ushbu o'quv texnologiya ta'limining etnik, milliy, tarixiy, ma'naviy, mahalliy, jug'rofiy asoslarini ifodalaydi va 150 xildan ziyod turga ega: ganch uymakorligi, naqqoshlik; yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, temirchilik, misgarlik, kulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik, miynogarlik, pichoqchilik, zargarlik, gilamchilik, chopon tikish, muxrkandalik, kigiz bosish, do'ppichilik, mu'jaz rang-tasvir, sharq miniatyurasi, rextagarlik, zarduzlik, patduzlik, kashtachilik; milliy musiqa asboblarini tayyorlash va ta'mirlash, me'morchilik, savat to'qish, buyrachilik, novvoychilik, utov tayyorlash, oshpazlik, milliy o'yinchoqlar tayyorlash, egarchilik, ot-ulov anjomlari tayyorlash (anjomasozlik), kosibchilik, imoratsozlik (binokorlik) va boshqa asosiy yo'nalishlarga ega.

Xalq hunarmandchiligining tili sohalarini o'rganishda o'quvchilar qo'yidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o'rni, sohalarining tarqalishi, jug'rofiyasi, turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Fargona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o'iga xos yo'llari; tarixiy me'morchilik obidalari, ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat

va xom ashyolarining, zahralarining manbalari, turlari, tarqalishi ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi asoslarini egallashda o'quvchilar quyidagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizasiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalari bilan ishlash; buyumlarni-hunarmandchilik asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; yo'l-yo'riqli, operatsiyali, texnologik va ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar. Umumta'lim maktablarida texnologiya ta'limining yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 yo'nalishi, o'quv kurslari joylarning sharoitlari, ixtiyoji va istiqbolini hamda o'quvchilarning qiziqishlari, jinsiy xususiyatlarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda, har bir kursni alohida yoki bir sinfda har bir kursni o'quv yiliga taqsimlab tashkil etish mumkin. Bunday hollardagi o'g'il bolalar va qiz bolalar mehnatining o'ziga xos juz'iy xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. o'g'il bolalar va qiz bolalar mehnatini tashkil etishda maktablarning o'quv-moddiy bazasi va o'quvchilar, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Xalq hunarmandchiligining umumta'lim maktablari texnologiya ta'limiga kiritilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini tashkil etishning ko'lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishlok maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. Chunki, ushbu ta'limning an'anaviy ko'rinishda shahar va qishlok maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta'lim muassasani o'rab o'tgan ishlab chiqarish sohasini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur edi. Xalq hunarmandchiligi esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'lik


bo‘lmagan holda o‘quvchilarga turli umummehnat, maxsus ko‘nikmalarni o‘rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan mashg‘ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta‘minlanishini yo‘lga qo‘yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Moddiy ta‘minot bo‘yicha davlat yo‘nalishi kuchsizlangan hozirgi davrda ham, keyingi bosqichlarda ham mahalliy xom ashyo ta‘minotini o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin.


Xalq hunarmandchiligining texnologiya ta‘limida muntazam o‘rganilishi o‘g‘il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg‘ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o‘quvchilarning ta‘lim muassasasini bitirganlaridan so‘ng doimiy ish o‘rinlari bilan ta‘minlanishlarini ma‘lum tartibga soladi. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganish va o‘rgatish, quruq mehnat yumushlarini bajaradigan ”ishchi-robotlar”, “ishchi-mexanizmlar” tayyorlashni qisman bo‘lsada inkor etadi va ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, yuqori darajada insoniylik fazilatlariga ega bo‘lgan, muomalali, odob-axloqli insonlarni tarbiyalashda imkoniyatlari juda yuqoridir.

Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar. Xalq hunarmandchiligi usullarini o‘rgatish va buyumlar tayyorlash

Xalq amaliy san’atlaridan biri zardo‘zlik san’atida ishlatiladigan asbob-uskunalar bilan tanishamiz.



Korcho'p qismlari: chambarak va xoraklar



a) patila; b) angushvonalar; c) ignalar; d) qaychilar zar va kumush iplar



zardo‘zi, guldo‘zi, zamindo‘zi usullari

Mis va kandakorlik namunalari



Nazorat uchun savollar:

1. Xalq amaliy san'atining rivojlanish tarixi haqida gapirib bering.
2. Qanaqa xalq hunarmandchilik turlaridan nimalarni bilasiz?
3. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini o'rganishda o'quvchilar qanday bilimlarga ega bo'lishlari kerak?
3. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar haqida ma'lumot bering.
4. Zardo'zlik amaliy san'ti qayerlarda ko'proq rivojlangan?
5. Zardo'zlikda ishlatiladigan asboblardan korcho'p haqida ma'lumot bering.
6. Mis-kandakorlik amaliy bezak san'atining ish usullari haqida tushuncha bering.

5.2. Yo‘nalishlar bo‘yicha materialshunoslik bo‘limini o‘qitish metodikasi.

Mehnat ta’limida materialshunoslik bo‘limining mazmuni. Mehnat ta’limi DTS talablariga asosan barcha yo‘nalishlarda materialshunoslik bo‘limi o‘qitiladi. Mehnat ta’limi o‘quv rejasiga asosan materialshunoslik bo‘limida har bir yo‘nalishda foydalaniladigan materiallarning tarkibi, ularning olinishi, ularning qo‘llanilish sohasi va ulardan buyum tayyorlashdagi xususiy tomonlari, xususiyatlari o‘rgatiladi.

Servis xizmati yo‘nalishida: O‘quvchilar gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi materialshunoslik bo‘limida gazlama turlari, xususiyatlari, ularga ishlov berishni o‘rganadilar.

Pazandachilik asoslari bo‘limida respublikada etishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining turlari, navlari, sifatiga bo‘lgan talablari, turli oziq-ovqat mahsulotlariga birlamchi ishlov berish jarayoni, oziq-ovqat mahsulotlarining hamda taomlarning inson hayotidagi o‘rni, xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va to‘yimlilikini, ovqatlanish me‘yori va tartibi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoiti va muddatlarini bilan tanishadilar

Gazlama materiallarining mexanik xususiyatlari ularning turli kuchlar ta‘siriga munosabatini ko‘rsatadi. Bu kuchlar esa turlicha bo‘lib, ular katta yoki kichik bo‘lishi, bir marta yoki ketma-ket takrorlanib ta‘sir etishi mumkin. Natijada, materiallarga egilish, cho‘zilish, buralish deformatsiyalar paydo bo‘ladi. Tikuvchilik materiallarida ko‘pincha chuzilish deformatsisi hosil buladi. Mexanik xususiyatlar jumlasiga uzish kuchi, chuzilishdagi uzayish, uzilishda bajarilgan ish, nisbiy uzish kuchi va boshqalar kiradi. Bu xususiyatlar materialning maksimal mexanik imkoniyatini, sifatliyligini kursatish uchun ishlatiladi. Ularni aniqlash uchun materiallardan to‘rt burchak tarzida namunalar, 50X200mm qilib tayyorlanadi.

Materiallarning xususiyatlari

Fizik xususiyatlar guruhiga tikuvchilikda ishlatiladigan materiallarning gigfeskepikligi, havo va bug‘ o‘tkazuvchanligi, chang yutuvchanligi, elektrlanuvchanligi, optik va issiqni saqlash xususiyatlari kiradi. Bularning deyarli barchasi kiyimning inson badanini kun va havodan, issig‘i va sovug‘idan, yog‘ingarchilikdan, chang va boshqa atrofdagi muhitlardan saqlay olishini, kiyim ostidagi bo‘shliqdan o‘z vaqtida ortiq namlikni, bug‘ va gazlarni chetlashtirishni va bu yerda inson badanining harakati uchun kerakli iqlimni saqlashini, ya’ni kiyimlarning gigiyenikligini tavsiflaydi. Fizik xususiyatlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Materiallarning shimish qobiliyatiga bog‘liq xususiyatlar.
2. Materiallarning o‘zidan havo, suv, bug‘ va hokazolarni o‘tkazish qobiliyatiga bog‘liq xususiyatlari.
3. Materiallarning turli haroratlar ta’siriga munosabatini tavsiflaydigan xususiyatlar.
4. Materiallarning optik xossalari.
5. Materiallarning elektrlanuvchanligi.

Tikuvchilik materiallari suyuqlik gaz yoki bug‘ holatida bo‘lgan har xil moddalarni shimish qobiliyatiga ega. Bu holda materiallarning vazni, o‘lchovlari, mustahkamligi, qattiqligi va boshqa xususiyatlari o‘zgaradi. Tikuvchilik materiallarini va buyumlarni ishlab chiqarish va ishlatish paytlarida ular doim suv yoki bug‘ tavsirida bo‘ladilar.

Materiallarning optik xossalari ularning yaroqlik oqimini miqdor va sifat jihatidan o‘zgartirish qobiliyatiga bog‘liq. Kiyim modelini tanlash, buyumning g‘ijimlanuvchanligi, hajmi, o‘lchovi va mutanosibligining ko‘z idrok etishi materilning optik xususiyatlariga bog‘liq.

Materiallarning elektrlanuvchanligi ularni hosil qiluvchi tolalarning kimyoviy tuzilishi va gigroskopligiga, atrofdagi havo namligiga, o‘rilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘pincha materiallarning elektrlanuvchanligi bu salbiy xususiyat. U materiallarni va buyumlarni tayyorlash jarayonini qiyinlashtiradi. Kiyib yurganda

esa kiyim tez kir bo‘ladi, badanga yopishadi va odam o‘zini noqulay his qiladi. Inson terisiga tegib turganda materiallarning musbat zaryadli elektr maydoni odamning asab, yurak-tomir turkumiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Manfiy zaryadlangan elektr maydoni esa foydali ta‘sir ko‘rsatadi, revmatizm kabi kasalliklarni davolashda yordam beradi. Shu sababli xlorin tolasidan tibbiyotda qo‘llaniladigan davolash ichki kiyimlari tayyorlanadi. Materiallarning elektrlanuvchanligini kamaytirish uchun elektrlanishga qarshilik ko‘rsatuvchi maxsus moddalar (antistatiklar) bilan ishlov beriladi yoki tolalar aralashmasini tayyorlaganda bir-birini neytrallaydigan tolalar tanlanadi. Materiallarning elektrlanuvchanligi IVZ-1 markali elektr zaryadlarining kattaligi va ishorasini o‘lchovchi asbobda aniqlanadi.

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha materialshunoslik bo‘limini o‘qitish metodikasi

Texnologiya va dizayn yo‘nalishida: O‘quvchilar turli materiallar (yog‘och, metall, qog‘oz, shisha, plastmassa va boshqalar)ning xususiyatlaritog‘risida boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘ladilar. Metal va yog‘ochlarning turmushda va xalq ho‘jaligida ishlatilishi.

1. Yog‘ochning xususiyatlari , nuqsoni va fanerlardan foydalanish.
2. Yog‘ochdan uy-ro‘zg‘or buyumlari va kichik hajmdagi stol yasashning texnologik xaritasi.

Yo‘g‘och xodalar piloramalar, lenta arrali, disk arrali stanoklar yordamida tilinib, ulardan har xil taxta materiallar hosil qilinadi. Bunday taxtalarning qalinligi: 7, 10, 13, 16, 19, 22, 25, 32, 40, 45, 50, 60, 70, 75, 100 mm va eni 80 dan 250 mm gacha (10 mm dan oralatib) tayyorlanadi. Sanoat miqyosida tayyorlanadigan taxta materiallarining qalinligi odatda, uch son bilan yoziladi. Masalan: 6,5x18X40 bo‘lib, bundagi 6,5-taxtaning uzunligi metrda, 18-eni sm hisobida, qalinligi-40 mm hisobida ifoda etiladi.

Faner g‘o‘larni tilish, randalash, yo‘nish yo‘li bilan olinadigan yupqa yog‘och-taxta material. Tayyorlash usuliga qarab tilingan, randalangan, yo‘nilgan,

yelimlangan fanerlar bo‘ladi. Tilib, randalab olinadigan fanerlar eman, shumtol, yong‘oq, qayrag‘och, zarang, nok va boshqa qimmatbaho yog‘ochlardan tayyorlanadi. Fanerlar har xil duradgorlik ishlarida, mebelsozlikda qoplama material sifatida ishlatiladi. Randalangan fanerlar faner randalovchi maxsus stanoklarda yog‘ochlarni randalash yo‘li bilan hosil qilinadi. Bunday fanerlarning qalinligi 0,8-1,5 mm, eni 80 mm va undan ortiq uzunligi 100 mm va undan ortiq bo‘ladi.

Tilingan fanerlar burang yoki yashma bug‘lash natijasida mo‘rt bo‘lib qoladigan ba‘zi yog‘och gulalarini tilish yuli bilan hosil qilinadi. Yo‘g‘on g‘o‘larni radial yunalish buyicha tilish yuli bilan olinadigan fanerlar boshqa yo‘nalish bo‘yicha tilib olingan fanerlarga qaraganda yuqori baholanadi. Chunki radial yo‘nalish buyicha tilingan fanerlarda o‘zak nurlari juda chiroyli tekstura hosil qiladi. Bu holda, fanerlar qimmatbaho mebellar tayyorlash va qoplash maqsadida ishlatiladi. Tilingan fanerlarning qalinligi 0,8-2 mm gacha bo‘ladi. Fanerning namlik darajasi 10 % bulishiga ruxsat etiladi. Yo‘nilgan fanerlar (shpon) lar esa yo‘nuvchi stanoklarda tayyorlanadi. Yo‘nilgan fanerning qalinligi 0,3:3,5 mm gacha, eni esa g‘o‘laniig tegishli uzunligiga teng buladi. Butun g‘o‘lani yo‘nish vaqtida spiralsimon shpon chiqariladi. Shu yo‘l (usul) bilan zarang, Kareliya qayinidan “qush ko‘zi” deb ataluvchi chiroyli gulli shpon olinadi. Fanerlar kazeinli, albuminli yelimlar bilan va sintetik smolalar bilai yelimlanadi.

Yelimlangan fanerlar taxta materiallarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega:

1. Hamma yo‘nalishi buyicha puxtaligi bir xil.
2. Taxta materialga nisbatan kam tob tashlaydi. Ro‘y bergan tob tashlash yelimlash yo‘li bilan oson bartaraf etiladi.
3. Kam yoriladi. Yoriqlarning bir tomondan ikkinchi tomonga o‘tishi mutlaqo ro‘y bermaydi.
4. Faner taxtalarining o‘lchami katta bo‘lganligi uchun taxta materiallarni yig‘ib, yirma tayyorlash ishidan xoli qiladi, ishni qisqartirishga, soddalashtirishga yordam beradi.

5. Oson egiladi (xususan, buklangandan so‘ng).

6. Teshish uchun qulay va xokazo.

Yog‘och namligini tortish yo‘li bilan aniqlash uchun taxta yoki gullarning uchidan 0,5 sm qismi kesib tashlanadi, qolgan qismidan 10-15 mm qalinlikda butoqsiz va biron nuqsonsiz namuna arralab olinadi. Uni tozalab, texnik tarozida 20 mg aniqlik bilan tortiladi. So‘ng quritish pechida $+100+105^{\circ}\text{C}$ haroratda quritiladi. Namuna birinchi marta olti soatdan so‘ng tortiladi, undan keyingi o‘lchashlar har 2 soatda takrorlanadi. Quritish namunaning og‘irligi o‘zgarmay qolguncha davom etadi. Yog‘ochning namligi undagi suv miqdorining mutlaqo quruq yog‘och oralig‘iga yoki zichligiga nisbatan aniqlanib, foizlarda ifodalanadigan kattalikdir.

Yog‘och namligini aniqlashning ikkinchi usulida yog‘och namligi nam o‘lchagich yordamida qisqa vaqt ichida aniqlanadi.

Asbobning ishlash prinsipi yog‘ochning elektr o‘tkazuvchanligiga asoslanadi. Yog‘ochning namligi qancha yuqori bo‘lsa, u elektr tokini shuncha yaxshi o‘tkazadi. Mutlaq quruq yog‘och elektr tokini o‘tkazmaydi. **Yog‘ochni tabiiy va sun‘iy usulda quritish** quyidagi ketma-ketlikka asoslangan: Quritilayotgan yog‘och atrofidan, oralaridan esgan shamol yog‘och tarkibidagi namlikni olib ketadi. Havo oqimi qancha kuchli bo‘lsa, yog‘och shuncha tez quriydi.

Yog‘ochlarni quritishda quritish tartibi katta ahamiyatga ega. Haroratni, namlik va havo oqimini boshqarish bilan yog‘ochning yorilmasdan, tob tashlamasdan qurishini ko‘rish mumkin.

Yog‘och materiallarini tabiiy holda quritish va saqlash davlat standartlariga muvofiq bajariladi. Tabiiy quritilgan yog‘ochlar to‘g‘ri holda saqlanadi. Bunda:

Yog‘och saqlanadigan joy maydonining atrofi va usti nishab bo‘lib, yog‘ingarchilik suvlari to‘planmasligi kerak.

Yog‘och materiallari tagida va atrofida payraha, arra qipig‘i, chirigan tarasha yoki daraxt po‘stlog‘i va boshqa chiqindilar bo‘lmasligi kerak. Yog‘och saqlanadigan ombor yoki imoratlar asosiy binolardan kamida 50 m uzoqlikda

bo'lib, panjara yoki sim to'siq bilan o'ralgan bo'lishi lozim. Yog'och materiallar maxsus poydevorga o'rnatilgan taglikka taxlanishi zarur. Ularning shu tarzda taxlangan turi yog'och g'arami deb ataladi. Yog'och taxlamlari ostiga qo'yiladigan yog'och taglik chirishga qarshi moddalar bilan ishlanishi kerak.

Tagliklar yog'och g'aramlarning turi, o'lchamlariga qarab tayyorlanib, balandligi 50 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Bargli daraxtlardan tayyorlangan taxta materiallar uzunligi 1,5-2 m, balandligi 8-11 m qilib taxlanadi. Taxtalar orasiga sifati past yog'ochlardan qistirma qo'yib ketiladi. Taxtalar orasiga qo'yiladigan pona yog'och g'arami osti to'sinining ustiga bir yo'nalishda tik joylashtirilib boriladi. Bargli daraxt yog'ochlaridan tayyorlangan taxtalar 5-10 sm oraliqda taxlanadi. Yog'och taxlamining balandligi, tagligining kengligiga qarab, 6m dan oshmasligi kerak. Taxtalarni yog'ingarchilik va quyosh ta'siridan saqlash maqsadida yog'och taxlamlarning usti sifati past taxtalar bilan nishab qilib yopiladi. Shuningdek, taxtalarni taxlashda yuqori qavatdagi taxtalar pastki qavatdagilarga soya beradigan qilib taxlanadi. Tabiiy quritish materiallarining qalin-yupqaligiga, yog'och turiga, namligiga, haroratiga, yil fasllariga qarab 7 kundan 70 kungacha, ba'zan yil bo'yi davom etadi.

Yog'ochlarni tabiiy holda quritish eng oddiy, oson va arzon usul hisoblanadi. O'quv ustaxonasida ishlatiladigan yog'och materiallari ham ko'pincha tabiiy usulda quritiladi. Buning uchun quritiladigan yog'och materiallar maktab sharoitiga qarab bostirmalarda, ombor, chordoqlarda maxsus tagliklar ustiga taxlab saqlanadi. Qish faslida yog'och materiallar tezroq qurishi uchun ulardan keragicha qirqib olinib, o'quv ustaxonalarida saqlanadi, ba'zan isitish tarmog'idagi batareyalar ustiga yoki pechkalar yoniga terib qo'yiladi. Yog'ochlarni sun'iy quritish kameralarda olib boriladi. Bu usulda quritiladigan material kameraga terib taxlanadi va issiq havo yuboriladi. Kamerada quritish tabiiy quritishga qaraganda qator afzalliklarga ega. Kamerada yog'och juda qisqa vaqt ichida quriydi va katta maydonni talab etmaydi. Kamerada yog'ochni xohlagan namlik darajasigacha quritish mumkin. Kamerada haroratning yuqori bo'lishi tufayli chirituvchi zamburug'lar rivojlanmaydi. Yog'ochlar kamerada quritilganda yorilish va tob

tashlashning oldi olinadi. Haroratning yuqori bo'lishi natijasida ignabargli yog'ochning smolasi qotib qoladi, u keyinchalik buyum sirtiga chiqmaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Materialshunoslik bo'limini o'qitish mazmunini tushuntiring.
2. Gazlamaning fizik xususiyatlarini ayting.
3. Gazlamaning mexanik xususiyatlarini tushuntiring.
4. Materiallarning optik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
5. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi mazmuni qanday?
6. Yog'ochning fizik va mexanik xususiyatlarining bir-biridan farqi nimada?

5.3. O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash.

O'quv ustaxonalari binosiga va asbob-uskunalarni joylashtirishga oid talablar, qo'shimcha maktablarning yangi mazmunda ta'lim berishga o'tishi faqat ta'lim darajasini va sifatini oshirishnigina emas, balki umuman maktablarning va o'quv ustaxonalarining mehnat va kasb ta'limi uchun moddiy-texnika bazasini tubdan yaxshilashni ob'yektiv ravishda zarurat qilib qo'ydi.

Pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish deganda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan oz vaqt, kuch va mablag' sarflangan holda eng yuqori natijalarni qo'lga kiritish uchun ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan va ilmiy jihatdan asoslangan tashkiliy metodik tadbirlar majmuasini tushunish kerak.

O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarga tatbiq qilinganda pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi tadbirlarni bajarish nazarda tutiladi: sanitariya-gigiyena va o'quv pedagogika talablariga to'la javob beradigan o'quv ustaxonalari va xizmat ko'rsatish mehnat xonalarini tashkil etish.

Barcha rejalashtiruvchi hujjatlar (taqvimiy mavzuli rejalar, o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati va h.k.lar) aniq ishlab chiqilishi texnologiya ta'limi dasturiga to'la-to'kis javob berishi, tanlab olingan ish turlari esa muayyan didaktik izchillikda, murakkablik darajasiga qarab joylashtirilishi va ularni o'quvchilar tayyorlash uchun asoslangan vaqt hajmi belgilangan bo'lishi kerak. O'quv ishlab

chiqarish ishlarining ro'yxati ham, o'quvchilarni ish joylariga almashlab qo'yish jadvallari ham yaxshilab bezatilgan va o'quvchilar ko'radigan qilib osib qo'yilishi kerak. Shu yerning o'zida oddiy va sanitariya kunlaridagi navbatchilarning jadvali va muntazam bajariladigan ishlarning ro'yxati ham osib qo'yiladi.

O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi darslar orasida tanaffus berishi, o'quvchilarga ustaxonani yaxshilab shamollatish va mehnat faoliyatini davom ettirish uchun ustaxonadan chiqib turishlarini taklif qiladi. O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar va inventarlarning saqlanishi uchun ularning har biriga bir o'quvchi biriktirilib qo'yiladi. U ana shu asboblarning yaxshi saqlanishi va buzilmasligi uchun o'qituvchi va jamoa oldida javob beradi. Yaxshi tashkil etilgan o'quv ustaxonasi navbatdagi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun unchalik ko'p vaqt talab qilmaydi. Texnologiya ta'limi o'qituvchisi uchun bu narsa juda muhimdir, chunki uning vaqti tig'iz bo'ladi. Shu sababli pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish nuqtai nazardan o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi texnologiya ta'limi o'qituvchisi uchun o'quv vaqtidan anchagina tejab qolish imkonini beradi. O'quv va shaxsiy vaqtni tejashda texnologiya ta'limi o'qituvchisining shaxsiy kutubxonasida zarur qo'llanmalar, o'quv darsliklari, ilmiy-metodik adabiyotlar, maxsus va so'rovnoma adabiyoti: gazeta va jurnallar, dasturning ma'lum mavzulari bo'yicha gazeta va jurnallaridan qirqib olingan maqolalar solingan papkalar mavjud bo'ladi.

Navbatdagi mashg'ulotga tayyorlanishda ayrim faktlar, fikrlar, misollar, qoidalar, zarur kitoblarning qisqa annotatsiyalari yozib (.qo'yiladigan kartochkalar katta foyda beradi. Bunday kartochkalar kun sayin tuzib boriladi. Ular dastur mavzulari bo'yicha xillarga ajratiladi, kartotekalarga muayyan tartibda joylashtiriladi, mehnat bo'yicha navbatdagi mashg'ulotlarga tayyorlanishda yaxshi didaktik material bo'lib xizmat qiladi, eng muhimi esa tayyorgarlik ko'rishda vaqtni tejaydi.

Ko'rgazma qurollari uchun mo'ljallangan yashikda plakatlar, sxemalar, jadvallar chizmalar namunali tartibda va sistemada saqlanish kerak. O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati o'quvchilardan ham,

shuningdek usta hamda o'qituvchidan ham nazorat-o'lchov operatsiyalarini bajarish va mehnat usullarini ko'rsatish vaqtida diqqat bilan nazar tashlashni talab qiladi.

Bu jihatdan to'g'ri burchak shaklidagi ustaxonalar bir qancha jiddiy kamchiliklarga egadir: asbob-uskunalar (dastgohlar)ning 7-8 qator qilib ketma-ket joylashtirilishi (dastgohlarning so'nggi qatori bilan o'qituvchining ish joyi o'rtasidagi oraliq taxminan 10-11 metrni tashkil qiladi) eshitishni, ayniqsa o'qituvchining tushuntirayotgan va ko'rsatayotgan mehnat usullarini ko'rishni qiyinlashtiradi, ustaxona devorlari bir tomonlama yoritilishi natijasida yorug'likni sust qaytarishi, quyosh nurlarining to'g'ri tushish soatlarida ko'zni qamashtiruvchi yoritish zonasining haddan tashqari kattaligi (50 dan ortiq) ko'zning tez charchab qolishiga va shu tufayli xatolarning ko'payishiga olib keladi, bir tomonlama yoritish natijasida doskaga doimiy yoritish shu'lalarining tushib turishi unda yozilgan narsalarning yon tomondan ko'rinishini ayniqsa qiyinlashtiradi va nihoyat xonada to'g'ri burchaklarning mavjudligi toza havo oqimining kelishini tugatib qo'yadi, natijada uning intensiv almashinib turishi keskin kamayadi. Asbob-uskunalar, dastgohlarning uch, to'rt qatorli joylashuvi (ularning oxirgi qatori 5,5-7,0 m uzoqlikda bo'ladi) o'qituvchining o'quvchilar bajarayotgan mehnat harakatlarini kuzatishga, binobarin, ular yo'l qo'yadigan kamchiliklarni tuzatish uchun shoshilinch choralar ko'rishga ham imkon beradi. Bunday ustaxona va kabinetning maydoni (80-90 m² ga yaqin) 25-30 uskuna birligini sig'diribgina qolmasdan, shu bilan birga bu yerda o'qituvchining dastgohi (stanok yoki tikuv mashinasi), stol va stul bilan jihozlangan bo'lishi kerak. U kamida 20 o'quvchidan iborat guruhga mo'ljallanadi. Bu ustaxonalarda faqat slesarlik va duradgorlik ishlarini muvaffaqiyatli egallash uchun shart-sharoit yaratilib qolmasdan, balki dasturning materiallariga mexanik ishlov berish va elektrotexnika ishlari mavzularini o'tish uchun ham zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Xilma-xil markadagi mexanik asbob-uskunalarining va modellarning miqdori har bir ustaxonada 19 taga yetadi. Xizmat ko'rsatish mehnati kabineti o'quv dasturi muvaffaqiyatli o'tishi uchun barcha zarur narsalarga ega bo'ladi. O'quv

ustaxonalari uchun xarakterli bo'lgan asbob-uskunalar bilan bir qatorda kabinetda oyoq bilan ishlaydigan 4 ta tikuv mashinasi bo'ladi.

Kattaligi 3,5 x 1,4 m li katta yoyiq stol (unda "Pazandachilik" darslarini o'tish vaqtida stol tuzatish uchun foydalanish mumkin), maneken, uchta dazmol taxtasi, shuncha elektr dazmol, tryumo, ko'rsatish taxtasi, kiyim turadigan joy ham bo'ladi.

Kabinetga shifoner, kir yuvish mashinasi, pilesos, pol yuvish moslamasi, tasviriy san'at asarlari va xilma-xil gullar qo'yiladi. Nihoyat, uch yoki to'rt kamforkali gaz plitasi, ularning har biri yonida ish stollari va sovuq hamda issiq suv keladigan jo'raklarga ega bo'lgan rakovinalar, muzlatkich, idishlar uchun shkaf, oshxona inventarlari mavjud bo'ladi.

Har uchala o'quv xonalari bir-biri bilan keng, yorug' va yaxshi jihozlangan vestibyul bilan birlashtirilgan, bu yerda jurnallar qo'yiladigan stolchalar, o'quvchilarning dam olishi uchun qulay bo'lgan o'rindiqlar bo'lishi kerak.

Ustaxonalar va kabinetda o'quvchilar ish o'rnining tabiiy yoritilishi ikki yoki hatto uch tomonlama bo'ladi. Derazalarning katta ko'zlaridan o'tib turadigan quyosh nurlari xonalarga turli burchaklar ostida tushadi, ichki devorlarning yo'nalishi har xil bo'lganligi sababli ular aks etadi va tarqaladi, xonaning hamma qismini yaxshi yoritadi. Bu esa, o'lchovlar vaqtida xatolarning kamroq bo'lishiga imkon beradi.

Bunday ustaxonalarlarning har tomonlama yoritilganligi kunning har qanday vaqtida doskaning yaxshi ko'rinishini ta'minlaydi, undagi shu'lalar kamayadi va yonlaridagi buyumlarning soyasi tushmaydi. Quyosh nurlarining to'g'ri yo'nalishi natijasida bu xonalarda to'g'ri burchak shaklidagi xonalarga nisbatan quyosh nurining ko'zni qamashtirishi keskin qisqaradi.

Besh burchakli ustaxona binosida sof havo oqimining yetarli darajada almashinib turishi ta'minlanadi, yaxshi tushib turadigan tabiiy yorug'lik bu xonalarni shinam qiladi, bu esa kayfiyatga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, qulay mehnat sharoitini vujudga keltiradi. Bunday tipdagi ta'lim bolinmalari texnologiya ta'limining psixofiziologik va sanitariya-gigiyena talablariga, shuningdek

texnologiya fanini o'qitish metodikasiga (mehnat ilmiy asosida tashkil qilish) to'la-to'kis javob beradi. O'quvchilarning ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, mehnatni osonlashtirish, uning unumdorligini oshirish, buyumlar sifatini yaxshilash va yuksak mehnat madaniyati ko'nikmalarini singdirishning asosiy talablari quyidagilardir: ish o'rnini o'quvchining bo'yiga muvofiq kelishi, mustahkam va yetarli darajada barqaror bo'lishi, zarur va yaxshi ishlaydigan, shu bilan birga ishda qulaylik tug'diradigan asboblardan ta'minlangan (qo'lga va o'quvchilarning jismoniy kuchiga muvofiqlashtirilgan), shuningdek foydalanish uchun qulay tartibda joylashgan bo'lishi kerak.

Ustaxonada o'qituvchining ish o'rnini tashkil etish

Texnologiya o'qituvchisining ish joyi ish stoli, ko'rgazma qurollarini saqlash uchun javonlar, namoyish qurilmalari, sinf taxtasi, texnika vositalari bilan jihozlangan o'quv-metodik qo'llanma, adabiyotlar, o'quv ko'rgazma qurollari, asbob va moslamalar bilan jihozlanadi. O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar (dastgohlar, stanoklar, mashinalar, stollar va boshqa buyumlar) shunday tartibda va o'qituvchining ish joyidan shunday uzoqlikda joylashishi kerakki, o'quvchilar ish vaqtida o'z gavgularini to'g'ri tutishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi, o'qituvchining gaplari va o'quvchilarning javoblari yaxshi eshitilishi kerak. Ustaxonadagi dastgohlarning miqdori ozroq bo'lishi, lekin shu bilan birga o'quvchilarning texnologiya ta'limi dasturlarida u yoki bu mavzuga ajratilgan vaqt hajmida oraliq grafik asosida to'xtovsiz ishlashini ta'minlashi zarur. Barcha ehtiyot asboblardan va moslama asboblardan turadigan korxonalarda shunday tartibda saqlanishi kerakki, ulardan har birini topish uchun o'qituvchi juda oz vaqt sarflasin. Masalan, parma, o'lchov asboblari, plankalar tegishli o'lchovlar yozib qo'yilgan qutichada joylashgan bo'lishi, ancha og'irroq moslamalar pastki javonlarda, birmuncha yengillari yuqoriroqda turishi kerak. Omborxonada barcha materiallar va ishga yaroqli chiqindilar markalari, sortlari, o'lchovlari va turlariga qarab ajratilishi va shunday joylashishi kerakki, oldiga boriladigan yo'l qulay hamda to'siqsiz bo'lsin.

Ko'rgazma qurollari (plakatlar, sxemalar, jadvallar, maketlar, mavzuli ko'rsatmali shitlar, buyumlarning namunalari) saqlash uchun yozilgan va tartib nomeri qo'yilgan tegishli yashiklar va tortmalar boiishi lozim, bu hol o'quvchilarga istalgan vaqtda o'z vaqt sarflab kerakli qollanmani topa olishiga imkon beradi. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining ish joyida mehnat usullarini, ko'rsatmali qurollarni, shuningdek, o'quv filmlarini namoyish qilish uchun barcha sharoitlar yaratilishi kerak.

Ustaxonada o'quvchining ish o'rnini tashkil etish

Ish o'rnini deganda ustaxonaning bir o'quvchi tomonidan o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun zarur bolgan asbob-uskunalar (dastgoh, stanok) va moslamalar maqsadga muvofiq joylashgan maydonchasi tushuniladi. Ish o'rnini o'quvchi ish vaqtida o'z gavdasini ancha qulay tutib turadigan, ortiqcha harakatlar qilmaydigan darajada tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ayniqsa, tiskilar o'quvchining bo'yiga qarab to'g'ri balandlikda o'rnatilishi katta ahamiyatga ega. Bu talablarning buzilishi ish natijalarining kamayishiga, to'g'ri mehnat malakalarining sust tarkib topishiga, ba'zan esa kasb kasalliklarining paydo bolishiga olib keladi. O'quvchining ish joyida mavjud bo'lgan ish va nazorat-o'lchov asboblarining miqdori va xillari yetarli holda bo'lishi kerak. Masalan, pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish nuqtayi nazaridan randa, taxtani uzunasiga tiladigan yoysimon arra, iskana, metall qirqadigan dastarra va qaychi yoki nazorat-o'lchov asboblari shtangensirkullar, mikrometrlar, 90° li go'niyalar va boshqa shu kabi asboblar har bir o'quvchining ish joyida doimo turishi nozarurat hisoblanadi. Gap shundaki, ish vaqtida ulardan foydalanish koeffitsienti juda past bo'ladi, shuning uchun bu asboblardan bir o'quvchi emas, balki bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchi foydalanishi kerak. Shu munosabat bilan o'quvchining ish joyini tashkil etishga ham yangi talablar qo'yiladi. Barcha shaxsiy asboblar vazifasiga qarab ishlayotgan o'quvchiga yaqin joyda dastgoh ustida turishi kerak. Ko'pchilik foydalanadigan asboblar ishlayotgan o'quvchilarning ish joylariga baravar uzoqlikka qo'yilishi kerak.

Dastgohlar turli ishlash operatsiyalarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradigan va mustahkam joylashtirilgan ish konstruksiyalaridan iborat bo'lishi kerak. Masalan, bir o'rinli slesarlik dastgohi 800-850 mm (duradgoriik dastgohi 750-780 mm) balandlikda o'rnatilishi va u yog'ochdan yoki metallardan tayyorlanishi lozim. Dastgoh o'rnatiladigan stol taxtadan ishlanadi, listiga 1,5-2,0 mm qalinlikda po'lat tunuka qoplanadi va perimetri bo'yicha 25x25 mm li burchak qilib qoplanadi, dastgoh qulay o'rindiqqa ega bo'lishi, undan o'quvchi va instruktajlar dam olishi vaqtida foydalanishi, yozuvlar, eskizlar tuzish uchun esa unda suriluvchi planshet ham bo'lishi zarur. Dastgoh stolid aylanuvchi qurilmaga ega bo'lgan paralel slesarlik tiskilari mustahkamlangan bo'lishi zarur. Ish va kontrol o'lchov asboblari dastgohning aniq joyida turishi lozim. Ish vaqtida o'ng qo'l bilan olinadigan asboblari (bolg'a, egov, dastarra, metall qirqadigan qaychi va hokazolar) tiskilarning o'ng tomonida muayyan tartibda joylashishi kerak. Ulardan chap qo'l bilan olinadiganlari chap tomonda turadi. Kontrol o'lchov asboblari dastgoh stolining old tomonida, o'ng tomonga yaqin joyda turadi. Ish o'rnidagi ana shunday tartib o'quvchining butun ish vaqti davomida saqlanishi kerak. O'qituvchi yoki usta o'quvchilardan ish o'rnini tashkil etish qoidalariga amal qilishini doimo talab qilib turishi kerak. Ish asboblari, ayniqsa, nazorat-o'lchov asbobi ish o'rniga o'yib qo'yilishi mumkin emas, bunday hollarda ulardan foydalanish qiyin bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga noto'g'ri foydalanish va saqlash natijasida u tezda ishdan chiqadi. O'quvchilarga ish o'rnini to'g'ri tashkil etish odatini singdirish uchun o'qituvchi yoki usta ularning bajargan ishlariga baho qo'yish vaqtida o'quvchining butun mashg'ulot davomida ish o'rnini qanday tutganligini ham hisobga olishi kerak. Dastgohlar konstruksiyalari sozlovchi qurilmaga ega bo'lishi, ular yordamida dastgohlarni o'quvchilarning bo'yiga qarab moslash, shuningdek dam olish uchun qulay aylanuvchi o'rindiqlari, yozish va grafik ishlari uchun suriluvchi planshetlar bilan ta'minlanishi kerak. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhofaza turlari dastgohga mahkamlanishi va zarur bo'lganda dastgoh stolga olib qo'yilishi kerak.

O'quv ustaxonasida sanitariya-gigiyena qoidalari va texnika xavfsizligi talablari

Texnologiya ta'limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur. O'quv ustaxonalari quyidagi asosiy sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablariga javob berishi lozim:

1. Ustaxonalar uchun mo'ljallangan bino o'quv-pedagogika, sanitariya-gigiyena va ishlab chiqarish, texnik talablarini qondirishi kerak.
2. O'quv ustaxonalarining jihozlanishi texnikaning hozirgi darajasiga, yuksak kasb madaniyatiga muvofiq kelishi hamda ularda texnologiya ta'limi dasturining barcha mavzularini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.
3. O'qituvchining o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun ham shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.
4. Har bir o'quvchi uchun mustaqil ish joyi ajratilgan bo'lib, u tegishli asbob-uskunalar, moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi zarur.
5. O'qituvchi uchun na'munaviy ish joyi ajratilgan bo'lib, u tegishli asbob-uskunalar, moslamalar bilan jihozlanishi va pol ustidan 250-300 mm balandlikda bo'lishi kerak.
6. Ustaxonalarda o'quvchilarning qulay va xavf-xatarsiz mehnat qilishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim.
7. O'quv ustaxonalari hajmdor yassi ko'rsatma qo'llanmalar bilan shuningdek, ta'limning texnikaviy vositalari bilan jihozlangan bo'lishi zarur.
8. Yordamchi xizmat xonalari (asboblar saqlanadigan xona va omborxonalar) o'quv ustaxonalariga yaqinroq joylashgan bo'lishi kerak.
9. Ustaxonalarda o'quvchilarning diqqatini ishdan chalg'ituvchi va mehnat jarayonini buzuvchi shovqinga va tashqi ovozlarga yo'l qo'yilmasligi kerak.

O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70-90 m² ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun maktabning asosiy binosidan

biroz naribroqda quriladi. O'quv ustaxonalari materiallar, yarimfabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblari va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan bo'lishi me'yorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rni bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14-16°C, yoz davrida esa 20°C dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sliaroitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin va shifti oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob'yektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi. Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan eng to'g'ri mehnat usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin. O'quv ustaxonalariidagi asbob-uskunalarini joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalari asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yubormasligi kerak. Tikuv mashinalari va ular orasidagi o'tish yo'llari belgilangan me'yorlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarining oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda shart-sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Ustaxonalarning maydonidan oqilona foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri turishi, estetika talablariga rioya qilish va namunali tartib-intizom bularning hammasi o'quvchilarni intizomlilik va davlat mulkini ehtiyot qilish ruhida tarbiyalash uchun katta ahamiyatga egadir. O'quv ustaxonalari sathini guruhdagi o'quvchilar sonidan va bitta o'quvchi ixtisosiga muvofiq maydon me'yoridan (o'quvchi uchun 4-5 m², shuningdek, o'qituvchining 5,5-7 m² ga teng ish o'rnidan) kelib chiqib aniqlanadi.

Ish o‘rni qanday tashkil etiladi. Ish o‘rni deganda o‘quv ustaxonasi yoki tsexning alohida ishchi ixtiyorida bo‘lgan va u ishlab chiqarish topshirig‘ini bajarishida kerak bo‘ladigan jihoz, moslama, asbob va materiallarning maqsadga muvofiq holda joylashtirilgan ma’lum qismi nazarda tutiladi. Odatda ish o‘rni quyidagilarni o‘ziga qamrab oladi:

1. ishchi foydalanadigan mehnat vositalari o‘rnatilgan, normal ishlash uchun zarur bo‘lgan maydon;
2. ish bajariladigan jihozlar, mexanizm va moslamalar;
3. material, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, chiqindilarni joylashtirish, saqlash uchun maxsus qurilmalar;
4. asbob-uskunalar, moslamalar va texnikaga oid hujjatlarni joylashtirish va saqlash uchun maxsus qurilmalar;
5. har bir ish o‘rniga mo‘ljallangan ko‘tarma-transport vositalari;
6. normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlovchi qurilmalar.

O‘quv ustaxonalarida ishlash uchun eng qulay sharoit yaratish uchun quyidagilar bo‘lishi zarur: havoning harorati qish paytida 15-16°C dan past bo‘lmasligi, yozda esa 20°C dan oshmasligi kerak. Ustaxona binosida havo almashinishi tabiiy yoki sun’iy ravishda amalga oshiriladi.

Ustaxona poli iliq, yuzasi tozalash uchun qulay, sirpanmaydigan bo‘lishi talab etiladi. Devorlar ochiq rangga, ship esa binoni yaxshiroq yoritilishi uchun oq rangga bo‘yaladi.

O‘quv ustaxonalari va maydonlari bilim yurtida tayyorlanadigan kasb va ixtisosliklarga ko‘ra meyorlanadi.

O‘quv ustaxonalar tahsil oluvchilar ishlab chiqarish ta’limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo‘ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual va ommaviy foydalanishga mo‘ljallangan asosiy va yordamchi o‘quv-ishlab chiqarish asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

O‘quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda quyidagilar nazarda tutiladi: O‘qituvchi o‘z ish o‘rnida turib, tahsil oluvchilar guruhiga jamoaviy yo‘l-yo‘riq

berish imkoniyatini; tahsil oluvchilarning maqbul ishlari uchun eng qulay va havfsiz sharoitni; ishlash, ta'mirlash vaqtida shuningdek materiallar tashishda har tomondan kelishning qulayligini faqat ishchi turadigan dastgoh orasidan o'tish joylarining kengligi 05-08 m, dastgohlar qatori orasidagitish yo'lining kengligi eng kamida 1,2 m aravacha, elektrokav va boshqa transport vositalari o'tadigan joyning kengligi 2 m dan qilib belgilanadi. O'quv ustaxonasidagi barcha turdagi jihozlarning xavfli joylar to'ra, kojuxlar bilan to'sib qo'yiladi.

O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash. O'quv ustaxonalari materiallar, yarim-fabrikatlar, tayyorlangan buyumlar saqlanadigan yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Bunday xonalar quruq, yog'och poli, tabiiy va majburiy ventilyatsiyali, normal tabiiy va sun'iy (ish o'rnida 100-150 lyuks), yoritilgan, havosining temperaturasi qishda 14-16 °S bo'lishi va yozda 20 °S dan oshmasligi kerak. Yoritgich sifatida kunduzgi lampadan foydalanish kerak. Ustaxona devorlari tekis, yorqin rangga, shifti oq ranga bo'yalishi kerak. Mana bularning hammasi xonaning yorug'ligini oshiradi. Ustaxona anjomlarining turli qismlari bilan ustaxonaning umumiy fani o'rtasida to'g'ri kontrastlikni vujudga keltiradi.

Asbob uskuna va moslamalar

O'quv ustaxonasidagi mehnat sharoiti sanitariya-gigiyena va xavfsizlik texnikasining barcha talablariga to'la javob berishi kerak. Dastursidagi barcha modellari emas, balki texnik ijodkorlikni ham o'rganish uchun zarur sharoit bilan ta'minlanishi lozim.

1. Turli buyurtmalarni bajarishda pedagogning o'rganuvchilar bilan olib boradigan umumiy gruppaviy hamda brigada-zvenoli va patakli ishlari uchun ham sharoit yaratilishi zarur.

2. Har bir talabaga kerakli asbob-uskunalar va moslamalar bilan ta'minlangan alohidda ish o'rni ajratilishi lozim.

3. Pedagog uchun tegishli jihozlar, asboblari, moslamalar bilan ta'minlangan va poldan 250-300 mm ko'tarilgan namunali ish o'rni tashkil yetilishi lozim.

4. Ustaxonalarda talabalar eng qulay va xavfsiz mehnat qilishi uchun zarur

sharoit bo'lishi lozim.

5. O'quv ustaxonalari hajmi va tekis ko'rsatmali qo'llanmalar, shuningdek, ta'limning texnik vositalari bilan jihozlanishi zarur.

6. Yordamchi binolar(asboblar va sklad) o'quv ustaxonasiga yaqin bo'lishi kerak.

7. Tashqaridagi tovushlar talabalarning e'tiborini ichidan alahsitadigan va mehnat jarayonini buzadigan shovqin-suronlar ustaxonaga kirmasligi lozim.

O'quv ustaxonasining maydoni $80-90 \text{ m}^2$ bo'lishi kerak.

Sanitariya-gigiyena talablari. Texnologiya ta'limi fani o'quv mehnati gigiyenasi bilan ham bog'liq bo'lib, u o'quv ustaxonalarida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitish hamda tarbiyalashning sanitariya-gigiyena sharoitlarini o'rganadi. Har bir gigiyena sharoiti yaratish (yorug'lik,ozodalik, ventilyatsiya), o'quvchilarning ish o'rnini to'g'ri tashkil yetishga, zarur asboblardan, mehnat usullaridan foydalana bilishga o'rgatish texnologiya ta'limi o'qituvchisi amalga oshirishi va hayotga tatbiq etishi lozim bo'lgan asosiy masalalardir.

Ustaxonalar uchun mo'ljallangan bino o'quv-pedagogika, sanitariya-gigiyena va ishlab chiqarish, texnik talablarini qondirilishi kerak.

O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari. O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, $70-90 \text{ m}^2$ ni tashkil yetadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun kollejning asosiy binosidan biroz naribroqda quriladi.

O'quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek, asboblar va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan bo'lishi meyorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rnini bo'lishi, havo temperaturasi qishda $14-16^{\circ}\text{C}$, yoz davrida yesa 20°C dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik

lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘quv ustaxona devorlari silliq bo‘lib, yorqin bo‘yoqlar bilan shipi oq bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta’minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e’tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo‘yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob’yektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o‘rtasida yaqqol farq bo‘lishini ta’minlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnatni ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
2. O‘qituvchining ish o‘rni qanday tashkil qilinadi?
3. O‘quvchining ish o‘rni qanday tashkil qilinadi?
4. O‘quv ustaxonasida qanday sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish zarur?
5. O‘quv ustaxonasida mehnatni ilmiy tashkil etish deganda nimalarni tushunasiz?
6. Xizmat ko‘rsatish mehnati xonasi qanday jihozlanishi kerak?
7. To‘g‘ri burchakli shakldagi ustaxonalar qanday jiddiy kamchiliklarga ega?
8. Besh burchakli ustaxona binosi qanday afzalliklarga ega?
9. Ustaxonada o‘qituvchining ish o‘rni qanday tashkil etiladi?
10. Ustaxonada o‘quvchining ish o‘rni qanday tashkil etiladi?
11. O‘quv ustaxonalari qanday sanitariya-gigiyena qoidalariga mos bo‘lishi kerak?
12. O‘quv ustaxonalari qanday texnika xavfsizligi talablariga javob berishi kerak?

5.4. Texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash.

O‘quv va didaktik materiallarni ishlatishda albatta ularning mavjudligi katta rol o‘ynaydi. O‘qituvchi, shuningdek, o‘z maxsus sohasi uchun qanday materiallar, qanday materiallar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o‘zi yangiliklar bilishi kerakligi yuzsidan umumiy tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

Ko‘pincha o‘qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proyektor slaydlari kabi visual vositalarni o‘zlari ishlab chiqadilar.

Tayyorgarlik natijasida o'qituvchi o'z maxsus sohasini to'liq qamrab oluvchi o'quv va didaktik materiallarga ega bo'ladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash.

Dars va instruktaktaj uchun manba materiali sifatida ishlatiladigan vositalarimizni quyidagicha farqlaymiz.

O'quv materiallari - ular o'qituvchilar tomonidan darsni ko'rgazmali tarzda o'tkazish va bilim berish uchun qo'llaniladi.

Didaktik materiallari - ular talabalar tomonidan o'rganish uchun qo'llaniladi va o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi. Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallari hamdir. Ular ham o'qitish ham o'rgatish uchun ishlatiladi.

O'quv materiallarining qanday turlari o'qituvchi tomonidan tayyorlanishi mumkin?

Ushbu materiallarni rivojlantirish uchun o'qituvchi chegaralangan vaqt va imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim.

- Ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag'i, nazorat qog'ozlari;
- ish rejaları, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchiga o'quv va didaktik materiallarining asosan qanday turlari kerak?

Nazariy bilim berishda, ya'ni darslar paytida amaliy ko'rsatmalar to'ldirilgan quyidagi vositalar ishlatiladi.

Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
O'quv kitoblari	Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritish.

Tarqatma materiallar	O'quv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlansin va ko'paytirilsin, formulalar tayyorlansin
Doska tasvirlari	Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash, ularni to'plash uchun maxsus papaka ochish
Slaydlar	Ular nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlansin va maxsus papkada to'plansin
Modellar	Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli - ham yaxshi, ham yomon ish mahsulotlari ko'rsatilishi lozim

O'qituvchining qo'lidagi materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

- O'quv maqsadlar va mazmunlar haqidagi ma'lumotlari; - tashkiliy savollarga oid ma'lumotlar;
- instruktaj va mashqlar o'tkazishga qanday didaktik tartib qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar;
- mashq ta'rifi;
- talabalarning nazariy va amaliy bilim natijalarini tekshirish va baholash haqida ma'lumotlar test va imtihonlarning savol va javoblari.

O'qitish va o'rganish materiallaridan didaktik foydalanishga mos holda materiallarning mazmuni va qurilishiga ko'ra o'qituvchi va talaba materiallariga bo'linadi. O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar natijalarini baholash borasidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Test savollarini tayyorlashga qo'yiladigan talablar

Test o'z mohiyat mazmuniga ko'ra qulay usul bo'lishi birga o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lgan sinov usulidir. Test bo'yicha mashg'ulotni o'tkazishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga testning ma'nosi, shakli va uslubini, unga qo'yiladigan talablarni, test savollariga javob berish tartibi va qoidalarini, javoblar varaqasini to'ldirishni tushuntirishi shart. Test termini ilmiy lug'atlarda

izohlanishicha, inglizcha test soʻzidan olingan boʻlib “tajriba”, “sinov” degan manolarni anglatadi.

O'ylaymizki, ergonomik integrativ yondashuvga asoslangan pedagogik tizimning taklif etilayotgan modeli ta'lim jarayonini takomillashtirishga yordam berishi mumkin: samaradorligini oshirish, uni yanada qulay qilish va pedagogik jarayon sub'ektlarining sog'lig'ini saqlashni ta'minlash. Biroq, zamonaviy tadqiqotlarda rasmiy modelni taqdim etish etarli emas. Uni amalga oshirish uchun aniq uslubiy va amaliy tavsiyalar zarur.

VI-BOB. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM

6.1. Texnologiya faniga oid metodik ishlar.

Umumta'lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon alablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham kasb sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olishi va alaka oshirish kurslari orqali ilmiy-metodik ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak. Umum ta'lim maktablarida tashkil etiladigan ilmiy-metodik ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- umumta'lim maktabi pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

- o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;

- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasb va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat. Ilmiy-metodik ishlarda ishtirok etish umumta'lim maktablaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Umumta'lim maktablaridagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual metodik ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy metodik ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;

- uslubiy komissiyalar;

- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar. Individual metodik ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi;

- umumta'lim maktablari rahbarlari, o'qituvchilar, va boshqa texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasb mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil metodik ishlari;

- maktab rahbari (direktor), uning orinbosarlari, o'qituvchilar, pedagoglar va boshqa texnik xodimlar bilan olib boriladigan individual metodik ishlari.

Metodik ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham, pedagog xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Umumta'lim maktabida metodik ishlarni umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Metodik ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, umumtalim maktabi ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal etishga muayyan hissa qo'shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Metodik ish umumta'lim maktabining istiqboli va joriy ish rejalarida mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari umumta'lim maktablarining ichki nazorat rejalarida o'z aksini topadi.

Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir;

- kelajakdagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);

- rejalarni ta'lim-tarbiya va metodik ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;

- rejalarning ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;

- metodik ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un qo'shib olib borish;

- tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko'rsatilishi).

Metodik ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etishini hisobga olib, tadbirlarning mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaljyotda uzoq vaqtlardan beri "Metodik ishlarning umumiy rejasi" tuziladi. Bu ish pedagogik tajribada o'zini oqladi. Bunday rejada umumta'lim maktabidagi barcha metodik ishlar tizimi, taqvim muddatlari va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi. Texnologiya fani o'qituvchisining metodik ishlar olib borishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadi ularning malakasini oshirishdir. Bu esa ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda muhim vositadir. Bu ish o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ishlarida katta yordam beradi, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, pedagogik va ishlab chiqarish malakasini oshiradi. Shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchilarning metodik ishlari asosini ularning bu sohadagi mustaqil ishlari tashkil etadi.

Bu ish muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi, muntazam olib borilishi va ta'lim-tarbiya ishlarida o'z ifodasini topishi kerak. O'qituvchilarning metodik ishlari maktab rahbarlarining bevosita nazorati va rahbarligida olib borilishi kerak. Umumta'lim maktabiarida mustaqil metodik ishlar jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining pedagoglik mahoratini takomillashtirish hamda o'z malakasini oshirish ustida har doim ishlashi kerak. Unga bu borada o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bu institutlarda qisqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda o'qituvchilar fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar. Bu kurslar hamma o'qituvchilarni qamrab ololmaydi, albatta. Shu sababli kurs tayyorgarligi bilan birga joylarda muntazam ravishda metodik ishlar olib boriladi. Odatda, ular bir qancha metodik ishlarni bajarishadi. Bu esa qo'shimcha mas'uliyat

yuklaydi, ularning mustaqil bilim olish borasida qunt bilan ishlab, hamkasblari uchun namuna bo'lishga majbur qiladi.

Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda texnologiya fani o'qituvchisi yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgariik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq. Yakka tartibgi metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi, ya'ni muhandis-pedagog o'z pedagoglik mahoratini va bilimini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topshiriqlarni bajarishi nazarda

tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi; pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturining eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanishlar. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi. Har bir pedagog ishi rejasi to'rta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Metodik-pedagogik mahoratni takomillashtirish.
3. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar hisobotlari tinglanadi. G'oyavjy-siyosiy saviyani oshirish materiallar ishlab chiqila-yotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak, Mehnat ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, Prezident qarorlarining umumiy o'rta ta'limga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferensiyalar ishida qatnashishi, matbuot, radio, televideniya orqali hozirgi siyosat bilan tanishishi va amaliy ishda qo'lashi lozim.

Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish jarayonida tayyorlanadigan ma'ruzalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarda o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining o'z ustida mustaqil ishlashi davomida mehnat ta'limiga oid ilmiy jurnallar va asarlar bilan muntazam tanishib borishi, metodik mahoratida esa mashg'ulot olib borish sifatini takomillashtirib, bunda yangi metodik ko'rsatmalar tayyorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish masalasini yechish, ilg'or pedagogik tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyishga yordam berishdir. Nazariya bo'yicha darslarga tekshirish uchun kirgan o'qituvchi darslarning taqvimiy mavzuli va har bir dars bo'yicha rejasi hamda dars o'tish uchun ishlanmalari borligiga; dars mavzusi bo'yicha tuzilgan reja va dasturga mos kelishiga; ta'lim vositalaridan unumli foydalanilayotganligiga; darsda o'quv tarbiyaviy ishning qo'yilishi va uning amalga oshirilishini, qo'yilgan maqsadni hal etish uchun tanlangan dars turining maqsadga muvofiq ravishda tanlanganligiga baho berishi; darsning strukturasi to'g'ri tanlanganligiga, vaqtning taqsimlanishiga, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligiga e'tibor berishi kerak. O'qitilayotgan mehnat yo'nalishi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalariga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar texnologiya ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar rahbarligida va ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish mehnat ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Didaktik materiallar tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarni tayyorlash ham metodik ishlarga kiradi. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi. Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda mehnat ta'limi o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska jismlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag', nazorat qog'ozlari;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lsa, O'qitish materiallaridan farq qilishi mumkin. Masalan; topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Tarqatma materiallar tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi;

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va o'quvchilar uchun);
- yashil qog'ozlar: o'quvchilarga topshiriqlar;
- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari.

Ranglarni kodlash ham hujjatlardan foydalanishni yengillashtiradi. Shuningdek, bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli o'quv didaktik materiallar tayyorlash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Metodik ishlarni boshqarish tizimi

O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasida metodik ishlarni boshqarishning asosiy ob'yekti pedagogik jamoa hisoblanadi. Umumta'lim maktabidagi metodik ishlarning aniq shakllarini maktab pedagogik kengashi belgilaydi. Maktab rahbari (direktor) metodik ishlarga umumiy rahbarlik qiladi. U metodik ishning rejasini tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchilar o'tkazadigan mashg'ulotlarni tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning metodik ishlariga rahbarlik qiladi, yuqori organlar oldida o'zi rahbarlik qilayotgan maktabdagi metodik ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi. Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari umuman maktabdagi metodik ishlarning, shuningdek fan uyushmalarida olib boriladigan metodik ishlarning tashkilotchigi hisoblanadi. Sinf rahbarlari bilan olib boriladigan metodik ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan metodik ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qiladi. Umumta'lim maktabida o'qituvchilarning metodik ishlari jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi. Jamoaviy metodik ishlardan eng muhimi fanlar bo'yicha tashkil etiladigan metodik ishlardir. Metod birlashmalarda ko'riladigan masalalar quyidagiu iborat bo'lishi mumkin;

- 1) yangi o'quv dasturi, darslik, qo'llanma va uslubiy ishlarni o'rganish;
- 2) metodik yo'riqnoma va buyruqlarni o'rganish, ularni oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish;
- 3) o'quv-ishlab chiqarish ishlarini, o'quv-texnik hujjat, turli ishlar uchun vaqt me'yorlarini, o'quvchilarning ish tashkil etish va jihozlash masalalarini muhokama qilish;
- 4) o'quv dasturi mavzularini o'rganish metodlarini qilish, tekshirish ishlarini va malakalarini belgilashni etish;

5) ochiq darslar o'tkazish va natijalarini muhokama qilish.

6) o'qituvchilarning sinflardagi tarbiyaviy ishlari, tashqari ishlarni bajarish metodikasi;

7) o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlariga doir tajribao'quvchilar bilan fan va texnika yutuqlarini, ilg'or mehnat dalarini o'rganish kabi masalalar to'g'risidagi axborotlari.

Pedagogik kengash umumta'lim maktabida ta'lim jarayonining jamoaviy rahbaridir. Bu kengash o'quv-uslub tashkiliy-xo'jalik ishlariga rahbarlik qilishda direktorga beradi; kengash o'z ishini direktor rahbarligida olib boradi pedagogik kengash quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi;

1) maktabning yarim yillik, o'quv ish larining shuningdek, malaka imtihonlari natijalarini muhokama qiladi;

2) o'qituvchilarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash birlarini belfiyadi, o'qituvchilarning o'z ish tajribasi ma'ruzalarini eshitadi;

3) o'quv guruhlarida darslarning o'zlashtirilishi, darsga qatnashish, usta va o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib tarbiyaviy ishlariga doir masalalarni ko'radi;

4) o'quv reja dasturlarining bajarilishi va boshqa shu ko'radi. O'qituvchilarning texnik va pedagogik malakalarining jamoaviy shakllari seminar-trening, pedagogik o'qish boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy o'rta ta'lim texnologiya fani metodik ishlari qanday tashkil qilinadi?
2. Metodik ishlar mazmuni nimadan iborat?
3. Jamoaviy metodik ish shakllari va metodlarini tushuntiring.
4. Metodik kengash nima?
5. Metodik ishlarni ishlarni boshqarish tizimi nimadan iborat?

6.2. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan

tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'shvaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- ulg'atgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'garaklari;
- g) sport to'garagi;
- d) badiiy havaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyo qarashini to'g'ri

shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;
- sinfdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;
- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin:

Tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ihtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferentsiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi².

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyat va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsada, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi.

Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

1. **Og‘zaki ish usullari.** Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig‘inlar, ma‘ruzalar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og‘zaki gazetalar, radiojurnallar.

2. **Amaliy ish olib borish usullari.** Turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to‘garaklari, shanbaliklar.

3. **Ko‘rgazmali ish usullari.** Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko‘rgazmalari. Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo‘lishlari lozim. O‘zbekiston Respublikasining istiqloлга erishuvi hamda o‘z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘liga ega bo‘lishi, xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan

xalq ta‘limi tizimida ham o‘sib kelayotgan yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi farmonida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma‘naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloл g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo‘yilgan pedagogik talablar

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan ma’naviy axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e’tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi.

Mustaqil O‘zbekistonning, istiqlol va istiqboli uchun fidoiylk ko‘rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o‘zgacha xarakter kasb etmoqda:

- fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;
- diniy bag‘rikenglik va mehr-muravvatli bo‘lish;
- davlat siyosatini tushunish unga fidoiy bo‘lish;
- o‘zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;
- maqsadni aniqligi va uni to‘g‘ri yo‘naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o‘qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlik faoliyati;
- o‘zini anglash, mustaqil fikrlovchi e’tiqodligi va ixtiyorlik.

Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari dasturi”dagi g‘oyalarni bolalarning ongida o‘ziga xos va mos ravishda singdiradi.

- Xalqimizning boy ma’naviy, an’ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e’tiqodni tarbiyalash. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash. Mehrli-muruvvatli va bag‘ri kenglik.

Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlari o‘ziga xos xususiyatga ega: o‘quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o‘quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, “yaxshi”, “yomon” harakatlarga chuqur munosabat bildiradi olmasligi kabilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o‘ziga xos qoidalarga egadir:

1. Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o‘rganish.

2. O‘quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.
3. Kundalik o‘zgarishlarga o‘quvchilarning munosabati.
4. O‘quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an’analar haqidagi bilim darajasi.
5. Qomusiy ma’rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:

1. Vatanga muhabbat va insonparvarlik.
2. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.
3. Ma’naviy tarbiya (axloq va odob).
4. Iqtisodiy tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.
6. Go‘zallik tarbiyasi.
7. Jismoniy barkamollik (sog‘lom avlod uchun).
8. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari” dasturi. O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot ijtimoiy harakati” dasturi mos qilib olindi. O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog‘liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko‘p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'satish.
4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.
5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan

muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

Maktabdan tashqari to'garaklarga jalb qilish

Sinfdan tashqari ishlar kontseptsiyasi xalq vazirligi tomonidan 1993 yilda tasdiqlangan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tUSDagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

1. Fan to'garaklari.
2. Mohir qo'llar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

To'garak turlari: Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatilari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiysifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini e'tiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.

7. Tozalikka rioya qilish.

To'garaklarni tashkil tish va o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim.

Maktabdan tashqari to'garak ishlarida o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'rta umumta'lim maktablarida sinfda va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinfda va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish

Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiada bosqichlarini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2009 yil 1 maydagi 18 Q/Q, 20, 13 Q/Q-sonli qo'shma qarorlar bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2009 yil 2 iyun 1962-son bilan davlat ro'yxatdan o'tkazilgan "Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadalarini o'tkazish va xalqaro fan olimpiadalarini ishtirokchilarini tanlash to'g'risida Nizom" asosida ishlab chiqilgan. Fan olimpiadalarini to'rt bosqichda o'tkaziladi:

Fan olimpiadalarini o'tkazish kuni, olimpiada turlarini o'tkazish ketma ketligi tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi va tasdiqlangan maxsus jadval asosida tashkil etiladi. O'quvchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarga ajratiladigan vaqt va ularga qo'yiladigan ballar fanlar bo'yicha tayyorlangan baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Olimpiada o'tkaziladigan fanlar bo'yicha baholash mezonlari Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va qo'shma buyruq bilan tasdiqlanadi. Barcha fanlar bo'yicha g'oliblar baholash mezonlari asosida aniqlanadi.

G'oliblikka da'vogar o'quvchilarning umumiy to'plagan ballar yig'indisi teng bo'lib qolganda, ularga qo'shimcha 5 tadan test topshiriqlari beriladi. Mazkur 5 tatest savollariga berilgan javoblar ballari teng bo'lsa, g'olib aniqlangunga qadar test-sinovi davom ettiriladi.

Ota-onalar vakillari qur'a tashlash yo'li bilan auditoriyaga taqsimlanadi. Ishtirokchi o'quvchi va uning ota-onasini bir auditoriyada bo'lishi taqiqlanadi. Olimpiada sinoviga belgilangan vaqtdan kechikib kelgan ishtirokchi o'quvchilar auditoriyaga kiritilmaydi. Fan olimpiadasi jarayonida belgilangan tartib va qoidalarga amal qilmagan o'quvchi auditoriya rahbari va nazoratchilar dalolatnomasi asosida olimpiadadan chetlashtiriladi. Bu haqida tegishli dalolatnoma tuzilib, uni auditoriya rahbari va nazoratchilar imzolaydilar. Ushbu dalolatnomalar hakamlar hay'ati raisiga topshiriladi.

Eslatma: o'quvchilar olimpiada boshlanishi oldidan zaruriy hojat ishlarini bajarishlari haqida ogohlantiriladi. Yozma ish va test paytida o'quvchilarning auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi. Auditoriyadan chiqqan o'quvchi qayta test sinovlariga qo'yilmaydi. Yozma ishlar va test sinovi davomida o'quvchilarning bir-birlari bilan gaplashishi, javoblarni bir-biriga ko'rsatishi, kitoblardan, kalkulyatorlardan, uyali telefon aloqa vositalaridan foydalanishi va boshqalarga ko'maklashishi taqiqlanadi.

a) Fan olimpiadalarining birinchi bosqichini o'tkazish tartibi

Fan olimpiadasining birinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari direktorlari zimmasiga

yuklanadi. Mazkur bosqichda matematika, informatika, tarix, huquqshunoslik, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya va chizmachilik fanidan olimpiada ikki turda (test sinovi, amaliy ish), ona tili va adabiyot, o'zbek tili (ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (o'zbek va boshqa tillarda o'qitiladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (rus guruhlarida), ingliz, nemis, fransuz, qozoq va tojik tili hamda qoraqalpoq tili va adabiyoti fanlari uch turda (test sinovi, og'zaki va yozma), fizika, biologiya, kimyo fanlaridan uch turda (yozma ish, laboratoriya ishi, test sinovlari) o'tkaziladi.

Fan olimpiadasining birinchi bosqichida yoshidan qat'iy nazar qatnashish istagini bildirgan akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning I-III bosqich o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin. Olimpiadaning birinchi bosqichida o'quvchilarga bir yoki ikki fandan o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishlari uchun sharoit yaratiladi. Olimpiadaning qolgan bosqichlarida har bir o'quvchi o'zi istagan va eng yaxshi natijalarga erishgan faqat bitta fan bo'yicha ishtirok etishi mumkin. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari olimpiadani o'tkazish bo'yicha tashkiliy ko'mita tuziladi. Tashkiliy qo'mitaga akademik litsey, kasb-hunar kolleji, direktorlari raislik qiladi. Qo'mita a'zolari 5-7 kishidan iborat bo'ladi. Hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirishda qo'shni akademik litsey, kasb-hunar kolleji umumta'lim maktabi bilan o'zaro mutaxassis almashish tajribasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda hakamlar hay'ati a'zolari soni 3-5 nafarni tashkil etishi kerak. Akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'tkaziladigan olimpiada jadvali tasdiqlanib, ko'rinarli joyga olimpiada o'tkazilishidan kamida 10 kun oldin osib o'yiladi. Jadval nusxasi nazorat uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasiga topshiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining I-III kurs o'quvchilari uchun test sinovi, yozma ish va amaliy topshiriqlar mos ravishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Ushbu materiallar tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanib, maxfiyligi ta'minlanadi va joylarga fan olimpiadalarini o'tkazish kuni etkaziladi. Fan olimpiadalarining birinchi bosqich natijalari ta'lim muassasasining pedagogika kengashlarida

muhokama etiladi, g'oliblarning olimpiadaning II tuman (shahar) bosqichida qatnashishi to'g'risida qaror qabul qilinadi va 1-2-3-o'rinni egallagan g'oliblarning II-bosqichda ishtirok etishi haqidagi buyurtmalari olimpiadaning ikkinchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi. Birinchi bosqich g'olib o'quvchilari akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari ma'muriyati tomonidan rag'batlantiriladi.

b) Fan olimpiadalarining ikkinchi bosqichini o'tkazish tartibi

Fan olimpiadasining ikkinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari rahbarlarining zimmasiga yuklanadi. Mazkur bosqichda olimpiada matematika, informatika, tarix, huquqshunoslik, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya va chizmachilik fanidan ikki turda (test sinovi, amaliy ish), ona tili va adabiyot, o'zbek tili (ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (o'zbek va boshqa tillarda o'qitiladigan guruhlarda), rus tili va adabiyoti (rus guruhlarida), ingliz, nemis, fransuz, qozoq va tojik tillari hamda qoraqalpoq tili va adabiyoti fanlaridan uch turda (test sinovi, og'zaki va yozma ish), fizika, biologiya, kimyo fanlaridan uch turda (test sinovi, yozma ish, laboratoriya ishi) o'tkaziladi. Ikkinchi bosqichda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining II-III kurs va o'quvchilari ishtirok etadi. Ikkinchi bosqich uchun test sinovi, yozma ish va amaliy topshiriqlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi metodika kabinetlari, viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Ushbu materiallar tuman (shahar) bosqichini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanib, maxfiyligi ta'minlanadi va joylarga fan olimpiadalarini o'tkazish kuni etkaziladi. Fan olimpiadalarining ikkinchi bosqich natijalari tuman tashkiliy ko'mitasida muhokama etiladi, g'oliblarning III viloyat olimpiadasida qatnashishi to'g'risida qaror qabul qilinadi va olimpiada o'tkaziladigan fanlardan I-II-III o'rinni egallagan g'oliblarning uchinchi bosqichda ishtirok etishi haqidagi buyurtmalar olimpiadaning III-bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

Ikkinchi bosqich g'olib o'quvchilari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan rag'batlantiriladi.

c) Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichini o'tkazish tartibi

Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichini tashkil etish O'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi. Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichi ikki turda (yozma (amaliy) ish va test sinovi ko'rinishida) o'tkaziladi. Uchinchi bosqichda qatnashgan o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlar viloyat tashkiliy qo'mitasi tomonidan chuqur tahlil etiladi. Fanlar bo'yicha g'olib bo'lgan o'quvchilarning bajargan test topshiriqlari, yozma (amaliy) ish topshiriqlari hamda tavsiya etilgan boshqa hujjatlar behato rasmiylashtirilgan holda bevosita Respublika tashkiliy qo'mitasining vakiliga olimpiada tugagan kunning ertasiga viloyat tashkiliy qo'mitasi raisi yoki mas'ul kotibi tomonidan shaxsan topshiriladi. Hujjatlari o'z vaqtida topshirilmagan jamoa a'zosi to'rtinchi bosqich olimpiadalarida qatnashish huquqidan mahrum etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi va Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va xalq ta'limi hududiy boshqarmalari, olimpiadaning uchinchi bosqichida g'olib bo'lgan o'quvchilarni Respublika bosqichiga uyushqoqlik bilan tayyorlash maqsadida barcha tashkiliy choralarni ko'radi. Fan olimpiadalarining III bosqichida test-sinovlari, yozma (amaliy) ishlardan jami 76-100 ball oralig'ida ball to'plab 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining III-kurs o'quvchilari hamda umumta'lim maktablari (shu jumladan ayrim fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar)ning 11-sinf o'quvchilari fan olimpiadalarining IV bosqichiga qo'yiladi.

d) Fan olimpiadalarining to'rtinchi bosqichini o'tkazish tartibi

Fan olimpiadalarining IV bosqichini tashkil etish va o'tkazish mas'uliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi hamda Xalq ta'limi vazirligiga yuklanadi.

Fan olimpiadalarining to'rtinchi bosqichi ikki turda (yozma ish va test sinovi ko'rinishda) o'tkaziladi. Tayyorlangan topshiriqlar o'quvchilarning umumta'lim fanlaridan olgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari, imlo savodxonligi darajasi, misol va masalalarni echa olish mahoratini aniqlashga yordam berishi lozim. Har bir o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari test va yozma (amaliy) topshiriqlarini tuzishda hamda olimpiadalarni o'tkazishda inobatga olinadi.

e) Yozma va amaliy ish

Ko'p variantlilik asosida tayyorlangan yozma (amaliy) ish topshiriqlari maxfiyligi saqlangan holda muhrlangan konvertda Respublika tashkiliy qo'mita a'zosi (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligidan mas'ul vakillar) tomonidan olimpiada o'tkaziladigan joyga 8.00 da olib kelinadi. Muhrlangan konvertlar hakamlar hay'ati, Respublika tashkiliy qo'mita a'zolari va auditoriya rahbarlari ishtirokida ochiladi. So'ngra hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan konvertlardagi savollar ekspertizadan o'tkazilib bitta variant shakllantiriladi. Mazkur variantdan olimpiadada foydalanish mumkinligi haqida hakamlar hay'ati tomonidan dalolatnoma tuziladi va imzolanadi. Yozma (amaliy) ishlarning Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda, mazmunan to'g'ri va xatolarsiz tayyorlanganligi mas'uliyati to'liq hakamlar hay'ati zimmasida bo'ladi. Hakamlar hay'atining o'zlari bilan olib kelgan topshiriqlarini olimpiada materiallariga kiritish taqiqlanadi.

Ekspertizada ishtirok etgan hakamlar hay'ati a'zolarining olimpiada boshlangunga qadar ekspertiza o'tayotgan xonadan chiqishlari taqiqlanadi. Auditoriya rahbari, hakamlar hay'ati raisi ekspertizadan o'tkazilgan yozma (amaliy) ish variantini nusxa ko'paytirish moslamasi yordamida o'quvchilar soniga teng miqdorda ko'paytiradi. Auditoriya rahbari boshchiligida hakamlar hay'ati a'zolari olimpiada materiallarini olimpiada ishtirokchilari o'tirgan xonaga olib boradi. Hakamlar hay'ati a'zolari ko'paytirilgan materiallarni ishtirokchilarga tarqatib, tushuntirishlar beradi. Jarayon boshlangandan so'ng, hakamlar hay'ati

xonani tark etadi. Auditoriyada auditoriya rahbari, nazoratchi va ota-onalardan vakil qoladi. Doskaga yozma ish boshlangan va tugallanish vaqtlari yozib qo'yiladi. Belgilangan vaqt tugaganidan so'ng qatnashchilarning ishlari auditoriya rahbari tomonidan yig'ib olinadi. Auditoriya rahbari xonadan chiqmagan holda yozma ishlarning jildiga va har bir sahifasiga shifr belgisini qo'yadi. So'ngra uni tekshirish uchun jildi olingan holda hakamlar hay'ati raisiga topshiradi. Shundan so'ng ishtirokchilarga yozma ish natijasini e'lon qilish muddati aytilib, ularga javob beriladi. Auditoriyaga taklif etilgan hakamlar hay'ati a'zolari shu auditoriyada ishlarni tekshiradi. Yozma (amaliy) ishlar har bir hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan alohida tekshiriladi, har bir masala, topshiriq uchun qo'yilgan ballar jadvalga tushiriladi, taqriz yoziladi hamda imzolanadi. Hakamlar hay'ati raisi yakuniy bahoni o'rtacha arifmetik qiymat sifatida aniqlaydi, qaydnomaga ko'chirib qo'yadi hamda shu kunning o'zida olimpiada qatnashchilariga yozma (amaliy) ish natijalarini e'lon qiladi. O'quvchilarning yozma (amaliy) ishlarini baholashda hakamlar hay'ati a'zolari ularning imlo savodxonligi, o'z fikrini adabiy til qonun-qoidalari asosida to'g'ri ifodalay bilishlarini ham inobatga olishlari lozim. Auditoriyaga taklif qilingan olimpiada ishtirokchilariga ularning yozma (amaliy) ishlari 5 daqiqa davomida tanishib chiqish uchun tarqatiladi. Zarur xollarda hakamlar hay'ati a'zolari yozma (amaliy) ish natijalari yuzasidan tushuntirishlar beradi. Yozma (amaliy) ish natijasi bo'yicha og'zaki tushuntirishdan qoniqmagan o'quvchilar yozma (amaliy) ish natijalari e'lon qilingan xonadan chiqmasdan turib appelyastiya komissiyasi raisi nomiga yozma ravishda ariza berishlari mumkin. Barcha fanlardan o'quvchilarga qoralama uchun shtampli qog'oz beriladi. Xonadan chiqishda bu ishchi qog'ozlar qoldiriladi. Qoralama qog'ozlar hujjat deb hisoblanmaydi va undagi yozuvlar yozma (amaliy) ishlarni baholashda hisobga olinmaydi.

Fan olimpiadalarining barcha bosqichlarida o'quvchilarning yozma (amaliy) ishlari bilan tashkiliy qo'mita va hakamlar hay'ati a'zolaridan tashqari shaxslarning tanishib chiqishi, g'olib bo'lgan o'quvchi va boshqa ishtirokchi o'quvchilar o'rtasida yakkama-yakka savol-javoblar o'tkazish taqiqlanadi.

Ishtirokchilarga tushuntirishlar berilib, olimpiada boshlangan vaqt doskaga yozib qo'yiladi. Belgilangan vaqt tugagach, hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan ishtirokchi bilan birgalikda ishtirokchi tuzgan dastur kompyuterda tekshiriladi va natijasi printerda qog'ozga ikki nusxada chiqariladi. Ishtirokchi imzo qo'ygan natijani hakamlar hay'ati olib qoladi, ikkinchi nusxasi ishtirokchiga beriladi.

k) Test sinovlari

Fan olimpiadalari ishtirokchilariga birinchi va ikkinchi bosqichlarda 25 tadan, uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda 40 tadan test savollari beriladi. Uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda test savollarining 30 tasi javoblari tanlanadigan, 10 tasi javoblari yoziladigan holda tuziladi. Tashkiliy qo'mita tomonidan ko'p variantlilik asosida tayyorlangan test topshiriqlari hakamlar hay'ati tomonidan olimpiada o'tkaziladigan kuni ertalab ekspertizadan o'tkaziladi, zarurat tug'ilganda, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Ekspertizadan o'tkazilgan test savollari asosida bitta variant tuziladi. Mazkur variantdan olimpiadada foydalanish mumkinligi haqida hakamlar hay'ati tomonidan dalolatnoma tuziladi va imzolanadi. Test savollarining Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda, mazmunan to'g'ri va xatolarsiz tayyorlanganligi mas'uliyati to'liq hakamlar hay'ati zimmasida bo'ladi. Auditoriya rahbari, hakamlar hay'ati raisi tayyorlangan test topshiriqlari variantini nusxa ko'paytirish moslamasi yordamida o'quvchilar soniga teng miqdorda ko'paytiradi. Ko'paytirish jarayonida hakamlar hay'ati a'zolarining olimpiada boshlangunga qadar xonadan chiqishlari taqiqlanadi. Ko'paytirilgan variant papkalarga solinib skochlanadi va auditoriya rahbari boshchiligida hakamlar hay'ati a'zolari ularni ishtirokchilar o'tirgan xonaga olib borishadi. Bu haqda dalolatnoma tuzilib, hakamlar hay'ati tomonidan imzolanadi.

Hakamlar hay'ati a'zolari materiallarni ishtirokchilarga tarqatib, ularga:

- har bir test savoliga A, V, S, D javob berilgan bo'lib, o'quvchilar ulardan faqat bitta to'g'risini topishi va belgilashi kerakligi;
- qatnashchining ismi, familiyasini sarvaraqa qayd etish lozimligi;
- javobi yoziladigan testlarning javobi ruchka bilan yozib qo'yish kerakligi to'g'risida tushuntirishlarni beradi.

Jarayon boshlanganidan so'ng hakamlar hay'ati xonani tark etishadi. Auditoriyada nazoratchilar hamda ota-onalardan vakil qoladi. Respublika olimpiadasining IV bosqichida test savollari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tuziladi. Test sinovlari o'tkaziladigan kuni ertalab hakamlar hay'ati a'zolari test savollarini ekspertizadan o'tkazadi. Ekspertizadan o'tgan test savollaridan test topshiriqlari variantlari generastiya qilinadi. Tuzilgan variant nusxa ko'paytirish moslamasi yordamida o'quvchilar soniga teng miqdorda ko'paytiriladi. Fan olimpiadalarining IV bosqichida test sinovlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladi.

Test topshiriqlarini bajarishda fizika, matematika, kimyo, informatika, geografiya, iqtisodiy bilim asoslari, chizmachilik fanlaridan bitta test savoliga javob berish uchun 3 daqiqa, qolgan barcha fanlardan 2 daqiqadan vaqt belgilanadi. Javoblar varaqasini to'ldirishga test sinovi uchun belgilangan vaqt me'yoridan ortiqcha 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Barcha tushuntirishlar tugaganidan keyin, test sinovining boshlanish va tugash vaqti doskaga yozib qo'yiladi. Belgilangan vaqt tugaganidan so'ng qatnashchilarning ishlari auditoriya rahbari tomonidan javoblar varaqasi to'g'ri to'ldirilganligi, barcha test savollariga javob berilganligi tekshirib yig'ib olinadi. Agar javoblar varaqasida bitta test savoliga ikkita va undan ortiq javoblar belgilangan bo'lsa, yoki test savoliga javob belgilanmagan bo'lsa, auditoriya rahbari bu haqda dalolatnoma tuzadi va uni hakamlar hay'ati raisiga topshiradi. Ushbu test savollariga berilgan javoblarga ball berilmaydi. Auditoriya rahbari xonadan chiqmagan holda test sinovi ishlarining jildiga va har bir sahifasiga shifr belgisini qo'yadi, ikki nafar o'quvchi ishtirokida javoblar varaqasi va jildlarni alohida paketlarga soladi va muhrlaydi. Shundan so'ng ishtirokchilarga test sinovi natijasini e'lon qilish vaqti aytilib, ularga xonadan chiqishga ruxsat beriladi. So'ngra javoblar varaqasi solingan paket tekshirish uchun hakamlar hay'ati raisiga topshiradi. Hakamlar hay'ati raisi test savollari bo'yicha to'g'ri javoblar kalitini (shablon) tashkiliy ko'mitadan oladi. Qatnashchilarning javoblar varaqasi test sinovlari o'tkazilgan auditoriyada tekshirilib, natijalar qaydnomaga o'quvchilarning shifrlari asosida kiritiladi. Ushbu

qaydnoma shifrlarga mos ravishda o'quvchilar familiyalarini kiritish uchun auditoriya rahbariga topshiriladi. Qaydnomaga o'quvchilar familiyalari kiritilganidan so'ng, test sinovlari natijalari hakamlar hay'ati raisi tomonidan o'quvchilarga e'lon qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Maktab sharoitida to'garaklar qanday tashkil qilinadi?
2. Sinflararo ko'rgazmalarni tashkil qilish ishlari qay tarzda olib boriladi?
3. Maktabdan tashqari to'garak turlari va ularning afzallik tomonlarini ayting.
4. Fan olimpiadalari bosqichlarining o'tkazilish tartibini tushuntiring.

6.3. Texnologiya fani dars jarayonida tarbiya.

Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni etishtirishda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdoir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizidoir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidoir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdoir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Pedagogika fanida yosh avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasi juda katta rol o'ynashini rus pedagogi K.D. Lishinskiy bunday deb yozgan edi: "Tarbiyaning o'zi, agar u kishining baxtiyor bo'lishini istar ekan, uni baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehnatiga tayyorlashi lozifn".

Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasav-vurlar bilan boyitadi.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqida

ma'lumotlar beribborilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidoir. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlik zarur. Bunda:

- mehnatning inson faoliyatidagi ahamiyatini anglash;
- mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish rag'batini qaror toptirish;
- mehnatga ongli munosabatda bo'lishlikni qaror toptirish;
- mehnatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- o'tmish ajdodlarimizning mehnatini ulug'lovchi qadriyatlarni anglash va shu kabilar.

Ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini olib borish maxsusdastur asosida amalga oshiriladi. Texnologiya ta'limi dasturi namunaviy xususiyatga ega. Unda maktab, o'qituvchi va o'quvchilar mehnat faoliyatini baholash bo'yicha ta'lim va tarbiya natijasiga nisbatan davlatning minimum (eng quui) talablari aks etadi.

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o'zgarmoqda, u o'zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko'nikmasi hamda holatlarni ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo'lib, shaxsni yo'naltiruvchi xususiyatga egadir.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishning vazifalari quyidagicha:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;
3. Mehnat qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish;
4. O'quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;
6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;
7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;
8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;
9. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va bosh-qalar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo'nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o'yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirishga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanil-moqda. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari,

hashar, “Mohir qo‘llar” tanlovi, “Quvnoq shahar ustaxonasi”, o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari brigadalari, yordamchi xo‘jalik, “Yosh radiotexniklar stansiyasi” va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an‘analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartib-dagi kasb-hunar ta‘limi va boshqalar.

Mehnat jarayonida o‘quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati - bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo‘lish, uni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o‘rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo‘lishiga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat ko‘rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o‘zida yana o‘quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to‘g‘ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi. Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o‘quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya bora-sida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

O‘quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Maishiy mehnat;
2. O‘quv mehnati;
3. O‘quv-ishlab chiqarish mehnati;
4. Texnik mehnat;
5. Ijtimoiy-unumli mehnat;
6. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Bolalar bajaradigan ilk mehnat turi maishiy mehnat bo‘lib, u o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishdan boshlanadi.

Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo‘llaniladi. Bola muayyan yoshga to‘lgach, kattalarga yordamlashadi, o‘z imkoniyatlarini anglab etadi va o‘quv (ta‘lim) mehnatiga muntazam tayyorlanib boradi.

Maktabda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga doir quyidagi mehnat ko‘rinishlari davom ettiriladi: sinf xonalari va maktab binosi hovli-sini ozoda saqlash, tartib-

qoidalarga rioya qilish, xonadagi gullarga qarash, ularni parvarish qilish, gulxonalarda gullarni o'stirish, maktab oshxonasida, sport zali va suv havzalari (basseyn)da o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi yumushlarga o'quvchilarni jalb etadilar. Maishiy mehnat yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnatida mehnatsevarlik, qat'iylik, tashabbuskorlik, olg'a intilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

O'quv (ta'lim) mehnati o'quvchilarning asosiy mehnat turi hisoblanadi. U boladan katta axloqiy, irodaviy va jismoniy zo'r berishni, kuchni talab qiladi. O'quv mehnati faqat bilim olishni, bilishga oid ko'nikmalarni qaror toptirib qolmay, balki bolada ishtiyoq va betartiblikni tarbiyalashga, o'qishga qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashadi, o'qishga bo'lgan qiziqish, istak hamda o'qishdagi muvaffaqiyatlardan xursand bo'lishni his etish aynan maktab partasidan tarbiyalab boriladi.

O'quvchining aqliy va jismoniy mehnati turli darslarda turli tartibda tashkil etiladi. Xususan, jismoniy tarbiya hamda texnik mehnat darslarida jismoniy mashqlar mazkur darslarning asosini tashkil etsa, matematika, flzika, astronomiya, geografiya va chizmachilik darslarida aqliy faoliyat - mantiqiy fikrlash asosiy q'rin tutadi.

Maktab o'quv rejasiga o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida shunday fanlar kiritilganki, ularning asosiy vazifasi o'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasini berishdan iborat. O'quvchilar boshlang'ich ta'lim davrida texnologiya ta'limi darslarida qo'l mehnati sirlarini o'rganadilar, turli materiallar bilan tanishadilar, dastlabki mehnat tajribasiga ega bo'ladilar.

Umumiy o'rta ta'lim davrida o'quv ustaxonalarida, maktabga tegishli o'quv-tajriba maydonlarida, otaliq korxonalar tsexlarida anchagina murakkab mehnat faoliyatini tashkil eta boshlaydilar. Bunday sharoitda mehnat qilish egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatini beradi.

Texnologiya ta'limini kuchaytirish maqsadida endilikda "o'quv-ishlab chiqarish" tizimini umumiy o'rta maktablar faoliyatiga olib kirish maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil oluvchi; o'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasb-hunar va mutahasasisliklar yuzasidan amaliy ravishda tanishadilar. Ularga mehnat ta'limi va tarbiyasini berishda tajribali mutaxassislar, ishlab chiqarish ustalari katta rol o'ynaydilar.

Ijtimoiy foydali mehnat yosh avlodni jamiyat hayotini tashkil etish jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ijtimoiy-foydali mehnatning turlari xilma-xildoir. O'qituvchilarning ijtimoiy foydali ishlari asosan sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiladi. Ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning (motivi), ijtimoiy-g'oyaviy asoslari ancha chuqurroq bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy-foydali mehnat rag'bati jamiyat oldidagi ijtimoiy burchni his etishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Jamiyat ravnaqi, el-yurt, xalq farovonligi uchun fidokorona mehnat qilish o'smir va o'spirin o'quvchilar mehnatining ijtimoiy-g'oyaviy asosidir.

O'quvchilar mehnat faoliyatining axloqiy asosda, ijtimoiy-g'oyaviy mazmuniga ega bo'lishi. O'quvchilarning mehnat faoliyatiga qo'yiladigan mazkur talablar ularni vatan ravnaqi, xalq baxt-saodati yo'lida mehnat qilayotganliklari, mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida umumjamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun bo'lishiga harakat qilayotganliklarida namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida o'quvchilarda fidoyilik, chidamlilik, sabr-toqatga ega bo'lish, onglilik, to'g'rilik, halollik, mehnatga nisbatan vijdonan yondashish kabi xislatlar shakllanadi. Baja-rilayotgan mehnat yoki shaxsning o'ziga, shuningdek, atrofdagilarga yoki ijtimoiy jamiyat uchun foyda keltirishni o'quvchilarga tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularga har qanday mazmun va ko'lamdagi mehnatning besamar bo'lmasligini uqtirib o'tish joiz.

Mehnat faoliyatining jamoa xarakteriga ega bo'lishi - muhim pedagogik talab sanaladi. O'quvchilar mehnat faoliyati ularda jamoatchilik ko'nikmalarini hosil qilish, o'zaro yordam va do'stlik aloqalarini mustahkamlashni ko'zda tutish lozim. Jamoa asosida tashkil etiladigan mehnat faoliyatida har bir o'quvchining yagona maqsadi asosida mehnat qilish uchun sharoit yaratiladi. O'quvchi mustaqil harakat qilish bilan birga o'rtoqlariga yordamlashadi. Muhimi, jamoa mehnat faoliyatining ijobiy samarasi uchun har bir o'quvchining mas'ulligi ortib boradi.

Mehnat topshiriqlarni berishda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olish. Mehnat topshiriqlarihammavaqt o'quvchining kuchiva imkoniyatiga muvofiq bo'lishi kerak. Mehnat faoliyati ularni almashtirib turish, jismoniy mehnatni aqliy mehnat bilan yoki dam olish bilan qo'shib olib borish, mehnat jarayoniga yangi unsurlarni singdirish, mehnatni tashkil etish chog'ida o'quvchilarni zo'riqtirmaslik, toliqtirmaslik zarur.

Mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo'lishiga erishish O'quvchilar mehnat faoliyati bir o'quv yili bo'yicha rejalashtiriladi va mehnat ta'limi o'quv rejasida, jadvalda qayd etiladi. Ijtimoiy foydali mehnatning tizimli bo'lishi oddiy mehnat turidan murakkabroq mehnat turiga o'tish, shuningdek, sinfda, maktabda qilayotgan mehnatdan, maktabdan tashqari sharoitda olib boriladigan ijtimoiy foydali mehnatga o'tish tarzida olib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar mehnat faoliyatining tizimli bo'lishi mehnatning o'quvchi tomonidan hayotiy ehtiyoj, zarurat sifatida e'tirof etilishiga olib keladi hamda bu borada o'quvchida ko'nikma va malaka hosil bo'ladi.

Mehnat faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishi. Mazkur talab ham muhim pedagogik talab sanaladi. O'quvchilar mehnat faoliyatining qaysi turiga jalb etilmasin, unda aqliy va jismoniy mehnatning uyg'unlashuviga erishish uchun, unga nisbatan ijodiy yondashish uchun keng sharoit yaratilmog'i lozim. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida uning har bir bosqichida o'quvchiga yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish to'g'ri emas. Aksincha, topshiriqni berish chog'ida uni qanday bajarilishini tushuntirish, lozim bo'lsa bajarib ko'rsatish, mehnat jarayonida esa o'quvchining mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish uchun

imkon yaratib berish lozim. O‘quvchi mehnati orttirilgan tajriba asosida, shuningdek, tadqiqotchilik vazifalarini hal etish asosida bajarilganda ijodiy xususiyat kasb etadi. Aynan shu holatda o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi, unda mehnatga nisbatan muhabbat ijodiy munosabatni qaror toptiradi.

O‘quvchilarni ijodiy mehnatga yo‘naltirishda maktab va maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya muassasalarida tashkil etiladigan texnika, qishloq xo‘jaligi to‘garaklari alohida ahamiyatga ega. Bunday to‘garaklar faoliyati o‘quvchilar ahlini, texnika va qishloq xo‘jaligi sohasidagi ijodkorligini o‘stiradi. O‘quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo‘yilayotgan talablar bir-biri bilan o‘zaro bogliq holda qoilansa, ijobiy natijalar beradi.

Axloqiy tarbiya

Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda eng avvalo, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi. Shu o‘rinda buyuk allomalarning hadislarini, ilm, mehnat va hunar haqidagi fikrlaridan foydalanamiz:

Ey o‘g‘il! Qaysi fan bo‘lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to‘xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqling yo‘l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab qo‘yma!

A. Sheroziy

Hunarni asrabon ketgumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdur oxir.

A. Navoiy

Aziz do‘stlar oltin va kumushi bo‘lmagan odam kambag‘al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo‘lmagan kishi kambag‘aldir.

Mehnatga axloqiy tayyorlash – o‘quvchilarga jamoada ishlashni, do‘stona o‘zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish va mehnatda xatti-harakat normalarini o‘rgatishdan iborat.

O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo‘lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o‘quvchilarga xulq-odob me‘yorlari va

qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o'qish, kinofilm va spektakllarni tomasha qilish, maxsus tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilar o'zlari va boshqalarning hatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma'naviy-axloqiy mavzularda o'tkaziladigan suhbat va munozaralarda o'quvchini fikr yuritish, o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Do'stimiz Kamol qangday qilib narkomanlar davrasiga tushib qoldi?", "Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?", "Zamonaviylik - bu nima?" kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o'quvchilarni o'ylash, fikr yuritishga yo'llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o'rganishga bo'lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o'z hatti-harakatlarini baholashga bo'lgan e'tiqodlari shakllanadi.

Debat, munozara va suhbatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag'ishlanishi zarur. Bunda o'quvchilarni qiziqtirish va ularni jonli muloqotga undash muhimdir. O'quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o'rgatish, pedagogik talab qo'yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.

Iqtisodiy tarbiya

Iqtisodiy tarbiya (tejamkorlik). Iqtisodiy tarbiya ham shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham yoshlarda

iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g'amho'rlik ko'rsatmoqda va pedagoglarimiz tadqiqotlar olib bormoqda.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslab kelingan. Bu borada Al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga puxta bo'lishi kerak. Shunda u o'z mehnatining (o'zgalarning ham) natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin.

A.N.Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi".

A.Avloniy "Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur" yana "Hozirgi zamonda maqsadga yetmoq, xalqqa maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdur" kabi qimmatli g'oyalarni olg'a surgan. Masalan, uning quyidagi fikrlarini ko'raylik: "Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar, Yevropaliklar o'zimizdan olgan 5 tiyinlik paxtamizni o'zimizga 25 tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar, dumba sotib, chandir chaynaymiz: qaymoq berub, non o'rniga kesak tishlaymiz, so'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof tugamas sa'i, bitmas g'ayrat lozimdir".

Ahmad Yugnakiy "Hibbatul haqoyiq"da: "Mol-mulksiz kishi uchun bilim - bitmas-tuganmas mulkdir, kambag'al uchun bilim hisob - xatosiz hisobdir". Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o'zining ilmi bilan ijtimoiy hayotga tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va o'z hayotini oqilona tashkil qiladi.

O'quvchilarga iqtisodiy tarbiyani olib borishning shakllari

O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya avvalo dars jarayonida singdiriladi. O'qituvchi qaysi sinfda qaysi predmetdan dars berishidan qat'iy nazar

o'rganilayotgan materialning mazmunidan, uning xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim, tarbiya elementlarini singdirib, kerakli ko'nikma, odatlar haqida ma'lumot beradi. Masalan, adabiyot, tarix, geografiya darslarida biror yozuvchining asaridagi mazmunni bayon qilishda mazkur mahsulotni yoki boylikni ishlab chiqaruvchilar mehnati evaziga bunyod bo'layotganligini, ular mehnatini qadrlash, mehnat ahllarini hurmatlash har bir odamning o'z mehnatini qadrlashligini badiiy obrazlar vositasida o'quvchilar ongiga singdiriladi. Geografiya kursini o'qitish asosida tabiiy boyliklar, ularning turlari, ularning davlat rivojidgi hissasini uqtirish orqali mazkur boyliklar har bir kishiga kerak ekanligini, ularsiz inson hayoti farovon bo'lishi mumkin emasligini tushuntiradi. O'quvchi mazkur fanlardan olgan bilimlarini qiyoslab, taqqoslashtirish asosida birinchi navbatda o'z mehnatini, so'ng o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rganadi. Shu asosda o'quvchilarda iqtisodiy ma'lumot, ko'nikma va odatlar tarkib topadi.

O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Mohir qo'llar" to'garagi ishtirokchilari o'qituvchi-usta rahbarligida turli xil buyumlar, kiyim-kechaklar, o'yinchoqlarni tayyorlash bilan bog'liq ko'nikmalarni o'rganadilar, ya'ni biror bir mahsulot ishlab chiqarishni o'rganadilar. Ana shu mahsulotlar ishlab chiqarilmasa odamlar ularni bozordan xarid qilishlari zarur bo'ladi. Demak, ishlab chiqargan buyumlar kishilarning shu sohaga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi, ya'ni ta'minlaydi. Xullas, bu mahsulotlar mablag', ya'ni pul hosil bo'lishiga asos soladi. Pul esa o'z navbatida o'quvchilarni iqtisodiy fikrlashga va shu haqda to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. Yoki maktabdan tashqari biror zavod yo fabrika yo korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan o'quvchilarni tanishtirish orqali ularning mazkur sohalar bo'yicha tasavvur, bilim, ma'lumotlarini takomillashtiradi. Qaysi soha bo'lmasin u davlatning, kishilarning kundalik turmushi, hayoti bilan bog'liqligini anglaydi. Mazkur sohaning iqtisodiy imkoniyatlari va o'z navbatida odamlarning shu sohaga bo'lgan ehtiyojini o'quvchilar o'rganish, ko'rish, kuzatish jarayonida o'zlarining iqtisodiy ma'lumotlarini oshirib borishadi. Bularning barchasi o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda ijtimoiy ahamiyatga ega.

O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, sayohatlarni, ko'rgazmalarni tashkil qilish singari manbalari mavjudki, ularsiz fuqarolarning iqtisodiy madaniyatini, tafakkurini, ongini va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasini hal etish mushkul.

Oilada tejamkorlik tarbiyasi. Pul ham tarbiyalaydi. Bunga befarq qaramaslik darkor. Pul muomalasiga mensimay qarash, ko'pincha ikki tomonlama muammoga olib keladi. Tekinxo'rlik va oilaning iqtisodiy qiyinchiliklarini bilishni istamaslik odati tarbiyalanadi. Ikkinchidan, pul ochko'zlik, pul jamg'arishga intilishni tarbiyalashi mumkin. Ilk yoshlikdanoq bolani oilaning xo'jalik ishlari bilan tanishtirib borish zarur. Bola oila mablag'ini bilishi, oila hayotining bir oylik, bir kunlik "taxminiy smetasini" bilishi lozim. U asosiy oziq-ovqatlarning non, yog', sut, go'sht, baliq, sabzavot va boshqalarning narxini bilishi kerak. Bola kamolga etib borgan sari uni buyumlar (kiyim, poyafzal, televizor va hokazolarning) qiymati bilan tanishib bormog'i lozim. Agar ota-ona qo'shimcha ish olib ishlayotgan bo'lsa, bola shuni tushunishi kerakki, onasi va otasi oilada hamma yaxshi yashashi uchun mehnat qilayopti. U shunday mantiqni tushunmog'i lozim: Har kim oila hayotini yaxshilashga o'zining qo'lidan kelgan hissasini qo'shishi kerak. Bola sizga qancha ertaroq yordam bera boshlasa, shuncha yaxshi bo'ladi.

Ekologik tarbiya

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumbashariy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, rivojlanishning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir, - deb ta'kidlagan. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida "Men bolalar alifbosini ochib, birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob - tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim" - deb ta'kidlaganidek, bu borada barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash

maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublika “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da: “Ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning ekologik va sanitariya-gigiena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish zarur” - deb alohida ta’kidlangan.

“**Ekologiya**” yunoncha so‘z bo‘lib, tirik mavjudodlarning yashash sharti va tevarak atrofdagi muhit bilan o‘zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o‘rganadigan fanidir. “Ekologiya” atamasi 1866 yilda nemis zoolog olimi E.Gekkel tomonidan kashf etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida: “Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” va 55-moddasida esa: “Yer va er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umumiy boyliklardir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat mudofaasidadir” - deb juda o‘rinli ta’kidlangan. Fuqarolarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Sog‘lom avlod uchun” ordenining ta’sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, “Ekologik ta’lim-tarbiya konsepsiyasi” ning ishlab chiqilishi, “Ekosan” jamg‘armasining tuzilishi va 2000 yilning “Sog‘lom avlod yili” va 2005 yilning “Sihat-salomatlik yili” deb e’lon va davlat dasturi ishlab chiqilishi ekologik tarbiyaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilganligini ko‘ramiz. Aholi sonining tez o‘sib borishi natijasida ekologik ijtimoiy muammolar ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, aholini yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta’minlash haqidagi muammolar butun dunyo ijtimoiy muammolariga aylanib bormoqda. Yer kurrasida insoning farovon yashashi endi ekologik muammolarni echishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik va psixologik yo‘nalishlari mavjud. Pedagogik yo‘nalishda ekologik ta’lim va tarbiya berish ko‘zda tutiladi. Ekologik ta’lim deganda aholiga berilishi lozim bo‘lgan

tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham turli yoshdagi kishilarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ekologik tarbiyani tashkil etish shakllari

Fuqarolarda ekologik savodxonlik va madaniyat ijtimoiy ta'lim-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini, mehnat jamoalari, mahalliy boshqaruv organlari, ichki ishlar xodimlari, prokuratura, sud, ommaviy axborot vositalari singari shakllarda amalga oshiriladi. Fuqarolarga ekologik tarbiya berishda milliy xususiyat va tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish foydali. Bular: suv, yer, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Ota-bobolarimiz: "Suv - tabiat in'omi, hayot manbai", - deb bejiz aytishmagan. Ma'lumki hozir faqat 500 ming km³ ga yaqin chuchuk suv bor xolos. Ma'lumki, barcha yoshdagi kishilarda tabiatni muhofaza qilish haqida qimmatli hayotiy g'oyalar xalq donishmandligida asoslangan. Masalan, "Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga mahkum etur", "Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar», "Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tqazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon esa, uning ekinidan eyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi" va hokazo.

Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqta bo'lib, 53,4 metrni, shu darajalar 1994 yilda 32,5 metrga, suvning hajmi 1064 kub kilometrni (400 kub kilometrni) suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni (32,5 ming kvadrat kilometr) va minerallashuvi darajasi bir litr suvda 10-11 gramm (u ikki barobar oshganligining guvohimiz)ga etgan. Orol dengizining qurib borishi munosabati bilan xalqaro, keng ko'lamli ahamiyatga molik bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va desografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi. Dengizning qurib borishi va mintaqaning cho'lga aylanib borishi bilan bog'liq fojea bu havzada yashayotgan barcha xalqlarning ijtimoiy fojeasidir.

Maktabda o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda bunday ma'lumotlarni berib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasi bo'lmog'i darkor. Endilikda atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi ma'lumligi aniq bo'lib qoldi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini echish zaruriyati tug'ildi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammoga aylandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishi zarurligini ko'rsatadi. Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganligi o'quvchi ongiga singdiriladi. Haqiqatdan ham tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p darajada foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida, ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof-muhit ifloslandi.

Ekologik tarbiya insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiya maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Bizningcha, umumiy o'rta ta'lim va boshqa muassasalarda ekologik tarbiya berishni tarbiyalashning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;

- tabiat va uning ahamiyatini anglash;
- tabiatga muhabbatni shakllantirishda maktab va oilaning hamkorligi;
- o'z tumani, shaharini, qishloq va maktab hovlisini ko'klamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini;
- oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.

“Avesto”da kishilarni ekologik tarbiyalash bo‘yicha quyidagi tadbirlar belgilangan: Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir.

Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkumdir. Ota-bobolarimiz azal-azaldan tabiatga yuksak mehr ko‘rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko‘chalarni, haylilarni sarishta qilishgan.

Maktab o‘quvchilari ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog‘lanish;

- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

- atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash;

- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Umuman umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining ekologik ta‘lim-tarbiyasi quyidagi tuzilish va tizimda olib borilsa uning samaradorligi ta‘minlanadi: ekologik his-tuyg‘u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik tushuncha, ekologik bilim, ma‘lumot, ko‘nikma, malaka, odat, ekologik madaniyat (mahorat) va hokazo.

Estetik tarbiya

Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Har bir ota-onada pedagogik ichki hissiyot mavjud. Ulardan har kim har xil yoidan foydalanib farzandlarini tarbiyalaydilar. Bu bora-da estetik tarbiya eng samarali yo‘llardan biridir. Oilada ham, mahallada ham, tanishlar orasida ham estetik tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, el e‘zozidagi va xalq e‘tiboridagi shaxslarni ibrat-namuna qilib ko‘rsatish tarbiya samaradorligini oshirishga muhim g‘oyaviy asosdir,

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go‘zallik kategoriyasidir. Uning ma‘nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyiligini ta‘minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go‘zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- **go‘zallik** - bu kishining qalbi go‘zalligi;
- **go‘zallik** - bu kishining istarasi issiqligi;
- **go‘zallik** - bu kishining go‘zal xulq egasi bo‘lishi ;
- **go‘zallik** - bu bamisoli daraxt, yaprog‘i - axloq, ildizi - ichki dunyo, mevasi - yaxshi fazilat. Xullas, odam bolasidagi go‘zallik - tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o‘z ichiga olgan odamiy-likdan iborat (Mirzakalon Ismoilii).

Demak, estetik tarbiya nafosat tarbiyasi ham, odamiylik tarbiyasi ham, to‘la-to‘kis ahamiyatga ega bo‘lgan go‘zallik tarbiyasidir. Shu sababli talaba-yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash g‘oyat murakkab, ko‘p qirrali dinamik jarayon bo‘lib, uning yordamida barkamol shaxs tarbiyasi jarayonini olib borishning optimal variantlarini qo‘lga kiritish mumkin.

Yoshlarni tabiiy oshda xalq maorifi sistemasi juda muhim rol o‘ynaydi, bular zimmasiga hayotning turli sohalarida aktiv faoliyatga layoqatli bo‘lgan har tamonlama kamol topgan ishlar yetishtirish, ularda mehnatga, bilimga muhabbat singdirish yosh avlodni kollektivizm, Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash vazifalari yuklangan.

Maktabning asosiy vazifasi o‘quvchilarga mehnat tarbiyasi berishdan, ularda mehnatga va jamoat mulikga ongli munosabatga tarbiyalashdan kasbga qiziqishi va biror kasb egasi bo‘lishni tabiiy oshdan iborat.

Mehnatga va ijtimoyi mulikga ongli munosabat tarbiyalashni mehnatga psixologik jihatdan tayorgarlik mehnat sevarlikni tarbiyalashdan boshlash kerak. Maktabta mehnatga psixologik jihatdan tarbiyalash balkiy ijtimoyi foydali faoliyatga qiziqishni o‘stirishdan va unga kishilik jamiyati uchun mehnatning rolini tushunarli kilib izohlab berishdan boshlanadi. Boshlang‘ich siniflarda mehnatning faoliyatiga qo‘l mehnati darslari va o‘z o‘ziga mehnat ko‘rsatishning qo‘lda yasaladigan formalarida qatnashish jarayonida o‘sadi.

O‘quvchilar 5 sinifdan boshlab o‘quv ustoxonalari va o‘quv tajriba uchaskalarida ishlaydilar.

Shu vaqtdan boshlab o'qishi mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyati ularga yanada tushunarliroq bo'lib boradi. Mehnat dars o'quvchisining vazifasi o'quvchilarda shunday ko'nikma va malakalar hosil qilgan holda ularni ijtimoiy foydali ekanligi tushunarli ish turlari bilan ta'minlashdan iborat.

Beriladigan mehnat topshiriqlarini o'quvchilar qo'lidan keladigan bo'lishi, bajarilgan ishlarni ahamiyatini muntazam ravishda tushuntirib borish mehnat sevarlik fazilatini taraqqiy etishning asosi bo'lib hisolanadi. Mehnat kishilik jamiyotning normal hayot kechirishi uchun zaruriy shart ekanligi konkret misollar bilan o'quvchilarga tushuntirish kerak. O'quvchi kishloq jamiyati uchun mehnatning ahamiyotini tushuntirish asosida o'quvchilarni o'z kuchiga ishonishiga asoslanib oldiga kuygan mahsadlarga yorishish imkoniyotini beruvchi optimizm kelgusiga ishonich bilan qarash hislarini tarbiyalash imkoniyotiga ega bo'ladi.

O'quvchilar o'quv ustoxanasida ishlaganlarida ularni material va elektr energiyasini tejashga, asbob uskunalar, moslamalarini ehtiyot qilishga vaqtdan ratsional foydalanishni o'rgatish kerak.

Ijtimoiy mulikka ongli munosabati muvaffoqiyatini tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri o'quvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi, jihozlar materiallar, asbob uskunalariga ixtiyotkorlik munosabatida bo'lishdir. Asbob uskunalariga ixtiyotsizlik bilan bo'lish ishdan chiqarib ko'yish, brakni yashirishga urinish kabi xollarda shunday ishlarni kiluvchilarni o'qituvchining o'ziga ayilab qolmasdan. Bunday o'quvchilar umumiy yig'ilishlarda muhokoma qilish kerak.

Texnologiya ta'limi darslarida kasbga havas va mehr muhabbat tarbiyalanadi. O'quvchilarda kasbga mehr tarbiyasining zaruriy sharti ularni mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga yorishishdir. O'quvchida bunday sifatni tarbiyalamay turib kasbga mehr muhabbatni tarbiyalab bo'lmaydi.

Texnologiya darslarida iroda va xarakter ham tarbiyalanadi. Mustahkam iroda va xarakterni muvoffaqiyat bilan tarbiyalashga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir. Texnologiya ta'limi darslarida bitmagan ish qilinmagan ish degan printsipt qo'llaniladi. Agar o'quvchi

o'ziga topshirilgan ishni ajratilgan normasida tugata olmasa, unga o'z ishni darsdan keyin yoki maxsus ajratilgan vaqtda tamomlashga imkon berish lozim. O'quvchi topshiriqni bajarishi jarayonida biror o'quvchining ishni mustaqil ravishda bajara olmayotganligini ko'rsa unga yordam berish kerak, ammo o'sha o'quvchiga hech vaqt sen layokatsizsan bu ishni bajarish sening qo'lingdan kelmaydi demasligi lozim.

O'quv ustoxanalarida ishlayotganda o'quvchilarga o'z mustaqilliklarini namoyish qilish uchun imkoniyat yaratish va ularga tashabbuskolikni har jihatdan rahbarlantirib turish lozim.

Berilgan vazifani o'quvchi mustaqil bajarishi jarayonida topshiriqni to'g'ri hal qilish yo'lini tanglash uchun o'zi mustaqil ravishda harakat kiloyotgan va hech kimdan yordam so'ramayotgan lekin bazi xotolarga yo'l qo'yayotgan bo'lsa ham o'quvchi uning ishiga yarolashmasligi lozim. O'quvchilarni mana shunday izlanishiga o'qituvchidan ularni ishlarini alohida etibor bilan kuzatib borishni, belgilangan texnologiyani ayniqsa xafsizlik texnika qoidalarini buzilish xafi yuz berganda ularni ishlariga aralashishi, ularning yo'l qo'ygan xotolarini ko'rsatib bu xotalarning nimalarga olib kelishi mumkinligini aytib berishni talab etadi.

Tashabbuskorlik texnika to'garaklarida texnika oid kechalar, maruzalar, munozaratlar o'stiradi. Belgilangan qoidalarni buzish tashabbus deb xisoblanmaydi.

Tenologiya darslari jarayonida o'quvchilar kollektivizm ruhida tarbiyolanadi. Ayniqsa o'qitishni zveno formada tashkil qilib har turli texnik modellar tayorlashda, hamda darsni yakuniy qismida bu yaqol ko'rinadi. Yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlashni tubdan yaxshilash maqsadida umum ta'lim maktabi oldiga o'z ishida ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish tamoyilini to'laroq amalga oshirish vazifasi qo'yilgan.

texnologiya ta'limidagi unumli mehnatga va o'quv dasturida ko'zda tutilgan unumli mehnatga ajratilgan vaqtlar birlashtiriladi, butun unumli mehnat esa o'quvchilar texnologiya ta'limida olgan bilim hamda o'quvlar zaminida tashkil qilinadi. Texnologiya ta'limiga ajratilgan vaqtni majburiy unumli mehnat hisobiga

ko'paytirishga imkon beradi, Bu esa umumiy profetsional ta'lim sharoitida ham juda muhimdir. O'quvchilar texnologiya (kasb o'rgatish) darslari jarayonidan unumli mehnat bilan bir qatorda ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinadilar, Bunda mehnatga o'z o'ziga xizmat ko'rsatish, qariyalarga ko'mak berish, xiyobonlarni tozalash kibilar kiradi. O'quvchilar unumli mehnatiga muvaffoqiyatini jalb qilinishi uchun bir qancha tashkiliy pedagogik, texnik iqtisodiy, metodik va psixologik-pedagogik talablar bajarilishi kerak.

Tashkiliy-pedagogik talablariga quyidagilar kiradi:

Ishlab chiqarish korxonalarini bilan aloqa o'rnatish tayorgarlik ishlari ro'xatini aniqlash; unumli mehnatni ishlab chiqarish mantiqiga xos tarzida tashkil qilish; ishlab chiqarish rejasini tuzish; Kadrlar tanglash, o'quvchilarning unumli mehnatini pedagogik jihatdan boshqarish texnologiya o'qituvchilari va masterlar faoliyatini ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zi boshqarish organlarini jalb qilish, maktab hamda ishlab chiqarish kollektivlarining o'zaro hamkorligi, o'quvchilar unumli mehnatining sistematik harakterda bo'lishi, o'quvchilarning ish o'rinlarini va mehnat mazmunini rejali ravishda almashtirib turish kollektiv, guruh va shaxsiy ish formalarini samarali tarzda qo'shib olib borish, o'quvchilar mehnatining xavsizligi. Ishlab chiqariladigan mahsulotni rejalashtirish o'quv dasturlari va rejalarini o'z vaqtida bajarish, o'quv jarayoning moddiy texnik jixozlanishi, (uskunalar, jihozlar, materiallar, hujjatlar va h.k.) ratsional tashkil qilish va tayyorlab qo'yish, unumli mehnat ob'yektlarini to'g'ri tanlash mahsulot ishlab chiqarish hajmi va muddatlarini belgilash ishning turli formalarini muvoffaqiyat bilan qo'shib olib borish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish (uskunalar, jihozlar, asboblari va h.k.)sanoat korxonalarining buyurtmasiga mos kelibgina qolmasdan, balki muayyan talablarga muvoffiq tanlangan hamda tsex va uchastkalariga joylashtirilgan bo'lishi ham kerak. O'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarishiga jalb qilinishi uchun qulay muhit yaratish unumli mehnatni tashkil qilishning muhim psixologik pedagogik sharti hisoblanadi. Avvalo o'quv ishlab chiqarishda sanitariya-gigiyena qoidalari va xavsizlik talablari qatish bajarilishi shart. O'quvchilarini ijtimoiy foydaliy unumli

mehnatini tashkil qilishda o'quvchilar yoshini xususiyatlariga bog'liq bo'lgan uch bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin unumli mehnat mazmunini tanglashga nisbatan qo'yiladigan asosiy talablar, mehnat ob'yektlari o'quvchilarga o'z mehnatining foydaliligi va zarurligini his etishga, mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishga mas'uliyat bilan yondashishiga, turli xil moslama va uskunalar, texnik xujjatlar, ishlab chiqarishni tayorlash texnologiyasi va ishlab chiqarishning o'zi bilan ta'minot rejalashtirish va hokazolar bilan mukkamoliroq tanishishga imkon beradi.

Unumli mehnat jarayonida o'quvchilar faoliyatining natijalarini rejalashda, uni tashkil qilishning asosiy ishning muvoffakiyatini belgilovchi elementlaridan biri hisoblanadi.

“Estetik tarbiya” - o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdoir”.

“Estetik ta'lim-tarbiya - insonda zavq uyg'otuvchi va uni harakat, shijoatva qahramonliklarga undovchi barcha turdagi ko'rinishlar, holatlar, hodisalar va badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish”.

“Estetik rivojlantirish - bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondoir. Bu jarayon ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalarga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi.

U jamiyat estetik madaniyatini turli ma'naviy va moddiy ko'rinishlarda tushunib olishni ta'minlaydi”.

Talaba-yoshlar estetik tarbiyasining mazmuni asosan:

- estetikaga qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;
- estetik jihatdan bilimdonlik;
- estetik ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;

- estetik his-tuyg‘uning mukammalligi;
- o‘z mehnatidan zavq ola bilish va natijani baholay olish qobiliyatlarining, hissiyot va qobiliyatlarining mavjudligi;
- go‘zallikka intilish va didlarni tarbiyalashga erisha olishlik kabi insoniy xislatlar majmualaridan iboratdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi talaba-yoshlarda ma‘naviy jihatdan go‘zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san‘at asarlarini sevishtirishni shakllantirish, tarix va me‘moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg‘otish, jonajon tabiatimizga ongli muno-sabatda bo‘lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlay bilish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda shuni qayd etish mumkinki, uning yordamida yosh avlodni Vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavqlangan holdagi ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga erishish lozim bo‘ladi.

Estetik tarbiya yosh avlodning, ya‘ni taiaba-yoshlarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan bo‘ladi.

Estetik tarbiyaning vazifalari uning asosiy maqsadini amal-ga oshirishdan iborat bo‘ladi. Bunda mustaqil respublikamizdagi ta‘lim-tarbiyani isloh qilish borasidagi say-harakatlar ham e‘tiborga olinmog‘i lozim.

Estetik tarbiyani oliy o‘quv yurtlarida quyidagi yo‘nalishlarda olib borgan ma‘qul va bular bir yo‘nalish estetik tarbiyaning asosiy maqsadini hal qilishdagi vazifalardan iboratdir:

- **talaba-yoshlardagi estetik tarbiyaga ehtiyojni aniqlash.** Bunda ularning ma‘naviy jihatdan go‘zallikni his qilishi; estetik ong va did, estetik mulohaza va qiziqishlarning borligi; taiaba-yoshlarning o‘z estetik didini yuksaltirilishini yoqtirishi; milliy-ma‘naviy qadriyatlarga hurmati borligi; jonajon Vatanga, ota-onasiga va o‘rtoqlariga hurmat hissi borligi va shu kabilar aniqlanadi;

Estetik ehtiyoj deb, insonning atrofimizdagi olamni estetik jihatdan o‘rganib, bilib olishiga, uning badiiy faoliyatini muayyan bir turiga yoki yo‘nalishiga undovchi aniq jihatlar majmuuiga aytiladi.

- **talaba-yoshlardagi estetik moyillikni aniqlash.** Bular talaba-yoshlardagi estetik hayajon, estetik mulohaza, estetik munosabat, badiiy va estetik did, estetik qiziqish, estetik tuyg‘u, estetik idrok va estetik baho kabi ijobiy xislatlar haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarning borligi orqali aniqlanadi.

- **estetik ongning shakllanganligini aniqlash.** Bunda estetik tarbiya ijtimoiy voqelik, tabiat, san‘atga nisbatan bevosita muloqot jarayonida shakllangan fikr, g‘oya, qarash, nazariya va ta‘limotlarning badiiy ta‘lim va tarbiyaning natijasida hosil bo‘lishga e‘tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik ongning asosini esa estetik idrok tashkil etadi va u insonning go‘zallik bilan uchrashganida paydo bo‘ladi hamda uning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi bilan ham xarakterlanadi. Estetik ongning shakllantirilishi bilan talaba-yoshlarda go‘zallik va xunuklik, saxiylik va baxillik, xushfelliqlik va qo‘pollik, xursandchilik va xafalik, shodlik va qayg‘u, najot va falokat kabi juftliklarning mazmun-mohiyatlarini to‘g‘ri anglashni tarbiyalashga erishiladi. Bu orqali talaba-yoshlarda tevarak-atrofga nisbatan to‘g‘ri ongli munosabat va go‘zallikni tushunish shakllanadi;

- **talaba-yoshlar ongida estetik tarbiya kategoriyalarining mazmun-mohiyati haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.** Bunga talaba-yoshlar ongiga estetik madaniyat, madaniy meros. shaxs estetik madaniyati, estetik ong, estetik idrok, estetik bahs, estetik ideal, estetik qiziqish, estetik bilim, estetik moyillik, estetik did, estetik hissiyot, estetik mulohaza, estetik ehtiyoj, estetik munosabatlar, estetik faoliyat kabi kategoriyalar mazmun-mohiyati haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni singdoirish yordamida erishiladi;

- **ilmiy dunyoqarashning ma‘naviy qiyofasini shakllantirish.** Bunda hayotni bilib borishga, nafosatni tushunishga, insonning butun qiyofasini, ya‘ni uning his-tuyg‘ularini va estetik irodasini mustahkamlashga e‘tibor berish lozim;

- **estetik tarbiyani milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tashkil etish.**

Bunda o'zbek xalqining o'tmishdan bizga qoldoigan ma'naviy meroslariga e'tiborni kuchaytirish kerak. Ayniqsa, qomusiy olimlar, hadis ilmi sohiblari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, davlat arboblari, xalq qahramonlarini hayoti va faoliyatidagi estetikaga oid materiallar estetik tarbiyani asosli ravishda o'z qo'liga olib borishga keng imkoniyatlar yaratadi;

- **talaba-yoshlarni estetik faoliyatga tayyorlash.** Bunda estetik faoliyat bilim, ko'nikma va malakalar kabi ijobiy qobiliyatlar mavjudligi bilan xarakterlanishini esdan chiqarmaslik kerak. Shuning bilan birga ushbu jarayonga jamoaviy jarayon deb qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga sabab, bunday o'rgatish guruh vazifalarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarni faol estetik va badiiy faoliyatga jalb qiladi, ularda estetik va badiiy idrokni rivojlantiradi.

- **estetik va badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.** Bunda o'zbek xalqining o'tmishdagi boy milliy-ma'naviy merosiga, xusu-san, badiiy boyliklarga

va san'atiga egaligi muhim didaktik asos bo'ladi va o'qituvchidan har bir bolada umumiy va individual badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishini, hissiy hozirjavoblik qobiliyatini hamda fazoviy tafakkurni yuksaltirishni hisobga olib pedagogik faoliyat yuritishini talab etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnat tarbiyasini o'quvchilar ongiga qanday singdirish mumkin?
2. Allomalarimizni axloqiy tarbiyaga oid fikrlaridan keltiring.
3. Iqtisodiy tejamkorlik deganda nimani tushunasiz?
4. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
5. Estetik nafosat tarbiyaning asosiy maqsadi nima?

6.4. Texnologiya fanida ilmiy tadqiqot metodlari.

Xalq ta'limi tizimini tubdan o'zgartirish, uning rivoji uchun pedagogik, uslubiy, psixologik sharoitlarni yaratish talab etiladi. Amaliyotdan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi.

Hayotda va ob'yektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir.

Nima qilish kerak va qanday amalga oshirish lozim degan muammolar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir¹.

Pedagogik tadqiqotlarning fani sifatida maktab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning hatti-harakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega

bo'ladilar, o'z dunyo qarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Tahsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish pedagogik tadqiqotlarnig asoslaridan hisoblanadi. Yuqoridagi o'zgarishlar, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy hatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni taxlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quvishlari sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari qanday ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'yektiv xarakterga egadir.

Ta'lim va tarbiyaga taalluqli hatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktika da yagona usul hisoblanishini Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika", K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya fanisifatida" asarlarida ko'rish mumkin. O'quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan emperik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

Texnologiya ta'limida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari. Texnologiya ta'limi muammolariga yaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad talim va tarbiya xususiyatlari, samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnik vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- 1.O'qituvchining adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.
2. Gipoteza qurish, ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. O'qituvchining faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni berishi.
3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirishi va o'quv jarayoniga qo'llashi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumilmiy va maxsus metodlari qo'llaniladi².

Umumilmiy metodlarga :nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Nazariy metod - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmuni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Kuzatish

Odatda tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod o'qituvchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'yekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi. Shuningdek, kuzatish metodi ta'lim-tarbiyaning mazkur vaktdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish metodining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bo'lmay, oldindan qo'yilgan maqsad bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iboratdir.

Kuzatish jarayonida o'qituvchini qiziqtiruvchi muammo va vazifalar kuzatishni tanlab o'tkazishni taqozo etadi. O'qituvchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish kerakligini tanlab oladi. Shuning uchun hamu kuzatish natijasida yechilishi kerak bo'lgan muammoni hali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi. Natijada o'qituvchining kuzatish natijalarini umumlashtirishi birmuncha osonlashadi.

Kuzatishga asoslangan tasniflashlari uch ko'rinishga ega:

- 1) obzor tadqiqotlari;
- 2) ta'lim-tarbiya unsurlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash;

3) izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita amalga oshiriladi. To'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib yetish va o'lchashdan iborat, ya'ni:

- qabul qilib olish - sezish organlari yordamida tekshiruvchi ob'yekt aniq joyda turganligini qayd qilish;

- tushunib yetish tanlab olingan, qayd qilingan ob'yekt oldindan aniq yoki noaniqligini aniqlash;

- o'lchash - shu ob'yektning sonini aniqlash.

Bilvosita kuzatish ob'yektni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaganda amalga oshiriladi. Shunday ob'yektdagi shaxsning tug'ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. Shuning uchun ham o'qituvchi o'ziga qulay ko'rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo'llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita o'qituvchining o'zi ham qatnashadi va jarayonning borishigata'siretadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'qituvchi bo'lib o'tayotgan jarayonning ikir-chikirlarini tushunib yetadi, bu esa o'quv jarayonini tadqiqot talablariga yo'naltirish imkonini beradi. Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan, ijodkor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda keng qo'llaniladi.

Bilvosita kuzatish o'qituvchini hodisalarni o'rganishga ko'proq jalb etishga imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotlar stenogrammalari, uchinchi odam tomonida tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diagrammalar, statistik mashg'ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini hamda ijtimoiy muhit, xususan o'qituvchi faoliyatining o'quvchi shaxsida uyg'otadigan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy-tekshirish maqsadlarini aniqlash o'qituvchini qiziqtirib qolgan muammoli holatni tahlil qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday holatni tahlil

qilish va unda ma'lum va noma'lumlarni aniqlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan bahosi o'qituvchining asosiy va qo'shimcha muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Suhbat metodi

Suhbat bu so'rashning bir turi bo'lgani holda o'qituvchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan o'quvchi bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat metodidan foydalaniladi. Odatda, suhbat metodi maktab o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suhbat metodini tadbiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtira bilishi g'oyat muhimdir. Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- 2) vaqti va o'tkazish joyini belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo'lishi;
- 4) suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- 5) mahmadona va bachkana bo'lmaslik;
- 6) suhbatdoshning kimligini, harakter hususiyatini esdan chiqarmaslik;
- 7) suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbiq etish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

Pedagogik ekskursiya

Pedagogik so'rash metodi – o'qituvchining boshqa hamkasblaridan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan

tizimi, ularning aniq ifodalanishi, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni (“ha”, ”yo‘q”) ham taqozo etishi mumkin.

Test, so‘rovnomalar – bu so‘rovnoma, ya’ni anketa usuli qo‘llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o‘quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qizishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi.

Test savollaridan ko‘zlangan maqsad qisqa vaqt ichida o‘quvchilarning bilimlarini, qiziqishlarini, kasblar haqidagi fikrlarini yoppasiga baholashdir.

O‘quvchilarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri – bu test yordamida gisinovdir.

Test sinovlar metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlash imkon beradigan qilib tuziladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi

Respublikamiz rahbariyatining xalq ta’limi yuzasidan qabul qilingan qaror va yo‘l-yo‘riqlari asosida maktabda bajarilgan va bajarilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarini yuritilgan hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir.

Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma’lumotlar olinadi.

Umuman, maktab hujjatlari deyilganda; o‘qituvchi va o‘quvchilarning soni va sifati; o‘quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilishda o'quvchilarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfda qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari, turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Ularni tahlil qilish, hisobotlarni ko'zdan kechirish, to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash, o'quvchilar faolliklarining o'sishi bilan taqqoslash, ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishi va nihoyat, o'qituvchi-tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora, tadbirlar belgilash maqsadida o'tkaziladi.

O'quvchilar bajaradigan ishlarni o'rganish

Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad O'zbekiston yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan etishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarining namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo.

Laboratoriya eksperimenti

“Eksperiment” so'zi lotincha “sinab ko'rish”, “tajriba qilib ko'rish” ma'nosini anglatadi.

Odatda eksperimental-tajriba ishlari ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiri jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

O'tkaziladigan tajriba ishlari ta'lim va tarbiya o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash, natijalarni hisobga olish asosida yangi metodlarni tadbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaraligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

- 1) tabiiy eksperiment;
- 2) laboratoriya eksperimenti;
- 3) amaliy tajriba.

Pedagogik eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o'tkazishda quyidagi talablar mavjud:

1) ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash lozim.

2) ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq ob'yekt belgilash, amalga oshirish borasida qo'shimcha metodlarni aniqlash.

3) tajriba ishi o'tkazish vaqtini va muddatini belgilash.

4) tajriba uchun lozim bo'lgan asbob-uskuna va boshqa hokazolarning tayyor turishi;

4) eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kerak.

Matematik tadqiqot

Statistik ma'lumotlarini tahlil qilish usuli – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari - o'qitish nazariyasi amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida birtildaniqkinchitilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish,

o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy tadqiqot metodi – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad o'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, o'quvchilar orasidagi do'stlik munosabatlarini, o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, o'quvchilar orasidagi munosabatlarni, dinga xususan tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, o'quvchilarning ma'naviy sifatlar darajasini, bilimolishga ishtiyoqi, adabiyotlar ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va kasb mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlarturi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ishjoyi, o'quvchilarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashashjoyi, mahallasi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib yetishishida hal qiluvchi omillar, o'quvchilarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, qanday kasblar haqida ma'lumotga ega ekanliklari, qaysi kasbga qiziqishlari, kasb tanlashlarida maktab, mahalla va oilaning tutgan o'rne, o'quvchilarning o'qitiladigan fanlardan o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qaytaishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bosqichlari.

Texnologiya faninio'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asoslari:

1. Shaxsning ijodiy va faoliyatlilik ma'nosi haqidagi ta'limot.
2. Shaxsning o'zaro aloqa bog'lash va o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'limot.
3. Munosabatlar nazariyasi.
4. Mutaxassis shaxsini shakllantirish xaqidagi nazariy ta'limot.
5. Bilish faoliyati haqidagi ta'limotlardan iboratdir.

Shuningdek, mehnat ta'limi o'qitish metodikasining ilmiy tadqiqoti 4 ta bosqichni o'zichiga oladi:

1-bosqich. Nazariy izlanish bosqichi. Bu bosqichda tadqiqot muammosi ilmiy jihatda obdon o‘ylab ko‘riladi.

Kerak bo‘lganda muammoning hozirgi ahvolini chuqurroq tushunib yetmoq uchun uzoq va yaqin o‘tmishni tarixiy-nazariy analiz qilinadi. Natijada tadqiqotning tub negizi aniqlanadi, tadqiqot maqsadiga mosadekvatmetodologiya va tadqiqot metodlari aniqlanadi, tushunchalar apparati kiritiladi, umumiyvaxususiytaxminlarqo‘yiladi, tadqiqotni tashkillashtirish elementlari belgilanadi.

Bu bosqichda yana tadqiqot ob‘yektining (umumiy o‘rta talim, o‘rtamaxsus, kasb-hunar talimi, OTM va hokazolar) ish tajribasi o‘rganiladi, umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha talabalar, bitiruvchilar, o‘qituvchilar kuzatiladi, suhbat, anketalar o‘tkaziladi, intervyular olinadi, o‘quv metodik va rejalashtirish hisobot hujjatlari o‘rganiladi. Tadqiqot tub maqsadlarini aniqlashtirish maqsadida izlanish eksperimentlari o‘tkaziladi.

2-bosqich. Eksperimental-diagnostik bosqichida o‘quv-tarbiya jarayonining mexanizmi, xossalari, o‘ziga xos qarama-qarshiliklari, jarayon rivojlanishining sifat belgilari, tezligi, shiddatkorligi, darajalari o‘rganiladi.

Bu bosqichda hisobga olish eksperimenti bilan bir qatorda anketalash, suhbatlar, o‘z-o‘zini baholash, reyting baholash, shkalalash, ranglash kabi metodlar orqali dastlabki sinov shakllantirish eksperimentlari o‘tkaziladi.

3-bosqich. Tajriba eksperimental bosqichida nazariy va metodik ishlanmalar, yangi darslik o‘quv qo‘llanmalari, o‘qitishning yangi izchil metodlari tekshirib ko‘riladi va tegishli aniqliklar kiritiladi.

4-bosqich. Yakunlovchi umumlashtirish bosqichi hisoblanadi. Tadqiqot natijasida olingan natijalar yana bir bor tizimga solinadi, ishlab chiqiladi, kerak bo‘lgan hollarda ilmiy-tadqiqot natijasida olingan metodik yo‘riqnomalar, xulosalar qaytadan tekshirib ko‘riladi yoxud o‘quv yurtlari amaliyotida bevosita qo‘llab ko‘rib, tegishli xulosalar olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarining mazmuni nimadan iborat?
2. Texnologiya fanida kuzatish metodining qo'llanilishini izohlang.
3. Suhbat metodining afzalligi nimada?
4. Ekperiment metodi sharoitga qarab necha turga bo'linadi?
5. Maktab hujjatlarini tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
6. Fanda matematik, kibernetika metodi nima uchun kerak?

6.5. Texnologiya fanida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi.

Texnologiya ta'limi bo'yicha o'quv dasturida ko'rsatilganidek, ekskursiya soati ajratilgan o'quv fanlarining har birida ishlab chiqarishga bir martadan ekskursiya o'tkazish nazarda tutiladi. Ekskursiyalar o'tkazishdan maqsad avvalo o'quvchilarda hozirgi zamon ishlab chiqarishi haqida tasavvur hosil qilishdir. Zero, o'quv ustaxonalari sharoitida o'quvchilar odatda materiallarga ishlov berishning sanoatdagi eng yangi yutuqlarini aks ettiradigan usullari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ekskursiya - o'quvchilarni zamonaviy texnika, texnologiya va bevosita korxonada ishlab chiqarish tashkil qilish bilan tanishtirishning yagona yo'lidir.

Ekskursiya anchagina muhim tushunchalarni, jumladan, "mehnat unumdorligi" tushunchasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu tushunchani bayon qilish va ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish orqali ham shakllantirish mumkin, albatta. Lekin bunda mazkur tushuncha o'quvchilarning amaliy faoliyatidagi, jumladan, ishlab chiqarishga uyushtirilgan ekskursiyadagi kabi mustahkam o'zlashtirilmaydi. Ular rejalashni to'g'ri bajarish va birikadigan detallarni aniq moslash qanchalik qiyinligini biladilar. Mehnat unumdorligini oshirishda murakkab tikuvchilik yo'llaridan biri bilan tanishish o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi va ularning esida yaxshi qoladi. Shu tariqa tikuv materiallarini qayta ishlash korxonasining tayyorlov tsexiga o'tkazilgan ekskursiya davomida, o'quvchilar har xil mashinalarning ishlashini, tikuv materiallarining qir qilishini

ko'rayotganlarida ularning mehnat unumdorligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish mumkin. Bolalar ekskursiyada baravar vaqt mobaynida qo'llariga nisbatan mexanik qaychi bilan ancha ko'p ish bajarish mumkinligini bevosita ko'radilar. Ana shu misol orqali mehnat unumdorligini oshirishning ayrim yo'llarini ko'rsatish mumkin. Masalan, qo'l qaychi o'rniga mexanizatsiyalashtirilgan qaychidan foydalanish qo'l mehnati o'rnini mexanizatsiyalashgan mehnat egallashining namunalaridan biridir, mehnat unumdorligining oshirilishi esa ishda bir yo'la bir necha asbobdan foydalanishga misol bo'la oladi. Mehnat unumdorligini oshirish nuqtai nazaridan qaychilash jarayonini ta'riflashda o'quvchilarga mustaqil holda bir necha misollar keltirishni tavsiya etish ma'qul. Ular ilgari o'rganilgan materiallarni: qo'l va elektr mashinalar bilan tikish, qo'lda va mashinalarda averloglash, qo'l va mexanik qaychilarda qirqish va hokazolarni eslasalar mazkur topshiriqni bajaradilar.

Ekskursiya ob'yektini tanlash

Bu ish ekskursiya ob'yektini tanlashdan boshlanadi. Ob'yektni tanlash ekskursiya jarayonida qo'yiladigan vazifalar bilan belgilanadi. Masalan, o'quvchilar kasb-hunar kollejining birinchi kursida tikuv materiallarini qirqish ishlarini bajaradilar (taxta tiladigan korxonalariga ekskursiya uyushtirib, o'quvchilarni tikuv materiallari qirqish bilan tanishtirish mumkin) ; 2-kursda materiallarga ishlov berish o'rganilgandan so'ng asosiy ta'limiy vazifa o'quvchilarga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish haqida tushuncha berishdan iborat bo'ladi (tabiiyki, bunday payitda ekskursiya uchun avtomat liniya yoki alohida avtomat mashinalar mavjud ob'ekt tanlanishi kerak).

Ekskursiya ob'ektlarini tanlashda qishloq joylarida kasb ta'limi o'qituvchisining imkoniyati nihoyatda cheklanganini nazarda tutish kerak. Buning ustiga ba'zan hamma ekskursiyalarni bitta korxonaning o'zida o'tkazishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda kasb ta'limi o'qituvchisi ekskursiyalar mazmunan takrorlanmasligi va ularga o'quvchilarning qiziqishi susaymasligi uchun oldindan

ustaxonalarda ta'lim berishning butun davri uchun o'tkaziladigan ekskursiyalarning rejasini tuzib oladi.

O'qituvchi ekskursiya uchun ob'yekt tanlagach korxonalar rahbarlari bilan kelishib oladi va ekskursiyani kam o'tkazishi masalasini hal qiladi. Ekskursiyani o'qituvchining o'zi o'tkazsa, eng ko'p ta'limiy samaraga erishiladi. Chunki o'qituvchi mana shu tadbirning ta'limiy vazifalarini, o'quvchilarning tayyorligi va fan asoslariga doir bilimlarini yaqqol tasavvur etadi. Bularning xammasi unga ishni aniq olib borish, o'quvchilarning diqqat - e'tiborini ular uchun eng muhim hisoblangan asosiy narsalarga qaratish imkonini beradi. Afsuski, har bir kasb ta'limi o'qituvchisi hozirgi sanoat korxonalarida o'tkaziladigan ekskursiyalarni boshqarishga tayyorlangan, deb bo'lmaydi. Ana shunday hollarda ekskursiyani korxonaning xodimi o'tkazib, o'qituvchi unga avval ekskursiyaning vazifalvrini tushuntiradi.

Texnologiya fani o'qituvchisi ekskursiyod bilan birgalikda ekskursiyaning marshrutini va o'quvchilarga ko'rsatiladigan ob'yektni belgilaydi. Bunda o'quvchilar uchun xavfsizlik masalalariga katta e'tibor beriladi. O'qituvchi ekskursiyod bilan birgalikda o'quvchilarning korxonalar territoriyasidagi harakati xavfsizligini qanday ta'minlash ularni tsexga qanday joylashtirish kerakligi haqida fikrlashadi.

O'qituvchi ekskursiya vaqtida o'quvchilarning aktivligini oshirish uchun ularga individual topshiriqlar beradi. Bu topshiriqlar turli xarakterda bo'lishi, masalan: muayyan detalga ishlov berish tartibini yozishdan(marshrutli texnologik karta tuzishdan), qator operatsiyalar bo'yicha detal zagatovkasining eskizini tayyorlashdan, qo'l mehnati bilan mashinada ishlashning unumdorligini taqqoslashdan iborat bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarishdagi ekskursiyalarni kasb ta'lim o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilari, xususan fizika o'qituvchisi bilan birgalikda o'tkazishi mumkin. Bunday hollarda ekskursiya vaqti uzaytiriladi va o'rganish ob'yekti ancha chuqurlashadi hamda ko'p qirrali bo'ladi.

Ekskursiyaga tayyorgarlik

Ekskursiyaga tayyorlanish. Bu ish ekskursiya ob'yektini tanlashdan boshlanadi. Ob'yektni tanlash ekskursiya jarayonida qo'yiladigan vazifalar bilan belgilanadi. Masalan, o'quvchilar kasb-hunar kollejining birinchi kursida tikuv materiallarini qirqish ishlarini bajaradilar (taxta tiladigan korxonalariga ekskursiya uyushtirib, o'quvchilarni tikuv materiallari qirqish bilan tanishtirish mumkin) ; 2-kursda materiallarga ishlov berish o'rganilgandan so'ng asosiy ta'limiy vazifa o'quvchilarga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish haqida tushuncha berishdan iborat bo'ladi (tabiiyki, bunday payitda ekskursiya uchun avtomat liniya yoki alohida avtomat mashinalar mavjud ob'yekt tanlanishi kerak). Ekskursiya ob'yektlarini tanlashda qishloq joylarida texnologiya ta'limi o'qituvchisining imkoniyati nihoyatda cheklanganini nazarda tutish kerak. Buning ustiga ba'zan hamma ekskursiyalarni bitta korxonaning o'zida o'tkazishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda kasb ta'limi o'qituvchisi ekskursiyalar mazmunan takrorlanmasligi va ularga o'quvchilarning qiziqishi susaymasligi uchun oldindan ustaxonalarda ta'lim berishning butun davri uchun o'tkaziladigan ekskursiyalarning rejasini tuzib oladi.

O'qituvchi ekskursiya uchun ob'yekt tanlagach korxonalar rahbarlari bilan kelishib oladi va ekskursiyani kam o'tkazishi masalasini hal qiladi. Ekskursiyani o'qituvchining o'zi o'tkazsa, eng ko'p ta'limiy samaraga erishiladi. Chunki o'qituvchi mana shu tadbirning ta'limiy vazifalarini, o'quvchilarning tayyorligi va fan asoslariga doir bilimlarini yaqqol tasavvur etadi. Bularning hammasi unga ishni aniq olib borish, o'quvchilarning diqqat – e'tiborini ular uchun eng muhim hisoblangan asosiy narsalarga qaratish imkonini beradi. Afsuski, har bir kasb ta'limi o'qituvchisi hozirgi sanoat korxonalarida o'tkaziladigan ekskursiyalarni boshqarishga tayyorlangan, deb bo'lmaydi. Ana shunday hollarda ekskursiyani korxonaning xodimi o'tkazib, o'qituvchi unga avval ekskursiyaning vazifalvrini tushuntiradi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi ekskursovod bilan birgalikda ekskursiyaning marshrutini va o'quvchilarga ko'rsatiladigan ob'yektni belgilaydi. Bunda o'quvchilar uchun xavfsizlik masalalariga katta e'tibor beriladi. O'qituvchi

ekskursovod bilan birgalikda o'quvchilarning korxonada territoriyasidagi harakati xavfsizligini qanday ta'minlash ularni ttxga qanday joylashtirish kerakligi haqida fikrlashadi.

O'qituvchi ekskursiya vaqtida o'quvchilarning aktivligini oshirish uchun ularga individual topshiriqlar beradi. Bu topshiriqlar turli xarakterda bo'lishi, masalan: muayyan detalga ishlov berish tartibini yozishdan(marshrutli texnologik karta tuzishdan), qator operatsiyalar bo'yicha detal zagatovkasining eskizini tayyorlashdan, qo'l mehnati bilan mashinada ishlashning unumdorligini taqqoslashdan iborat bo'lishi mumkin.

Ekskursiyani o'tkazish va yakunlash

Ekskursiyalarni o'tkazish metodikasida quyidagi asosiy masalalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: ekskursiyaga tayyorlanish, ekskursiyani o'tkazish va uni yakunlash. Bularni batafsilroq ko'rib chiqamiz. Ekskursiyani o'tkazish. Odatda ekskursiya qisqacha kirish so'zi bilan boshlanib, unda o'quvchilarga korxonaning mazkur iqtisodiy rayon va umuman xalq xo'jaligi uchun ahamiyati yoritiladi. O'quvchilar korxonaning mahsulotlari bilan ham tanishadilar, suhbatni texnika kabinetida yoki korxonaning tarixi, yutuq va an'analarini ifodalovchi stendlar bilan jihozlangan qizil burchakda o'tkazish eng qulaydir. O'qituvchi suhbat oxirida o'quvchilarga korxonada territoriyasidagi hatti - harakat qoidalarini tushuntiradi va individual topshiriqlar berib, ularning qanday bajarilgani tekshirilishini aytadi.

Ekskursiya ta'limiy vazifalarga bog'liq holda o'tadi. Masalan, o'quvchilar korxonaga texnologik jarayon bilan tanishish uchun kelsalar, tayyorlash ttxlaridan boshlab to yig'ish ttxlarigacha, biror xarakterli detalni ishlashning hamma jarayonini kuzatadilar. Shu tariqa ular asta sekin bir ttxdan ikkinchi ttxga o'tib, umuman korxonaning ishini bilib oladilar. Bunda o'qituvchi har xil texnologik jarayonlarning tipik tomonlarini alohida ta'kidlaydi². Natijada o'quvchilar faqat mazkur korxonaga xos texnologik jarayon haqida emas, balki boshqa korxonalaridagi shunga o'xshash jarayonlar haqidagi tushunchaga ega bo'ladilar.

Ikkinchi misol. O'quvchilar muayyan ishlab chiqarish jihozining tuzilishi va ishi bilan tanishishlari kerak. Bunday hollarda kuzatish uchun ob'yektlar shunday tanlanadiki, o'quvchilar jihozlar atrofida ishchiga xalaqt bermaydigan, o'zlariga hamma narsa ko'rinib turadigan holda joylashadilar.

O'quvchilar kuzatishni ma'lum miqdorda malga oshirish uchun ularga og'zaki yoki yozma javob qaytariladigan konkret topshiriqlar beriladi. O'qituvchi o'quvchilar orasida aylanib yurib, ular topshiriqni to'g'ri tushungan - tushunmaganini va uni qanday bajarayotganliklarini tekshiradi.

Ekskursiya natijalarini yakunlash

Ekskursiya uning natijalarini yakunlash bilan tugaydi. Ko'pincha mehnat o'qituvchisi ekskursiya tugagach o'quvchilar bilan birga texnika kabineti yoki qizil burchakka qaytadi va ular topshiriqni qay tarzda bajara olganini, buning uchun kerakli material to'plagan-to'plamaganini aniqlaydi. Shundan so'ng yozma hisobotlarni topshirish yoki ustaxonalardagi mashg'ulotlarda yakunlovchi suhbat o'tkazish vaqtini belgilaydi.

O'quvchilarning ekskursiyada olgan bilimlaridan o'qituvchi keyinroq, masalan, maktab ustaxonalaridagi va hozirgi sanoat korxonalaridagi ish sharoitlarini taqqoslashda foydalanishi mumkin. Ma'lumki, bunday taqqoslash o'quvchilarda materiallarni qayta ishlashning progressiv, yuqori unumli usullari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishdani uchun o'tkaziladi.

Kasbiy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun to'laqonli xizmat qilmayotgan sohalar ham mavjud. Jumladan, o'quvchilarning mehnat tarbiyasi, kasbiy bilim va ko'nikmalarini dars jarayonida shakllantirishga bir qadar e'tibor qaratilayotgan bir davrda, darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda tizimlilik, maqsadga yo'naltirilgan etarlicha o'z aksini topmay kelmoqda.

Ekskursiyalar ta'lim-tarbiya, ko'rgazmali o'qitishda keng qo'llaniladigan mashg'ulot shakllaridan biri sanaladi. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda muzeylarga, ishlab chiqarish korxonalariga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid fermalar va dalalarga, qurilish maydonlariga, firmalarga uyushtiriladigan ekskursiyalardan keng foydalaniladi.

Ekskursiyalarni amalda oshirishda mehnat tarbiyasiga oid samaraga erishish uchun avvalo ta'lim muhitini bevosita buyumlarni amalda ko'rish, ular bilan amaliy ish bajarish sharoitiga erishish lozim bo'ladi. Buning uchun odatda o'quv muassasiga yaqin masofada joylashgan ob'yektlar tanlab olinadi. Muzeylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar ham bu borada yuqori samaraga erishish imkonini yaratuvchi shakllardan biri sanaladi. Muzeylarda turlicha eksponatlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi, jumladan tarixiy hujjatlar, asl buyumlar, Vatan himoyachilari va turli mehnat sohasiga oid ishchilarning shaxsiy buyumlari, turli maqolalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Ekskursiyaning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Texnologiya fanida ekskursiyalar qanday amalga oshiriladi?
3. Ekskursiya ob'yektlari kim tomonidan tanlanadi?
4. Ekskursiyaga tayyorgarlik jarayonlari qanday amalga oshiriladi?
5. Ekskursiya qanaqa vazifalarga bog'liq holda o'tkaziladi?
6. Ekskursiyani yakunlash ishlari haqida tushunchangizni ayting.

6.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklarni rejalashtirish va tashkillashtirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bichish-tikish to'garagi rahbarlarini tayyorlash orqali loyihalovchi rassom, tikuvchi, bichuvchi kasblariga qiziqishi bor bo'lgan o'quvchilarga yordam beriladi. Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblari bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, ularda mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish, mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat. Mehnat ta'limi jarayonida olgan bilimlarni mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtlarining to'g'ri, rejali o'tishini ta'minlash va tikuvchi-bichuvchi kasblarini egallashlarida to'garaklarning vazifasi

katta.

Tikuvchi - bichuvchi kasbini egallash orqali qizlarimizni hayotga tayyorlashdek zarur vazifa bajariladi, chunki har bir ayol tikuvchilik sirlarini bilishi albatta kerak. Tikuvchilik kasbi eng sharaflı kasblardan biri hisoblanadi, axir hech bir sanoat yoki odam yo‘qki bu kasb xizmatidan foydalanmasin. Bichish-tikishni o‘rgatish uslubiyoti tikuvchi kasbi to‘garagi tashkilotchisi tayyorlashda

mutaxassislik fani hisoblanadi¹. Bu fanning asosiy maqsadi bo'lajak to'garak rahbarlariga bichish-tikish to'garagi davomida tikuvchilik kasbi sirlarini, ularni har tomonlama tarbiyalashni o'rgatishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish yo'l-yo'riqlarini o'rgatishdir. Fanning asosiy vazifasi bo'lajak to'garak rahbarlariga tikuvchilik ustaxonasining moddiy bazasi, jihozlanishi, kiyimlarni tikishda qo'llaniladigan ish turlarini bajarish va kiyimda qo'llash, yengil kiyimlarning xillari va ularni tikish jarayonlarini o'rgatishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlarni o'rgatadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir to'garak tashkilotchisi tikuvchilik mutaxassisligi tavsifnomasida ko'rsatilgan 3-4 razryadli tikuvchi kasbi bajara oladigan ishlarni o'zi bilishi va to'garak a'zolariga o'rgata olishi zarur. Dastur nazariy va amaliy tarzda o'qitiladi. Nazariy bilimlar berishda tikuvchilik sohasida qo'lga kiritilgan yangiliklar, yangi tikuv mashinalari, ishlov berish usullari haqida ma'lumotlar va o'quvchilarga yetkazish haqida ko'rsatmalar beriladi. Amaliy ishlarni bajarishda "Mehnat ta'limi" fanidan egallagan ko'nikma va malakalariga asoslaniladi.

To'garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish

Texnik to'garaklarida o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishning barcha bosqichlarida kompyuter bilan yakka tartibda ishlashga, undan mustaqil ravishda avvaldan belgilab qo'yilgan o'quv axborotlarini olishga to'g'ri keladi. Odatda, an'anaviy usulda olingan bilimlar o'quvchi xotirasida sezilarli iz qoldirmaydi. Bunga sabab, matnlarida o'quvchilar faolligini oshiruvchi maxsus usullarning yetarlicha qo'llanilmasligidir. Shu sababli bu o'rinda o'quvchi tafakkurining faol ishlashidanam ayon bo'luvchi bilish faolligini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik to'garaklarida o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishda bilish faolligini oshirish birinchidan ijodiy faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ixtirochilik ijodkorligini shakllantirish muammosining to'la ishlab chiqilmaganligi va ikkinchidan texnika taraqqiyotining hozirgi sharoitlarida o'quvchilarning ob'yektlarni real

xususiyatlariga ko'ra loyihalashda turli darajadagi dinamik modellar bilan ishlash qobiliyatiga bo'lgan talabning ortib borayotganligi bilan belgilanadi.

O'quvchi ijodiy fikrlashini faollashtirishda eng asosiy omil jonli mushohada va abstrakt tafakkur bo'lgani uchun uni rivojlantirish bosh masala sifatida qaraladi. Ular o'quvchi shaxsining muhim sifatleri, faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondoshish, qiziquvchanlik kabi ta'limda o'quvchi shaxsining shakllantirish vazifalariga javob bera oladigan xislatlari bilan uyg'unlashtirib borildi. Shu bilan birgalikda dasturlashtirilgan ta'limda ijodkorligi asoslariga oid nazariy bilimlarni tadqiq etilayotgan ob'yektlarning namuna nusxalarini ishlab chiqish amaliyoti bilan birgalikda olib borilishi, ta'lim jarayonini faollashtirishning eng muhim didaktik vositasi sifatida qaraladi. Ana shu xislatlarni rivojlantirishda qo'llanilgan ijodiy masalalar va ularni yechishda bajarilgan amaliy faoliyat turlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. Ijodiy ko'nikmalari bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari: ijodkorlik bilimlari yuzasidan savollarga javob; ijodkorlik tadqiqotlari mavzusini shakllantirish; tadqiqot shartlarini tahlil qilish.

2. Ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish natijalarini rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari: ixtirochilik metodlarini o'rganish; patent tadqiqotlarini olib borish; ixtiro ob'yektining qiyosini aniqlash; ixtiro ta'rifini shakllantirish; ixtiro samaradorligini baholash³.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi boshqaradigan to'garakdagi o'quvchilar mehnatining ob'yektlarini belgilashda asosiy diqqat e'tibor maktab ustaxonalarini ayrim texnik qurilmalar, texnologik uskunalar o'quvchilarning ishlab chiqarish brigadasi yoki boshqa mehnat birlashmalaridagi mehnatning kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashga, maktab ustaxonalaridagi mavjud uskunalarini remont qilish va takomillashtirishda, o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtirishida yordam beradigan har xil ko'rsatmali qo'llanmalarni, elektrlashtirilgan stendlarni, bilishga doir o'yinlarni ishlab chiqishga qaratiladi.

Maktab koridorlari uchun turli burchaklar, stendlar, ko'rgazma vitrinalari, vitrajlar maktab ustaxonalari bazasida faoliyat ko'rsatadigan duradgorlik -

konstruktorlik to'garagidagi ijodiy ishlarning predmeti bo'lishi mumkin. O'quvchilar yosh metallchilar yoki texnolog-ratsionalizatorlar to'garagida maktab ustaxonalari ishlab chiqarish buyurtmalarini bajarish uchun zarur texnologik uskunalarni yarata oladilar, maktab tajriba uchastkasida, maktab o'rmonchiligida, ko'k patrullar ishida foydalanish uchun kichik gabaritli transport vositalarini, mikrotraktorlarni, priborlar va mexanizmlarni tayyorlay oladilar. Ko'pincha maktab ustaxonalari bazasidagi texnika to'garagining ishi baza korxonadagi ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati sovetining, mahalliy sovxoz, kolxoz, maishiy xizmat ko'rsatish muassasasining topshirig'i bo'yicha tashkil qilinadi, ya'ni aynan ijtimoiy foydali xarakterda bo'ladi. O'quvchilarning to'garakdagi ishi uchun ob'yektlar tanlashdan oldin o'quvchilarning o'zlarini tayyorlash ularda kishilar uchun kerakli buyumlarni ishlab chiqish hamda yasashga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish kerak. Ishning muvaffaqiyatli o'qituvchi - to'garak rahbari to'garak qatnashchilari orasida vazifalarning taqsimlanishini qanchalik aniq tashkil etgani, ularning individual va yosh xususiyatlarini, maktab ustaxonalari sharoitida tavsiya qilingan ishni bajarishga amaliy tayyorlik darajasini hisobga olgani bilan ham belgilanadi.

To'garak faoliyati doimo to'garak rahbari tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan ish plani bo'yicha amalga oshadi. To'garak ishining plani to'garakning tipovoy dasturi yoki to'garak rahbari o'qituvchining o'zi tuzgan va maktab direktori tasdiqlagan dastur asosida tuzilishi mumkin. Ko'pincha to'garakning ish plani mashg'ulotlar boshlanishidan ancha oldin, rahbar hali to'garak qatnashchilari sostavini aniq bilmaydigan paytda tuziladi va tasdiqlanadi. Aslida esa to'garakning yillik ish plani loyihasinigina oldindan tayyorlash, keyin to'garak qatnashchilarini ana shu loyiha bilan tanishtirish, uni uzil-kesil ma'qullashni esa navbatdagi mashg'ulotlarda, ya'ni o'quvchilar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini va o'zlarini nimalar ko'proq qiziqtirishini bilib olganlaridan so'ng amalga oshirish to'g'riroqdir. O'quvchilarning aktiv ishtirokida tuzilgan plan eng to'g'ri bo'ladi, chunki bunday plan har bir o'quvchining ishiga aylanadi. To'garak rahbari yillik plandan tashqari har bir mashg'ulotdan so'ng yakunlagan holda keying

mashg'ulotning planini tuzadi. Texnika to'garaklarining ba'zi rahbarlari o'quvchilarga o'z ishlarining planini tuzishni tavsiya etadilar, bunda ularga yordamlashadilar: u yoki bu texnik vazifani bajarishning taxminiy muddatini belgilaydilar, individual va kollektiv ishning ko'zlagan natijalariga erishishni rejalashtiradilar.

To'garak mashg'ulotlarida o'uvchilar ishini tashkil qilishning frontal, zveno, individual mehnat taqsimoti bilan kabi har xil shakllari qo'llaniladi. Tarbiya masalalari nuqtai nazaridan o'quvchilar ishini tashkil qilishning frontal shaklini imkoni boricha keng qo'llash lozim. O'quvchilarning qiziqishi jixatdan qaraganda esa individual formasidan ko'proq foydalanish kerak. Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o'quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o'zagi, maktabni hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo'lidir. **O'quvchilarning mehnatga psixologik va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.** Maktabning turmush bilan alohasi kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilar o'zlarining mustaqilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan mehnatning go'zalligi va quvonchini, kollektivning kuchini his etishlari yordam beradigan yangi shakl va usullari aniqlanmohda. O'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarning tushunchalari harakatining davom etishi to'garak ishlari (jumladan "Mohir qo'llar" badiiy kashta tikish to'garaklari) kabi formalari keng tarqalgandir. O'quvchilarni mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarida xilma-xil tarbiyaviy kompleksini qo'llash orqali amalga oshirilishi kerak. O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta'limtarbiyaviy ishining ajralmas qismi bo'lib, u bilan har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo'llanishga yordam beruvchi muhim vositadir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat ta'limi tarbiyasi bolalarda fan, texnika, san'atning turli sohalariga qiziqishni o'stirish masalalarini eng maqbul hal etishga yordam

beradi. Texnologiya ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi qo'shimchasidir⁴. O'quv mashg'ulotlari bilimlarga qiziqishni o'stiradi, sinfdan tashqari ish darsda esa bilimlarni kengroq qo'llash hamda chuqurlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ish darsda beriladigan materiallarni aynan takrorlanmasligi kerak, u sinfdagi ishdan o'zining o'yin, qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga ishning o'zlariga ko'proq yoqqan, o'zlarini qo'proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo'ladi, bu erda ular istalgan ish bilan shug'ullanishlari, qo'yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo'lgan vaqt va kuchni sarflashlari mumkin.

Ommaviy tadbirlar tashkillashtirish

Sinfdan tashqari ishning formalari ko'pdir: **Ommaviy ish** - kechalar, sborlar, konkurslar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko'rgazmalar. To'garak ishi - "Mohir qo'llar", "Qo'g'irchoq teatr", "Yosh tabiatshunoslar", "Quvnoq ustaxona" to'garaklar. Individual mashg'ulot. Kolleksiyalar to'plash, texnika bilan mustaqil shug'ullanish. Temirchilik ishi, qishloq xo'jalik mehnati. Maktablarda boshlang'ich sinfdan tashqari ishlarning ertaliklar, ko'rgazmalar uyushtirish kabi ommaviy ish turidan keng foydalanib, konkurs va viktorinalarga kam e'tibor beriladi.

Ommaviy ishlarning konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va ayni bir vaqtda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. Chunki eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi. Boshlang'ich sinfdagi ishlari quyi sinf o'quvchilarida umumiy rivojlantirishni, ayniqsa o'qishning turmush bilan aloqasi nuqtai nazardan juda muhim va keraklidir. "Mohir qo'llar", "Qo'g'irchoq teatri" to'garaklari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lib, to'garakda o'g'il va qiz bolalar bir xil qiziqish, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shug'ullana oladi.

O'quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmalari

Ko'rgazmalarni quyidagicha tashkil qilish mumkin: Ko'rgazma ishiga mas'ul texnologiya o'qituvchisi hisoblanadi. Ko'rgazma pavilionlarga ajratiladi. 1-2-sinflar uchun aloxida, 3-4-sinflar uchun alohida joy ajratiladi.

Ko'rgazmaga qo'yiladigan buyumlar o'quvchilar qo'llari bilan yasalgan buyumlardan tashkil topadi. Agar ko'rgazmalar tugri tashkil qilinsa, bunday ko'rgazmalarga ota-onalarni, keng jamoatchilikni, mexmonlarni xam taklif qilish mumkin. Ko'rgazmani olib borish, ishlar bilan tanishtirish uchun a'lochi, chaqqon, suzga chechan o'quvchilardan ekskursovodlar tanlab olinadi. Maktabning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda ko'rgazmalar uchun aloxida xonalar tashkil qilinsa. yig'ilgan buyumlar shu xonada uzoq muddat saqlanib turadi.

Ko'rgazma ishini baholash uchun hay'at a'zolari saylanadi. Ular ko'rgazma ishiga uzlarining fikr, muloxazalarini bildiradilar. Bugungi kunda mehnat tarbiyasini bolaga yosh davridan boshlab singdirib borish kerakligi ko'p marta aytilmoqda. Chunki bola kichik yoshidanoq mehnatga ijobiy munosabatda bo'lsa, u kelg) sida uz kasbini sevadigan, uzgalar kasbining maxsulining kadriga etadigan bo'ladi. Shuning uchun ayniqsa boshlangach sinf mehnat ta'limi darslarida ommaiy mashg'ulotlarning yana bir turi uchrashuvlar o'tkazishning ham samarasi kattadir. Mustaqilliqdan keyin qadriyatlarimiz qayta tiklanib, unitilib borilayotgan xalq hunarmandchiligi turlari keng miqyosda rivojlantirilmokda. Viloyatimizning har bir joyida hozirgi kunda bu sohada mehnat qilayotgan kishilarni uchratish mumkin. Aynan shu ilg'or kasb egalari bilan uchrashuvlar o'quvchilar hayotida muxim axamiyat kasb etadi. O'quvchilar mehnat o'qituvchisi, rahbar o'qituvchisi yordamida uchrashuvlarga yaxpsh tayyorgarlik kurishlari kerak. Chunki uchrashuvga taklif qilinadigan xar bir ilg'or kasb egasiga beriladigan savollar maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Kechalar. Uchrashuvlar uyushtirganda taklif qilingan mexmonlarga o'quvchilar o'z qo'llari bilan tayyorlagan turli xil

buyumlarni sovga qilish mumkin. Bunday ommaviy mashg'ulotlarfaqat o'quvchilarga ijobiy ta'sir qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining sinfdan tashqari ishlar (to'garak) ishlar rejasi qanday tuziladi?
2. Texnik to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish usullari qanday amalga oshiriladi?
3. Texnologiya fanidan qanday to'garaklar mavjud? Misollar keltiring.
4. Ommaviy tadbirlar kim tomonidan amalga oshiriladi?
5. Ko'rgazmali ishlarga qo'yiladigan pedagogik talablar qanday?

6.7. Texnologiya fanida yo'nalishlar bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.

“Sers xizmati yo'nalishi bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari”

Mehnat ta'limi “Servis xizmati” yo'nalishi texnik-texnologik ta'minotini bo'yicha har bir o'quv ustaxonasi kamida 25 ish o'rniga mo'ljallangan bo'lishi zarur.

Texnologiya ta'limi “Servis xizmati” yo'nalishi texnik-texnologik ta'minotini asosida elektr blokirovka qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.


Tikuvchilik dastgohlari himoya qiluvchi to'rlar, alohida o'rindiq va asboblarning xiliga ega bo'lgan planshet bilan ta'minlanishi kerak. Tikuv mashinalarining va boshqa asbob-uskunalarining o'quvchilar uchun ish vaqtida xavfli bo'lgan qismlari himoya jihozlari bilan to'sib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Maktab tikuvchilik ustaxonasida tikuv mashinalarining sanoatimiz hozir ishlab chiqarayotgan hamma nusxalari bo'lishiga mumkin qadar harakat qilishi lozim, bu shuning uchun zarurki, o'quvchi qizlarimiz faqat hamma xil tikuv mashinalari bilan tikishni o'rganibgina qolmay, balki u mashinalarni sozlashni, yengil-yelpi buzilib qolganda tuzatishni, ularga qarab turishni ham o'rganib

olsinlar. Tikuvchilik ustaxonalarining tashkil etilishi va rejalashtirilishi, turli uskunalar miqdori, xonaning sathi yengil sanoat va maishiy xizmat ko'rsatish

korxonalar uchun qanday ixtisosdagi (erkaklar va o‘g‘il bolalar kostyumi, erkaklar va o‘g‘il bolalar paltosi, ayollar va qizlar kostyumi, ayollar va qizlar paltosi, ayollar va qizlar ko‘ylagi va h. k. tikadigan) tikuvchilar tayyorlanishiga bog‘liq bo‘ladi¹. Qo‘l mehnatining ulushi kamroq bo‘lgan, ishlab chiqarish ixtisoslashtiriladigan ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg‘or shakllari zamonaviy uskunalar joriy etiladigan ommaviy tarzda kiyim tikuvchi korxonalar uchun ishchilar tayyorlash kasb-hunar kollejlarda o‘quv ustaxonalarini hisoblab chiqishni va ularni joylashtirishni fabrikalarning ishlab chiqarish tsexlari qiyofasiga va turlariga yaqinlashtiradi, lekin bunda o‘quv maqsadlarini ham - masalan, mashq ishlarini o‘rganish, ixtisos egallash, mehnat taqsimoti masalalarini o‘rganish va h. k. davrlardagi maqsadlar ham hisobga olinadi.

Tikuvchilik sanoatida asosan to‘g‘ri burchak shaklidagi ish o‘rinlari qo‘llanib, ularning o‘lchamlari ularga o‘rnatiladigan uskunalar gabaritiga va ishlov beriladigan buyum gabaritiga bog‘liq bo‘ladi.



Qo‘l ishlari va namlab isitib ishlov berish uchun o‘quvchining ish o‘rni

1-stol qopqog‘i, 2-dazmollash uchun yordamchi ko‘tarma taxta, 3-asboblar yashigi, 4-yashikning ko‘arma qopqog‘i, 5-dazmol taglik, 6-dazmol, 7-purkagich, 8-dazmol taxta qoliplari yashigi, 9-hujjatlar (kundalik darsliklar) yashigi, 10- chizg‘ich, 11-burchak taxta, 12-chizg‘ich, burchak taxta, kronshteyn(ilgich) tokchasi, 13-ignalar yostiqchasi, 14-g‘altaklar uchun qaytarma uzakli kronshteyn, 15-bo‘r yashik, 16-chiqindilar yashigi.

Universal ish o‘rinlaridan tashqari ustaxonada butun guruhdagi o‘quvchilar ixtisosiga muvofiq foydalanadigan maxsus mashinalar o‘rnatiladi. Tikuvchilik korxonalarida ish o‘rinlari har xil stollar orasidagi joydan ham foydalaniladigan qilib ko‘ndalangiga, burchak qilib, uzunasiga va ixtiyoriy joylashtiriladi.

Dasmda dazmollash o‘rni bilan birga qo‘l ishlari o‘rni ko‘rsatilgan. Ishlab chiqarish ta‘limi ustasining ish o‘rni ish usullarini, operatsiyalar bajarilishini, ko‘rgazmali qurollarni namoyish qilish, o‘quvchilar ishini kuzatish qulay bo‘ladigan qilib tashkil etilishi kerak. Usta ish o‘rnining old tomonida yo‘l-yo‘riq berayotganda o‘quvchilar turadigan bo‘sh zona bo‘lishi kerak.

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari

“Texnologiya va dizayn” yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, o‘quvchi-talabalar ushbu yo‘nalishda o‘quv ustaxonalarining holati, ustaxonalardagi dastgohlarning tuzilishi, ulardagi ish jarayonlarini kuzatadilar va amaliy mashg‘ulotlarda batafsil bajarib borishadi. O‘quv ustaxonalarida asosan lesarlik, duradgorlik va boshqa soha, kasbga xos dastgohlari turli ishlash operatsiyalarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradigan va mustahkam joylashtirilgan ish konstruksiyalaridan iborat bo‘lishi lozim. Masalan, bir o‘rinili slesarlik dastgohi 800-850mm (duradgorlik dastgohi 750-780mm) balandlikda o‘rnatilishi va u yog‘ochdan yoki metallardan tayyorlanishi lozim. Dastgoh o‘rnatiladigan stol taxtadan ishlanadi, ustiga qalinligi 1,5-2,0mm qalinlikdagi po‘lat tunuka qoplanadi va perimetri bo‘yicha 25x 25 mm li burchak qilib qoplanadi, dastgoh qulay o‘rindiqa ega bo‘lishi, undan o‘quvchi instruktajlar va dam olishi vaqtida foydalanishi, yozuvlar, eskizlar tuzish uchun esa unda suruluvchi planshet ham bo‘lishi lozim. Dastgoh stolida aylanuvchi qurilmaga ega bo‘lgan parallel slesarlik tiskilari mustahkamlangan bo‘lishi zarur. Ish va kontrol o‘lchov asboblari dastgohining aniq joyida turishi lozim. Ish vaqtida o‘ng qo‘l bilan olinadigan asboblari (bolg‘a, egov, dastarra, metall qirqadigan qaychi va

hokazolar) tiskilarning o'ng tomonda muayyan tartibda joydashishi kerak. Ulardan chap qo'l bilan olinadiganlari chap tomonda turadi.

O'quv ustahonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish mehnat va kasb ta'limini chorakka, yarim yilga mo'ljallab rejalashtirish va usta, o'qituvchining mashg'ulotga aniq tayyorgarlik ko'rishidan boshlanadi³. O'qituvchi, usta kalendar mavzu rejasi, o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati va yig'ma mavzu reja asosida darsning reja va konspektini tuzadi. Darsda takrorlash uchun savollarni va fanlararo aloqalarni belgilaydi, o'quvchilar tayyorlaydigan mehnat ob'yektining namunasini hozirlaydi, bunda o'z mehnat va hunar usullarini takomillashtirish maqsadida mashq qilib oladi, zagatovkalar, asboblar va moslamalarni darsga tayyorlaydi, asbob-uskunalarining ishga yaroqli ekanligini tekshiradi, texnologiya hujjatlarini hozirlaydi va mashg'ulotni o'tkazish metodikasini o'ylab ko'radi.

Mashg'ulotning metodik tomoni mazkur mashg'ulotning tashkiliy shaklini (dars, amaliy laboratoriya ishi, ekskursiya yoki kino darsi, o'quvchilarning ishini frontal yoki zveno tarzida tashkil qilish) aniqlab olishdan bo'lishi kerak.

Har bir o'quvchining alohida dastgohi, asboblar komplekti bo'lishi kerak. Mashg'ulotlarda bu ish o'rnidan va asbobdan shu o'quvchining o'zigina foydalanishi lozim. Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin o'quvchi navbatchidan ish joyini va mavjud asboblarni qabul qilib olishi, dars tamom bo'lganda esa xuddi shu holatda navbatchiga topshirishi kerak.

Ustaxonalarda ish joylarning aniq tashkil etilishi, o'quvchilarning ichki tartib qoidalarini o'z vaqtida bajarishi ularda yuksak mehnat madaniyati malakalarini hamda jamoat mulkini saqlash uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashga yordam beradi.

O'quv ustahonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish mehnat va kasb ta'limini chorakka, yarim yilga mo'ljallab rejalashtirish va usta, o'qituvchining mashg'ulotga aniq tayyorgarlik ko'rishidan boshlanadi. O'qituvchi, usta kalendar mavzu rejasi, o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati va yig'ma-mavzu reja asosida darsning reja va konspektini tuzadi. Darsda takrorlash uchun

savollarni va fanlararo aloqalarni belgilaydi, o'quvchilar tayyorlaydigan mehnat ob'yektining namunasini hozirlaydi, bunda o'z mehnat va hunar usullarini takomillashtirish maqsadida mashq qilib oladi, zagatovkalar, asboblar va moslamalarni darsga tayyorlaydi, asbob-uskunalarining ishga yaroqli ekanligini tekshiradi, texnologiya hujjatlarini hozirlaydi va mashg'ulotni o'tkazish metodikasini o'ylab ko'radi.

Mehnat ta'limi darslarida texnik-texnologik ta'minotining tavsifi

Tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, ishga ijodiy munosabatda bo'ladigan eng tajribali, ilg'or va faol mehnat ta'limi o'qituvchilaridan o'quv ustaxonalarining ustalari tayinlanadi. O'quv ustaxonalari ustasi maktab direktorining tavsiyasi bilan tuman xalq ta'limi bo'limining mudiri tomonidan tayinlanadi. Uning ish mazmuniga quyidagilar kiradi va u:

1. O'quv ustaxonalarida to'laqonli ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish uchun normal shart-sharoitlar yaratadi.

2. O'quv ustaxonalarini zarur asbob-uskunalar va materiallar bilan ta'minlaydi.

3. Ustaxonalarining o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtiradi, buning uchun:

a) o'z maktabining, baza korxonasining, otaliqdagi bolalar bog'chasining buyurtmalarini oladi va ularni tahlil qiladi;

b) buyurtmalarning bajarilish muddatini belgilaydi;

v) buyurtmalarning murakkabligiga qarab, ularni sinflarga taqsimlaydi;

g) mehnat ta'limi o'qituvchilari va usta bilan birgalikda sinflar (guruhlar) bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatini va calendar-mavzu rejalar tuzib chiqadi, agar zarur bo'lib qolsa, tayyorlanishi lozim bo'lgan buyumlar, chizmalar va instrksiya-texnologiya kartalariga xilma-xil moslamalar va texnologik qurilmasini ishlab chiqadi va tayyorlaydi.

4. Texnologiya fani o'qituvchilarining metodik birlashmasiga boshchilik qiladi va ularga darslarning rejalarini, konspektlarini tuzishda hamda mashg'ulotlar o'tkazisda tashkiliy-metodik yordam ko'rsatadi.

5. O'qituvchilarning o'zaro bir-birlarining darslariga kirishini kuzatish natijalarini muhokama qilishini uyushtiradi, mehnat ta'limi o'qituvchilarining pedagogik o'qishlariga ma'ruzalar tayyorlashda yordam beradi.

6. Texnologiya fani bo'yicha metodik seminarlar tashkil etadi va ularni o'tkazishga rahbarlik qiladi.

7. O'quv ustaxonalarida xavf-xatarsiz mehnat qilish sharoitini ta'minlaydi. Buning uchun texnologiya fani o'qituvchilarining xavfsizlik texnikasi qoidalariga, sanoat sanitariyasi va yong'inga qarshi tadbirlarga qat'iy rioya qilishini tekshiradi va talab etadi.

8. Baza korxonasi bilan mustahkam aloqa o'rnatadi, korxonalariga ekskursiyalar tashkil etadi va maktab o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llash tadbirlarini o'tkazish uchun maktabga ishlab chiqarish ilg'orlarini taklif qiladi.

9. Usta va texnologiya fani o'qituvchilari bilan birgalikda o'quvchilarning eng yaxshi ishlari ko'rgazmasini tashkil qiladi va o'quvchilarning texnikaviy ijodkorligi bo'yicha to'garak ishiga rahbarlik qilishga shaxsan ishtirok etadi.

10. O'quv yilining oxirida o'quvchilarning ishlab chiqarish praktikasini tashkil etishda faol qatnashadi. Maktab, Kasb-hunar va Akademik litsey direksiyasi bilan birgalikda ishlab chiqarish praktikasining xarakteri va mazmunini belgilab chiqadi.

11. O'quv ustaxonalarining asbob-uskunalari va moslamalarini profilaktika qilish va joriy remont ishlarida bevosita ishtirok etadi, shu maqsadda mashg'ulotda bo'sh vaqtlarda bu ishga texnologiya fani o'qituvchilarini va yuqori sinf o'quvchilarini jalb etadi.

12. Pedagoglar sovetida o'quv ustaxonalari ishi to'g'risida hisobot beradi, mavjud kamchiliklarni yo'qotish choralarini ko'radi, ustaxonalar ishini takomillashtirish va yaxshilash tadbirlarini belgilaydi.

O'quv ustaxonalari binosiga va asbob uskunalarni joylashtirishga oid talablar, qo'shimcha ta'lim muassasalari va maktablarning yangi mazmunda ta'lim

berishga o'tishi faqat ta'lim darajasini va sifatini oshirishnigina emas, balki umuman maktablarning xususan qo'shimcha ta'lim muassasalari va o'quv

ustaxonalarining mehnat va kasb ta'lim uchun moddiy-texnika bazasini tubdan yaxshilashni ob'yektiv ravishda zarurat qilib qo'ydi.

“Qishloq xo‘jaligi asoslari” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitishning o‘ziga xosligi

O‘quvchilarni moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari bo‘lgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan tanishtiradi. Bu kursni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda qo‘yidagilar haqida tushuncha va boshlang‘ich kasbiy ish harakat usullarini tarkib topishi ko‘zda tutiladi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyati va sohalari. Dehqonchilik va chorvachilikni bir-biriga uyg‘un holda rivojlantirish istiqboli hamda zaruriyati. Bir, ikki va ko‘p yillik ekinlarni yetishtirish-agronomiya asoslari; qishloq xo‘jalik mexanizasiyalash, kimyolashtirish, elektrlashtirish, meliorasiyalash va avtomatlashtirish asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish, tashkil etish, bajarilgan ishlar yoki yetishtirilgan maxsulot sifatini tekshirish, ilg‘or texnologiya va iqtisodiy masalalar, madaniy ekinlarning kelib chiqishi, tarqalishi, ekinlarni o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shartsharoitlar.

Yerning tuzilishi, holati va unumdorligi: Yerga ishlov berish va alamashlab ekishning ahamiyati hamda unda qo‘llanadigan qurollar, moslama va mashinalarning umumiy tuzilishi, ishlash tartibi va ularga qo‘yilgan agrotexnik talablar: yer unumdorligi va ekin hosildorligini oshirishda o‘g‘itlarning roli. O‘g‘it turlari, o‘g‘itlash muddati, me‘yori va unda ishlatiladigan mashinalar. Hosildorlikka urug‘lik materialining ta’siri. Urug‘ va ko‘chat ekish muddati, me‘yori va usullari. Urug‘ va ko‘chat ekish mashinalariga qo‘yilgan agrotexnik talablar, ularning umumiy tuzilishi, ishlash tartibi va ish rejimiga rostdash ishlari. Urug‘larni tekis undirib olish chora-tadbirlari. Ekinlarni qator oralig‘iga ishlov berish, sug‘orish va himoya qilish ishlarining ahamiyati hamda bu ishlarda qo‘llaniladigan qurollar, moslamalar va mashinalarning tuzilish, ishlashi va ularga qo‘yilgan agrotexnik talablar. G‘alla, don, dukkakli, tuganakli va ildizmeva, sabzavot, poliz, meva, moyli va tolali ziravor ekinlar yetishtirishning ahamiyati va

unda ishlatiladigan qurollar va mashinalar majmuasi. Yopiq joylarda (issiqxonalarda) va teplisalarda hosil yetishtirishning ahamiyati, istiqboli, o'ziga xos xususiyatlari va ularda ishlatiladigan kichik o'lchamli mashinalar. Yetishtirilgan hosilni yig'ib-terib olish birlamchi ishlov berish va saqlash qoida hamda chora-tadbirlari.

Chorva mollarining kelib chiqishi, xonakilashtirishi va tarqalishi, chorvachilik biologiyasi va tarmoqlari (qoramolchilik, quychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, quyonchilik, chuchqachilik, muynachilik va hokazo); chorvachilikda naslchilik va seleksiya asoslari. Chorvachilikni mexanizasiyalash, avtomatlashtirish va maxsuldorligini oshirish usul va vositalari. Chorva mollarini boqish, oziq birligi, ozuqabop ekinlar.

Chorvachilikda sanitariya-gigiyena, zootexnika, zooveterinariya asoslari. Inkubator-parrandachilik majmualari. Qishloq xo'jalik korxonalarini xususiylashtirish, kichik korxonalar barpo etish, ilg'or texnologiyani joriy etish istiqbollari va ularni iqtisodiy masalalari. Mehnatni ilmiy tashkil qiluvchi ommaviy kasb-hunar sohiblari, ularning o'rni, vazifalari, ishlash shart-sharoitlari va sulolalari. Texnologiya fanining yuqorida ko'rib o'tilgan an'anaviy ko'rinishi ancha ulkan va keng ko'lamda bo'lganligi bilan birgalikda, xalqning milliy, mahalliy, etnik, tarixiy xususiyatlarini, yoshlarni kasb-hunarlariga yo'naltirishning mintaqaviy xususiyatlarini, ijodkorlik san'atini to'liq ifodalamaydi. Bundan tashqari, boshqa fanlardan farqli o'laroq, texnologiya ta'limida o'quvchilarning jinsiy xususiyatlari, ya'ni, o'g'il va qiz bolalar mehnati mazmunan ham, shaklan ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Texnologiya ta'limining an'anaviy ko'rinishidagi "texnik mehnat", "maishiy xizmat ko'rsatish mehnati" deb nomlangan, ilmiy asoslanmagan, qolaversa, mutlaqo mavhum, tushunarsiz atamalar, galiz jumlar bu ta'limning yanada aniq maqsadsiz tashkil etilishiga olib keladi. Texnologiya fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, xalqning mehnat faoliyatining milliy, ma'naviy, madaniy, tarixiy, etnik xususiyatlarini ifodalaydigan xalk hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishni ham mustaqil yo'nalish sifatida kiritishni lozim deb topildi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Servis xizmati" yo'nalishida o'quvchi- talabalar qanday bilimlarga ega bo'ladilar?
2. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishida ish o'rni qanday tashkil qilinadi?
3. "Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishi mazmunini tushuntiring.

6.8. Texnologiya fanida ta'til kunlarida mehnat amaliyotini tashkil etish.

O'quv rejasi bo'yicha mehnat amaliyoti-yozgi ta'tilni qisqartirish evaziga quyidagicha muddatlarda tashkil etiladi: 5-6-sinflarda 10 kun, 7-8 sinflarda 16 kun, 9-10 sinflarda 21 kun.

Ushbu muddatlarni tegishli 12, 18, 24 kunlarga uzaytirish zarur, chunki, amaliyot muddatlari taqvim haftalariga mos ravishda 2, 3, 4 hafta qilib belgilanadi.

1998 yilda taklif etilgan Tajriba-sinov o'quv rejalariga muvofiq O'zbekistonning qishloq joylardagi maktab o'quvchilari mehnati mavsumiyliги, yakka tartibdaligi, qo'l mehnatini kup talab etishi va iqlimiy o'ziga xosligi bilan xalq xo'jaligining boshqa sohalaridan farq qiladi. Mehnat amaliyoti mazmuni uslubiy-pedagogik, psixologik jihatdan takomillashtirishni talab etadi. o'quvchilar mehnat amaliyoti nazariy va metodik masalalarning turli yillarda pedagogik olimlar rivojlantirib takomillashtirdilar.

Xalq hunarmandchiligi buyicha tashkil etiladigan mehnat amaliyotini tashkil etishda uchraydigan ziddiyatlari, muammolari quyidagilardir:

1. Mehnat topshiriqlarning milliy ruhdaligi va murakkabligi bilan o'quvchilarda shakllantirilayotgan ishlab chiqarish, maxsus kuniuma va malakalarining mahorat darajasi an'anaviy, zamonaviy, ekanligi o'rtasida.

2. O'quvchilarda xalq hunarmandchiligi bo'yicha kasb-hunarlarini egallashga xoxishlari, istaklari va bu sohalarining umumta'lim maktablarida urgatilmasligi va bu sohalarining keng tarqalganligi o'rtasida.

3. Mehnat amaliyotini o'tkazish mobaynidagi turli xil tashkiliy, pedagogik, psixologik, uslubiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarining bajarilishi bilan amaliyot rahbarlarining bu sohani boshqarishga kasbiy mahorat jihatidan tayyorgarlikning qoniqarsiz ekanligi o'rtasida.

4. Xalq hunarmandchiligi sohalarining ko'pchiligi qo'l mehnatiga asoslanganligi bilan, o'quvchilarga doimiy ish o'rinlarining asoslanganligi bilan, o'quvchilarga doimiy ish o'rinlarining yetishavermasligi o'rtasida¹.

Mehnat amaliyoti asosan, 3 bosqichda tashkil etiladi:

1-bosqich. Tayyorgarlik jarayoni.

2-bosqich. Asosiy davr-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish.

3-bosqich. Yakuniy.

Tayyorgarlik davrida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Amaliyot o'tkaziladigan ob'yektlar – davlat, xususiy, qo'shma, shaxsiy korxonalar tanlanadi va rasmiylashtiriladi; kirish, mehnat xavfsizligi yo'l-yo'riqlari o'tkaziladi. Texnika, elektr, yong'in, suv, gaz xavfsizligi qoidalarini o'rganiladi, sanitariya-gigiyena qoidalarini bilan tanishiladi.

Mehnat amaliyoti dasturi tuziladi, ushbu tadbir amaliyotning asosiy hujjati bo'lib, u quyidagi qismlardan iborat:

- 1) umumiy qoidalar;
- 2) amaliyotning maqsadi va vazifalari;
- 3) bajariladigan ishlarning turlari va mazmuni,;
- 4) o'quvchi ishchi guruhlarining korxonada ishlab chiqarish bo'limlari bo'ylab harkatlanish chizma-grafigi'
- 5) amaliyotchilarni yakka tartibdagi ishlab chiqarish jamoat topshiriqlarining mavzulari rejasi,;
- 6) xo'jalik yuritishning ilg'or usullari bilan xalq hunarmandchiligi ustalarining ilg'or ish tajribalari bilan tanishishning mavzuli rejasi;
- 7) amaliyot davrida o'tkaziladigan ishlab chiqarish sayoxatlarining maqsad va vazifalari, ob'yektlarini belgilash;

8) amaliyot davrida foydalaniladigan o'quv, uslubiy, pedagogik, psixologik, texnikaviy, texnologik, ilmiy-ommabop adabiyotlar, tavsiyanomalar, tezkor va yo'llanma hujjatlar va xaritalarning turlari va xillarini tanlash, saralash;

9) amaliyot davrida amalga oshiriladigan pedagogik nazoratning rejalashtirilishi;

10) hisobotga qo'yiladigan talablar ishlab chiqiladi.

Amaliyotni o'quvchilarning yosh, aqliy, individual, psixofiziologik, maxalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'yidagi kovrinishlarda tashkil etish tavsiya etiladi:

1. o'quvchilar mehnat uyushmasi tarkibida;
2. Qishloq-guruh shaklida;
3. Korxonada katta ishlab chiqarish brigadasi tarkibida o'quvchilar guruhi shaklida;
4. Oilaviy, hunarmand-shogirdlik ko'rinishida.

Mehnat amaliyotining asosiy davrida, ya'ni ishlab chiqarish, topshiriqlarni bajarish bosqichida o'quvchilar korxonasining mazkur bo'limidagi turli maxsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan, turli xil texnika vositalari bilan, mexanizmlar, jihozlar, asboblari, moslamalar va qurilmalar bilan tanishadilar. Turli xil mehnat qurollari bilan munosabatda bo'lish jarayonida ularning tuzilishi, muhim va havfli sohalari, himoya vositalari bilan, yakka tartibdagi himoyalash vositalari bilan, maxsus ish kiyimlari, asbob-uskunalarini hamda materiallarni saqlash qoidalari bilan tanishadilar. Mehnat amaliyoti vaqtida quyidagi yo'l-yo'riqlar o'tkaziladi:

1. Kirish;
2. Joriy;
3. Xavfsizlik;
4. Yozma;
5. Yakuniy yo'l-yo'riqlar.

5-6-7-8 sinflarda yo‘nalishlar bo‘yicha mehnat amaliyotini tashkil etish

I. Kirish yo‘l-yo‘rig‘i mehnat topshiriqlarini bajarishda quyidagi izchillikda tashkil etiladi-o‘quvchilarni bajariladigan ishlar hajmi va miqdori bilan tanishtirish, bajarilayotgan mehnat topshiriqlarning va tayyorlanayotgan mahsulotlarning amaliyot o‘tkazilayotgan korxonada, xo‘jalik, tuman, viloyat va respublikaning iqtisodiy ahvolini rivojlantirishdagi ahamiyati; maktab o‘quv kurslari, texnologiya ta‘limining nazariy, amaliy va ishlab chiqarish darslarida shakllantiradigan umummehnat, maxsus va hunar ko‘nikma, malakalarining qaysi tur topshiriqlarini, ishlarni bajarishga zarurligi ta‘kidlanadi, aniqlashtiriladi. Masalan, zoologiya kursini o‘tishdagi “Sut emizuvchilar” (6-sinf), “Chorva hayvonlari” mavzusi va mehnat ta‘limining “Chorvachilik”, “Chorvachilik mahsulotlari” (7-8 sinf) mavzularidagi jun, ipak, tivitlarning gilamchilikda, tuquvchilikda, kashtachilikda, kunchilikda, poyabzal va egar-jabduklar tikishda qo‘llanilishini aytib o‘tiladi. Texnologiya fani kursining “Metallarga ishlov berish”, “Yog‘och bilan ishlash” kabi bo‘limlarini o‘rganishda hosil qilingan bilim, kunikma va malakalar xalq hunarmandchiligining metall va yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik, miskarlik, tunukasoqlik, sandiqsoqlik, beshiklar tayyorlash kabi sohalarida qo‘llanilishi aytib o‘tiladi.

Kirish yo‘l-yo‘riqlarida xo‘jalik yuritishning ilg‘or uslublari, mehnatni me‘yorlash, xo‘jalik hisobi, xalq hunarmandchiligining sohalarini mazmuni bilan tanishtiriladi.

Ushbu yo‘l-yo‘riq ishlab chiqarish va ta‘limiy yo‘nalishda berib boriladi. Ishlab chiqarishda amaliyotchilar bajarilayotgan mehnat topshiriqlarining mazmuni, mohiyati tushuntiriladi, korxonada tuzilishi, mavjud texnikalar va texnologik jarayon, xo‘jalik yuritish uslublarida yoritiladi. Ta‘limiy yo‘nalish esa umumli mehnat jarayonida qo‘l va mexanizatsiyalashtirilgan texnologiya ta‘limining asosiy omillaridan ekanligi, me‘yorlash, o‘quv rejalarining tarbiyaviy tomonlari, mehnat shaxsning xislatlari shakllantirishdagi roli ta‘kidlab o‘tiladi.

Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha o‘tkazilayotgan mehnat amaliyotida o‘quvchilar quyidagi texnologik yumushlar (operasiya)ni bajaradilar:

1. Turli xil materiallarni ishlov berishga tayyorlash-yog‘och materiallarni zaruriy ulchamlarda qirqish, tozalash, yaltiratish, kuzlarni yunish, materiallarni tekislash, gilamchilik uchun jun va paxtalardan iplar, arqonlar tayyorlash;

2. Zaruriy jihozlarni tayyorlab olish, masalan, gilamchilikda to‘quvchilar ish o‘rmini, qilich, urma, ayri, urchuk, qaychi va boshqalar; ganchkorlikda xavonchalar, andovalar, skalpel, pichoq, kosacha, suv va boshqalar;

3. Rejalash yoki belgilash - yog‘och uymakorligida zaruriy o‘lcham va shakllarni belgilab olish, shakllarni chizib olish, shaklli buyum qismlarini tayyorlashda (masalan, xontaxta, chorpoya, kursilar tayyorlashda shaklli oyoqchalar, ustunlar, ustki taxtalar ulchamini belgilab olishda);

4. Turli xil kesib ishlash operasialarini bajarish - yog‘och uymakorligida yog‘ochlarni uyish, metall uymakorligida metall plastinkalarni, zargarlikda sim va rangli metallarni, do‘ppichilik, choponlar va boshqa xil milliy kiyimlarni tikishda gazlamalarni, ipakchilikda iplarni, tunukasozlikda metall plastinkalarni va h.k.;

5. Biriktirish - egar-jabduklar tayyorlashda turli xil qismlarni, imoratsozlikda turli xil tusinlarni, yog‘och qismlarni sandiqsozlikda yog‘och metall qismlarni, pichoqchilikda pichoq asosini va dastalarini va h.k.;

6. Pardozlash - xalq hunarmandchiligida buyumlarni tayyorlashda yakuniy operasialardan hisoblanib, buyash, jilvirlash, tikish, o‘lchash, silliqlash kabilar yumushlarni qamrab oladi.

M: pichoqchilikda pichoqning metall asosi, qismlari korroziyaga chidamli moddalarga (xrom, nikel) qoplanadi, sandiqsozlikda sirlanadi va h.k.

II. Joriy yo‘l-yo‘riqlar amaliyotning asosiy davri - ish davrida amaliyot rahbari, murabbiylar, xalq ustalari, ishlab chiqarish ustalari, texnologiya fani o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Ushbu yo‘l-yo‘riqda o‘quvchi-amaliyotchilarning mehnat yumushlarini bajarishlari to‘g‘riligini, qo‘yilgan davlat talablariga mos kelishlari, asbob-uskunalardan to‘g‘ri foydalanishlarini kuzatib, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni yakka tartibda tuzatib boradilar.

O‘qituvchi yosh murabbiylar mehnat yumushlarini namoyish etish, tushuntirish uslubi orqali bu yo‘l-yo‘riqni olib boradilar.

III. Yozma yo‘l yo‘riqlar o‘quvchi-amaliyotchilarga ma’lum yumushlarni va buyumlarni tayyorlash uslublari ko‘rsatilgan, tariflangan smetalar, texnologik, operasion yo‘l-yo‘riq xaritalari, buyum eskizlari, chizmalari hamda suratlari bo‘lishi mumkin. Yozma yo‘l-yo‘riqlar ish mobaynida o‘quvchilarga, har bir kishiga yoki har bir guruh bitta tarqatma material sifatida berilishi mumkin. Ushbu yo‘l-yo‘riqlarda buyum o‘lchamlari, ularning qismlarini tayyorlash uslublari, zaruriy jihozlar, harajatlar miqdori ko‘rsatilishi mumkin.

IV. Mehnat xavfsizligi yo‘l-yo‘riqlari barcha ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llaniladigan asosiy tadbirlardan hisoblanib, butun amaliyot davomida yoki yakuniy qismlarida o‘tkaziladi. Xavfsizlik yo‘l-yo‘riqlari ishchining xayotini, sog‘ligini, ish qobiliyatini saqlab qolish, mehnatni ilmiy tashkil etish, ishchi hunarmandlar sarflayotgan materiallarni tejash maqsadida va ishlatilayotgan asbob-uskunalarining foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida, mehnat jaraxatlanishi oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

Xavfsizlik yo‘l-yo‘riqlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Mehnat qonunchiligi - mazkur korxonada ishlagan ishchining huquqiy burch va vazifalari, ta‘minlanishi, dam olishi, maoshlari va nogironlik ta‘minoti miqdorini aniqlashtirish, mehnatni ilmiy tashkil etish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Bolalar va qizlar mehnati, iqlimiy, mavsumiy ta‘sirlar, ximiyaviy ta‘sirlar, mehnatga haq to‘lash, ish me‘yorlarini belgilash va boshqalar qator yillardan buyon hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

2. Elektr xavfsizligi turli xil elektrlashtirilgan asboblari yoki mexanizasiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalar bilan ishlaganda rioya qilinadigan qoidalardir. Bu holda mehnat jarohatlanishlari eng ko‘p kutiladigan xavfli holatlar yuzaga keladi.

3. Gaz xavfsizligi - turli xil gazli payvand ishlarini olib borishda, tabiiy gazdan (yoqilg‘i) foydalanishda, gaz bilan yuradigan transport vositalarini gaz bilan ta‘minlashda, yurishda va boshqa xollarda rioya qilinadigan zaruriy hollardir.

4. Yong'in xavfsizligi - ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, jamoat binolarida yong'in chiqishining oldini olishdir. Turli chiqindilar, tez yonadigan vositalardan madaniyatli foydalanish qoidalarini o'rgatish nazarda tutiladi.

5. Suv xavfsizligi - amaliyotchilarning dam olish paytlarida oqar suv xavzalaridan foydalanish va cho'milishlari, oilada, korxonada ichimlik suvlarini tejash, isrof qilmaslik qoidalaridir.

6. Texnika xavfsizligi - ishlab chiqarish jarayonida turli xil texnika, transport, stanoklar mexanizasiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalardan tejimli foydalanish qoidalarini o'rganish hisoblanadi.

7. Sanitariya-gigiyena qoidalari - mehnatni ilmiy tashkil etishning muhim qismi bo'lib, ishchilarning ish o'rinlari tozaligi, yorug'ligi, havosi, zaruriy binolar bilan ta'minlanishi, changlarning, turli chiqindilarning ishchilar salomatligiga va mehnat samaradorligiga zarar yetkazmasdan tozalab turishiga doir qoidalardir. Yuvinish, ovqatlanish, uxlash, dam olish, o'qish, sport bilan shug'ullanish joylarining sanitariya-gigiyena qoidalariga ko'ra tashkil etilishi mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Xavfsizlik qoidalari amaliyot boshlanishidan oldin tayyorgarlik davrida 12 soatlik o'quv dasturini o'rganish sifatida amalga oshiriladi.

V. Yakuniy yo'l-yo'riqlar - amaliyotning asosiy ish davrida har bir ish navbati tugagach, har bir 5, 10 kunlik (xaftalik) yakunida va butun amaliyot yakunida o'tkaziladi. Ushbu yul-yo'riqlar davomida murabbiy yoki o'qituvchi (amaliyot rahbari) tayyorlangan buyumlar sifatini yoki bajarilgan mehnat yumushlari to'g'riligini tekshiradi. Xavfsizlik qoidalarining bajarilishini, mehnat nizomiga rioya qilinishini tekshiradi muhokama qiladi, ish bosqichlari natijalariga yakun yasaladi, yutuqlar rag'batlantiriladi, xato va kamchiliklar ko'rsatib o'tilib, tuzatish yo'llari aytiladi. Mehnat, jamoat, o'quv topshiriqlarining bajarilishi darajasi muhokama qilinadi.

O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etilayotgan mehnat amaliyotida pedagogik nazoratni tashkil etish, o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida xalq hunarmandchiligi bo'yicha mehnat amaliyotini o'tkazishda, tashkil etishda rahbarlik asosiy o'rinlarni egallaydi.

Amaliyotga rahbarlik maktab direktori, direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkilotchisi, mehnat ta'limi o'qituvchisi, amaliyot o'tkaziladigan korxonaning yetakchi mutaxassisi, korxonadan amaliyotga rahbarlik sifatida tayinlangan mutaxassislar, murabbiylar (pedagogik, psixologik, uslubiy bolalar bilan ishlashga ilg'or ishchilar) hamda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan olib boriladi.

Amaliyot rahbarlaridan maktab va korxonada rahbarlari amaliyotchilari uchun nazariy mashg'ulotlarni (mehnat xavfsizligi qoidalari, umumiy axborotlar, korxonaning ishlab chiqarish rejalari to'g'risida) olib borsalar, amaliy va ishlab chiqarish mashg'ulotlarini esa murabbiylar va ustalar bajaradilar. Amaliyot rahbarlarining majburiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularning faoliyati juda xilma-xil va kasbiy mahorat tayyorgarligi ko'p qirrali bo'lishi zarurdir. Rahbarlar pedagogik, ma'muriy, uslubiy, psixologik, texnikaviy-texnologik, moliyaviy-ho'jalik, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari va huquqiy, iqtisodiy, aholi o'sishi bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni bilishlari, amaliy, maxsus, umummehnat ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Amaliyotga rahbarlik daromadli korxonada ishlab chiqarish, umumli mehnat sharoitida, xalq xo'jalik rejalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh, bozorbop mahsulotlar yetishtirish, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini amaliyotga qo'llash sharoitida olib boriladi.

Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning quyidagi qator didaktik afzalliklari mavjud:

- a) Shaklan va mazmunan xilma-xil faoliyat turlarini qamrab oladi;
- b) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqotlarida deyarli to'liq mustaqilliklarini ta'minlaydi;

v) Vaqt taqsimlanishida o'quv-dars tizimi kabi ma'lum majburiy qolip asosida emas, o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishlari, ko'nikmalarni shakllantirishlari va malakalarni rivojlantirilishiga qarab ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Nazorat ushun savollar:

1. Texnologiya fanida amalitoni tashkil etish tartibi qanday?
2. Mehnat amaliyoti necha bosqichda amalga oshiriladi?
3. Amaliyot davrida qanaqa yo'l-yo'riqlar o'tkaziladi?
4. Xavfsizlik yo'l yo'riqlarini tushuntiring.

6.9. Texnologiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishidir. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'qituvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi ma'suliyatini yanada oshiradi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogic va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishi kerak.

Shuning uchun ham, pedagoglarning malakasini oshirishda **texnologiya o'qituvchisining oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:**

- o'qitish jarayoninig samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish;
- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash masalalari asosiy deb belgilanadi.

O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruxiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlilik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, usul, metod va texnologiya tushunchalarining farqlay olishlari, "Aqliy hujum", "Tarmoqlar" (Klaster) "Assesment" metodlari, "Bumerang", "Skarabey", "Charxpalak", "Rezyume" "Keys-stadi" va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axbortni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublar, innovatsion

texnologiyalarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun o'qituvchi bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Buning uchun u darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umum e'tiborli va ma'naviy qishiqishga moliq jarayonga aylanadi. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli demokratik davlat talabiga javob beradigan barkamol jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir. Kasbiy faoliyatda texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish orqali inson hayotga, shaxs tarbiyasiga, ijimoiy munosabatlar rivojlanishga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi kasbiy kompetentligini shakllantirishda esa ta'limni taraqqiy ettirishning ishlab chiqilgan kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning modeli - ta'lim va ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik hamda muammoli vaziyatlarning muvaffaqiyati hal etilishini ta'minlovchi, motivatsion xislatlar, intellektual salohiyat, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, hissiy sifatlar, o'z-o'zini boshqara olish sifatlarini ta'riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o'z-o'zini rivojlantirishda aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Texnologiya fanining o'ziga xosligi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning umummehnat va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, kasbiy moyillikka ko'ra kasb hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan hislatlarini, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, halq xo'jaligining turli sohalari, ularda ishlatiladigan texnika va texnologiya to'g'risida bilimlar berish, mehnat faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishga imkon yaratish. Texnologiya fanining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan yana biri-bu fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarning asosiy qismini amaliy va ishlab chiqarish mazmuniga ega ekanligidadir. O'sib kelatgan yosh avlodning o'qitish va tarbiyalashda eng asosiy ta'sirni o'qituvchi ko'rsatar ekan, o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganligi, o'quv va tarbiya jarayonini boshqarishda namoyon bo'ladi. O'quvchilarni to'g'ri tarbiya va bilim olishi, ularning baholari yaxshi bo'lishi bog'liq. Boshlang'ich va professional kompetentnostning o'rni nafaqat pedagog va uning o'quvchilari hayotida katta o'rin olgan. Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligi haqida birorta aniq ta'rif keltirilmagan. Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash Davlat ta'lim standartlari mutaxassislarini tayyorlash va sifatini nazorat qilish mexanizmi vazifasini o'taydi. Davlat ta'lim standartida mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasiga nisbatan belgilangan talablar ahamiyatiga ko'ra asosiy va ta'minlovchi talablar guruhlariga ajratiladi.

Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan *competentia*-birgalikda erishaman, to'g'ri qilaman) lug'atlarda-bir nima haqida fikr yuritishga imkoniyat beradigan bilimlarga ega bo'lish ma'nosida tavsiyalanadi².

Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetentligi kategoriyalarini tushunish uchun pedagogik madaniyat tushunchasidan foydalanib, o'qituvchining kasbiy faoliyati, faoliyatini bajarish bo'yicha pedagogik tizim tushuniladi va u pedagogik masalalarni xal etishga qaratilgan, aniq usullarni topish, hal etilishi lozim bo'lgan murakkab vaziyatlarga nisbatan o'zining imkoniyatlarini to'g'ri baholash va aniq natijaga erishish zaruriyatidir.

Kasbiy-pedagogik kompetentning rivojlanishi - bu ijodiy rivojlanish, pedagog atrofda o'zgarishlarga tez moslasha olish va boshqarish, tez kirishish qobiliyati, jarayonning sotsial - ekonomik va ma'naviy rivojlanishi pedagogning kasbiy darajasiga bog'liq. Ma'lumotlarning zamonaviy tizimida bo'lgan o'zgarishlar, o'qituvchining malaka oshirishga va o'zining kasbiy kobiliyatlarini oshirishga majbur qiladi, bu degani o'zining kasbiy kompetentini oshirishga majburligidir. Zamonaviy ma'lumotning asosiy maqsadi jamiyatning, davlatning, shaxsning zamonaviy tarbiyalarga mos bo'lishi, xar tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash. O'qituvchining kompetentligini tekshirish usullaridan biri-bu attestatsiya. Attestatsiyaning maqsadi o'qituvchining o'ziga mos kasbiy kompetentligini darajasini va o'qituvchining barcha faoliyatining tomonlarini tekshirishdan ibrat. Ushbu fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak o'qituvchining kasbiy kompetentligi kub darajasini birinchi o'rinda ma'lumot, ikkinchi o'rinda boshqarish deb olsak bo'ladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisini kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirishda pedagogik hamda texnik-texnologik muammoli vaziyatni pedagogik jarayonni hosil qilishga imkon beruvchi, sharoitlarning to'plami sifatida qayd etiladi. Pedagogik sharoitlar mazkur jarayonni yuzaga keltiribgina qolmay, balki uning mavjud holatini ham belgilaydi. Texnologiya fani o'qituvchisini kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish bosqichma bosqich, pedagogik turkum fanlari hamda umummuhandislik fanlarining integratsiyasi, ya'ni didaktik sintezni va fanlararo aloqadorlik darajasida faoliyatida pedagogik hamda muammoli - vaziyatli topshiriqlarni echish orqali amalga oshiriladi.

Texnologiya fani o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda har xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa faqtorlarni hisobga olgan holda ish ob'yektlarini tanlaydi. Texnologiya fani o'qituvchisi oldida o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish kollektivlarini tashkil qilish, ular orasida ishlab chiqarish munosabatlarini yo'lga qo'yish masalasi paydo bo'ladi. Bundan tashqari, boshqa

o'quv predmetlaridagi kabi texnologiya o'qituvchisida o'quvchilarning mehnat usullarini to'g'ri bajarilishini, olingan bilimlarni amalga qo'llashni kontrol qilish va ularning o'quv faoliyati natijalarini baholash funksiyalari saqlanib qoladi. Texnologiya o'qituvchisining tayyorgarligi har qanday asosli bo'lsa ham, u tugallangan hisoblanmaydi. Ma'lumki, hozirgi zamon ishlab chiqarishi juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mehnat qurollari, texnologik protsesslar uzluksiz takomillashib bormoqda.

Bu ma'lum darajada mehnat ta'limida o'z aksini topishi kerak. Demak, texnologiya o'qituvchisi fan va texnika sohasidagi taraqqiyotni uzluksiz kuzatib borishi, ulardan o'quvchilarni tushunarli formada xabardor qilib turishi va o'z mahorati ustida ishlashi kerak. Bu borada texnologiya fani o'qituvchisi ega bo'lishi kerak bo'lgan fazilat va mahorat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin; yuqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodimizning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashi va dunyoqarashni shakllantirish kerak; yuqori texnik malaka. Masalan, texnologiya fani protsessida V-VII sinflar o'quvchilari sletsarlik, durodgorlik, tokarlik ishi elementlari va elektrotexnika elementlari bilan tanishadilar. Shu munosabat bilan pedagogika o'quv yurtining har bir o'quvchisi duradgorlik yoki 2-3 razriyadli sletsarlik kasbini, elektromontyorlik kasbi asboblarini egallashlari kerak, keyingi amaliy faoliyat protsesslarida o'z mahorati darajasini uzluksiz oshira borishi kerak; yuqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Texnologiya o'qituvchisining o'zi bilim va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay, balki o'quvchilarda ham ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berishi kerak. Bilim va malakalarni egallash protsessining o'z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Texnologiya o'qituvchisi psixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o'quv protsessiga asos bo'ladigan muhim qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak; o'z kasbiga muhabbat.

Ustozimiz, pedagog olim M.Ochilov "O'qituvchilik hammaga ham nasib etavermaydigan noyob xislat. Ko'p narsani bilish, o'quvchilar bilan muomala qila olish, o'qitishning turli usullarini egallab olish mumkin, hatto tashqaridan

qaraganda o'z ishining ustasi bo'lish mumkin, biroq o'quvchilarga nisbatan doimiy jonli qiziqish bo'lmasa, ularning fikrlashlari bilan qiziqmasan, ular bilan munosabatda bo'lishga ehtiyoj, intilish sezmasang, qalban o'quvchilardan yiroq bo'lsang - sen pedagog emassan" deb ta'kidlaganlar.

Texnologiya fani o'qituvchisining ta'lim va tarbiya berishida, mahorat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ta'lim berish mahorati;
- ta'limning zamonaviy usullarini qo'llay olish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- inson omilini ta'minlovchi fazilati;
- bilimlarni holisona baholash va nazorat qila olish mahorati;
- mehnat ta'limiga bo'lgan ehtiyojni qondira olish mahorati.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish, o'z malakasi saviyasini oshirish ustida har doim ishlashi, bu borada o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bunday institutlarda mehnat va kasb ta'limi kabinetlari ishlab turibdi. Bu institutlarda qisqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar. Texnologiya fani o'qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarga:

a) ta'lim-tarbiya ishining aniq maqsadga yo'naltirilganligini, ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda uning mazmunini to'g'ri tanlanganligini aniqlash;

b) mehnat va kasbiy faoliyatning natijasi sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo'nalishlarini yoritish;

v) ta'lim va tarbiyaning muqobil samarali uslublarini ishlab chiqish, o'quvchi va o'qituvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga, pedagogik jamoaning barcha a'zolari orasida o'zaro ishonchga, do'stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari intilish kabi vazifalarni aniqlashga e'tibor berish zarur.

Oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida tayanch kompetentlik aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy hamda shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan tayanch kompetentlik: yaxlit - mazmunli, ijtimoiy-madaniy, o'quv-bilish, axborot olish, kommunikativ, ijtimoiy faoliyatli, shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish turlariga bo'linadi. Texnologiy fani o'qituvchisining kasbiy shakllanishi quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: pedagogik tizim, jarayon va natija. Ijtimoiy qoidalar kasbiy shakllanish darajasini baholashda muhim asoslar sifatida aks etadi va ular, o'z navbatida, Davlat ta'lim standarti mazmunida qayd etiladi. Ta'lim tizimi faoliyatini baholashda uning samaradorligi hamda pedagogik tizim rivoji bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatib mumkin. Aynan ana shu ko'rsatkichlar o'qituvchining kasbiy shakllanish darajasini baholash mantiqini asoslab beradi. Pedagogning kasbiy layoqatligini tarbiyalash muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayabdi, bu esa uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi - bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intell va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda.

Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda texnologiya fani o'qituvchisini kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashish muammolarini o'rganish uchun avvalo, bu tushunchaning mohiyatini, ijtimoiy-ma'naviy asoslarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo'llarini bilish zarur.

Kasbiy layoqatlilik diagnostikasi professionalizmning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Mehnatning ijro-harakat tomoniga qo'yiladigan talablar ushbu xususiyatlarni nazarda tutadi: kasbiy qo'yilgan nutq - aniqlik, tinglovchilar uchun qulay sur'at, tushunarlik, hissiyotli, harakatlar va mimikaning ifodaliligi, harakatlarning aniqligi va koordinatsiyalanganligi. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish ukuvini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilga o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi. Faoliyat usullarini tanlash shaxsning ma'naviy dunyosiga faqat boshqa shaxs-pedagogning ma'naviy dunyosi bilan ta'sir ko'rsatish mumkin degan qoida bilan aniqlanadi, mehnat usullari majmuaviy xarakterga ega. O'qituvchi mehnatining natijalari o'qitilayotgan odamning psixik rivojlanishidagi sifatliy ijodiy o'zgarishlar bilan aniqlanadi va ularni o'lchash qiyindir.

Texnologiya fani o'qituvchisini kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi. Evropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa - bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Texnologiya fani o'qituvchisining tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

1. Zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar,

metodik tavsiyanomalar, qo‘shimcha maxsus adabiyotlar, ko‘rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi.

2. Ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o‘qituvchi, malakali o‘quv ustalari, texnik xodimlar)ning yetarlicha salohiyatga ega bo‘lishi.

3. O‘quv jarayonining moddiy-texnik (o‘quv binolari, o‘quv auditoriyalari, o‘quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko‘chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, magnitofonlar (audio, video, multimediya), trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta‘minlanganligi.

4. Ijtimoiy va o‘quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o‘qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o‘zaro munosabatlari mazmuni, yo‘nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi.

5. Tashkiliy hamda o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

“O‘qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish” tushunchasiga berilgan ta‘rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganligi-pedagogning faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Texnologiya fani o‘qituvchisi kasbiy kompetenstiyaga ega bo‘lish uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e‘tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo‘lgankompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo‘lgan sifat, bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq, xolis ifodalash mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida texnologiya fani o‘qituvchisiga qanday pedagogik talablar qo‘yiladi?

2. “Kompetentlik” tushunchasiga izoh bering.
3. Kasbiy kompetentlik nima?
4. Texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Texnologiya fani o‘qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishda nimalarga e’tibor beriladi?

6.10. Texnologiya fanida metod birlashmalar faoliyatini tashkil qilish.

Metodik ish umumta’lim maktabining istiqboli va joriy ish rejalarida mustaqil bo‘lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari umumta’lim maktablarning ichki nazorat rejalarida o‘z aksini topadi.

Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir;

- kelajakdagi rivojlanishni ko‘zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo‘yicha);

- rejalarini ta’lim-tarbiya va metodik ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o‘rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;

- rejalarining ijodiy xarakteri, ya’ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;

- metodik ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg‘un qo‘shib olib borish;

- tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko‘rsatilishi)¹.

Metodik ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o‘ziga jalb etishini hisobga olib, tadbirlarning mazmuni va o‘tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf

etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaljyotda uzoq vaqtlardan beri 'Metodik ishlarning umumiy rejasi' tuziladi. Bu ish pedagogik tajribada o'zini oqladi. Bunday rejada umumta'lim maktabidagi barcha metodik ishlar tizimi, taqvim muddatlari va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi.

Texnologiya fani o'qituvchisining metodik ishlar olib borishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadi ularning malakasini oshirishdir. Bu esa ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda muhim vositadir. Bu ish o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ishlarida katta yordam beradi, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, pedagogik va ishlab chiqarish malakasini oshiradi. Shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchilarning metodik ishlari asosini ularning bu sohadagi mustaqil ishlari tashkil etadi.

Bu ish muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi, muntazam olib borilishi va ta'lim-tarbiya ishlarida o'z ifodasini topishi kerak. O'qituvchilarning metodik ishlari maktab rahbarlarining bevosita nazorati va rahbarligida olib borilishi kerak. Umumta'lim maktablarida mustaqil metodik ishlar jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish hamda o'z malakasini oshirish ustida har doim ishlashi kerak. Unga bu borada o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bu institutlarda qisqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda o'qituvchilar fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar. Bu kurslar hamma o'qituvchilarni qamrab ololmaydi, albatta. Shu sababli kurs tayyorgarligi bilan birga joylarda muntazam ravishda metodik ishlar olib boriladi. Odatda, ular bir qancha metodik ishlarni bajarishadi. Bu esa qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi, ularning mustaqil bilim olish borasida qunt bilan ishlab, hamkasblari uchun namuna bo'lishga majbur qiladi.

Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda texnologiya fani o'qituvchisi yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagogik mahoratiga,

madaniyat darajasiga bog'liq. Yakka tartibgi metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi, ya'ni muhandis-pedagog o'z pedagogik mahoratini va bilimni chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topshiriqlarni bajarishi nazarda

tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi; pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturining eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanishlar. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog ishi rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Metodik-pedagogik mahoratni takomillashtirish.
3. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish².

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar hisobotlari tinglanadi. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish materiallar ishlab chiqila-yotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak, Mehnat ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, Prezident qarorlarining umumiy o'rta ta'limga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferensiyalar ishida qatnashishi, matbuot, radio, televideniya orqali hozirgi siyosat bilan tanishishi va amaliy ishda qo'lashi lozim. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish jarayonida tayyorlanadigan ma'ruzalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarda o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi.

Texnologiy ta'limi o'qituvchisining o'z ustida mustaqil ishlashi davomida texnologiya faniga oid ilmiy jurnallar va asarlar bilan muntazam tanishib borishi, metodik mahoratida esa mashg'ulot olib borish sifatini takomillashtirib, bunda yangi metodik ko'rsatmalar tayyorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini

faollashtirish masalasini yechish, ilg'or pedagogik tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyishga yordam berishdir. Nazariya bo'yicha darslarga tekshirish uchun kirgan o'qituvchi darslarning taqvimiy mavzuli va har bir dars bo'yicha rejasi hamda dars o'qish uchun ishlanmalari borligiga; dars mavzusi bo'yicha tuzilgan reja va dasturga mos kelishiga; ta'lim vositalaridan unumli foydalanilayotganligiga; darsda o'quv tarbiyaviy ishning qo'yilishi va uning amalga oshirilishini, qo'yilgan maqsadni hal etish uchun tanlangan dars turining maqsadga muvofiq ravishda tanlanganligiga baho berishi; darsning strukturasi to'g'ri tanlanganligiga, vaqtning taqsimlanishiga, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligiga e'tibor berishi kerak.

O'qitilayotgan mehnat yo'nalishi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalariga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar mehnat ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar rahbarligida va ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish texnologiya fani darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Didaktik materiallar tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarni tayyorlash ham metodik ishlarga kiradi. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi. Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi. O'quv va didaktik materiallarni

tayyorlashda texnologiya o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska .jisvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag', nazorat qog'ozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lsa, O'qitish materiallaridan farq qilishi mumkin. Masalan; topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar. Tarqatma materiallar tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi;

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va o'quvchilar uchun);
- yashil qog'ozlar: o'quvchilarga topshiriqlar;
- qizil qog'ozlar; o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari.

Ranglarni kodlash ham hujjatlardan foydalanishni yengillashtiradi. Shuningdek, bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli o'quv didaktik materiallar tayyorlash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Metodbirlashmalar va ularning faoliyati

O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasida metodik ishlarni boshqarishning asosiy ob'yekti pedagogik jamoa hisoblanadi. Umumta'lim maktabidagi metodik ishlarning aniq shakllarini maktab pedagogik kengashi

belgilaydi. Maktab rahbari (direktor) metodik ishlarga umumiy rahbarlik qiladi. U metodik ishning rejasini tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchilar o'tkazadigan mashg'ulotlarni tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning metodik ishlariga rahbarlik qiladi, yuqori organlar oldida o'zi rahbarlik qilayotgan maktabdagi metodik ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi. Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari umuman maktabdagi metodik ishlarning, shuningdek fan uyushmalarida olib boriladigan metodik ishlarning tashkilotchigi hisoblanadi. Sinf rahbarlari bilan olib boriladigan metodik ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan metodik ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qiladi. Umumta'lim maktabida o'qituvchilarning metodik ishlari jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi. Jamoaviy metodik ishlardan eng muhimi fanlar bo'yicha tashkil etiladigan metodik ishlardir.

Metod birlashmalarda ko'riladigan masalalar quyidagiu iborat bo'lishi mumkin:

- 1) yangi o'quv dasturi, darslik, qo'llanma va uslubiy ishlarni o'rganish;
- 2) metodik yo'riqnoma va buyruqlarni o'rganish, ularni oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish; o'quv-ishlab chiqarish ishlarini, o'quv-texnik hujjat, turli ishlar uchun vaqt me'yorlarini, o'quvchilarning ish tashkil etish va jihozlash masalalarini muhokama qilish;
- 3) o'quv dasturi mavzularini o'rganish metodlarini qilish, tekshirish ishlarini va malakalarini belgilashni etish;
- 4) ochiq darslar o'tkazish va natijalarini muhokama
- 5) o'qituvchilarning sinflardagi tarbiyaviy ishlari, tashqari ishlarni bajarish metodikasi;
- 6) o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlariga doir tajribao'qituvchilar bilan fan va texnika yutuqlarini, ilg'or mehnat dalarini o'rganish kabi masalalar to'g'risidagi axborotlari.

Pedagogik kengash umumta'lim maktabida ta'lim jarayonining jamoaviy rahbaridir. Bu kengash o'quv-uslub tashkiliy-xo'jalik ishlariga rahbarlik qilishda direktorga beradi; kengash o'z ishini direktor rahbarligida olib boradi pedagogik kengash quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi;

1) maktabning yarim yillik, o'quv ish larining shuningdek, malaka imtihonlari natijalarini muhokama qiladi;

2) o'qituvchilarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash birlarini belfiyadi, o'qituvchilarning o'z ish tajribasi ma'ruzalarini eshitadi;

3) o'quv guruhlarida darslarning o'zlashtirilishi, darsga qatnashish, usta va o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib tarbiyaviy ishlariga doir masalalarni ko'radi.

O'quv reja dasturlarining bajarilishi va boshqa shu ko'radi. O'qituvchilarning texnik va pedagogik malakalarining jamoaviy shakllari seminar-trening, pedagogik o'qish boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish

Ta'lim islohotlarining hozirgi bosqichdagi vazifalarini muvaffaqiyatln hal etilishiga uning amaliyot bilan mustahkam aloqasi yo'lga qo'yilgandagina erishish mumkin bo'ladi. Bu boradagi muammolarni hal etishda ilg'or pedagogic tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va tadbiiq qilib borish muhim ahamiyat ega kasb etadi.

Ilg'or pedagogik tajriba o'quv-tarbiyaviy ishlarni jadallashtiruvchi doimiy omil, pedagogik jarayonlarni amalga oshirishning eng maqbul va samarali yo'li sanaladi. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan shakllar, metodlar usul va vositalar majmuasida yoki boshqacha aytganda uning tuzgan pedagogik tizimini ifodalovchi texnologiyasida namoyon bo'ladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish - aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarning umumlashgan tizimidir. Pedagogikada oddiy, ilg'or va ijodiy tajribalar o'zaro farqlanadi.

Oddiy tajriba - ma'lum metodik tavsiyalarni o'qituvchi tomonidan o'z

imkoniyatlari doirasida muvofiqlashtirib qo‘llashni anglatadi.

Ilg‘or tajriba - pedagogika ilmida ilgari surilgan yangi g‘oyani ijodiy qayta ishlash va aniq vaziyatlarga tadbiiq qilishda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy tajriba - o‘qituvchining mavjud bo‘lganlaridan jiddiy farq qiluvchi, mavjud ilmiy-pedagogik qarashlardan tashqariga chiquvchi, yanada mukammalroq yangi g‘oyaning amaliy aks ettirilishidir.

Ilg‘or tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va tadbiiq qilishdan maqsad ta‘lim jarayonini amalga oshirishning yanada mukammal usullarini joriy qilish orqali uning mazmunini takomillashtirib borishdan iborat.

Ilg‘or tajribalarni ommaviy tarzda o‘rganish va tadbiiq qilish o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ta‘lim muassasalarining rahbarlari hamda pedagogik jamoalar har bir o‘qituvchida ijodiy ishlash sifatlarini tarbiyalash yo‘llarini topishi, rag‘batlantirish hamda ommallashtirishga harakat qilmog‘i lozim.

Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va shunga asoslangan yangi pedagogik hodisalarni va qonuniyatlarni kashf qilish o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv materialini o‘qitishning yangi mantiqini amalga kiritish, bilish faoliyati muammolari yechimini topishga, yangi tipdagi o‘quv jarayonlarini modellashtirishga turtki berishi mumkin. Pedagogik tajribalarni o‘rganishda quyidagilarga e‘tibor qaratish kerak:

1. O‘rganish uchun o‘zida ta‘limning zamonaviy muammolari yechimini aks ettiruvchi tajribani tanlash;
2. Aniqlangan tajribani uzoq davrga mo‘ljallab ishlab chiqilgan dastur asosida, o‘quv yurtining butun ko‘lamini qamrab olgan holda o‘rganish;
3. Bu boradagi tadbirlarga o‘rganilayotgan tajriba darajasida faoliyat ko‘rsata oluvchi o‘qituvchilarni imkon darajasida ko‘proq jalb qilish;
4. O‘rganilayotgan muammoning o‘zaro ta‘sir qiluvchi va tuzatuvchi xarakterga ega ekanligini e‘tiborga olish;
5. Ilg‘or pedagogik tajribani uning rivojlanib borish jarayonida o‘rganish;

6. Qo'llanilayotgan metod va usullarning erishilgan natijalar bilan bevosita uzviy bog'liqlik omillarini aniqlash.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish o'ziga xos mantiqqa va muayyan bosqichlarga ega bo'lib, bu jarayonda quyidaga mezonlarga amal qilinmog'i lozim:

1. Rejalashtirilganlik. Tajribani o'rganish rejasini ishlab chiqish, vazifalarni o'zaro taqsimlash, olib boriladigan ishning aniq shakl va metodlarini belgilab olish.

2. Tashkillashtirilganlik va tez moslashuvchanlik.

3. Olingan axborotlardan o'rinli foydalanish. Bunda olingan axborotlarni nafaqat vizual kuzatib, bevosita olingan ma'lumotlar, balki yashirin, ichki bog'lanishlarni ham o'zida aks ettirishi kerak.

4. Nazorat va hisob ishlarini yuritish (o'quvchilar o'zlashtirish darajasi, har bir metod yoki usulning qisman yoki to'laligacha amalga oshirish uchun sarflangan vaqt, foydalanilgan ko'rgazmali vositalar.

5. Tajribani ilmiy asoslashga e'tibor qaratish. Ijodkor o'qituvchilar ilg'or tajribalarini ommalashtirish ishlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) o'z pedagogik tajribalarini umumlashtirish; 2) hamkasb o'qituvchilar tajribalarini o'rganish; 3) Ilg'or pedagogik tajriba jamoasini tuzish; 4) Ilg'or pedagogik tajriba maktablarini yaratish; 5) Ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish.

Ilg'or tajribalarni ommalashtirishda adabiyotlarni tahlil qilish, daliliy materiallarni yig'ish, kuzatish, pedagogik tahlil va umumlashtirish taqqoslash va tasniflash, tajriba-sinov o'tkazish, bilimlarni nazorat qilish metodlari vositasida amalga oshiriladi.

O'qituvchining jamoaviy metodik ishlari. Ochiq darslarni o'tkazish

Ilmiy pedagogik kengash – o'quv muassasasining doimiy faoliyat yuritadigan jamoa organi bo'lib, o'quv-tariyaviy jarayonlari va metodik ishlarni takomillashtirishning muhim masalalarini muhokama etadigan va qaror qabul qiluvchi kengashdir.

Kengashning asosiy uslubiy funkstiyasi: o'quv muassasasida uslubiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar qabul qilish; uslubiy komissiya rejalarini muhokama qilish, kasbiy malakalarni oshirish ish rejalarini tasdiqlash va hokazolar.

Kasb-hunar kollej rahbari - ilmiy pedagogik kengashning doimiy raisi hisoblanadi. Rahbar bo'lmagan vaqtlarda ilmiy pedagog ilmiy pedagog kengash yig'ilishlarini o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari tashkil qiladi. Ushbu kengash 1 oyda bir marta chaqiriladi.

Pedagogik kengash qarorlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish kengash raisiga yuklanadi. U bor ishni shaxsan o'zi bajaradi yoki kengash a'zolaridan biriga topshiradi. Kasb-hunar kollejning pedagogik kengashlari bo'lg'usi kichik mutaxassislarni tayyorlash va ularni tarbiyalash bilan bog'liq juda ko'p xilma-xil masalalarni ko'rib chiqadilar.

Ilmiy pedagogik kengash tarkibiga barcha o'qituvchilar va muhandis-pedagoglar doimiy a'zo qilib kiritiladi. Bundan tashqari, homiy va vaiy tashkilot vakillari (institut, korxonalar, zavod va fabrikalar bilan shartnomalari bo'lsa, o'sha tashkilotning vakillari) kiritiladi. Ularning hammasi kengash ishida faol ishtirok etadilar.

Vaqt-vaqti bilan o'qituvchilarning o'qitishning yangi metodlari va shakllarini hamda ta'lim vositalarini o'quv jarayoniga joriy qilinganligi bo'yicha eng yaxshi o'qituvchi va muhandis-pedagoglar hisobotlarini eshitish, muhokama qilish hamda boshqa ta'lim muassasalari ish tajribalarini o'rganish kabi va boshqa ishlar amalga oshiriladi.

O'quv metodik kengash – kasb-hunar kollejida 5 yoki undan ko'p muhandis-pedagog hamda bir yoki bir nechta o'xshash mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fan o'qituvchilari bo'lsa uslubiy komissiyalar tuziladi.

Agar o'xshash fan o'qituvchilari kam bo'lib, kasb-hunar kollej fanlarga oid metodik komissiya tuzish imkoniyati bo'lsa, kasb-hunar kollej rahbari bu o'qituvchilarni yopiq orada joylashgan (qo'shni) kasb-hunar kollejlardagi, o'quv-

uslubiy kabinetidagi tegishli metodik komissiyalarning ishida qatnashishiga jalb qilishi, shuningdek ular bilan individual uslubiy ishlarni o'tkazish kerak.

Ilmiy pedagogik kengashning tavsiyasiga binoan shu buyruq bilan har bir komissiyaning raisi tayinlanadi, raislar odatda maxsus oliy ma'lumotli, pedagogik ish tajribasiga ega bo'lgan ancha tajribali o'qituvchilar yoki ishlab chiqarish ta'limi muhandis-pedagoglaridan tanlanadi.

Uslubiy kengash raisi ishning tashkil etilishiga va uning mazmuniga javob beradi. U kengashning ish rejasini tuzadi, reja asosida rahbarlik qiladi, uslubiy kengash majlislarini tayyorlaydi va o'tkazadi, uning qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi, kengash a'zolariga uslubiy yordam ko'rsatadi, ochiq darslar, seminarlar va amaliyotlar tashkil etadi va o'tkazadi, ishlarni hisobga oladi va hisobot ishlarini yo'lga qo'yadi.

Uslubiy kengashlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlar saviyasini oshirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik va uslubiy xarakterdagi ayrim muammolar stikl fanlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tatbiq etish, o'qitish uslubi, vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, fanlarni ketma-ketlikda o'tishini belgilash, o'quv-uslubiy materiallarini muhokama qilish va o'quv dasturlarni o'rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ishlari ro'yxati va mahsulotlar ishlab chiqarish ishlari texnologik hujjatlar hamda nazorat ishlari, mazmunini va o'quvchilarning o'zlashtirishlarini tahlil etish, texnik vositalardan samarali foydalanish, kolleжда o'tkaziladigan ochiq darslar, tadbirlar, o'qituvchilar darslarida qatnashish, o'qituvchilarni attestastiyadan o'tkazish, malaka oshirish va qayta atyyorlashga yuborish rejalarini ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar - ta'lim-tarbiya jarayonini, uslubiy ishlarni tashkil etishda ko'pgina yangi masalalar paydo bo'ladiki, ularni o'rganish, bir tizimga keltirish va umumlashtirish talab etiladi.

Ilg'or tajriba maktablari – ilg'or pedagogik tajribalarni va ishlab chiqarish tajribalarni joriy qilish hamda kasb-hunar kollej pedagog xodimlarining pedagogik mahoratini oshirishning eng muhim shaklidir.

Ilg'or tajriba maktabining eng asosiy maqsadi - kasb-hunar kollejlari xodimlariga o'z faoliyatlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarning hozirgi zamon talablariga mos bo'lgan darajada va natijalarga erishishga yordam berishdir.

Seminarlar - jadval bo'yicha kamida oyda bir marta o'tkaziladi. Seminarlar mazmuni, mohiyatiga ko'ra va unga ajratilgan vaqtiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin.

Konsultastiyalar - shaxsiy va guruhli bo'lishi mumkin. Shaxsiy konsultastiyalar muhandis - pedagog va o'qituvchilarning mustaqil ishlash soatlarida muntazam o'tkaziladi. Kasb-hunar kollej rahbarlari, tajribali muhandis-pedagog va o'qituvchilar konsultant bo'lishlari mumkin.

Guruhli konsultastiyalar ma'lum bir mavzular bo'yicha vaqti-vaqti bilan tashkil etiladi. Konsultastiya o'tkazish uchun korxonalarining mutaxassislari, ishlab chiqarish ilg'orlari, ilmiy xodimlar, malakali metodistlar taklif qilinadi.

Ochiq darslar - uslubiy kengashda rejalashtiriladi va tashkil etadi. Ochiq dars o'tkazadigan o'qituvchiga tashkiliy va uslubiy yordam ko'rsatish zarur. Har bir ochiq darsga yaxshilab tayyorlanib, darsning barcha bosqichlari va vaqtning taqsimlanishi puxta o'ylanishi, dars ko'rgazmali o'quv qurollari, texnik vositalari, ta'lim metod va ta'lim shakllari bilan to'g'ri tanlangan bo'lishi kerak.

Ochiq dars o'qituvchi va muhandis-pedagog tomonidan o'z hamkasblari guvohligida o'tiladigan odatdagi darsdir. Bu darsga o'quv guruhi oldindan mashq qildirib tayyorlashga ruxsat etilmaydi.

Ochiq darsdan maqsad ish yuzasidan tajriba almashish, dars berishning ilg'or metodlarini yoyish, ta'lim berish metodikasidagi kamchiliklarni bartaraf etib, uni tuzatishga yordam berish. Ochiq dars o'tishdan avval kengaytirilgan reja tuzib, unda darsdan ko'zga tutilgan o'quv tarbiyaviy ishlar maqsadi, uni amalga oshirish bosqichlari ko'rsatiladi. Bunday dars rejasi uslubiy kengash tomonidan tasdiqlanib, barcha o'qituvchilarga tarqatiladi.

Har bir ochiq dars tugashi bilanoq, ishtirok etgan o'qituvchilardan olingan taassurotlar yangiligida muhokama qilinadi. Muhokamani uslubiy kengash raisi

boshlaydi. U darsning maqsadini eslatib o'tadi va dars o'tgan o'qituvchiga so'z beriladi. Dars maqsadga erishdimi yo'qmi, darsning qaysi jihatlari yaxshi o'tdi-yu, qanday kamchiliklar aniqlandi va umuman o'tilgan darsni qanday baholanishi haqida gapiradi.

So'ngra dars haqida unda qatnashgan pedagoglar va ta'lim muassasasi rahbari gapiradi. Ular darsni tahlil qiladilar, darsning yutuq va kamchiliklarini, darsning u yoki bu bosqichini qanday o'tganda yaxshi bo'lishini gapirib o'tadilar. Muhokama ishchanlik ruhida, har tomonlama tanqidiy va eng muhimi xayrixohlik bilan o'tishi kerak.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, ochiq dars o'tilish katta diqqat-e'tiborni talab qiladi, hatto eng tajribali o'qituvchi ham ba'zi narsalarni esdan chiqaradi. Darsni malakali tahlil qilish, tarbiyaviy talablarning amaliy ahamiyatini ochib berish barcha o'qituvchi va muhandis-pedagoglar uchun yaxshi maktab rolini o'taydi.

Metod birlashmalar maqsadi

Ta'lim muassasalaridagi metodik ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktabida metodik kengashi tashkil etiladi.

Metodik kengash jamoa organi bo'lib, ta'lim muassasasida metodik xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni birlashtiradi.

Metodik kengash ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkillashtirishda yo'riqnoma beruvchi organ hisoblanadi.

Metodik kengash o'z faoliyati davomida Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyaga, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga, xalq ta'limi boshqaruvi organlari va ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar, umumiy o'rta ta'lim muassasasi ustavi hamda o'z Nizomiga amal qiladi.

Metodik birlashmaning asosiy vazifalari:

ta'lim muassasasidagi metodik ishlar, metod birlashma faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

ta'lim muassasasi metodik ishlarini asosiy yo'nalishlarini belgilash;

ta'lim muassasalaridagi metodik xizmat ko'rsatishning maqsad va vazifalarini belgilash;

ilmiy, metodik, didaktik materiallar, o'quv dasturlari bilan ta'minlash;

ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni tashkillashtirish;

kasbiy mahoratni takomillashtirish, dars berishning turli metodlari, maktabni o'quv metodik va moddiy rivojlantirish borasida tavsiyalar berish;

ta'lim muassasasi xodimlari attestatsiyasida ishtirok etish;

yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish metodlarini sinovlardan o'tkazish;

ijodiy ishlayotgan ilg'or ish tajribaga ega bo'lgan pedagoglarni aniqlash va ularning ish tajribalarini ommalashtirish;

ta'lim sohasidagi ilg'or ish tajribalar bilan tajriba almashish maqsadida boshqa ta'lim muassasalari va ilmiy tekshirish muassasalari bilan hamkorlik qilish;

dars jarayoniga yangi o'quv-metodik va didaktik materiallarni tatbiq etish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, resurs markazlaridan foydalanishni joriy etish;

yosh mutaxassislariga ilg'or pedagogik ish tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarni biriktirish;

o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshirish;

pedagoglarni kursdan keyingi faoliyatlarini tahlil qilish va ularni o'z ustida ishlash rejai bo'yicha ijodiy hisobotlarni eshitish;

tashqi va ichki nazorat natijalariga ko'ra DTS talablari bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash va bajarilishini nazorat qilish;

yo'nalishlar va fanlar bo'yicha metodbirlashmalar hisobotini eshitish, muhokama qilish va ular faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;

pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

fan oyliklari, fanlar bo'yicha sinfdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlari, fan olimpiadalarining birinchi bosqichlari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilishi va ular samarasini nazorat qilib boradi.

Birlashma ishini tashkil etish

Metodik birlashma tarkibi o'quv muassasasining direktori buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Metodik birlashma tarkibiga metod kengash raislari, ilg'or o'qituvchilar, o'quv muassasasining direktori va o'rinbosari kiradi.

Metodik birlashmaga umumta'lim maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari rahbarlik qiladi.

Birlashma ishi tuzilgan yillik ish reja asosida tashkil etiladi.

Ish reja birlashma raisi tomonidan tuzilib, direktor bilan kelishilgan holda metodik kengashda ko'rib chiqiladi va maktab pedagogika kengashida tasdiqlanadi.

Birlashma yig'ilishi doimiy ravishda har chorakda bir marotaba o'tkaziladi. Birlashma bayonnomasiga birlashma raisi va kotibi imzo qo'yadi. Agar birlashmada boshqa yo'nalishdagi masalalar muhokama qilinsa, o'sha yo'nalish rahbari taklif etiladi qabul qilingan tavsiyalar birlashma yig'ilishlarini qayd etish kitobiga kiritiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Metodik ishlar tuzilmasi qanday tashkil qilinadi?
2. Metodik ishlarni tashkil qilish maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
3. Metodbirlashmaga qanday masalar qo'yiladi?
4. Oddiy, ijodiy va ilg'or tajribalarning o'zaro farqi nimada?
5. Metodbirlashmaning asosiy vazifasini tushuntiring.

6.11. Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar.

Kurs ishini bajarishning maqsad va vazifalari. Kurs ishi - oliy o‘quv yurti bakalavriatida talabalarning fan bo‘yicha yakuniy ijod mahsulidir. Kurs ishini bajarishning maqsadi va vazifalari:

-fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni kasb-hunar kollejlarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida qo‘llashga o‘rgatish;

-ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan mavzuning (muammoning) qo‘yilish jarayonidan boshlab, uni to‘la nihoyasiga yetkazishgacha bajariladigan ishlarga nisbatan mas’uliyatni his etishga o‘rgatish;

-zamonaviy ta'lim berish, ishlab chiqarish, fan va texnikaning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga jalb etish;

-kasb-hunar kollejlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, o'qitish modellari va metodlarini hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq qilish masalalarini ishlab chiqish.

Kurs ishiga qo'yiladigan talablar

Talaba o'zining kurs ishida fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini qo'llagan holda tugallangan kasbiy masalani yechadi. Unda talaba quyidagilarni hal etishi lozim:

- masalani yechishda uning mazmunini tahlil qila olishi va tushuntirib berishi;

- tanlangan mavzuning maqsadi, vazifasi, mazmuni va dolzarbligini yoritishi;

- ilmiy-uslubiy, texnik talablarni ifodalashi, masalaning turli yechimli variantlarini ko'rib chiqishi va eng maqbul variantni aniqlashi;

- masalaning yechimi natijalariga asoslanib, tegishli bilim tarmog'iga xulosalar va tavsiyalar berishi lozim.

Ishni bajarishda talabadan qo'yidagilar talab qilinadi:

1. Kurs ishining mavzusini tanlash.
2. Kurs ishini bajarish yuzasidan topshiriq olish.
3. Tanlangan mavzu bo'yicha ma'lumot to'plash, tahlil qilish.
4. Mavzuning maqsadi, vazifasi, mazmuni va dolzarbligini yoritish.
5. Kurs ishi bo'yicha kompleks pedagogik, metodik va texnik echimlarni ishlab chiqish (nazariy, laboratoriya-amaliy va o'quv amaliyoti mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi modeli hamda texnologik xaritasini ishlab chiqish, vizual materiallar tayyorlash, taqdimot slaydlari tayyorlash).
6. Ishlab chiqilgan metodik ishlanmani ta'lim jarayonining sifat va samaradorligiga ta'sirini umumiy tarzda baholash.
7. Bajarilgan ish natijalariga xulosa va takliflar berish, uni kasb-hunar kollejlarning o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning ahamiyatini ko'rsatish.

8. Kurs ishini aniq tanlangan mavzu bo'yicha bajarish.

9. Kurs ishini har bir talaba mustaqil ravishda o'zi bajarishi, uning sifati va topshiriqqa mosligi uchun javob berishi;

10. Kurs ishini imlo xatolarisiz, tushunarli husnixatda, yo'nalishning xususiyatlari asosida kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan kurs ishini bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatma asosida rasmiylashtirish.

11. Kurs ishini bajarilishi bo'yicha belgilangan muddatlarda rahbarga hisobot berib borish, tug'ilgan muammo va savollar bilan murojaat qilish, maslahatlar olish.

12. Belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilgan kurs ishini himoyadan oldin rahbarga ko'rsatish, kamchiliklar aniqlangan hollarda ularni tuzatish.

Kurs ishi talabalar tomonidan o'quv rejada ajratilgan vaqt ichida (fan bo'yicha yakuniy nazoratgacha) bajariladi. Ayrim hollarda kurs ishi ishlab chiqarish korxonalarida, kasb-hunar kollejarida ham bajarilishi mumkin. Kafedraning tavsiyasiga muvofiq kurs ishi chet tillarining birida bajarilishi mumkin(talabaning o'z hohishiga ko'ra). Chet tilida bajarilgan kurs ishiga davlat tilidagi annotatsiya ilova qilinadi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi. Kurs ishini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni talabalar fanni oily ta'lim muassasalarida o'tiladigan amaliyotlar davomida to'playdilar. Shuningdek, kurs ishini bajarish yuzasidan tavsiya qilingan adabiyotlar, qo'llanmalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalanadilar. Kurs ishini hajmi qo'yidagicha tavsiya etiladi: Yozuv-tushuntirish matni 30-35 bet (A4 297x 210 mm formatli oq qog'ozda); Mavzuga oid slaydlar ilova qilinishi mumkin va slaydlar elektron variantda tayyorlanib himoya qilish vaqtida o'qitishning texnik vositalari yordamida namoyish etilishi mumkin.

Kurs ishlarini bajarish ketma-ketligi

Kirish. Masalaning dolzarbligi; mavzuga doir adabiyotlar tahlili, ilmiy tadqiqot metodlari.

1-bo'lim. Mavzuning ilmiy-nazariy asoslari.

2-b'lim. Mavzuni yoritish metodikasi va pedagogik texnologiya metodlari asosida dars ishlanmasi.

3-bo'lim. Tajriba sinov o'tkazish metodikasi va baholash mezonlari. Xulosa. Ilmiy izlanishdan olingan natijalar yuzasidan fikr va mulohazalar. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kurs ishini bajarish bosqichlari va uni himoya etish tartibi

Mavzuni tanlash. Kurs ishi rejasini tuzish va uni tasdiqlash.

Adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish.

Kurs ishi mavzusi yuzasidan ilg'or pedagogik ishlarni o'rganish.

Olingan ma'lumotlarni jadval va sxemada ishlab chiqish.

Kurs ishi himoyasida kafedra o'qituvchilari ishtiroq etish.

Kurs ishini baholashda har tomonlama bajargan ishlar hisobga olinadi.

Kurs ishi rahbari himoya qilingan ishni tahlil qilib, yakunlab beradi.

Kurs ishi himoyasi taqdimot shaklida namoyon qilinadi.

Muddatida ulgura olmagan yoki himoya qila olmagan talaba akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Malakaviy ish oliy ta'lim muassasasining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabanning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilaydi.

Talaba-ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fanidan kurs ishlari fan yuklamasi tugatilgandan so'ng, talabalar texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv kurslari haqida

to'liq ma'lumot shakllangandan keyin bajarilishini talab qiladi. Kurs ishlari talabanning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish,

mustahkamlash va boyitish, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olish, mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish, adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish kabi maqsadlarni ko‘zlaydi.

Kurs ishi tushuntirish xati va chizmalarni o‘z ichiga oladi. Tushuntirish xatining hajmi cheklanmaydi. U taxminan 25-30 betni tashkil etadi.

Dastlab mavzuning o‘quv dasturidagi tutgang o‘rni, uni o‘rganishning kalendar muddatlarini aniqlash talab etadi, sababi busiz boshqa o‘quv fanlari bilan didaktik aloqa o‘rnatib bo‘lmaydi.

Kurs ishi mavzusida quyidagilar aks ettiriladi:

- mavzu tavsifi, mavzuning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi;
- mavzu bo‘yicha adabiyotlar taxlili;
- mavzuning o‘quv-tarbiyaviy vazifalari;
- mavzuni yoritishda foydalaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari;
- mavzu materiallarining nazariy va metodik asoslarini ochib berish;
- mavzuni yoritish metodikasi;
- mavzuni yoritishda pedagogik texnologiyalar metodidan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ish mazmuni va unda qo‘yiladigan muammolarni hal qilish metodikasi

Texnologik ta‘lim (ijtimoiy-iqtisodiy soha) yo‘nalishi nuqtayi nazaridan kelib chiqib mavzu ob‘yekti aniqlashtiriladi.

Tanlangan mavzuning ilmiy-metodik va nazariy asoslari milliy va xorijiy manbalardan keng va to‘liq o‘rganiladi.

Mavzu bilan bog‘liq milliy va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning statistik va tahliliy materiallari o‘rganib chiqiladi.

Kasbiy ta‘lim (ijtimoiy-iqtisodiy soha) yo‘nalishi nuqtayi nazaridan kelib chiqib belgilab olingan ob‘yektning rivojlanishiga va xususiyatiga ta‘sir qiluvchi omillar aniqlashtiriladi hamda ular mantiqiy ketma-ketlik asosida tasniflanadi.

Mavzu bo'yicha talabanning shaxsiy kuzatishlari, nazariy, amaliy olgan bilimlarini, malakaviy (pedagogik) amaliyotlarda egallagan tajribalari mustahkamlanadi va tartibga solinadi.

Bitiruv malakaviy ishi mustaqil ilmiy, metodik tadqiqot ishi bo'lib, uning asosida kasb ta'limi yo'nalishidagi jarayonlarni modullashtirishni ko'zda tutadigan aniq maqsad va vazifalar yotadi.

Tanlangan mavzu bo'yicha oldin bajarilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganib chiqiladi va bu bajarilayotgan bitiruv malakaviy ishning ulardan alohida jihatlari hamda yo'nalishlari ko'rsatib beriladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining mohiyati

Talabalar tomonidan bajariladigan bitiruv malakaviy ishlar mavzusi iqtisodiyot, ishlab chiqarish, iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi, iqtisodiy tarbiya, fan, ta'lim, ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya masalalari, boshqa shu kabi yo'nalishga oid dolzarb muammolarning zamonaviy holatlarini va milliy iqtisodiyot, ishlab chiqarishga doir istiqbolli rivojlanishlarini aks ettirishi kerak.

Yo'nalish bitiruvchilari uchun bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ishlab chiqish va tasdiqlashga taqdim etish

Bitiruv malakaviy ishlari mavzulari O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartib bo'yicha mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va oliy o'quv yurti ilmiy kengashi yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Bitiruv malakaviy ishlari mavzulari O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartib bo'yicha tasdiqlangandan keyin uch yilda bir martadan ortiq qayta ko'rib chiqilmaydi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining yillik ro'yxati bitiruvoldi amaliyoti boshlanishiga yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi. Talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) bitiruv malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabanning o'qishi uchun to'lov-shartnoma mablag'ini

to'layotgan buyurtmachi zaruriy asoslar bilan bitiruv malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variatlarini taklif etishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha universitet rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Bitiruv malakaviy ish bo'yicha ilmiy rahbar, malakaviy ishning mavzusiga 5 muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash to'g'risida (jumladan, Bitiruvoldi yoki malakaviy amaliyotini o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli universitetning o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi (taxminan 1-ilovadagi kabi tuzilishi mumkin). Topshiriq bitiruvchi tomonidan bitiruv malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Bitiruv malakaviy ishlarga ilmiy rahbarlar belgilash tartibi

Bitiruv malakaviy ishlarga ilmiy rahbarlar universitetning mutaxassis chiqaruvchi kafedrasida faoliyat olib borayotgan professorlari, dotsentlari yoki katta o'qituvchilari, ilmiy xodimlariga va boshqa oliygohlarning turdosh kafedralarining professorlari, dotsentlari yoki katta o'qituvchilar va ilmiy xodimlari, shuningdek, ushbu ixtisoslik bo'yicha faoliyat olib borayotgan muassasalarning yuqori malakali va salohiyatli mutaxassislaridan, yirik korxonalar va kompaniyalarning yetuk malakaga ega va salohiyatli mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ishga ilmiy rahbarlik qiluvchining vazifalari.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

- Talabaga topshiriq beradi (belgilangan tartibda 1-ilova);
- talaba bilan birgalikda bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi (joriy o'quv yili mobaynida);
- bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha talabaga reja tuzishga metodik jihatdan ko'maklashadi;
- mavzuga tegishli asosiy adabiyotlarni, ilmiy manbalarni va internet ma'lumotlarini tavsiya qiladi;

- milliy va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan chop qilingan statistik ma'lumotlarni va tahliliy hamda arxiv materiallarini tavsiya qiladi;
- mavzuga doir monografik tadqiqotlarni, maqola va tezislar to'plamlarini, muammoga oid boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- birlashtirilgan talabalar bilan muntazam ravishda ish olib boradi va zaruriy maslahatlarni beradi;
- malakaviy ishning talaba tomonidan bajarilish jarayonini nazorat etadi va ilmiy-metodik tavsiyalar beradi;
- talaba tomonidan bajarilgan malakaviy ishning sifatiga va muallifligiga javob beradi;
- mavzularning qaytarilishiga va ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Bitiruv malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra bitiruv malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning (ayrim boblari, qismlari, paragraflari va bamlari bo'yicha boshqa maslahat beruvchilarni (konsultantlarni) taklif etishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi

Bitiruv malakaviy ish universitetning, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida, o'quv xonalarida va qiroatxonalarida bajariladi. Zaruriyat bo'lganda va ayrim hollarda, malakaviy ish Respublika va shahar kutubxonalarida, korxonalar, qo'mita va tashkilotlar, idoralar, muassasalar yoki kollejlarda bajarilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabanning hisobot berish muddatlari o'quv jarayonining grafigidan kelib chiqib dekanat tomonidan belgilanadi va nazorat qilinadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba Malakaviy Ishning bajarilishi haqida ilmiy rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishning tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Shu maqsadda kafedrada har bir bitiruvchi kesimida bitiruv malakaviy ishlarning bajarish monitoringi tashkil etilib, uning bajarilish holati rahbarning haftalik hisobotlari asosida foizlarda aniqlab boriladi.

Talaba - ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holatining yo'g'ligiga javob beradi. Bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bosqichlarida belgilangan muddatlardan kechikish hollari aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar kafedra mudiri tomonidan belgilanadi.

Texnik-metodik talablari

Bitiruv malakaviy ishi imlo xatolarisiz, ravon ilmiy iboralar va tushinarli tilda yozilishi, jumla va gaplar aniq ifodalanishi, ular o'zaro bog'liq bo'lishi va mantiqan bir-birini to'ldirib turishi kerak. Unda keltirilayotgan statistik va tahliliy va metodik materiallar faqatgina ko'rgazma (ilyustratsiya) vazifasini o'tab qolmasdan, aniq ilmiy xulosalar chiqarish va ularni isbotlab berish uchun xizmat qilishi lozim. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan barcha ma'lumotlarning aniqligiga, to'g'riligiga va haqiqiylikiga uning muallifi javobgar hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda shaxsan bajarilishi shart. Talaba tomonidan turli xil manbalardan dalillar, statistik ma'lumotlar, turli mualliflarning fikrlaridan iqtiboslar keltirish to'g'ri va ilmiy ma'lumotlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish

Bitiruv malakaviy ishda ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish nashr etishga tayyorlanayotgan ilmiy ishlar talablariga javob berishi kerak. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida talaba shu sohada mavjud bo'lgan va o'zi foydalangan boshqa ilmiy tadqiqotlardan, ma'lumotnomalardan asoslar keltirishi zarur.

Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish davomida talaba quyidagi shartlarga rioya qilishi lozim:

- bitiruv malakaviy ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar va boshqa manbalardan asos keltirish bir xil tartibda yoritilishi kerak;
- matnda foydalanilgan manbalar sahifa ostida belgilangan tartibda keltirilishi kerak;
- sahifa ostidagi izoh tarzidagi yozuvda vaqtli nashrlar, kitoblar, maqolalar nomi qo'shtirnoqqa olinmaydi; ·

- bitiruv malakaviy ishlaridagi jadvallar, rasmlar, grafiklar va boshqa ko'rgazmali ma'lumotlar bir betda joylashtirilishi va ikkinchi betga o'tmasligi kerak;
- bitiruv malakaviy ishlari yozish jarayonida foydalanilgan adabiyot va ilmiy manbalar soni mavzuni ochib beradigan darajada bo'lishi zarur.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishining ichki mazmuni

Titul varag'i: bitiruv malakaviy ishning birinchi sahifasi bo'lib, universitet tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq, 2-ilovaga keltirilgan shaklda rasmiylashtiriladi. Zar varaqdan keyin mundarija keladi.

Mundarija: bu qismda bitiruv malakaviy ishning boblari, paragraflari va bandlari keltiriladi. Bitiruv malakaviy ishning boblari, paragraflari va bandlarining nomlari qisqartirilmaydi va asosiy matn sarlavhasiga muvofiq tarzda berilishi zarur (3-ilova). Mundarijadan keyin ishning kirish qismi keladi.

Kirish qismida quyidagilar keltirilishi shart: Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va ahamiyati; Mavzuning oldiga qo'ygan maqsadi va undan kelib chiqadigan vazifalar; Bu mavzuning o'rganilganlik darajasi; Tadqiqotning ob'yekti va predmeti; Tadqiqotning ilmiy yangiligi; Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi; Tadqiqot bo'yicha chop qilingan maqola va tezislarning manbalari (bu bandni faqat chop qildirganlar keltiradilar); Kirishning umumiy hajmi A4 format varaqda kamida 3 bet ko'pi bilan 6 bet bo'lishi mumkin.

Asosiy qismda o'rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy jihatlari boblarga va paragraflarga ajratilgan holda bayon qilinadi. Bitiruv malakaviy ishning matnini bayon qilish tartibi alohida qism sifatida keltirilgan. Asosiy qismdan keyin ishning xulosa qismi keladi.

Xulosada talaba tanlagan mavzusi bo'yicha nazariy va amaliy shart-sharoitlarni o'rganib, mavjud muammolarni bartaraf qilish va jarayonni yanada faollashtirish borasida qisqa, aniq va lo'nda fikrini muxtasar shaklda bayon qiladi. Bitiruv malakaviy ishda xulosaning hajmi A4 format varaqda kamida 3 bet ko'pi bilan 6 bet bo'lishi mumkin. Xulosadan keyin foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati: Bitiruv malakaviy ish muallifi tomonidan foydalanilgan barcha rasmiy hujjatlar, ilmiy manbalar, statistik va tahliliy materiallar, shuningdek, ilmiy maqola va tezislar to‘plamidan tashkil topadi. Adabiyotlar va ulardan foydalanish tartibi alohida qismda keltirilgan.

Ilovada: Asosiy matnni o‘qishni qiyinlashtiradigan va mavzuni yoritish uchun ozroq foydalanilmaydigan ma’lumotlar, jadvallar, grafiklar, rasmiy hujjatlar nusxalari, diagrammalar keltiriladi va belgilangan tartibda ketma-ketlik asosida raqamlab chiqiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kurs ishiga qo‘yiladigan metodik talablarni ayting.
2. Kur sihining bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
3. Kurs ishlari mavzularida asosan nimalar aks ettiriladi?
4. Bitiruv malakaviy ishi mazmuni nimadan iborat?
5. Bitiruv malakaviy ishlarga ilmiy rahbarlar belgilash tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. Bitiruv ishiga ilmiy rahbarlik qiluvchining vazifasi nimadan iborat?
7. Bitiruv malakaviy ishining bajarilish tartibini tushuntiring.
8. Bitiruv ishiga qo‘yiladigan metodik talablar nimalardan iborat?

6.12. Pedagogik amaliyotga qo‘yiladigan metodik talablar.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- talabalarda tarbiyaviy ishga ongli, mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, tarbiyaviy ishni tashkil etish mahoratini tarkib toptirish;
- guruh murabbiyining kasbiy ahamiyatli sifatlarini o‘zlashtirishni ta’minlash;

- muayyan pedagogik vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik-psixologik bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlash va boyitish;
- tarbiyaviy ishni tashkil etishga doir ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;
- tarbiyaviy ishga ijodiy-izlanishli yondashish, tarbiyaviy ishni ilmiy tashkil etish malakasini hosil qilish;
- umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir ilg‘or tajribalar bilan tanishish;
- guruh murabbiysi, “Yoshlar ittifoqi” ijtimoiy harakati, otalar Kengashining ish rejalari bilan tanishish;
- o‘quvchilarning individual va yosh hususiyatlarini o‘rganish maqsadida amaliyotchi talabalarning o‘quvchilar bilan muloqati va o‘zaro hamkorligini tashkil qilish;
- iqtidorli va tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan tarbiyaviy ish olib borish malakasini tarkib toptirish.

Pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ishlab chiqilgan va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabr 305-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida”gi Nizomga muvofiq Buxoro davlat universitetida “Talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti haqidagi Nizom” ishlab chiqilgan.

Malakaviy pedagogik amaliyot ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etadigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llayotgan, bu borada etarli ish tajribalariga ega bo‘lgan, o‘quv-moddiy ta’minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta’limning umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bilan tuzilgan shartnoma asosida tuziladi. Malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tkaziladigan ta’lim muassasalari oliy o‘quv

yurti joylashgan hududga iloji boricha yaqin joylashgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

1. Talabalar amaliyot boshlanadigan birinchi kunida pedagogika oliy o'quv yurtida, pedagogik amaliyotga bag'ishlab o'tkaliladigan konferentsiyada qatnashadilar. Konferentsiyada talabalarni mutaxassisliklariga qarab guruhlariga bo'linadi va pedagogik amaliyot o'taydigan ta'lim muassasasi manzillari bilan tanishadilar. Talabalar pedagogik amaliyotning maqsad vazifalari, dasturi va uning mazmuni, birlashtirilgan metodist o'qituvchilar bilan tanishadilar.

2. Talabalar birlashtirilgan o'quv muassasasiga boradilar, manzil bilan yaqindan tanishadilar. Maktab rahbarii bilan suxbatlashib, uning tarixi va an'analarini, o'quv moddiy bazasi va uning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil qilish talabiga javob berishini, o'qituvchilar kontingentini o'rganadilar.

3. Talabalar pedagogik jamoaning tajribasi, ilmiy pedagogik ishlari, maktabdagi o'quv, metodik ishlar bilan tanishadilar. Ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilishi va joriy etilishi bilan tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba amaliyotni o'tash davrida ma'lum sinfga birlashtirib qo'yiladi, u shu sinf o'qituvchilariga mehnat ta'limidan beshta yo'nalish bo'yicha dars beradilar.

4. Amaliyotning birinchi haftasi maktabdagi, mehnat ta'limi xonalarining moddiy bazasi, hamda o'qituvchilar bilan tanishishga bag'ishlanadi. Bu davrda amaliyotchi talabalar o'zlari birlashtirilgan sinfdagi turli darslarda qatnashadilar, sinf rahbari o'tkazadigan barcha tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etadilar. Amaliyotchi talabalar haftaning oxiriga borib, har bir o'qituvchi haqida uning o'zlashtirishi, intizomi, o'qishga, jamoat ishiga munosabati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

5. Talabalar o'zlari birlashtirilgan ta'lim muassasasidagi ta'lim tarbiyaviy ishlar, guruh murabbiylari va fan o'qituvchisining taqvim mavzuli rejalari, mehnat ta'limi xonalarining yo'nalishlar bo'yicha jihozlanganligi bilan tanishadilar. Bundan tashqari amaliyotchi fan o'qituvchisining kelgusi darslarga tayyorgarligi dars rejalari tuzilishi, ulardagi darsning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi maqsadlarining qo'yilishini o'rganadilar. O'qituvchilarning fan yuzasidan bilim darajalarini o'rganib davlat ta'lim standart talablariga to'g'ri kelishini tahlil

qiladilar. Fan o'qituvchisining darslarda ko'rgazmali qurollardan foydalanishi va ularning natijalarini o'rganadilar.

6. O'qituvchi bo'lib ishlash mobaynida talaba faqatgina mehnat ta'limi darslariga kiribgina qolmay chizmachilik, rasm kabi turdosh fanlardan darslarga kirib, tahlil qiladilar. Ularning mehnat ta'limiga bog'liq tomonlarini o'rganadilar. Texnologik ta'limning barcha yo'nalishlarini, ya'ni texnik va maishiy xizmat ko'rsatish mehnati darslarini kuzatib darslarning tashkil qilinishini o'rganadilar.

7. Amaliyot davrida talabalar o'zlariga birlashtirilgan sinflarda tarbiyaviy ish rejasiga asosan bayram tadbirlarini o'tkazadilar. Bunda talaba o'zining ijodiy faoliyatidan kelib chiqqan holda "Balli qizlar", "Navro'z taomlarini tayyorlash" mavzusida tadbirlar o'tkazishi mumkin. Talaba bayram stsenariysini tuzadi, o'quvchilarni tayyorlantiradi.

8. Maktabda tashkil qilingan to'garaklarning ish rejaları bilan tanishadilar. To'garak a'zolari, ularning faoliyati bilan tanishib darslarini tahlil qiladilar. Navbatdagi to'garak darslariga tayyorlanib sinov darslarini o'tadilar.

9. Yo'nalishlar bo'yicha 8-9sinflarda "Ishlab chiqarish asoslari", "Kasbga yo'naltirish" darslarini tahlil qiladilar, navbatdagi darslarga tayyorgarlik ko'rib avval sinov darslarini so'ngra esa namunali darslarga ko'rgazmali qurollar tayyorlash va o'tish.

10. Sinf rahbari bilan birga ota-onalar bilan ishlashni, ular bilan yig'ilashlar o'tkazishni o'rganadilar. Tarbiyasi og'ir balgan o'qituvchilarning oilaviy sharoitlari bilan tanishib, ularni to'g'ri yo'lga solish tadbirlarini ishlab chiqadilar.

11. Pedagogik amaliyot davrida tayyorlashi kerak bo'lgan hujjatlarni yig'ish va pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan konferentsiyaga tayyorgarlik ko'rish. Hisobot topshirish.

Talaba malakaviy pedagogik amaliyot davrida quyidagi ko'nikma va malakalarni egallashi zarur:

- o'quvchilar jamoasining ijtimoiy-psixologik va yosh xususiyatlarini hamda ma'naviy-ahloqiy, fuqarolik tarbiyasining umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq tarbiyaviy vazifalarni belgilay olishi:

- tarbiya jarayonini to'g'ri loyihalashtirish va rejalashtirish maqsadida o'quvchilar jamoasi va o'quvchi shaxsini o'rganish;

- guruh murabbiysi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, ota-onalar Kengashining ish rejalarini tuzish hamda ma'naviyat va tarbiyaviy soatlarni, ota-onalar yig'ilishini o'tkazish;

- tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

- ta'lim muassasasining oila va mahalla bilan hamkorligini tashkil etish;

- sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talaba tomonidan bajariladigan topshiriqlarining umumiy ro'yxati:

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tuzish.
2. O'ziga biriktirilgan guruh bilan ishlash.
3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.
4. Ota-onalar bilan ishlash.
5. To'garaklar faoliyatini o'rganish va mashg'ulotlar o'tkazish.
6. Tarbiyaviy soatlarni o'tkazish.
7. "Yoshlar ittifoqi" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini o'rganish.

Psixologik-pedagogik tavsifnoma:

a) 1 ta guruh uchun;

b) 2 ta o'quvchi uchun.

Amaliyotchi talaba dars o'tgan fanidan 6-8 ta dars ishlanmasi.

Sinov dars rejasi va ishlanmasi.

Sinov dars uchun talaba tomonidan tayyorlangan o'quv-ko'rgazmali qurol, tarqatma materiallar. Sinov darsning tahlili va maktab metod birlashmasi (Maktab pedagogik kengashi) bayonnomasidan ko'chirma. Amaliyotchi talaba uchun pedagogik amaliyot o'tgan o'quv muassasasining tavsifnomasi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar umumlashtirilgan hisobot. Amaliyotning umumiy bahosi talabaning tarbiyachi va o'qituvchi sifatida bajargan ishi,

o'quvchiga yozilgan pedagogik tavsifnoma, hamda hujjatlarning o'z vaqtida topshirilishi va sifatini hisobga olgan holda reyting tizimin asosida quyiladi. Pedagogik amaliyotni o'tashda talaba pedagogika, psixologiya, umumtexnik va metodik fanlardan egallangan bilimlariga tayanadi.

Pedagogik amaliyot turlari: aktiv, passiv, tanishuv va uzluksiz

Amaliyotda ba'zan "metod" va "texnologiya" tushunchalari bir xil mazmunda qo'llaniladi. Aslida, metod - maqsadga erishish yo'li, usullari yig'indisi sifatida yaxlit ta'lim jarayonining alohida tarkibiy qismi hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda adabiyotlarda muallif tomonidan metodlarni "faol", "sust", "interfaol" kabi turlarga tasniflash holatiga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Aslida faol (aktiv) va sust (passiv) metodning o'zi bo'lmaydi. Mazkur metodlar tasnifi o'quvchining jismoniy holati va harakatiga nisbatan shartli olingan.

Aktiv metoddan foydalanganda ta'lim jarayonining markazida o'quvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi passiv, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'lib qoladi. O'qituvchi guruhni boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi, o'quvchilar esa berilgan topshiriqlarni mustaqil fikrlab, muammolarni bartaraf eta oladigan darajada faoliyat yuritadilar. Bunday metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, rolli o'yinlar va boshqalar kiradi.

Shu uchun ko'proq aktiv metodi orqali talabalarga amaliyot bo'yicha nazariy tushuntirish ishlari olib boriladi.

Passiv metod. Ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchi bo'lib qoladi. Ushbu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi mavzu boyicha ma'ruza qiladi, tushuntiradi, ta'lim vositalari orqali ma'lumotlarni taqdimot va namoyish qiladi. O'quvchi bu sharoitda faqatgina tinglovchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bunday metodlarga ma'ruza, namoyish, taqdimot, illyustratsiya va boshqalar kiradi.

Uzluksiz pedagogik amaliyotga qo'yilgan talablar

Vazirlikning 2005-yil 30-sentyabrdagi 217-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning

reyting tizimi to'g'risidagi Nizom" ga asosan Samarqand davlat universiteti Ilmiy kengashining 2007-yil 31-avgustdagi yig'ilishida tasdiqlangan "Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizomi"ning Reyting tizimi asosida baholash mezonlari bo'limining 4.6 bandida talabalarning barcha turdagi amaliyotlari: o'quv, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotlari 100 (yuz) ballik tizimda baholanishi ko'rsatilgan. Unda talabaning amaliyot davridagi kundalik foaliyati uchun (JB) maksimal 50 ball, hamda hisobot sifati va uning himoyasi uchun (YaB) maksimal 50 ball ajratilgan. Shundan kelib chiqqan holda uslubiy ko'rsatmada kunduzgi ta'lim 4-bosqich talabalari bilan o'tkaziladigan sakkiz oylik pedagogik amaliyoti bo'yicha to'plangan tajribalar o'z ifodasini topgan. Unda sakkiz oylik pedagogik amaliyot davomida JB ga qo'yilgan talablar, uni o'tkazish tartibi, baholash mezonlari berilgan. Bular 30 haftaga mo'ljallangan ish reja sifatida tavsiya etilgan. Unda har bir talaba sakkiz oy davomida maksimal 50 ball hisobida har kuni nima ish bilan band bo'lishi, bajariladigan ishlarning turlari va ularga beriladigan ballari aniq sanalarigacha ko'rsatilgan. Amaliyot rahbari amaliyotchi talabaning oy davomida nima ish qilganligining hisobotini ko'rib chiqadi va uni tasdiqlaydi. Ikkinchidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan zarur maslahatlarni beradi, kelgusi oyda rejalashtirilgan ishlari bilan tanishib chiqadi. Amaliyot oxirida bajarilgan ish turlari bo'yicha hisobot yoziladi.

Pedagogik amaliyot jarayonida tavyorlanadigan hujjatlar

- Pedagogik amaliyot tugaganidan so'ng talabalar quvidagi hujjatlarni tegishli tartibda rasmiylashtirgan holda taqdim etadilar:
 - amaliyotchining shaxsiy ish rejasi;
 - pedagogik amaliyot kundaligi;
 - amaliyotchi talabaning mehnat fani bo'yicha kamida 40 ta darsning tahlili (yo'nalishlar bo'yicha);
 - tanlangan yo'nalish bo'yicha texnologiya fanidan kalendar mavzuli reja;
 - tarbiyaviy ish rejasi;
 - tarbiyaviy soatlar tahlili;
 - texnologiya fanidan tashkil qilingan to'garak ishlar rejasi;

- yosh fiziologiya va gigiyena fanidan mustaqil ish topshiriqlariga javoblar;
- tarbiyaviy tadbir ssenariysi.

Quyida talabalar pedagogik amaliyot davrida amalga oshirishi kerak bo'lgan tadbirlar hamda bu jarayonda yuritiladigan hujjatlar mazmuni keltirilgan

Amaliyot tugagach, talaba 3 kun ichida hisobot topshiradi. Unga kundalik, tavsifnoma, dars rejalari, ochiq darslar muhokamasi qarorlaridan kuchirma, o'tkazilgan darslar rejasi va konspekti, qatnashgan darslari tahlili bayoni, o'tkazilgan tarbiyaviy ishlarning stsenariysi (matni), 2 ta o'quvchiga psixologik-pedagogik tavsifnoma, amaliyotchining ish dasturi, amaliyot davrida guruhning o'quv-tarbiya ishlari oylik va yillik (semestr) ish dasturlari, kasb -hunar kolleji haqida ma'lumot, kelgusida kasb-hunar kolleji ishini rivojlantirish, dars sifatini oshirishga oid fikrlari ilova qilinishi kerak.

Ko'rgamali qurollar tayyorlash. Amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar

1. Texnologiya fani o'quv ustaxonasi va o'quv jihozlariga qo'yilgan talablar.
2. O'qitishni korgazmali qurollari.
3. O'quv jihozlarining tavsifi.
4. Jonli tabiat burchagini tashkil etish.

Umumta'lim maktablarida texnologiya xonasi ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladigan ilmiy asosda tashkil etilgan o'quvchi va oqituvchining mehnati maxsus jihozlangan xonadan iborat bulishi kerak. Xonada nafaqat dars tashkil qilish, balki sinfdan tashqari xilma xil ishlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. O'quvchilarning texnologiya fanidan bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish uchun imkon yaratish talab etiladi. Xonadagi texnik vositalardan keng foydalanish oqitishga ijodiy yondashish, oquvchilarni faol fikirlashga olib keladi.

1. Tabiiy o'quv ko'rgazmali materiallar.
2. Tasviriy o'quv ko'rgazmali materiallar tayyorlash mumkin.

O'quv ustaxonani tashkil etishda fan o'qituvchisining roli nihoyatda katta. U

mavzular bo'yicha jihozlar, o'quv vositalari majmuyini umumlashtiradi, uni toldirib berishni taminlaydi. Texnologiya o'quv ustaxonasi quyidagi masalalarni yechish uchun yordam qilishi kerak.

1. O'qishning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus jihozlar bilan o'qish jarayonini taminlash.

2. Ma'lumotlarni barcha turlarida texnik vositalardan keng foydalanish.

3. Texnologiya fanida amaliy ishlar va boshqalar uchun tegishli o'quv materiallar bilan taminlash.

4. Daralar va sinfdan tashqari ishlar uchun zarur jihozlar bilan taminlash. Texnologiya o'quv ustaxonasi nafaqat yahshi jihozlanib qolmay, balki ishlash uchun qulay va estetik jihatdan talabga javob berilgan bo'lishi kerak. Xonani jihozlashda o'quv mashg'ulotlari uchun mos materiallarni tanlashga diqqat etiborni qaratish kerak.

Amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar

Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot ob'yektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga institut tayinlangan rahbarga topshiradi. Hisobot talabaning davrida bajargan muayyan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, amaliyot ob'yekti bo'limlarining qisqacha izohi, (tsex, bo'lim, laboratoriya va boshqalar). Ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyatining xavfsizligi to'g'risidagi masalalar, amaliyot natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni o'z ichiga olishi lozim.

Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini institut tomonidan tayinlangan komissiya olida himoya qiladi. Komissiya tarkibiga o'tilayotgan amaliyot fanini olib boruvchi o'qituvchi, institut tomonidan biriktirilgan rahbar va iskon bo'lsa, amaliyot ob'yektidan tayinlangan rahbar va imkon bo'lsa, amaliyot ob'yektidan tayinlangan rahbar ham kiritiladi.

Amaliyot natijasi bahosi talabaning kursdan kursga o'tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi. Amaliyot yakuni institut ilmiy-uslubiy anjumanda muhokama qilinadi. Institut va fakultet ilmiy kengashida amaliyotning natijalariga ko'ra yakun yasaladi. Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz

yoki hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba ta'til vaqtida o'z hisobidan qayta amaliyot o'tishga jo'natiladi. Ayrim hollarda, bunday talabaning kelgusida oliy ta'lim muassasasida o'qishi mumkinligi masalasi rektor tomonidan ko'rib chiqiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik amaliyotning maqsadi nimadan iborat?
2. Malakaviy pedagogik amaliyotda qanday vazifalar amalga oshiriladi?
3. Talabalar pedagogik amaliyot davrida qanday ko'nikma, malakalarga ega bo'ladilar?
4. Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talaba tomonidan bajariladigan topshiriqlarining umumiy ro'yxatini tushuntiring.
5. Pedagogik amaliyotning qandau turlari bor va o'tkazilish mazmuni haqida ayting.
6. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar tomonidan qanday hujjatlar tayyorlanadi?
7. Amaliyot jarayonlarida ko'rgazmali qurollarning ahamiyati nimada?
8. Pedagogik amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar qanday?

Test savollari

1. Texnologiya faninini o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishdan maqsad nimadan iborat?

A) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fani metodologiyasini, texnologiya darslarida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirish

B) Milliy istiqlol g‘oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs

C) Texnologiya, kasb tanlashga yo‘llash o‘qituvchisi sifatida shakllantirishdir.

D) Hamma javoblar to‘g‘ri

2. Mehnat ta’limi DTS da hammasi bo‘lib fanga necha soat ajratilgan?

A) 408 soat

B) 406 soat

C) 407 soat

D) 508 soat

3. Texnologiya qaysi tildan olingan va qanday ma’noni bildiradi?

A) Lotincha “techno”-hunar, usta va “logos” -fan ta’lim

B) Yunoncha “techno” - san’at va “logos” - o‘rganishdan

C) Lotincha “techno”-ta’lim va “logos” - hunar

D) Yunoncha “techno”-fan va “logos” - ta’lim

4. Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta’lim quydagilardan qaysilarni o‘z ichiga oladi?

A) Jismoniy tarbiya Aqliy tarbiya.

B) Estetik tarbiya. Axloqiy tarbiya.

C) Mehnat tarbiyasi(hunar o‘rganish).

D) Jismoniy tarbiya Aqliy tarbiya. Estetik tarbiya. Axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi(hunar o‘rganish).

5. Amaliy fanlar blok-moduli tavsifiga qaysi fanlar kiradi?

A) musiqa madaniyati, tasviriy san'at, chizmachilik, texnologiya, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari

B) musiqa madaniyati, tasviriy san'at, chizmachilik, texnologiya

C) matematika, chizmachilik, texnologiya

D) musiqa madaniyati, tasviriy san'at, chizmachilik, texnologiya

6. Amaliy fanlar o'quv predmetlari blok - moduli bo'yicha o'quvchilarda rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalarni belgilang.

A) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi;

B) Kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi;

C) To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi;

D) Kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, psixomotor, funksional, hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

7. Vazirlar Mahkamasining qaysi qaroriga asosan Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi.

A) 2018 yil 5 - apreldagi 187-son

B) 2017 yil 6-apreldagi 185-son

C) 2017 yil 5-apreldagi 187-son

D) 2017 yil 6-apreldagi 187-son

8. Texnologiya fani o'qitish metodikasi fani nimani o'rganadi?

A) Yoshlarga ta'lim tarbiya berish usullarini

B) Yoshlarni har tomonlama kamol toptirish masalasi bilan

C) Aynan bir fanning xususiy masalalarini

D) Hammasi to'g'ri javob

9. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi qaysi fanlar bilan aloqador?

- A) Yoshlar gigiyenasi va fiziologiyasi, psixologiya
- B) Yoshlar gigiyenasi va fiziologiyasi
- C) Psixologiya, yoshlar fiziologiyasi
- D) To‘g‘ri javob yo‘q.

10. Umum ta‘lim maktablarida texnologiya fani qanday amalga oshiriladi?.

- A) Test olish orqali amalga oshiriladi .
- B) Boshlang‘ich sinfda qo‘l mehnati, V-VII sinfda texnik mehnat, VIII-IX sinfda kasbga yo‘naltirish.
- C) Yog‘och o‘ymakorlik ishlari
- D) V-IX sinflarga kasbga yo‘naltirish.

11. Texnologiya fanidan dars rejasi qanday tuziladi ?

- A) Dars o‘tiladigan kun, mavzu, maqsadii, ish ob‘ekti, jihoz va materiallar, darsning borishi, darsning tashkiliy qismi, o‘tgan dasrni mustahkamlash, yangi mavzuni bayon qilish, kirish, joriy, yakuniy instruktajlar, uyga vazifa, foydalanilgan adabiyotlar.
- B) Mavzuni rejaga binoan faqat yangi mavzuning bayoni yoritiladi .
- C) Hamma javoblar to‘g‘ri .
- D) Dars jarayonida o‘qituvchining dasrni qanday tashkil etishi bayon etiladi .

12. Texnologiya fanidan fanlararo bog‘lanish nima uchun kerak?

- A) Amaliy bilimlarni hayotda qo‘llash uchun .
- B) Fanlar bilan mehnat ta‘limining samaradorligini oshiradi .
- C) Fanlararo boshlanishni amalga oshirish nazariy bilimlarni turmush bilan bog‘lashdan iborat.
- D) Amaliy bilimni mustahkamlash uchun .

13. Mehnat ta‘limini tabiiy va ilmiy fanlar bilan bog‘lash rejasi qanday tuziladi?

- A) Ularnining amalda qo‘llash darajasi muvofiqligiga qarab .
- B) Fanlarning ilmiyligiga asoslangan holda

- C) Tabiiy fanlarning texnologiya fani bilan bog'liqligini hisobga olgan holda
- D) Fanlarning rejaga mosligiga qarab.

14. Texnologiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni ko'rsating.

- A) O'quvchilar ichida xavfsizlikni ta'minlash.
- B) Ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, halollik, kamtarlik, qattiylik, dalillik, mas'uliyatlilik, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish
- C) Ta'lim-tarbiya vazifalarini, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash .
- D) O'quv dastgohlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish .

15. Texnologiya fanida o'qitish shakllarini ko'rsating.

- A) Individual
- B) Zveno
- C) Frontal
- D) Hamma javob to'g'ri

16. Mehnat ta'limining didaktik talablarini ko'rsatib bering .

- A) Dars maqsadining aniqligi, ta'lim tarbiya vazifalarining birligi, o'quv materialini to'g'ri tanlash, ta'lim metodlarini tanlash,
- B) O'quv stanoklarini xavfsizligini aniqlash
- C) Asboblardan bilan ta'minlash va jihozlash
- D) Hammasi to'g'ri javob

17. Mehnat va tadqiqot metodlarini ko'rsating .

- A) Kuzatish, anketa so'roqlari, suhbat, pedagogik tajribani o'rganish tajribalar
- B) Malaka amaliyot
- C) Ko'nikma pedagogik tajribani o'rganish, laboratoriya tajribalari .
- D) Malaka, anketa surovnomalar laboratoriya tajribalari

18. Dars rejasi tuzish nima uchun kerak?

- A) Dars birin-ketin uzviy boglash uchun
- B) O'qituvchilarning darsga tayyorlanishi, uning strukturaviy tuzilishini ishlab chiqish uchun.
- C) O'quvchilarni darsga jalb qilish uchun

D) Hamma javob to'g'ri

19. O'quv yili uchun qanday hujjatlar rejalashtiriladi?

A) Yillik ish reja tuziladi .

B) Oylik yoki choraklik ish rejalar tuziladi .

C) Taqvim mavzuli reja, ishlab chiqarish ishlari ro'yxati, dars reja

D) Hamma javoblar to'g'ri .

20. O'quv ustaxonasiga qanday talablar qo'yiladi?

A) Sanitariya va gigiyena talablariga javob beradi .

B) Xonalar zaruriy materiyallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak

C) Barcha javoblar to'g'ri

D) Sanitariya gigiyena talablariga javob beradi, dasturdagi mavzular o'rganish uchun sharoit yaratiladi. davr talabi asosida jihozlangan, zaruriy materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

21. Mehnat va kasb ta'limining didaktik tamoyillarini ko'rsating .

A) Didaktik, tarbiyaviy, bilimlarni amaliyotda qo'llash ilmiylik va politexnik xarakteri, mehnat ta'limining ongliligi va aktivligi, mehnat ta'limining sistemaligi va puxtaligi

B) Didaktik tarbiyaviy texnikaviy ilmiylik

C) Ilmiylik va poltexnikaviy xarakteri sestemasi

D) To'g'ri javob A va B

22. Texnologiya fani dasturini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?

A) O'quvchilarning yoshini hisobga olish

B) Mahallani hisobga olish, sharoit yetishi hisobda olinishi kerak

C) Mehnat ta'limi dasturi barcha o'quvchilar uchun bir xil bo'ladi

D) Qishloq va shahar maktablari sharoitini hamda o'g'il va qizlarga mos bo'lishiga e'tibor berishadi

23. O'quv ustaxonasini jihozlash tartibini tushuntirib bering.

A) O'quv ustaxonasi derazalarida gullar bo'lishi kerak

B) O'quv ustaxonasi keng, yorug' bo'lishi kerak

C) Yer sathi 90m², 36 voltli pasaytiruvchi asbob, sahna 20 m²

D) O'q'uv ustaxonasini jihozlashda mebel anjomlari bilan jihozlash kerak

24. Texnologiya fani o'qituvchisi o'quv yiliga qanday tayyorgarlik ko'radi.

- A) Yillik mavzuli reja tuzadi xonani jihozlaydi
- B) Ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi konspekt yozadi
- C) O'quv xonani jihozlaydi. Ko'rgazmalar tayyorlaydi
- D) Hamma javob to'g'ri

25. Mehnatga axloqiy tayyorlash nima?

A) O'quvchilarni mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi.

B) Mehnat ta'limi va tarbiyasi bilan o'quvchilarni mehnatga tayyorlash.

C) O'quvchilarni mehnat kishilariga va mehnat natijalariga yaxshi munosabatda bo'lish.

D) Bolalarga jamoada ishlani, o'zaro do'stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishdan iborat.

26. Mehnatning psixologik komponentlari.

A) Sezish, anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur.

B) Diqqat, idrok, xotira, tafakkur.

C) Psixomotor, emotsional idrok, e'tibor, ko'rish, eshitish.

D) Sezish, psixomotor, emotsional, idrok, diqqat, xotira.

27. Dars rejasini nimalar tashkil etadi?

A) Yangi mavzu, darsning yakuniy qismi.

B) Tashkiliy qism, asosiy qism, yakuniy qism.

C) Tashkiliy qism va yakuniy qism.

D) Ta'limiy, tarbiyaviy va tashkiliy qism.

28. Jismoniy mehnat nima?

A) Jismoniy harakat.

B) Mehnatning hamma turi jismoniy mehnatdir.

C) Insonning tana a'zolari orqali ongli ravishda faoliyat ko'rsatish.

D) Inson aqliy faoliyati bilan ish bajarishi.

29. Mehnatga amaliy tayyorlash nima?

A) Asbob va uskunalardan foydalana bilish, materialga ishlov bera olish, xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish.

B) Mehnat ta'limining muhim omillaridan biridir.

C) Asbob va materiallarga ishlov bera olish.

D) Mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

30. Texnologiya fani o'qituvchisi darsda nimalarga e'tibor berishi kerak?

A) Bolaning qobiliyatiga, qiziqishiga, imkoniyatlariga e'tibor berish kerak.

B) Mehnat darsida yangidan-yangi bilim va ko'nikmalar berish kerak.

C) Darsni tushuntirish, materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni materiallarga ishlov berish usullarini va bosqichlar izchilligini ko'rsatishga.

D) Darsni rejalashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, ko'rsatmaga amal qilishga, ish joyini to'g'ri tashkil etishga.

31. Texnologiya fanining vazifasi nima?

A) O'quvchilarni mehnatga, mustaqil hayotga tayyorlash.

B) Axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologiya va aqliy bilim va jismoniy mehnatga o'rgatish.

C) O'quvchilarni kasbga, hunarga o'rgatish.

D) O'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatish.

32. O'qitish metodlarini tanlash nimalarga bog'liq?

A) Mashg'ulot mavzusiga

B) O'quv materialining mantiqiy yo'nalishi, mazmuni va mustaqil ish xarakteriga bog'liq.

C) Mashg'ulot turi va tipiga

D) O'qituvchi bilimiga

33. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida texnologiya o'quv faniga 1-4 sinflarda haftasiga necha soatdan o'tiladi?

A) Haftasiga 1 soatdan

B) Haftasiga 2 soatdan

C) Haftasiga 3 soatdan

D) Haftasiga 4 soatdan

34. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv rejasida texnologiya o‘quv faniga 5-7 sinflarda haftasiga necha soatdan o‘tiladi?

- A) Haftasiga 3-4 soatdan
- B) Haftasiga 3 soatdan
- C) Haftasiga 5 soatdan
- D) Haftasiga 2 soatdan

35. O‘quv materialining mazmuniga quyidagilardan qaysilari kiradi?

- A) Ta’limning ko‘rgazmali va texnik vositalarini qo‘shib hisoblaganda darsni o‘tkazish zarur bo‘lgan o‘quv qurollari;
- B) Darsning har bir qismida o‘qituvchi va o‘quvchining ish usullari hamda metodlari;
- C) Darsda bevosita o‘tkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar.
- D) Yuqoridagilarning barchasi to‘g‘ri.

36. Texnologiya fani o‘qituvchisining shaxsiy fazilatlariga quyidagilardan qaysilari kiradi?

- A) Mehnat ta’limi o‘qituvchisi o‘z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilish;
- B) Mustahkam mehnat va kasb ko‘nikmalari va malakalarini egallagan bo‘lishi;
- C) Mavzuni o‘quvchilarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi;
- D) Hamma javoblar to‘g‘ri

37. - mohiyatiga ko‘ra ikki o‘quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni, ya’ni birinchi o‘quv predmeti bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarini ikkinchisida qo‘llashni va aksincha qo‘llanishini ifodalaydi.

- A) O‘zaro aloqadorlik
- B) Integrativ aloqadorlik
- C) Predmetlararo aloqadorlik
- D) Integratsiya

38. - o‘zining mohiyatiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, o‘rganilayotgan ob‘yektning turli jihatlari va xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

- A) Predmetlararo aloqadorlik
- B) O‘zaro aloqadorlik
- C) Integrativ aloqadorlik
- D) Uzviylik

39. Modulli o‘qitish samaradorligi qanday omillarga bog‘liq?

- A) Didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga; - modullar natijasi va tahliliga
- B) Malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi
- C) Ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasi
- D) Barcha javob to‘g‘ri

40. Modulli ta‘limning amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashning afzalliklari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A) Ta‘lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar(bloklar)dan iborat bo‘lishi va ularni o‘zlashtirish ta‘lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim.
- B) O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o‘quvchi bilan yaxshi munosabatda bo‘lib boshqaradi.
- C) Chop etilgan modullarning mavjudligi o‘qituvchiga o‘quvchilarning har biriga individual maslahat bera olish va o‘quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi.
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

41. - o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash bo‘yicha o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, ularning tafakkur va qobiliyatlarni o‘stirish, dunyoqarash, ma‘naviy sifatlari, axloqiy, estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

- A) Tarbiya
- B) Ta‘lim

C) Dars

D) Metod

42. Olimpiada o'tkaziladigan fanlar bo'yicha baholash mezonlari qanday bo'ladi?

A) O'quvchilar o'zini o'zi baholaydi

B) Ota-onalar tomonidan baholadi

C) Mutaxassis o'qituvchilar tomonidan baholanadi

D) Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va qo'shma buyruq bilan tasdiqlanadi.

43. Mehnat ta'limining quyidagi nechta tamoyillari mavjud?

A) 10ta

B) 11ta

C) 12ta

D) 9ta

44. Ta'lim va tarbiya birligi - bu?.

A) Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash.

B) Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyasini inobatga olmaslik

C) Ta'lim jarayonida o'quvchilarni urushish

D) Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yomon yo'lga boshlash.

45. Mehnat ta'limining tarbiyaviy mohiyati tarbiyaviy vazifalarni o'qitishning mazmuni, shuningdek o'quv ishlarini tashkiliy shakl va metodlari orqali amalga oshirishdan iborat. Bu qaysi tamoyil?

A) Ta'lim va tarbiya birligi.

B) Nazariya va amaliyot birligi.

C) Ta'limning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.

D) Ta'limda tizimlilik va izchillik.

46. Mazkur tamoyil mehnatga doir o'quv materialini o'quvchilar o'rganilayotgan hodisa va jarayonni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishiari bilan bir qatorda, ularda abstrakt tafakkurni shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Bu qaysi tamoyil?

- A) Ta'lim va tarbiya birligi.
- B) Ta'limning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.
- C) Ko'rgazmalilik.
- D) Ta'limda tizimlilik va izchillik

47. Umumli mehnat o'quvchilarning texnik bilimlarini o'zlashtirish hamda ularning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bu qaysi tamoyilga tegishli?

- A) Mustahkam va puxta o'zlashtirish.
- B) Ta'lim va tarbiya birligi.
- C) Ta'limning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.
- D) Ta'limda tizimlilik va izchillik

48. Texnologiya fani darslarida o'quvchilar umumtexnika xarakteridagi qaysi fanlarning dastlabki ma'lumotlarni egallaydilar?

- A) Chizmachilik, materialshunoslik, mashinashunoslik, elektrotexnika
- B) Adabiyot, tarix, jug'rofiya, fizika
- C) Fizika, ximiya, rasm, fiziologiya
- D) Chet tili, mashinashunoslik

49. Metodik reja qaysi majlisda ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi?

- A) Pedagogik kengash
- B) Xalq kengashi
- C) Deputatlar kengashi
- D) Metodik kengash

50. Darsning didaktik vazifasini aniqlang.

- A) O'qitish usullarining optimal variantlari
- B) Maqsadga olib keluvchi masalalarning ketma-ketligi
- C) Dars materialining amaliyot bilan va oldingi o'tilgan materiallari bilan bevosita bog'lanishi
- D) Darsning tuzilishini aniqlash: darsni samarali boshlash va vaqtni to'g'ri taqsimlash, darsning rejasi va yaxlitligi

51. Integratsiyalash turlari qaysilar?

- A) An'anaviy, noan'anaviy, muammoli
- B) Bir butunlik, didaktiklik, umumilmiy
- C) Umummetodologik, umumilmiy, xususiy ilmiy, muammoli
- D) Didaktiklik, umummetodologik, xususiy ilmiy, an'anaviy

52. Individual metodik ish quyidagi qaysi shakllarda amalga oshiriladi?

- A) Umumta'lim maktablari rahbarlari, o'qituvchilar, va boshqa texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi
- B) Pedagogik malakasi va kasb mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil metodik ishlari
- C) Maktab rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar, pedagoglar va boshqa texnik xodimlar bilan olib boriladigan individual metodik ishlari
- D) Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

53. Pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish qaysi kompetentlikka mansub?

- A) Kreativ kompetentlik
- B) Ektremal kompetentlik
- C) Texnologik kompetentlik
- D) Innovastion kompetentlik

54. Texnologiya va dizayn yo'nalishi qanday bo'limlardan tashkil topgan?

- A) Yog'ochga va metallga ishlov berish texnologiyasi
- B) Kasbga yo'naltirish
- C) Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi
- D) Hamma javoblar to'g'ri

55. O'quv rejasi nima?

- A) Har bir fan bo'yicha alohida-lohida mavjud bo'lib mehnat ta'limi bo'yicha o'quv dasturi boshqa fanlardan farq qiladi.
- B) Har bir sinfda o'tiladigan fanlar, haftada necha soatdan va o'quv yili davomida jami shu sinfda necha soat dars o'tilishi kerak ekanligini ko'rsatuvchi hujjat.

C) O'quv ustaxonasida qilinadiga ishlar ro'yxati.

D) Hammasi to'g'ri.

56. Rejalashtiruvchi hujjatlar qaysilar?

A) Tabiiy-ilmiy shakldagi fanlar o'zaro bog'lanish jadvali, konstruksion-texnologik xarita.

B) O'quv ustaxonalarida yasaladigan buyumlar ro'yxati.

C) To'g'ri javob yo'q

D) O'quv ustaxonalarida yasaladigan buyumlar ro'yxati, tabiiy-ilmiy shakldagi fanlar o'zaro bog'lanish jadvali, konstruksion- texnologik xarita.

57. O'qitish shakli nima?

A) O'qituvchi tomonidan bilim, malaka va ko'nikma singdirilishi va o'quvchilar tomonidan bu bilim, malaka ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'ziga xos usullarini xarakterlaydi.

B) Har bir mavzuni o'qitishda nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasiga amal qilinishini ta'minlashi kerak.

C) O'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish uchun ular qay tarzda tashkil etilganligini xarakterlaydi.

D) Hamma javob to'g'ri.

58. "Pazandachilik asoslari" qaysi bo'limlarga ega bo'ladi?

A) Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari, tabiiy tolali gazlamalardan paxta va zig'ir tolalaridan to'qilgan gazlamalar, ularning xususiyatlarini bilish.

B) Turli choklar bilan so'kilgan buyum larni ta'mirlab, tikishni bilish.

C) Pazandachilik o'quv xonasida xavfsizlik texnika qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari, pazandachilik tarixi va taraqqiyoti, oziq-ovqat malisulotlarining ozuqaviy qiymatini inson organizmi ucliun ahamiyatini bilish.

D) Hamma javoblar to'g'ri

59. Kuzatishga asoslangan tasniflash ishlari qaysilar?

A) Obzor tadqiqotlari

B) Ta'lim tarbiya unsurlari orasida bog'liqlikni aniqlash

- C) Izlanish tadqiqotlari
- D) Hamma javob to'g'ri

60. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi qaysi?

- A) Test sinovlari metodi
- B) Suhbat metodi
- C) Ekperiment metodi
- D) Kuzatish metodi

61. Texnologiya ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llashda ilmiy tadqiqot ishlarning metodologik asoslari qaysi?

- A) Shaxsning ijodiy va faoliyatlilik ma'nosi haqidagi ta'limot.
- B) Shaxsning o'zaro aloqa bog'lash va o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'limot.
- C) Munosabatlar nazariyasi. Mutaxassis shaxsini shakllantirish haqidagi nazariy ta'limot.
- D) Hamma javoblar to'g'ri

62. Texnologiya ta'limining tamoyillari qaysilar?

- A) Ta'lim va tarbiya birligi. Ta'lim ning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.
- B) Ta'limda tizimlilik va izchillik. Nazariya va amaliyot birligi. Yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.
- C) Onglilik va faollik. Ta'limda ko'rsatmalilik. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.
- D) Hamma javoblar to'g'ri

63. O'quvchilar mehnat ta'limi darslarida olgan texnik bilimlari, mehnat ko'nikmalari va malakalari tom ma'nosi bilan ilmiy va politexnik xususiyatga ega bo'lish kerak bu qaysi tamoyil?

- A) Ta'limda tizimlilik va izchillik.
- B) Ta'lim ning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.
- C) Nazariya va amaliyot birligi.
- D) Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.

64. Ta'lim-.....

A) O'rganayotgan ob'yekt haqida uning muhim xususiyat va sifatlarini, obyektning ma'lum jihatlarini biz tushunchalarda ifodalaymiz va o'rganamiz.

B) Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan "o'qituvchi-o'quvchi-o'qituvchi" muloqoti bo'lib, uning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

C) O'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o'quvchida bilim, iqtidor va ko'nikm alarning o'zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

D) A va C javob to'g'ri

65. Bilim -

A) O'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o'quvchida bilim, iqtidor va ko'nikm alarning o'zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

B) Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan "o'qituvchi-o'quvchi-o'qituvchi" muloqoti bo'lib, uning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

C) O'rganayotgan ob'yekt haqida uning muhim xususiyat va sifatlarini, ob'yektning ma'lum jihatlarini biz tushunchalarda ifodalaymiz va o'rganamiz.

D) Barcha javoblar to'g'ri

66. Ta'lim vositalari nechtaga bo'linadi va qaysilar?

A) Real ta'lim vositalari, texnik vositalar va chop etilgan o'quv materiallari.

B) Nazorat varaqalari, Real ta'lim vositalari, Matnlar

C) Texnik vositalar va chop etilgan o'quv materiallari.

D) Taqdimotlar va o'quv qo'llanmalar.

67. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari nimadan iborat?

A) Tahlil, sintez, taqqoslash.

B) Analogiya, umumlashtirish, tasniflash.

C) Tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

D) Thlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

68.- muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida ta'lim oluvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

A) An'anaviy ta'lim texnologiya

B) Qanday faol metod

C) Noan'anaviy ta'lim texnologiya

D) Nima uchun grafik organayzeri

69. Innovatsiya so'ziga oid ta'rif qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Metodlar xilma-xilligi o'zgarishi

B) Yangilik kiritish

C) Vositalar orqali yondashuv

D) Tarqatma materiallardan foydalanish.

70. Ta'lim vositasi nima?

A) Ma'lum o'qitish usulini muvvafaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari

B) Dars jarayonida tabiiy va sun'iy ko'rgazmali vositalardan foydalanish

C) Tushuntirish, suhbat, ma'ruza, suhbat

D) Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati

71. Metod tushunchasining to'g'ri javobini ko'rsating.

A) Ma'lum o'qitish usulini muvvafaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari.

B) Tushuntirish, suhbat, ma'ruza, suhbat.

C) Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati

D) O'quvchiga yordam berish lozim bo'lgan ilmiy bilimlar majmuasi

72. 8-9 sinf o'quv dasturi mazmuni qaysi javobda to'g'ri berilgan ?

A) Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi kasbga yo'naltirish asoslari

B) Ishlab chiqarish asoslari kasbga yo'naltirish asoslari

C) Kasbga yo'naltirish asoslari

D) Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ishlab chiqarish asoslari, kasbga yo'naltirish asoslari

73. An'anaviy ta'limning asosiy kamchiligini ko'rsating.

A) Ta'limda o'quvchining maqsadlari inobatga olinmaydi

B) Zamonaviy ta'limning talablariga butunlay javob bermaydi

C) Ta'lim faqat darslik va o'quv qo'llanmalarga asoslanadi

D) O'quvchining aqliy, ijodiy, kommutativ bilim olishini etarlicha ta'minlanmayd

74. Ta'lim texnologiyasi turlarini belgilang.

A) Nazariy, amaliy, aralash, mustahkamlash

B) O'zini-o'zi tarbiyalash texnologiyasi

C) Noan'anaviy, an'anaviy, mustahkamlash

D) Aralash, ma'ruza, masofaviy, nazariy

75. Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aks etgan qatorni toping

A) Tafsifiy, ilmiy, amaliy

B) Kontseptual asos, ta'lim jarayonini mazmuni, texnologik jarayon

C) Umumpedagogik, predmetli, lokal

D) Muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan, tabaqalashtirilgan o'qitish

76. Ta'lim jarayonini "Texnologiyalash" qanday ma'noni bildiradi?

A) Ta'lim maqsadlariga erishishda ta'lim jarayonini o'qituvchining shaxsiy mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda universal tarzda loyihalanganini bildiradi;

B) O'quv ishlab chiqarish ta'limi tushuniladi;

C) O'qitishning texnik vositalari yordamida tashkiletishni bildiradi;

D) O'qituvchi o'quvchi bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini ta'lim mazmuniga mos holda tanlashini bildiradi.

77. Modul nima?

A) O'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'quv materialini yirik turkumlarga ajratib o'qitish.

B) O'quv materialining mantiqiy yo'nalishi, mazmuni va mustaqil ish xarakteriga bog'liq

C) Axborotni qabul qilish, yordam, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish

D) Apparatli vositalar yordamida bilimishlar bazasi axborotlar bilan tanishish, axborotni ovoz, video, kinofragmentlar, multiplikatsiya bilan birlashtir imkonini beradi

78. Mehnat ta'limida fanlararo bog'lanish nima uchun kerak?

A) Amaliy bilimlarni xayotda qo'llash uchun .

B) Fanlar bilan Mehnat ta'limining samaradorligini oshiradi .

C) Amaliy bilimni mustahkamlash uchun

D) Fanlararo boshlanishni amalga oshirish nazariy bilimlarni turmush bilan bog'lashdan iborat.

79. Baholashning ob'yektivligi deganda nimani tushunasiz?

A) Baholarni reyting asosida qo'yish .

B) Baholarni haqqoniylik talablari asosida qo'yilishi.

C) Baholarni joriy nazorat asosida kuyilishi.

D) Bahoning yagona talablar asosida qo'yilishi .

80. Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni ko'rsating?

A) O'quvchilar ichida xavfiszlikni ta'minlash.

B) Ta'lim-tarbiya vazifalarini, O'quv materiallarini to'g'ri tanlash

C) Ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, xalollik, kamtarlik, qattiylik, dalillik, mas'uliyatlilik, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ritashkiletish

D) O'quv dastgoxlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish .

81. Mehnat ta'limning qanday baholash mezonlarini bilasiz?

A) Mehnat usullarini to'g'ri baholash

B) Ishlash aniqligi, ish tartibini rejalashtirish

C) Ishlashanganligi, vaqt normasi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mehnat usullarini to'g'ri baholash, ish o'rnini tashkil qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish

D) To'g'ri javob berilmagan

82. Baholashning reyting tizimlari turlarini ko'rsatib bering?

A) Joriy, oraliq, yakuniy

B) Oraliq

C) Joriy yakuniy

D) Joriy

83. Sinfдан tashqari ishlarning formalari.

A) Ommaviy ishlar, to'garak ishlari, yakka tartibdagi mashg'ulot

B) Darsdan tashqari bajariladigan ishlar, ommaviy ishlar, maktabdan tashqari guruh ishlari.

C) Ommaviy ishlar, maktab ishlari, yakka tartibdagi mashg'ulot.

D) Ommaviy ishlar, yakka tartibdagi mashg'ulot, maktab ishlari.

84. Olimpiada o'tkaziladigan fanlar bo'yicha baholash mezonlari qanday bo'ladi?

A) O'qituvchilar tomonidan baholanadi

B) O'quvchilar o'zini o'zi baholaydi

C) Ota-onalar tomonidan baholadi

D) Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va qo'shma buyruq bilan tasdiqlanadi.

85. Mehnatni ilmiy tashkil etish - bu

A) Mehnat munosabatlarini tashkil etish hamda mehnatning ashyoviy unsurlarini tashkil etishga ajratiladi.

B) Mahsulot birligini tayyorlash yoki bitta operatsiyani bajarish uchun belgilangan vaqtdir.

C) Ishchi vaqt birligida tayyorlaydigan mahsulot yoki bajaradigan operatsiyalar miqdori

D) Hamma javoblar to'g'ri

86. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan ilmiy-metodik ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilardan qaysilari kiradi?

A) O'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;

B) Umum ta'lim maktabi pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

C) Ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasb va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

D) Hamma javoblar to'g'ri

87. Quyidagilardan qaysilari jamoaviy metodik ish shakllari sirasiga kiradi?

A) Uslubiy komissiyalar;

B) Ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

C) Hamma javoblar to'g'ri

D) Pedagogik kengash;

88. Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi qaysi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir?

A) Kelajakdagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);

B) Rejalarni ta'lim-tarbiya va metodik ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;

C) Rejalarning ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;

D) Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

89. Texnologiya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

A) Aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish

- B) Ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish,
- C) Ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish,
- D) A,B,C javoblar to'g'ri.

90. Kuzatishga asoslangan tasniflanish ishlari necha ko'rinishga ega?

- A) 5
- B) 4
- C) 2
- D) 3

91. Qaysi metod o'rganilayotgan ob'yekt harakat dinamikasini ochishda, predmetning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi haqida ma'lumot berishda keng qo'llaniladi?

- A) Ko'rgazmali metodlar
- B) Test metodi
- C) Amaliy metod
- D) Namoyish metodi

92. Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda qaysi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir?

- A) Ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi
- B) Namoyish etilayotgan ob'yektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi
- C) Ko'rgazmalarning ob'yektga qaratilishi
- D) A va B javoblar to'g'ri

93. O'quvchilarga konstruksiyalash qoidalari tushuntirilganda ularga qanday talablar amal qilish zarur?

- A) Loyihalashtiriladigan detallar o'tkir burchaklarga, g'adir-budirlarga ega bo'lmasligi; detallarning, o'lchovlari buyumlarga nisbatan proporsional bo'lishi;

B) Detallarning geometrik shakllari ham oddiy bo‘lishi; murakkab to‘zilishlarga ega bo‘lmasligi; loyihalashtirilayotgan buyum oz miqdordagi detallardan tuzilish

D) Har ikkala javob to‘g‘ri

94. Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi qaysi holatlarda ko‘proq bo‘ladi.

A) Hamma ta‘lim oluvchilar qo‘yilgan talabni aniq tushunsa;

B) Baholash shartlari oldindan ma‘lum qilinsa va unga rioya qilinsa;

C) Hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlariga to‘la asoslangan bo‘lsa;

D) Hamma javoblar to‘g‘ri

95. Mehnat ta‘limida mehnat amaliyotini tashkil etishda nimalarni inobatga olish zarur?

A) Pedagogik va metodik, huquqiy mezonlar, mehnat qonunchiligi, sanitariya-gigiyena qoidalari va mehnat xavfsizligi talablari;

B) O‘quvchilarning mehnat faoliyatining bu ko‘rinishlarini tashkil etishda ularning yoshi, shaxsiy, ruhiy, fiziologik, jismoniy va aqliy xususiyatlarini;

C) Milliy, mahalliy, an‘anaviy va noan‘anaviy aqidalar, urf-odatlar, ijtimoiy, iqtisodiy, etniksharoitlar, xususiyatlar hisobga olinishi zarur.

D) Barcha javoblar to‘g‘ri

96. Mehnat ta‘limidan kurs ishini bajarishdan maqsadi nima?

A) Talabada bilim va ko‘nikmani hosil qilish

B) Ball to‘plash

C) Mehnat fanini chuqur o‘rgangani uchun.

D) Fandan nazariy, amaliy mashg‘ulotlarda olgan ko‘nikma va malakalarni chuqurlashtirish, mustahkamlash, tajribada o‘rganish

97. Kurs ishining kirish qismida nima yoritiladi?

A) Kurs ishining kirish qismida savol yoritiladi

B) Hech narsa yoritilmaydi

C) Tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadii va predmeti, metodlari kabilardir

D) Mavzu bayon qilinadi

98. O‘quv rejasi bo‘yicha mehnat amaliyoti - yozgi ta‘tilni qisqartirish evaziga quyidagicha muddatlarda tashkil etiladi:

A) 6-sinflarda 15 kun, 7-8 sinflarda 16 kun

B) 5-6-sinflarda 10 kun, 7-8 sinflarda 16 kun

C) 5-6-sinflarda 10 kun, 7-8 sinflarda 10 kun

D) 5-6-sinflarda 16 kun, 7-8 sinflarda 16 kun

99. Mehnat ta‘limida mehnat amaliyotini tashkil etishda nimalarni inobatga olish zarur?

A) O‘quvchilarning mehnat faoliyatining bu ko‘rinishlarini tashkil etishda ularning yoshi, shaxsiy, ruhiy, fiziologik, jismoniy va aqliy xususiyatlarini;

B) Pedagogik va metodik, huquqiy mezonlar, mehnat qonunchiligi, sanitariya-gigiyena qoidalari va mehnat xavfsizligi talablari;

C) Milliy, mahalliy, an‘anaviy va noan‘anaviy aqidalar, urf-odatlar, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik sharoitlar, xususiyatlar hisobga olinishi zarur.

D) Barcha javoblar to‘g‘ri

100. Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlarga quyidagilarni qaysilari kiradi?

A) Pedagogik amaliyot kundaligi, tarbiyaviy ish reja

B) Tarbiyaviy ish reja, fan dasturi

C) O‘qituvchi ish rejasi, texnologik xarita

D) Talabaning doimiy ish daftari

Test topshiriqlarining javoblari

№	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		A	C	B	D	A	B	D	C	A
1	B	A	D	C	B	D	A	A	B	C
2	D	A	A	B	C	D	A	B	C	A
3	D	B	C	A	D	B	A	C	D	D
4	A	B	C	D	A	B	C	A	A	D
5	B	C	A	A	A	B	D	C	C	D
6	A	D	D	B	B	C	A	D	C	B
7	A	C	D	D	B	B	A	A	C	D
8	C	C	A	B	A	A	B	D	A	A
9	C	B	A	A	A	B	D	C	B	D
10	A									

GLOSSARIY

O‘quv rejasi. O‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fan, ularning bo‘limlari, o‘qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o‘qitilishi, ularning o‘quv yili va haftasida qancha miqdorda o‘tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat.

Ta‘lim mazmuni - belgilangan maqsadga muvofiq yo‘nalish va hajmiga ega bo‘ladi. U tegishli me‘yoriy hujjatlar: ta‘lim standartlari, o‘quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Integrativ ta‘lim - jarayonida o‘quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o‘zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo‘lib kamol topadi.

Mehnatga axloqiy tayyorlash - bolalarga jamoada ishlashni, do‘stona o‘zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish va mehnatda hatti-harakat normalarini o‘rgatishdan iborat.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - murakkab, uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u butun mehnat ta‘limi va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Ilmiylik va tizimlilik tamoyili - o‘quvchilarga o‘rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma‘lumotlar berilishini talab etadi.

Nazariya bilan amaliyot birligi. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo‘lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog‘langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o‘zlashtirish va amalda qo‘llash lozim.

Ta‘lim va tarbiya birligi - birinchi-maktabda o‘quvchi yolg‘iz bilim, ko‘nikma va malakalarini egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi.

Ko‘rsatmalilik tamoyili - O‘qitishning ko‘rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok

qilish bilan bog‘liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo‘lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkun.

Izchillik tamoyili - elementar didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma’lumdan n’malumga.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Ko‘nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. O‘quvchilarni tarbiyalash va ularni bo‘lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi.

O‘qitish - ta’lim maqsadini amalga oshiruvchi o‘qituvchini o‘rgatuvchilik faoliyatidir.

O‘qish - o‘quvchini o‘rganuvchilik faoliyatidir.

Ma’lumot - ta’lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilim, malaka, ko‘nikmalar tizimidir.

Ta’lim prinsipi - ta’lim jarayonida amal qilinishi zarur bo‘lgan talab va qoidalar yig‘indisi.

Ta’lim mazmuni - o‘qituvchi tomonidan berilishi, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar tizimi va axloqiy g‘oyalar to‘plamidir.

Ta’lim metodi - ta’lim maqsadiga yerishish yo‘li va usuli.

Ta’lim shakli - o‘quvchilar miqdori bilan, joy va vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limni tashqi ko‘rinishidir.

Ixtisoslik - insonning mehnat taqsimoti natajasida kasb ichida alohidalangan doimiy ishlab chiqarish faoliyati (asbobsoz chilangar, yig‘uvchi chilangar ,universal chilangar).

Texnologik jarayon - ishlab chiqarish mahsuli xolatini o'zgartirish (shtampovka quyish, kesish, yig'ish va x.k) bilan bevosita bog'liq ishlab chiqarish jarayonining bir qismi tushuniladi.

Texnologik operatsiya- bir yoki bir necha tomonidan bir ish o'rnida bajariladigan texnologik jarayonning tugal qismini bildiradi. (masalan: qirqish, charxlash, arralash).

Mehnat jarayoniga - mehnat operatsiyasi mehnat uslubi (priyomi), mehnat harakatlari kiradi.

Mehnat operatsiyasi - mehnat jarayonining bir qismi bo'lib, bu ishchining muayyan texnologik operatsiyalarni bajarishga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyati yig'indisidan iborat.

Didaktika - ta'lim jarayonini qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi pedagogikaning sohasi.

Didaktika atamasi grek tilidan olingan bo'lib, "didaktikos", "didasko", "o'rgatuvchi", "o'rganuvchi" ma'nolarni anglatadi.

Ta'lim tizimi - amaliy ko'nikma va mehnat malakalarini to'g'ri tarkib topishini, kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlaydigan o'quv materialining maqsadga muvofiq tuzilmasiga, uni tashkil etish.

Operatsiya tizimi - o'qitishda o'quvchilar o'zlari egallaydigan kasbning mazmunini tashkil qiluvchi mehnat operatsiyalarini o'rganish.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish - o'qituvchining maqtashi, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish, devoriy matbuotda o'quvchilarning yutuqlarini ommalashtirish.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi.

Ekskursiyalar - o'quvchilarning bilishga qiziqishni avj oldirishda, ular ongiga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rinni egallaydi.

Ko'rsatmali qo'llanmalar - o'quvchilarni o'rganiladigan ob'yektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida yaqqol (asosan ko'rish) tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar.

Mulyaj (maket)lar moddiy ob'yektlarga aynan o'xshatish yaratilgan qo'llanmalardir.

Kompozitsion - rasm va fotosuratlar;

Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar).

Belgili - ramziy formula, formula, harf va so'zlar so'zlar bilan ifodalanuvchi. So'nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo'llanilmoqda, ya'ni, stendlar, xavfsizlikka oid texnikalar.

Plakatlardir.- o'qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko'p qo'llanilayotgan vositalardandir.

Ekran va ekran - tovushlik o'qitish vositalari.

Real yordamchi vositalar: mashinalar, traktorlar, jihozlar, dastgohlar, tayyor mahsulotlar va hokazolar kiradi.

Texnik vositalariga, proyektor, kino apparat, o'quv televideniyesi, videomagnitafon, kompyuter, videofilmlar, multimedia va hokazolar kiradi.

Chop etilgan o'quv materiallarga chop etilgan o'tkazilgan barcha o'quv va ko'rgazmali materiallar kiradi.

Metod – (grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar¹.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Organayzer inglizcha "tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi" ma'nosini bildiradi.

Grafik organayzerlar - o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui.

Insert - o'zlashtirishning majmualiy vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

Innovatsiya - (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro) - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir¹.

Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalaridir.

Modul - bu fanning fundamental tushunchasini takdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo'limi, muayyan katta mavzusi, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhidir.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir.

Muammoli vaziyat - bu bilim olish maqsadida maxsus yaratilgan aqliy faoliyat holatidir.

Muammo - o'zida undagi hal qilishi uchun mavjud bo'lgan vositalar (bilish, uddalsh, izlanish faoliyatining tajribasi) asosida qabul qilingan muammoli vaziyatni ifodalaydi.

Darsni rejalashtirish - kutilayotgan o'quv natijalariga erishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlash.

Yo'llanma - mehnat faoliyati usullarini tushuntirish va ko'rsatish hamda mehnat faoliyatlarini to'g'ri va xavfsiz bajarish bo'yicha tasavvur hosil qilishga va o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga qaratiladi.

Kompetensiya - nafaqat olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi, balki olingan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasidir.

Dars rejasi - darsni pedagogik, didaktik va uslubiy jihatdan rejalashtiruvchi, loyihalashtiruvchi hujjat.

Reyting (inglizcha baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Mehnatni ilmiy tashkil etish - nazariya va amaliyotga asoslangan holda korxonada ish jarayoni unsurlarini uyushtirish tartibi va tamoyillari.

O'quv materiallari - ular o'qituvchilar tomonidan darsni ko'rgazmali tarzda o'tkazish va bilim berish uchun qo'llaniladi.

Didaktik materiallari - ular talabalar tomonidan o'rganish uchun qo'llaniladi va o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi.

Test - shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatlari, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini, bilim darajasini, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart mashqlar.

Ko'rgazmali o'qitish - bu o'quvchilarning tegishli kuzatishlariga taynlanadigan o'qitishdir,

Prezentatsiya (taqdimot) - yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi.

Prezentatsiya strukturasi (tuzilishi) - faqatgina slayd sarlavhasini, shuningdek, grafik tasvirsiz asosiy matnni va maxsus shakllantirishni ichiga olgan hujjat.

Sinfdan tashqari ishlar - shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir.

Mehnat tarbiyasi - shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir.

Ijtimoiy foydali mehnat yosh avlodni jamiyat hayotini tashkil etish jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Mehnatga axloqiy tayyorlash - eng avvalo, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi.

“Estetik tarbiya - o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini bilishga doir».

“Estetik ta'lim-tarbiya - insonda zavq uyg'otuvchi va uni harakat, shijoat va qahramonliklarga undovchi barcha turdagi ko'rinishlar, holatlar, hodisalar va badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish”.

“Estetik rivojlantirish - bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir.

Nazariy metod - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi.

Kasbiy-pedagogik kompetentning rivojlanishi - bu ijodiy rivojlanish, pedagog atrofda o'zgarishlarga tez moslasha olish va boshqarish, tez kirishish qobiliyati.

Ilg'or tajriba - pedagogika ilmida ilgari surilgan yangi g'oyani ijodiy qayta ishlash va aniq vaziyatlarga tadbiq qilishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy tajriba - o'qituvchining mavjud bo'lganlaridan jiddiy farq qiluvchi, mavjud ilmiy-pedagogik qarashlardan tashqariga chiquvchi, yanada mukammalroq yangi g'oyaning amaliy aks ettirilishidir.

Ilmiy pedagogik kengash - o'quv muassasasining doimiy faoliyat yuritadigan jamoa organi bo'lib, o'quv-tariyaviy jarayonlari va uslubiy ishlarni takomillashtirishning muhim masalalarini muhokama etadigan va qaror qabul qiluvchi kengashdir.

Ilmiy-amaliy konferenstiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini, uslubiy ishlarni tashkil etishda ko'pgina yangi masalalar paydo bo'ladiki, ularni o'rganish, bir tizimga keltirish va umumlashtirish talab etiladi.

Ilg'or tajriba maktablari - ilg'or pedagogik tajribalarni va ishlab chiqarish tajribalarni joriy qilish hamda kasb-hunar kollej pedagog xodimlarining pedagogik mahoratini oshirishning eng muhim shaklidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta’lim to‘g‘risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998. - 106 b.
2. Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: «Шарқ», 1998. – Б. 31-61.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2016. 61- бет
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. - 104 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси-ни янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. - Т., 2017. –Б.39.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘ta va o‘rta maxsus, kasb-hunar talimining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2017 yil 17 oktyabrdagi 330-sonli “Davlat ta’lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi darajasini va ularning bilimlari sifatini nazorat qilish bo‘yicha baholovchi mezonlarini tajribasinovdan o‘tkazish to‘g‘risida” bo‘yruq‘i va uning asosidagi reyting tizimi Muvaqqat Nizomi.

5. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Таълим тараққиёти. ЎзРХТВ ахборотномаси, 4-махсус сон, меҳнат таълими, – Тошкент: Шарқ нашриёти, 1999.
6. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma - T.: «Noshir», 2009.-368 b.
7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU,- 174 bet.
8. Avliyaqulov N.X., Musaev N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / a-Toshkent: Cho Mpon NMIU, 2012.208 b.
9. Anfimova N.A., Zaxarova T.I., Totorskaya L.A “Pazandachilik” Toshkent “O‘qituvchi” 1993, 246 b.
10. Abduqodirov G‘.M.. Kasb ta’limi praktikumi. -T.: - Sharq 2012.
11. Abduqodirov A.A., Xayitov A.G., Shodiyev R.R. Axborot texnologiyalari Toshkent-2002 yil.
12. Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. Toshkent. 2014 - y. 366 b.
13. Ahmadaliev S. Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy metodik asoslari. Ped. fan. nomz. diss. -T., 2008.
14. Andrianov P.N. Maktab o‘quvchilari texnik ijodkorligini rivojlantirish. //O‘quvchilarning texnik ijodkorligi. Tuzuvchi Andrianov P.N. - T.: “O‘qituvchi”, 1989.128 b.
15. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1993
16. Беляева А.П. Дидактические принципы профессиональной подготовки и проф.тех.учащихся. - М.: Высшая школа, 1991.
17. Bo‘ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta’lim. 2004. №3, 23-28 b.
18. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O‘qituvchi, 1992. - 320 b.

19. Дьяченко В.К. Новая Дидактика - М.: 2001.
20. Djumanov SH., Sayfiddinov S. Yog‘ochga ishlov berish dastgohlari va asboblari: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus kasb-hunar talimi markazi. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2016. - 92 b.
21. Davlatov K.D. “Mehnat va kasb ta‘limi kasb tanlash, mehnat tarbiyasi nazariyasi va uslubiyoti” Toshkent 1994 yil.
22. Dushaboev X.A. Mehnat ta‘limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligining shakllanish tuzilmasil. Zamonaviy fizika va Astronomiya yutuqlari: muammo va yechimlari. - T.:TDPU - 2011. - 205 b.
23. Imomnazarov M.S “Milliy ma‘naviyatimizning takomil bosqichlari” Toshkent: “Sharq” 1996.- 242 b.
24. Jo‘raev A. Tarbiyaviy darslarni o‘tish. - T., “O‘qituvchi”, 1994.
25. Kasb ta‘limi uslubiyoti / Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L., Ahmedjonov M., Jalolova D. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
26. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish yo‘llari. Uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: TDPU, 2006. – 96 b.
27. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari. - T.: “Fan texnologiya nashriyoti” 2013.
28. Mehnat ta‘limi metodikasi / Magdiev O., Boltaboev S.A., O. Avazboev., Sattorov V.N. - Toshkent., TDPU, 2000. – 92 b.
29. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. - T.: “ Fan va texnologiya”, 2018, 528 bet.
30. Mirboboev V.A. “Konstruksion materiallar texnologiyasi”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2004 y.
31. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Vohidova N. “Pedagogika nazariyasi va tarixi.” Darslik. -T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
32. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари / - Тошкент: 2015. - 208 бет.

33. Muslimov N. A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash: darslik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. - 456 b.
34. Muslimov N va b. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2009. - 427 b.
35. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta‘limni tashkil etish. (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2006. 52 b.
36. Madrahimov A.R., Rahmonqulova S.I. Internet va undan foydalanish asoslari Toshkent - 2001.
37. Magdiyev O., Boltaboev S.A., Avazboev O., Sattorov V.N. - Mehnat ta‘limi metodikasi / Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b.
38. Mavlonova R.A., Sanoqulov X.R., Xodiyva D.P. “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. 2007yil TDPU.
39. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta‘limi metodikasi. - T.: O‘qituvchi. 1986. - 248 b.
40. Mahkamov S. O‘quv ustaxonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar. - T.: O‘qituvchi, 1991. - 60 b.
41. Muranov B.I. Ishlabch chiqarish praktikasi sharoitida qishloq o‘quvchilarining unumli mehnatini tashkil etish. Samarqand. Sam SXI. 1989. - 77 b.
42. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. - T.: Fan. 2004. - 124 b.
43. Magdiyev O., Boltaboev S.A., Avazboev O., Sattorov V.N. Mehnat ta‘limi metodikasi / - Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b.
44. Olimov K.T., Abduquddusov O.A., Uzokova L.P., Axmedjonov M.M., Jalolova D.F. Kasb ta‘limi uslubiyoti. Toshkent, 2006.
45. Ochilov T.A va boshqalar “Gazlamashunoslik” Yengil sanoat kollejlari o‘quvchilari uchun darslik - Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 2003 y.

46. Ochilov Z. Sinfdan tashqari ishlarda kasbga yo‘llashni shakllantirish: -T.: “O‘qituvchi”, 1996. - 120 b.
47. Otaboyeva X va boshqalar. O‘simlikshunoslik. Toshkent: “Mehnat”. 2000y.
48. Проворова О.Г. Принципы модульного обучения. Красноярск-2006-32 с.
49. Qo‘ysinov O.A., Mullaxmetov R.G., Sattarov V.N. Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash. Metodik tavsiyanoma. - Toshkent: TDPU, 2011.
50. Ramizov “O‘quv ustaxonalarida slesorlik va duradgorlik ishlari” Toshkent O‘qituvchi 1987yil.
51. Тхоржевский Д.А. Мехнат таълими методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - 320 б.
52. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.: Фан, 2005. - 206 б.
53. Tolipov O‘.Q., Barakayev M., SHaripov SH.S. Kasbiy pedagogika. - Toshkent.: 2003. - 88 b.
54. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. Т.: ”Фан” 2006 йил 76 бет.
55. To‘raqulov X.A., Zoyirov K.A. Talabalarning konstruktorlik texnologik bilim va malakalarini shakllantirishda kompter texnikasidan foydalanish. - T., 1993. 36 b.
56. Tolipov O‘.Q. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida davlat ta’lim standartini amaliyotga joriy etish. - T.: O‘zPFITI, 2000. - 44 b.
57. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Mehnat ta’limi, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiy. (1-9sinflar), “Toshkent - 2010”.
58. Yunusova Sh. Interfaol usullardan foydalanish. Boshlang‘ich ta’lim. 2004. 5-son. -15-20 b.
59. Yo‘ldoshev J. O‘quvchi ma‘naviyajini shakllantirish. - T.,”Sharq”, 2000.
60. Yormatova D. O‘simlikshunoslik. Toshkent: “DITAF”. 2000 y.
61. Yo‘ldoshev O‘. Didaktik printsiplar tizimida tarixiylik - T.: Fan 2005. -70 b.

62. “O‘zbekiston xalqlarining milliy taomlari va kulinariya maxsulotlarini tayyorlash usullari to‘plami” Toshkent “Mehnat” 1988, 174 b.
63. SHaripov SH.S., A.I.Vorobyov., N.A.Muslimov., M.Ismoilova Ismoilova Kasbiy ta’lim pedagogikasi pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
64. Sharipov Sh., Qo‘ysinov O., Abdullayeva Q. Texnologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik/ Mualliflar - T.: “Sharq”, 2017. - 240 b.
65. Sharipov Sh va boshq. Mehnat ta’limi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. - T.: “Sharq”, 2015. - 240 b.
66. Sharipov SH va b. Pedagogik amaliyot. Metodik qo‘llanma. - Toshkent: TDPU, 2006.
67. Sharipov SH.S., Abralova M. Maktablar o‘quv va o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalari uchun xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo‘riqnoma. Toshkent, Respublika ta’lim markazi. 2002. - 148 b.
68. Sharipov SH va b. Pedagogik amaliyot. Metodik qo‘llanma. - Toshkent: TDPU, 2006.
69. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. T.: ”O‘qituvchi” 1993

MUNDARIJA

KIRISH	4
I.BOB. Texnologiya ta'limi metodikasi fanining metodologik asoslari	6
1.1. Texnologiya ta'limi metodikasi fani va uning vazifalari.....	6
1.2. Maktab o'quv rejasida texnologiya faninig qo'yilishi va uning tarixiy taraqqiyoti.....	17
1.3. Texnologiya faninig amaliy fanlar blok modulidagi fanlar va o'rta maxsus, oliy ta'lim bilan integratsiyalash.....	32
1.4.1-9 sinflarda texnologiya fani mazmuni va 10-11 sinflarda kasbiy tayyorgarlik.....	44
1.5. Texnologiya fanidan ilmiy nazariy tadqiqotlar.....	54
II.BOB. Texnologiya fanini o'qitishning didaktik asoslari	57
2.1. Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari.....	57
2.2. Mehnat jarayonining tahlili va didaktik tushunchalar.....	64
2.3. Mehnat ta'limini tashkil etishning didaktik tizimlari.....	71
2.4. Texnologiya fanida o'qitish shakllari.....	78
2.5. Texnologiya fani o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi.....	84
2.6. Texnologiya fanida o'qitish metodlari.....	90
2.7. Texnologiya fanida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....	98
2.8. Texnologiya darslarida amaliy darslarni tashkil qilish va o'tkazish.....	112
III.BOB. Texnologiya o'quv predmetining mazmuni	119
3.1. Texnologiya o'quv predmeti maqsadi va vazifalari.....	119
3.2. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.....	124
3.3. "Servis xizmati" yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.....	131
IV.BOB. Texnologiya fani darslarini rejalashtirish	151
4.1. Texnologiya faniga oid rejalashtiruvchi hujjatlar.....	151
4.2. Texnologiya fani o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi.....	163
4.3. Texnologiya darslarida baholash mezonlari.....	175
V.BOB. Texnologiya fanini bo'limlar bo'yicha darslarni tashkil etish va o'qitish metodikasi	187
5.1. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo'limini o'qitish metodikasi.....	187

5.2.Yo‘nalishlar bo‘yicha materialshunoslik bo‘limini o‘qitish metodikasi.....	192
5.3.O‘quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash.....	199
5.4.Texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash.....	211
5.5.Texnologiya ta’limi praktikumi jarayonida o‘qituvchi va o‘quvch faoliyati.....	226
5.6.Texnologiya ta’limi praktikumi o‘quv bilish mihitiga ergonomic talablar.....	238
5.7.Texnologiya ta’limi praktikumi jarayonida ergonomic yondashuvni amalga oshirish... ..	257
VI.BOB.Texnologiya darslarida innovatsion ta’lim.....	263
6.1.Texnologiya faniga oid metodik ishlar.....	263
6.2.Sindan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish.....	270
6.3.Texnologiya fani dars jarayonida tarbiya.....	289
6.4.Texnologiya fanida ilmiy tadqiqot metodlari.....	312
6.5.Texnologiya fanida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi.....	322
6.6.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida to‘garaklarni rejalashtirish va tashkillashtirish.....	328
6.7.Texnologiya fanida yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	335
6.8.Texnologiya fanida ta’til kunlarida mehnat amaliyotini tashkil etish.....	343
6.9.Texnologiya fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar.....	351
6.10.Texnologiya fanida metod birlashmalar faoliyatini tashkil qilish.....	361
6.11.Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo‘yiladigan talablar.....	375
6.12.Pedagogik amaliyotga qo‘yiladigan metodik talablar.....	385
Test savollari.....	395
Glossariy.....	419
Adabiyotlar.....	427

Oquv nashri

S.X.Abdullayev, X.M.Akramov, I.T.Uluhanov, A.M.Matkarimov

TEXNOLOGIYA TA'LIMI METODIKASI

Darslik

Muharrir: Alisher JO'RAYEV

Dizayner: Nikita TIXONOV

Musahhah: Salima AHMADJANOVA

Terishga berildi: 25.08.2022-yilda.

Bosishga ruxsat etildi: 14.09.2022-yilda.

Bichimi: 60x90 ¹/₁₆. Hajmi: 28 bosma taboq.

Garnitura Times New Roman.

Adadi: 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.



“USMON NOSIR MEDIA” NASHRIYOTI

Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 36.

Nashriyot tasdiqnoma raqami: 1743.

2020-yil 30-sentabrda berilgan.

Telefonlar: +99899-002-94-39, +99893-050-28-72.

ISBN 978-9943-8705-0-5



“Namangan Poligraf Press” MCHJ

Manzil: Namangan shahar, A.Navoiy ko'chasi, 36-uy.